TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TARIQ BUG'RA

52

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TARIQ BUG'RA

52

1619315
TDYU A3C6IY
ARXIV (KUTUBXONA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.161-3
KBK 84(5Turk)
T 24

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Boboxon Muhammad Sharif, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Adhambek Alimbekov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8724-9-3
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

TARIQ BUG'RA VA TURK ROMANCHILIGI

XIX asrning so'nggi choragidan hozirgi davrgacha bo'lgan turk adabiyotida tarixiy romanchilikning o'ziga xos o'rni va salmog'i bor. Chunki tarix hamisha o'rnak olishga, o'rganishga asos bo'lgan. Ijodkorlar xalqning o'tmishiga doimo qiziqib, ulkan ahamiyat berib kelganlar. Har bir ma'rifatli inson o'z tarixini, umuman jahon tarixini yaxshi bilishi, bugungi kunda kelajak sari dadil qadam tashlashda tayanch bo'lishni anglab yetganlar. Yozuvchilarning tarixiy voqelikka murojaat qilish, ulkan tarixiy shaxslar haqida puxta badiiy asarlar yaratish, millat ma'naviyatini yuksaltirishdagi asosiy omillardandir. Shuning uchun ham ma'rifatchilik ruhi ustuvor bo'lgan turk tanzimotchi yozuvchilari tarixga ayniqsa e'tibor qaratib, asarlarida tarixiy voqealardan unumli foydalanganlar. Birinchi turk tarixiy romani, Tanzimot davrining (1860–1895) mashhur adibi Nomiq Kamol (1840–1888) qalamiga mansub "Jazmiy" romanidir (1880). Romanda XVI asrdagi Eron-turk urushi voqealari qalamga olingan bo'lib, oddiy askar Jazmining jasorati bosh planda tasvirlangandi. Nomiq Kamol asos solgan turk tarixiy romanchilik maktabi keyinchalik jadal rivojlandi. Xolida Adib Adivarning (1884–1964) "Pashshali baqqol" (1936), Sadri Ertemning (1998–1993) "Chig'riqlar to'xtaganda" (1932), Ilhan Tarusning (1907–1967) "Bor bo'lmoq" (1957), Kamol Tohirning (1910–1973) "Davlat ona" (1967) kabi romanlari turk tarixiy romanchiligida katta voqea bo'ldi. Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Samim Ko'jago'z (1916–1990), Tariq Bug'ra (1918–1994) Yavuz Bahodir o'g'li (1945) kabi yozuvchilarning tarixiy mavzudagi romanlari, turk tarixiy romanchiligini bir pog'ona yuqori ko'tardilar. Ilhan Tarusning "Bor bo'lmoq", Tariq Bug'raning "Kichik og'a" (1964) "Kichik og'a Anqarada" (1966), Kamol Tohirning "Davlat ona" romanlari yuzasidan bo'lgan adabiy

munozaralar turk tarixiy romanchiligining rivojlanish jarayoni haqidagi tasavvurlarni yanada to'ldirdi, oydinlashtirdi. Tahir Alangu, Adnan Binyazar, Rauf Mutluay, Sami Ozerdim, Ayjekim Yakar kabi turk adabiyotshunoslarning tarixiy romanchilikka oid ilmiy ishlarida turk tarixiy romanchiligining o'ziga xos tomonlari yaxshi ochib berilgan. Turk tarixiy romanchiligini mavzu va davriy voqealarga munosabati jihatdan ikki yo'nalishga ajratish mumkin:

1. Tarixiy biografik asarlardir. Bunda asosan yirik tarixiy shaxslar hayoti va ijtimoiy faoliyati haqida so'z yuritilib, ularning Davlat va xalq oldidagi xizmatlarini ko'rsatishga bag'ishlangan.

2. Ijtimoiy-tarixiy mavzudagi asarlar bo'lib, xalq qo'zg'olonlari, 1918-1923 yillardagi milliy-ozodlik kurashlarini aks ettirgan asarlar. Shokir Ziyoning (1915) "Fotih Sulton Mehmet" (1959), Farudu Tulbechinning (1915) "Usmon o'g'illari" (1950) "Qonuniy Sulton Sulaymon" (1956) Tariq Bug'raning "Usmon G'oziy" (1983) asarlari birinchi guruhga mansub bo'lsa, Samim Ko'jago'zning (1916-1993) "Qalpoqlilar" (1962), Erol Toyning (1936) "Tuproq ochiqqanda" (1968) Tolib Opoydinning (1926) "Chang tuman ichinda" (1974) romanlari ikkinchi yo'nalishga mansub asarlardandir.

Turk tarixiy romanchiligining boyitishga katta hissa qo'shgan, tarixiy romanlari bilan shuhrat qozongan yozuvchilardan biri — Tariq Bug'ra 1918-yili Oqshaharda tug'ilgan. Bo'lajak yozuvchi boshlang'ich ta'lim olgach, Konya litseyini (1936) tugatadi. Istanbul universitetining huquq so'ngra adabiyot fakultetida o'qishni davom ettiradi. Ammo universitetni tugatmay harbiy xizmatga ketadi. Xizmatdan qaytgach 1947–1948-yillari Oqshahardagi "Nasriddin Xo'ja" gazetasida faoliyat ko'rsatadi. Adabiy jarayonda faol ishtirok etish maqsadida Istanbulga kelib, "Milliyat", "Yangi Istanbul", " Haftalik yo'l", "Tarjumon" gazetalari bilan hamkorlik qiladi. Xatlar bo'limi mudiri lavozimida ishlaydi. Gazetachilik faoliyatida qalami charxlangan Tariq Bug'ra 1940-yil, 22 yoshida ilk romani "Yolg'izlar"ni yozib tugatadi. Lekin, bu asar tajribasizlik tufaylimi hali maromiga yetmagani uchun muallifga shuhrat keltirmaydi. Yozuvchi adabiyot olamiga

hikoyalari bilan kirib keldi. Uning ilk hikoyalari "Chinoralti" ("Chinor osti") jurnalida chop etilib, elga tanildi. " O'g'limiz" hikoyasi 1948-yili "Jumhuriyat" gazetasining mukofotiga sazovor bo'ldi. T.Bug'raning hikoyalari " O'g'limiz" (1949), "Ertaga degan bir narsa yo'q" (1952), "Ikki uyqu orasida" (1954), "Hikoyalar" (1964), " Hikoyalar" (1969) to'plamlarida jamlangandir. T.Bug'ra hikoyalaridagi voqealarning qiziqarli tasviri, hayot tarzining mayda, kichik nuqtalarigacha e'tibor berish, o'ziga xos mayin shoirona uslub yozuvchini boshqa hikoyanavislardan ajratib turadi. Ayniqsa, qahramonlarining ichki dunyosini ochib berishga diqqatni qaratishi, ruhiy tahlil ustivorligi xarakterli. 50-yillar turk hikoyachiligida o'ziga xos o'rin egallagan Said Foiq, Mahmud Shafqat Esandallarning ta'siri ham sezilarli bo'lib, ekzistensializm oqimining ko'rinishlarida begona emas. Umuman, T.Bug'ra hikoyalari o'tgan asrning 50-yillarida ijod qilgan zamondoshlaridan uslubiy va hayot hodisalarida o'zgacha yondashishi bilan ajralib turadi.

Yozuvchi 1955-yil "Siyoh Qahrabo" romanini e'lon qildi. Roman yozuvchi muhlislarini orttirmadi, tilga tushmadi. Shuning uchunmi T.Bug'ra bir necha yil roman janriga qo'l urmadi. 1956-yil Mojaristondagi siyosiy voqealarga bag'ishlangan. "Peshte 56" pyesasini yozadi. Yozuvchi keyinchalik bu janrda ham barakali ijod qildi. T.Bug'raning romannavis yozuvchi sifatida mashhur qilgan, "Kichik og'a" (1963) romanidir. Asarning ikkinchi kitobi "Kichik og'a Anqarada" (1966), uchinchi jildi "Fir'avnning imoni" (1976) kitoblaridir. Milliy mujodala yillari voqealari qalamga olingan bu asarlarda xalq harakati, 20-yillardagi Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol yorqin bo'yoqlarda, realistik tasvirlangan. Asar bosh qahramoni Solih, birinchi jahon urushidan bir qo'lidan ajralib qaytadi. Oqshaharda yaqinlaridan oqibat ko'rmagach tushkunlikka tushadi, hayoti izidan chiqadi. U rumlik Niko bilan do'stlashadi. Biroq kunlardan bir kun mayxonada, sarxushlik oqibatida Nikoning siri fosh bo'ladi. Niko maslakdoshlari bilan Turkiyada davlat to'ntarishi qilishga harakat qilayotganlari ma'lum bo'ladi. Bu sotqinlikdan ko'zi ochilgan Solihda vatanparvarlik tuyg'usi

uyg‘onib, Turkiyani chet el bosqinchilaridan ozod qilish uchun kurashayotgan Quvvayi Milliyatchilariga kelib qo‘shiladi. O‘zini tutib olgan Solih keyinchalik Vatan sharafi uchun faol kurashchiga aylanadi.

Tariq Bug‘raning ushbu romani muallif ssenariyasi asosida Yujel Chamakli tomonidan telepyesa qilinadi va bu yozuvchi nomini yanada ommaviylashishiga sabab bo‘ladi. Shundan so‘ng T.Bug‘raning ko‘pgina asarlari oynayi jahonda ekranlashtirilgan.

1960-yillardan so‘ng Tariq Bug‘ra asosan roman janrida qalam tebratadi. “Qayrilishda” (1978), “Evoh, yoshligim” (1978), “Yomg‘irni kutib” (1981), “Yolg‘izlar” (1981), “Usmon G‘oziy” (1983), “Dunyoning eng iflos ko‘chasi” (1989) romanlari yozuvchining shuhratiga shuhrat qo‘shdi. “Uch o‘yin” (1981), “Quyosh va arslon” (1988) “Noldan to‘g‘riga” (1999) dramalari, “Gagaringrad” (Moskva xatlari, 1962) “Bu joyning nomi” (1990) nomli sayohatnomalari Tariq Bug‘ra ijodining turfa xilligidan dalolatdir. Uning “O‘lik nuqta” (1958), “Abaza poshoning” (1959) va yana to‘rtta romani gazeta, jurnallarda chop etilgan, lekin alohida kitob holida e’lon qilinmagankim, balkim muallifni o‘zi istamagandir.

Yozuvchi ijodida tarixiy mavzuda yozilgan “Usmon G‘oziy” (1983) romani alohida o‘rin tutadi. Tariq Bug‘ra o‘ziga xos shoirona uslubda voqealarni hikoya qilishi, xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanishi, Vatan tarixini yaxshi bilishi bu asarida yaqqol namoyon bo‘lgan. Usmonlilar sulolasi va davlatiga asos solgan Erto‘g‘rul o‘g‘li Usmon hayotiga bag‘ishlangan bu romanda XII asrdagi Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit, xalqning turmush tarzi mohirona tasvirlangan. Usmon G‘oziyning turkiy qavmlarni birlashtirishdagi faol harakati, o‘sha davrdagi siyosiy munosabatlar badiiy jihatdan aniq chiziladi. Vizantiya imperiyasiga qarshi kurash, bu yo‘lda xalqni birlashtirish oson ish emasdi. Roman bosh qahramoni Usmon timsolida yozuvchi buni ishonarli ifodalay olgan. T.Bug‘ra tarixiy mavzuda qalam tebratarkan, mas’uliyatni his qilib, o‘sha zamon ruhiga kirib asar yozgani har bir sahifada sezilib turadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki millat tarixida

muhim rol o‘ynagan shaxs hayotini, umuman tarixni badiiy aks ettirmoqchi bo‘lgan yozuvchi oldida ikki muhim vazifa turadi. Birinchisi o‘sha davr muhitini tarixiy sharoitga mos, ishonarli qilib realistik tasvirlash bo‘lsa, ikkinchisi tarixiy shaxs timsolini to‘laqonli berishdir. Chunki tarixiy shaxs va muhit tushunchasi o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Yozuvchi badiiy to‘qima obrazlardan foydalanadimi, yoki tasavvuridan kelib chiqib voqealarni yoritadimi, bu tarixiy shaxs obrazini, siymosini borlig‘icha, bir inson sifatida ochishiga xizmat qilishi lozim. Muallif tarixiy davrni puxta o‘rganish, o‘tmish zamon ruhiga kira olishi darkor. Buning uchun, yozuvchi tarixiy faktlargagina suyanib qolmasdan, faktlarni badiiy, o‘z adabiy qahramonlariga qalb qo‘ri, insoniy ruh bergan holda ifodalanishi zarurligini, bo‘lmasa to‘laqonli badiiy asar yaratilmaydi.

“Usmon G‘oziy” romanida muallif shu hislatlarni his qilib yozgani sezilib turadi. Asar Usmon G‘oziyning o‘lim to‘shagida yotgan holati tasvirlari ila boshlangan. Uning birdan bir umidi hayotdan ilinji Bursa shahri zabt etilganligi haqidagi xushhabarni eshitish. Shundagina u bu dunyodan rozi ketadi. Azroilni “Xush kelding, quvonch keltirding” deya kutib oladi. Asar bosh qahramonining so‘nggi kunlaridan, boshqacharoq qilib aytganda bo‘lib o‘tgan voqealarning xotimasidan boshlash adabiyotda o‘ziga hos bir uslubdir. Kitobxon o‘z qiziqishini orttirish va Usmon G‘oziy hayotining butun mohiyatini izohlash eng oliy maqsadiga urg‘u berish uchun ham yozuvchi shu uslubni qo‘llaydi. Xususan Usmonning Bursaga shunchalik ko‘z tikkani o‘quvchini o‘ylantiradi. Ayni paytda Usmon G‘oziyning butun ijtimoiy faoliyati shiddatli hayotining mazmun mag‘zini anglashga yordam beradi.

Romanda Usmonning bolalik yillaridan boshlab, Qayi qavmini birlashtirishi, bir necha bekliklarining boshini qovushtirib, kelajakda buyuk bir davlat poydevorini qo‘yishgacha bo‘lgan davr voqealari qalamga olgan. Yozuvchi Usmonni bolaligida yeru ko‘kga sig‘maydigan, o‘zini qo‘yishga joy topolmaydigan g‘ayratliligini tasvirlar ekan, kelajakda Usmonning ulug‘ inson bo‘lishiga o‘quv-

chini ilk sahifalardanoq ishontirib boradi. Chorvodor elning bahorda yozgi yaylovlarga ko'chishi, So'g'uddan Domonichka ko'chayotgan qavmlarga Usmonning bosh-qosh bo'lishi tasvirlarida yozuvchi qahramoni sajiyasidagi tashkilotchilik, kuyinchaklik xislatlarini ochib beradi.

"Usmon G'oziy" romani yaxshi turk romanlaridan biri sifatida dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan.

Adhambek Alimbekov,
professor

USMON G‘OZIXON

Tarixiy roman

QUYOSH CHIQISH UCHUN BOTADI

O‘lim kelayapti uni so‘roqlab. Azroilning oyoq tovushlari quloqlariga chalinayapti. Buni bilib turibdi, ko‘pdan beri bilib turibdi. Lekin hali tayyor emas u. Ichida nimadir borga o‘xshaydi, allanarsa tomog‘iga kelib qadalaveradi. Ancha vaqtdan beri Tangridan yana bir oz muddat berishni so‘rayveradi, so‘rayveradi.

So‘nggi safarning, yakka-yolg‘iz chiqiladigan olis yo‘lning, bu foniy dunyodan ayrilishning yaqinlashganini ilk bahordayoq, bodomlar gulga burkangan kunlardayoq sezgandi:

— Bolam, o‘lsam agar, meni Bursaga, o‘sha Kumush Minoraning tagiga ko‘mgil...

O‘sha kundan bugungi kungacha Tangridan muhlat so‘raydi: Bursaga ko‘milish uchun! Tangridan muhlat so‘raydi: ko‘rgan tushining haqiqatga aylanishiga ishonish uchun!

Faqat shundagina, faqat Bursa ko‘lga kiritilgandagina ko‘ngli tinchiydi, qalbi orom oladi; faqat shundagina kulimsiraydi: “Xush kelding, quvonch keltirding!” deya oladi Azroilga; chunki faqat shundagina tayyor bo‘la oladi Munkar Nakirga; faqat shundagina ishona oladi Allohning o‘ziga bergan umrni, kuchni to‘g‘ri ishlatganiga.

Og‘ir azoblar ichida yotibdi hozir. Qimirlashga holi yo‘q, majolsiz, shunga qaramay:

— Meni Bursaga ko‘minglar — deydi ingrab.

Bu gapini Bursa tomonlarga, O‘rxon g‘oziy sarbozlariga eshittirish uchun chinqirgisi kelardi, lekin zo‘rg‘a ingray oldi.

Tortayotgan azoblari uni holdan toydirgandi. Yotgan kigiz ustida cho‘zilgancha, qo‘llarini uzatib, ohista ingraydi. Muncha ham uzun bo‘lmasa bu qo‘llar yetti qadam narida, tashqari xovlida, bittagina Kalimai shahodatlik masofada turgan Azroilning chalg‘isiga yetgudek, shartta ushlab ikkiga bo‘lib tashlagudek uzun. Uzun va kuchli... Shunday tuyulayotgandi.

Uyda, hovlida, tashqarida hech zog‘ yo‘q, bog‘lar ham suv quyganday jimjit.

Birdan dunyodagi eng shiddatli tuyoq tovushlari eshitildi.

Sungur tashqariga otiladi va ko‘z ochib yumguncha qaytib keladi.

— Qutlug‘ bo‘lsin, Xon! Bursa bizniki!

Holsiz bo‘yin unga tomon qayriladi. Nursiz ko‘zlar — lekin qorachig‘larda tabassum:

— Yana kechikding-a, Sungur! — deganday.

Chunki sal oldinroq, tuyoq tovushlaridan olgan edi u xush-xabarni. U ot tuyonidagi nag‘allar tilini yaxshi tushunardi. Uzoq yo‘lga otlanib qistab ketayotganda yoki qaytib kelayotganda nag‘allar sevinyaptimi, pushaymon bo‘layaptimi, barini bi-lardi u.

Uzun qo‘llar tirsakdan bukilgan, bolaning qo‘liga o‘xshab qolibdi. Katta-katta panjalari bolakay panjasini eslatadi. Ularni osmonga ko‘targancha, Usmonjon shukr qilayapti, duo o‘qiyapti. Lablari pichirlagancha kulimsirab eshikka qarayapti. Go‘yo eshikda Azroil emas, balki bir ozdan keyin qaytadan qovushadigan ko‘ngil sultoni Malhun Xotun turganday.

Usmonjon endi tayyor, u xursand, baxtiyor. Og‘riq azoblari tindi. Ichidagi behuzurlik ham barham topdi. Endi his qilayotgani esa buyuk va muvaffaqiyatli yurishlar so‘nggidagi baxtli charchoq-lardir. Miriqib cho‘ziladi; dam olmoqchi, barcha charchoqlari-dan forig‘ bo‘lmoqchiday... Go‘yoki...? Go‘yokimas, rostdanam shunday.

Yirik ko‘zlari yumilgan. Lekin quyuq qoshlari, uzun kipriklari, qattiq mo‘ylari, qirg‘iy burni va kampir dahan iyagi yarashgan qo-ramag‘iz yuzi jilmayib turibdi.

— Uxlayapti, — deyishadi.

U bo‘lsa xotirlayotir. Birma-bir eslayapti eshitganlari, ko‘rgan-larini; bosib o‘tgan yo‘li, qilgan ishlarini; do‘stlari, safdoshlarini xotirlayapti.

U hozir Ulutog‘dan ham buyuk xotiralar og‘ushida.

BAHOR SELLARI

Bolaligida yeru ko'kka sig'masdi Usmon. O'smirligida ham o'zini qo'ygani joy topolmasdi. To'y-tomosha bor joydan qolmasdi. U kuch-kuvvatining sohibi emas, balki kuch-quvvati uning sohibi edi. Uzun va baquvvat qo'llariga qilich yirik panjalariga o'q-yoy juda yarashardi, janjalni yoqtirmasdi, lekin eng ahamiyatsiz ziddiyatlarni va noo'rin harakatlarni janjalga sabab deb bilardi. U juda mag'rur edi va g'urur uchun yashardi.

Akalari Qunduz va Savji maqtovli yigitlar edi. Ularni hammadan ham Usmonjon yaxshi ko'rardi. Yaxshi ko'rishi, yoqtirishi ham mayli, qoyil qolardi ularga, bilimlariga, aql-idroklariga qoyil qolardi. Ular bilan fahrlanardi.

Ayniqsa, jiyanlari — Bonu chechak, Boyxo'ja, yangalari Burla Xotun bilan Oyna Malakni aytmaysizmi?! Ular uchun hamma narsaga tayyor edi.

Usmonjon ba'zi-ba'zida bir yaxshi yori bo'lishini istab qolardi. Bu ham akalari Qunduz va Savjining baxtiyorligiga hasad qilganidan emas, Boyxo'ja singari bir o'g'li bo'lishini istaganidan edi. U qanchalik hayratlansa, yoqtirsa, yaxshi ko'rsa ham, akalaridan boshqacha odam bo'lishni orzu qilardi. Bunday tizginsiz orzu esa uni otasi Erto'g'rulbek g'oziy xonadonidan, onasi Jonqizdan, jiyani Boyxo'jadan ayirar, har kuni bir oz-bir oz uzoqlashtirardi.

Ancha-muncha nasihatdan keyin otasi uni o'z erkiga qo'yib, boshqa o'g'li — Qunduzga e'tibor berib, uning kelajagi haqida jon kuydira boshladi. Qizig'i shundaki, Usmonjon otasining bu qaroridan quvondi, o'z bilganicha, erkin yashashning kayfini sura boshladi.

Quyuq kiprikli, qalin qoshli, qoramag'iz tanli Usmonjon qizlarga juda yoqardi. Unga ko'ngil qo'yganlar ko'p edi. Uning ko'ngli ham suvga o'xshab goh u tomonga, goh bu tomonga qarab oqaverardi.

Biror narsa qilsa, bas, hamma; "Usmonjon bu — qiladi... Usmonjon emasmi, bu uning qo'lidan keladi... "Erto'g'rulning o'g'li Usmonmi? O'zi shunaqa", deyishardi. Hamma shunga ko'nikib qolgan bir paytda shunday voqea yuz berdiki, yolg'iz Usmonjon-

ning o‘zi uchun emas, butun atrofdagilar uchun ham boshqacha yo‘nalish berdi. Bu uning shayx Ada Boli bilan uchrashuvi edi.

* * *

O‘n mingcha qo‘y, mingcha ho‘kiz, sigir, ot va o‘n mingcha odam!

Bu ko‘chish Usmon bilgan ko‘chish emasdi. So‘g‘uddan ko‘chib borib Domanichga joylashishga sira o‘xshamasdi. Necha kunlar yurilar, oylab qo‘nilardi. Daryo misol soylardan, boshidan qor arimas tog dovonlaridan, soya ko‘rmagan cho‘llar, hadsiz-hududsiz vodiylardan o‘tilardi. Qancha qizlar, qancha yigitlar bu ko‘chish davomida ulg‘ayib, uylangan, turmush qurgan, ona, ota bo‘lishgandi. Shu qadar uzoq edi bu ko‘chish yo‘li. Shunchalar olisda edi Amudaryo.

Bu ko‘chishning Turg‘ut Alp, Hasan Alp, Saltuq Alp. Oyqut Alp, G‘ozi Abdurahmon, Oq Temur, Qora Mursal, Qora Tekin, Somsa Chovush, Shayx Mahmud, Sulamish singari azamat beklari bor edi. Ayrimlari rahmatlik bo‘lib ketdi, ayrimlari sog‘ omon hali. Ularning ham ayrimlari hali qilich ushlashga qodir, ayrimlari esa keksayib uzlatga chekingan.

Otasining g‘azovot jo‘ralari edi ular. Usmonjon o‘sha afsonaviy ko‘chishning ayrim hikoyalarini o‘shalardan ham, otasidan ham eshitgandi.

* * *

Domanich yozining so‘lim bir kechasi. Osmonda Somon yo‘li kumush kamarga o‘xshaydi. Qizg‘ish, zangori yulduzlar jimirjimir porlashadi. Yaylovlarning sarin yellari ko‘ngillarga yigitlik jo‘shqinligini baxsh etadi.

Yam-yashil o‘rmonzor etagidagi biyobonda, Ulupinar chashmasi bo‘yida gulxan lovullaydi. Qurib qolgan archa shox-shabbalari chirsillab yonmoqda. Olov ayrimlarning peshanalarini, ba’zilarining yuzlarini yoritayotir. Ellik yo oltmishtacha keladigan bu kishilarning orasida o‘smirlar, yigitlar, o‘rta yoshli va xatto keksalar ham bor. Rahmonning sozi tindi, kuylayotgan dostoni tugagandi. Ammo kuy va qo‘shik vodiyda hamon jaranglab turganday,

tinglovchilar qalbida aks-sado berayotganday, ularni allaqaylarga chorlayotganday. Go'yo ular boshqa joyda-yu butunlay boshqa joylarda bo'lishni istashyapti, o'sha boshqa joylarda bo'lishlari kerakligiga ishonishmoqda. Shunday bir vaziyatda keksalarni buyuk ko'chish va qadimiy yurt o'ziga tortadi. Yoshlar ham ularga ergashgilari keladi. Faqat Usmonning istagi butunlay boshqa.

Usmon nenidir istaydi, lekin buning nimaligini o'zi ham bilmaydi. U boshqacha so'zlar istaydi, boshqacha yuzlar istaydi. Joyida o'tirolmaydi. Asta o'rnidan turadi. Ulardan uzoqlashib, vodiyning chekkasidagi Sivriqoyaga qarab yuradi.

Pastda tagi ko'rinmas jarlik, ro'parada xayollarga erk berguvchi cheksizlik.

Iyul yulduzlari ufqni yanada cheksizlantirganday ko'rinadi.

Usmon ufqqa singib boryapti.

— Hye-yey, Usmonjon, nimalarni o'ylayapsan?

Bu Ala Bolining ovozi.

Usmon jilmayadi. Jilmayishi mahzun edi uning; chunki hech narsani o'ylayotgani yo'q. Lekin uning nimanidir o'ylagisi kelardi, o'ylashni juda-juda orzu qilardi. Qani endi ana shu orzu qilayotgan o'ylarini tushuntirolsa!

Negadir "hech" degisi kelmaydi Usmonning.

Dunyo bunchalar katta! — deydi oxista.

So'ng Amudaryoni So'g'udga bog'lagan, qizlarni bo'y yetkazib, onalarga aylantirgan yo'lni o'ylayotganini aytadi.

— Amudaryo sharqidan So'g'ud g'arbigacha bo'lgan joylar g'am shunchalik kengki,— deb qimtinadi-da, qo'shib qo'yadi:

— Dunyo juda ham katta!

Ala Boli ham qoya tepasiga chiqqan, cho'qqi yelkasidagi chuqurchaga o'tirib olgandi. Tovushi mayin, kulimsirab gapirdi:

— Dunyoning bizga katta bo'lib ko'rinayotgani bizning kichkinaligimizdan, bolam. Jahlimiz, shoshqaloqligimiz, manmanligimiz tufayli kichrayib boramiz, keyin dunyo ko'zimizga juda ulkan bo'lib ko'rinadi.

Usmon boshini ko'taradi. Bu gaplarga ishonmagani yulduzlar shu'lasidanham sezilib turardi. Ada Boli kulimsiragancha mayin ovozda davom etadi:

— Qaragin, — deydi, osmonga qaragin. Yulduzlarni ko'rayapsan-a. Ularni sanab ko'r. Sanay olmaysan, shunday emasmi? Hoy, Usmonjon, osmoni falakda mana shu ko'rganlaringning yuz qavati, ming qavati yana bor emish. Juda katta deganing Dunyo mana shu ko'rganlaringning eng kichigi oldida tirnoqchalik ham kelmasmish.

Usmon hayratlanadi. Aqli bovar qilmaydi. Bir Ada Boliga, bir osmonga qaraydi. Dunyoning shu qadar kengligini o'zicha tushunishga tirishadi. Faqat fikri ojizlik qiladi bu kenglikni qamrashga.

Amudaryo bilan So'g'ud orasiga tug'ilishlar, o'lishlar, mavsumlar siqqanidan keyin Dunyo yulduzlarga qaraganda tirnoq uchidan ham kichik bo'lsa unga nima?

Boshini o'jarlik bilan chaykaydi:

— Dunyo juda katta.

Ada Bolining kulimsirab, mehr va muruvvat bilan qarab turishi ham eritmaydi uni.

— Tushunmadim, — deydi.

Ada Boli bo'lsa tushuntiradi. Erinmasdan, charchamasdan. Usmonning o'jarligidan ham battar o'jarlik bilan tushuntirishga urinadi. Ayrim so'zlarni qayta-qayta takrorlab tushuntiradi.

To'g'ri, Dunyo katta... juda, juda katta. Hatto Usmonning ko'ra-bilganidan ham katta. Faqat bir umr uchun, yolg'iz inson uchun katta, xolos. Bir urug' uchun emas. Bir urug'ning o'zlashtirishi, egalik qilishi, bir uruqqa singdiriladigan maqsad uchun, g'oya uchun katta emas!

— Dunyoning shunday maqsadlarga, shunday g'oyalarga ochiq bo'ladigan, bunday maqsad va g'oyalar uchun torlik qiladigan payti bo'ladi.

Hozir Dunyo xuddi shunday pallada.

Dunyo hozir xuddi shunday maqsad, shunday g'oyani kutayotir. Dunyoga yolg'izligidan xalos bo'lgan, urug'i va g'oyasi bilan moddiylashgan, ulusini g'oya bilan qurollantirgan bir odam kerak hozir.

Ada Boli go'yo ruh bo'lib uchganday, go'yo hozir yonida emasday. Faqat ovozini eshitayotganday. Bu ovoz bir ko'ngil-

day tuyuladi unga, u ham Usmonning ongida aks sado berardi go'yo.

Odam yolg'iz emasligini anglamagan, anglay olmagan va anglay olmayotgan bo'lsa, Dunyo chindan ham juda katta. Chunki inson zamonga va makonga nisbatan juda ham kichik, juda ham. Boru yo'qligi bilinmaydi uning. Va bunday odamlar noumid bo'ladilar, umidsizlik telbasiga aylanadilar, ular butun kuch-quvvatlarini, topgan-tutganlarini, erishgan barcha narsalarini behuda narsalarga sarflaydilar, havoga sovuradilar.

Bunday odamlar shomda tug'ilib, saharga azon aytilmasdan, tong yorishmasdanoq o'ladilar.

* * *

Gap shu yerga yetganda, ovoz Usmondan ajraladi, qaytadan Ada Boliga aylanadi. U Usmonni uyg'otishga urinadi.

— Bunday odamlar uchun, Dunyo, albatta, aql bovar qilmas darajada katta...

E-e, nimasini aytasan, u yog'ini qo'yatur, Bursadan nariga o't, Qorajahisor ham bunday odamlar uchun o'sha ko'rib turganing yulduzlarning eng yaqinidan ham olisda...

Ammo Usmon hanuz uyg'onmagan, hali o'ziga kelganicha yo'q. U buni anglab yetishi uchun Ada Bolini ko'rishi kerak. Lekin buni Ada Bolining o'zi amalga oshiradi:

— Sen o'shalardansan.

Usmon bu tovushdan g'azabga keladi. Biroq qarshi hamla uni tinglashga majbur etdi:

— Qahr-g'azabing bilan ovunib yuribsan. Kuchingni, quvvatingni g'azabing bilan ovutib, chiritayapsan. Rum[1] go'zallarining Qora Usmon deya jilvalanishlari, Rum va Germiyon yigitlarining sendan qo'rqishlari yetarli senga. Umringni behuda o'tkazyapsan. Alloh omonatiga xiyonat qilayapsan. Yo'lda, bozorda, to'y-tomoshada, shikorda va sayri sayohatda biror gap talashib qolinsa yoki hushingga yoqmaydigan biror harakatga ko'zing tushsa darhol mushtni, qilichni, kamonni ishga solasan. To'rt-besh rumlikni, bir qancha germiyonlikni urib, tumtaraqay qildingmi? Yigitsan, axir!

[1] **Rum** — Turkiya (Kichik Osiyo)ning qadimgi nomi.

Usmon boshini ko'tarib qaraydi. Jahli chiqadi, g'azabi qaynaydi, nima qilishini, nima deyishini bilmaydi. Shu onda Ala Bolini yulduzlar yorug'ida ko'rib turibdi. Hech qachon ko'rmaganidek aniq ko'rayotir.

U go'yo otasi Erto'g'ruldek ko'rinadi. Yo'q, yo'q, otasi emas, otasidan va otasining g'azovot jo'ralaridan eshitgan bobosi Sulaymon Shohga o'xshaydi, bobosining otasi Qoya Ali shekilli. Yoki otalarining otalari Qizil Bug'a,

Boyintur, Oyquluq, Do'g'andir balki, qisqasi, Yafaslan Nuhga qadar katta buvasidir Ala Boli, katta buvasi... Yana yolg'iz qoldi Usmon, yana bir o'zi. Butun atrofda hech zot yo'q, hech kim ko'rinmaydi bu biyobonda. Faqat bir so'z chalinadi quloqlariga:

— Hye-yey. Usmonjon, yigit deb g'azabini jilovlayoladigan polvonga aytadilar. Kuchini, quvvatini, ko'nglini, boshini g'azabidan asraydi yigit degan...

Va jimib koladi, boshqa gapirmaydiganday, aslo bo'lmaganday. Rostdan ham, Ala Boli endi u yerla yo'q va go'yo u yerda bo'lmagandek. Go'yo Usmonning yelkalaridagi bir soya eli-yu, g'oyib bo'ldi-qoldi. Go'yo bu soya yulduzlarning nariyog'iga o'tib ketganday...

Endi pastlan, tubsiz qorong'ilik ka'ridan shovullash kelayotir. Orqasidagi archazor shovullayotir. Ulupinarning yonidagi gulxanlar endi ko'rinmaydi. O'sha olovlar yoritgan ertak sharpalari erib ketibdi. Yaylovdan ko'ppaklarning vovullashlari eshitilmoqda. Juda ham olislardagi bir cho'qqining orqasidan tilla yoy misol hilol ko'tarilmoqda. Usmon uni ko'rib turibdi. Ana, hilol uning naqd tepasiga kelib qoldi. Vaqt ham shunaqa tez o'tadimi? Hali hech narsa qilishga ham ulgurmadi-ya!

Ammo Usmon yana ba'zi narsalar haqida o'ylaganday va juda muhim bir narsani amalga oshirganday go'yo. O'zini shunday his qilayapti...

* * *

Boshqa bir kuni Usmon ovdan qaytar ekan, yana uchrashishdi. Usmon otining ustida devday o'tiribdi. U devlar bilan olishuvdan zafar bilan qaytayotganday.

— Bularni sen ovladingmi? so'raydi Ada Boli.

— Men, — deydi Usmon va otini niqtaydi. Ammo tovush otdan ancha tez uchadi:

— Ovun, Usmonjon, ovunib yuraver!

Usmon jilovni tortdi. Ol-Ishiq tik Qayib, keskin burildi. Ada Boli bilan Usmonning nigohlari to'qnashdi. Usmon jim, Ala Boli jilmayib, gap qotdi:

— Otangning qilichini akant Qunduzga topshirishi seni ranjitmaydimi? O'sha qilich sening haqqing ekanini hech uylamaysanmi?

Usmon Ol-Ishiqqa qamchi bosdi, Ada Bolining tevaragida ikki marta aylanarkan, bor ovoz bilan:

— O'sha qilich akamga yarashadi. U oqil odam, — dedi. — Buning ustiga ham botir, ham esli-hushli, vazmin. Menga qarang, Ada Boli, sizni hurmat qilaman. Lekin akam bilan mening oramizga tushadigan bo'lsangiz nafratlanaman, begonalardan battar ko'raman.

Ol-Ishiqning boshini o'tovga qarab burarkan, orqaga o'girilib baqirdi:

— O'chakishmang men bilan... Sabrim tugaydi...

O'sha kuni kechqurun Usmonga:

— Otang seni so'rayapti, — deyishdi.

Bordi, qo'lini o'pib, tiz cho'kli-da, qul qovushtirdi:

— Eshitaman, ota, — dedi.

— Quloq sol, o'g'lim, — dedi Erto'g'rul, to'qsonni qoralagan yoshiga qaramay durkun ovozda. — Ala Bolining tarozisi adashmaydi, bir misqolgayam adashmaydi.

Menga qarshi tur, lekin unga qarshi turma. Menga qarshi chiqsang ranjiyman, xafa bo'laman, unga qarshi chiqsang, ko'zlarim senga qaramaydi, qarasa ham ko'rmaydi. Ala Boli urug'imizning ziyosi. Bora qol, endi. Shu aytganlarimni vasiyat deb bil, unutma.

Usmon otasining qo'lini o'pishga shaylanganda qo'shimcha qildi:

— Oq Temur aytdi: ustiga ot solibsan, o'shqiribsan. Xafa bo'lgan Ala Boliemas, Oq Temur bilan menman. Tashvishimiz

ham Ada Boli uchunmas, sen uchun. Meni va jo'ralarimni ranjitma, Usmonjon; bu borada ushbu eng so'nggi tilagim bo'lsin, o'g'lim.

* * *

Usmonjon o'zini xo'rlangan, kamsitilgan sanardi. Kamsitiladiganlardan emas edi u. Kamsitiladiganlardan emasligini isbotlash uchun g'azab otiga minaverdi.

Shikorda birinchi. Poygada birinchi. Nayza otishda birinchi. O'q-yoy tortishda tengi yo'q. Kurashda bellashadigan topilmaydi. Usmonjon yana nima qilsin haqligini isbotlash uchun?

Bilolmasdan garang Usmonjon.

Usmonjonning g'azablanishi shundan.

Xuddi shu damda uning yonida kimdir shivirlaganday bo'ladi: Hye-yey,

Usmonjon, g'azabini jilovlay olgan yigit, haqiqiy yigit hisoblanadi.

Fazabi susayib, qo'l-qanoti singan qushday his qiladi o'zini. Hech kimni ko'rgisi yo'q. Otiga sakrab minarkan, bu yerlardan bosh olib ketmoqchi bo'ladi.

O'zini tanimaydigan yoki o'lguday yaxshi ko'radiganlar orasiga borishni o'ylaydi. Hech bo'lmasa otasini va Ada Bolini ko'rgisi yo'q uning. Ko'rishni ham, eslashni ham istamaydi. Ularni eslasa xo'rligi kelaveradi. Parishon g'ururi bezovtalanaveradi.

Usmonjon bu ahvoldan qanday qutulishni, qutulish uchun nima qilish kerakligini hech bila olmaydi. Ich-ichidan eziladi. Ertasi kuni Usmon Domanichda ko'rinmadi.

* * *

Usmonjonning Mixail Kosses bilan uchrashuvi otasi Erto'g'rulning Sulton Alouddin bilan aloqalar o'rnatishiga o'xshardi.

Hujum qiluvchilar besh kishi edi, himoyalanuvchilar esa uch nafar. Ovdan qaytayotgan Usmon voqea sodir bo'layotgan joyga yetib kelganida haligi uch kishidan bittasi yerda jonsiz chuzilib yotardi. Yana bittasining esa qilich ushlaydigan holi qolmagandi. Usmon qarab turmadi. Qilich sug'urib o'rtaga tushdi.

Jang uzoqqa bormadi. Usmon hujumchilardan ikkovini birpasda tinchitdi-qo'ydi. Qolganlari qochib qolishdi.

Qilichini sermashga ham holi kelmay turgani:

— Yashavor, turk. Isming nima sening, — deb so'radi-da, keyin: — Men

Mixail Kossesman, dedi.

— Erto'g'rul o'g'li Usmon, So'g'udda yashaymiz. Sen-chi?

— Inago'lning bu yog'ida, Xarmonqoyada. Otam juda badavlat. Yur biz bilan, bir necha kun mehmonimiz bo'l.

— Yo'q, — dedi Usmon. Keyin o'ylab qolib, so'radi: — Kim edi haligi odamlar? Nega sizlarga hujum qilishdi?

— Ayo Nikolaning qaroqchilari. Ularning ishi faqat shu: yo to'da bo'lishib qishloqlarni talashadi, yoxud to'rtov-beshov bir bo'lib olib, yo'l to'sishadi, qaroqchilik qilib, talonchilik bilan kun ko'rishadi.

Usmon yana o'ylanib qoldi:

— Ehtimol, biror joyda pisib yotishgandir. Yo'lingizni to'sishmasin tag'in. Yaxshisi, sizlarni kuzatib qo'yaman, — dedi.

Shu paytgacha indamay turgan sherigi gapga aralashdi:

— Yaxshi bo'ladi, Mixail. Yursin biz bilan.

U bu gaplarni Usmonga qaramay aytdi.

Usmon yaxshi tushundi. Turklarni yomon kuradiganlardan edi bu olam. Mixail vaziyatni sezganday kuldi:

— O'rtog'imning ismi Kalanoz. Qorajahisor hokimining o'g'li...

Kalanoz yerda yotgan o'likka o'girilib ham qaramay, otini yo'rg'alatib haydadi. Usmon o'likka ishora qilib so'radi:

— Bu sizlardan emasmi?

Mixail ham boshi bilan Kalanozga imo kilib:

— Uning odami edi, — dedi. Bu yerdan oldirtiradi.

Usmon arg'umog'i Ol-Ishiqning boshini burib, So'g'udga qarab choptirgisi keldi-yu, Mixailni tashlab ketolmadi. Yoqtirib qolgandi uni. Mixailning kulishi dildan edi. Usmon otiga qamchi urib Kalanozga yetib oldi, oldinga o'tib Ol-Ishiqni yo'rttirib ketdi. Yo'l bo'yi Kalanoz har qancha urinmasin Ol-Ishikning yaqiniga yo'lay olmadi.

* * *

Mixaillar baland va qalin devor bilan o'ralgan katta chorbog' ichidagi uch qavatli uyda yashashardi. Chorbog'da, bundan tashqari yana uchta bino bor edi. Ularda bolalar, qarollar va xizmatchilar, ishchi va cho'ponlar, qurolli odamlar istiqomat qilishardi.

Usmon hali tashqi darvozaga yetmasdanoq orqaga qaytmoqchi edi-yu, lekin Mixail otining tizginiga yopishib, qo'yib yubormadi. Chorboqqa kirishi bilan baqira boshlagandi. Uning ovoziga yugurib chiqqanlarni Usmonga tanishtirdi:

— Onam, otam... narigisi singlim.

Uyning oldiga borib, otdan tusharkan, Mixail bo'lib o'tgan voqeani tugal gapirib berdi:

— Mana shunaqa. Bizlarni mana bu turk qutqarib qoldi. Ismi Usmon.

Uy ahli ota Kosses boshchiligida Usmonga parvona bo'ldi. Qizlari Zoyaning yelib-yugurishlarini aytmaysizmi? Avvallari uning Kalanoz bilan aloqasi boshqacha edi. Endi negadir Kalanoz ham o'zini undan torta boshladi. Butun e'tiborini Usmonga qaratdi. Usmonning ham ko'zlari yonib, o'zini boshqacha tuta boshladi.

Ular dahlizda turishardi. Dasturxon tuzalmoqda edi. Zoya qoshiqlarni tayyorlarkan, sal nariroqda Usmon bilan gaplashayotgan Mixailga jilmayib, Usmonga ishora qildi:

— Juda yosh ekan. Yigirmaga ham chiqmagan, shekilli?

Keyin to'g'ridan-to'g'ri o'zidan so'radi:

— Necha yoshdasan?

Nuqul jilmayardi. Jilmayganda yanada go'zallashardi. Usmon ham jilmaydi:

"Bizda bolalar va erkaklargina bor" demoqchi ediki, Kalanoz orqasi bilan tisirilib ularning orasiga kirib oldi. Usmonning jonponi chiqib ketdi.

G'azabi qaynadi. Panshaxaday qo'llarini Kalanozning yelkasiga tashladi. Bo'g'iq bir tovushda:

— Mundoq tur, dedi.

Ko'zlar bir zumgina to'qnashdi. Kalanoz yelkasidan bosib turgan zilday qo'llarning kuchini his etib, rangi oqarib ketgandi.

Zoya qo‘rqib ketdi. Mixail ham o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Ular joylarida qotib qolishgandi. Usmon buni xohlamasdi, lekin o‘zini tutib turolmadi, qo‘lini uning yelkasidan olmasdan, hamon bosiq va bo‘g‘iq ovozda:

Yuzingni bir ko‘ray, sen ham yuzimni ko‘r, — dedi.

O‘zini bosishga har qancha urinmasin, g‘azabi qo‘zigandi. G‘ururining izmida edi u. Bu qancha davom etishini Xudo biladi. Lekin beixtiyor ko‘zlari Zoyaga tushdi. Kapalagi uchgan qiz qo‘rquv va yolvorish bilan jilmayib turardi. Xuddi mana shu jilmayish uzoqlardan kelgan tovushning qulog‘idan kirib, miyasida aks salo berishiga yo‘l ochganday bo‘ldi: “Hye-yey, Usmonjon, yigit degan g‘azabini jilovlay olishi kerak”. Bu Ada Bolining tovushi, uning so‘zlari edi.

G‘azabini bosolmas, agar bossa, keyin nima qilishini bilolmasdi Usmon.

U qo‘lini Kalanozning yelkasidan shartta tortib oldi-yu, keskin burilib chiqib ketdi. Chiqib ketdi biror so‘z ham aytmay, hech kimga qayrilib ham qaramay.

Bularning hammasi ko‘z yumib-ochguncha yuz berdi. Chorbog‘da Ol-Ishiqning og‘zidan yem to‘rvasini olib, yuganni solarkan, Mixail uning yoniga keldi.

Nima deyishini bilmasdi. Usmon otiga minish oldidan uning ko‘lidan ushlab, past ovozda gapirdi:

— Sen haqsan. O‘zi shunaqa uning. Hammani yomon ko‘radi.

So‘ng undan uzr so‘raganday qo‘shimcha qildi:

— Men... biz unutmaymiz mening jonimni asrab qolganingni...

Yana jim qoldi. Yana nimadir degisi bor edi uning. Aytdi ham:

— Ko‘rishib turaylik. Mening do‘stlarim bor, haqiqiy do‘stlar. Ularni yoqtirasan, yaxshi ko‘rib qolasan ham.

Usmon sal jilmayib qo‘ydi. Ko‘ngli g‘ash edi. Lekin g‘ashligi tarqashi aniq edi.

— Meni izlab kelasan, shundaymi? — dedi Mixail. — Men seni qidirib topaman.

— Qidir, — dedi Usmon.

Shunday dedi-yu, yengilgina sakrab Ol-Ishiqning beliga mindi.

* * *

Ol-Ishiqni yo'rg'alatib borarkan, u yaxshiroq o'ylaydi, fikri tiniqlashadi.

Ot ustida, ayniqsa, yo'rtib borayotgan bedov belida uning o'ylari yanada tiniqlashadi, eslashi kerak bo'lgan narsalari bir-bir esiga kela boshlaydi.

Chunki boradigan joyi unga ma'lum. Boradigan joyida nima qilishi kerakligini, nimalarga duch kelishini yaxshi biladi. Orqasida nimalar qolganini, nimalardan voz kechganini ham yaxshi biladi.

Endi ham shunday bo'ladi deb o'ylaydi va bundan dili orom oladi, zavqlanadi hatto.

U haq. Lekin bu boshlanishi: Kosseslar yaxshi, Mixail juda yaxshi. Zoya go'zal... juda go'zal. Kalanoz dushman. Turklarni yomon ko'radi. Unga: "Sen mening yuzimni ko'rib ko'y" degandi. Bu "Hali yana uchrashamiz, to'qnashamiz" degani edi. Kalanoz ham qo'rquvdan rangi uchib ketgan bo'lsa-da, ichida, ehtimol, "to'qnashamiz" deb o'ylagandir. Balki hali ham shunday deb yurgandir. Odamlari ko'p ekan uning. Qo'shinibor ekan.

Tishlarini g'ijirlatadi:

Jahlim chiqmay nima qilsin. G'azablanmay bo'ladimi, axir? Yo dumimni qisib yuraveraymi?

Xuddi Ada Boli bilan ot qo'yib ketishayotganday. Unga gapirayotganday.

Taajjubi shundaki, javobini olayotganday bo'ladi: "Kalanoz deganing kim?

Ovdan qaytayotganingda sakkiz-o'n odami bilan yo'lingni to'sib chiqdi, deylik. Olishasizlar. Sen hammasini yer tishlatding... Natija-chi?"

Boshi gangiydi, chunki qulog'iga o'rnashib qolgan tovush mehr to'la bir tabassum bilan qo'shilib jaranglaydi:

— Kalanoz deganing kim, bilasanmi? Bilmaysan. Bir Kalanoz bor, yana bir Kalanoz bor. G'azabing va g'ururing ikkovini bitta deb o'ylaydi. Uning uchun osoni shu-da. Narigi Kalanoz o'sha, sen ko'rmagan va tushunmagan Kalanoz bo'ladi. Ikkovi bir emas, farqi bor, Usmonjon. Shuni yodingda tut va ehtiyot bo'l...

Ada Bolining oti qanot bog‘laganday, uchib ketadi go‘yo. Usmonning “To‘xta, tashlab ketma” deb baqirgisi keladi. Ammo baqirmaydi. Yana o‘z holiga qaytadi. Ko‘z o‘ngida yana Mixail va Zoya gavdalanadi. Usmon Mixail yuborgan da’vatchilarni hali jo‘natganicha yo‘q. Qo‘lidan kelgancha ularning ko‘nglini olishga harakat qildi. Ovga olib chiqdi. Turli ko‘ngilochar tomoshalar uyushtirdi. Xil-hil shirinliklar, gilamlar, yeguliklar hadya qildi. Kuzatib qo‘yarkan, da’vatnomadan juda mamnun bo‘lganini, albatta, borishini aytdi, salomini yetkazishlarini iltimos qildi.

Mehmonlar jo‘nab ketganlaridan so‘ng, akasi Qunduz bilan qoldi. Yonlarida Oyqut Alp ham bor edi.

— Borasanmi? — so‘radi Qunduz.

— Albatta, — dedi Usmon.

Qunduz ukasining aytganidan qaytmasligini yaxshi bilardi.

— Hech bo‘lmasa ehtiyot bo‘lishni unutma, — dedi Qunduz, — yoningga besh-o‘n nafardan yigitlardan ol.

— Kerakmas, — dedi Usmon.

— Ishonma bu kofirlarga.

— Mixail sen bilgan kofirlardan emas, kofirdan ham bitta jo‘rang bo‘lsa, qaytaga yaxshi-ku.

Qunduz shunda otasining do‘stiga yuzlandi:

— Siz nima deysiz, to‘g‘rimi bu ishi?

To‘g‘ri, — dedi.

Oyqut Alp oppoq soqolini silarkan:

— To‘g‘ri, — dedi.

Lekin ovozi g‘alati edi. Usmon unga qarab izohlashini kutdi:

— To‘g‘ri. Senga urug‘idan ham, dinidan ham ko‘proq bog‘lanishini kutyapsan.

— Ha, kutyapman.

Usmon dadil va qat’iy gapirdi. So‘zida davom etarkan, nega shundayligi ma’lum bo‘ldi.

— Maqsadimiz yeb-ichish, o‘ynab-kulishdan iborat. Nimasi yomon buning?

U javob kutardi. Buyruq ohangida aytgandi bu gaplarni. Oyqut Alp javob bermay qayoqqadir jo‘nab qoldi. Akasi Qunduz ham teskari qarab jim turardi.

Uning uchun bu yerda Usmon yo'q edi go'yo. Usmon jahl bilan akasining oldidan turib ketdi.

Uni hali bola deb o'ylashardi. Hech nimani tushunmaydi, deyishadi shekilli.

Buni yaxshi sezib turibdi. Nega axir? U o'ylab o'yiga yetolmasdi.

Otasi... Akalari... Otasining do'stlari, beklar... Qaysi biri narsa buyurdi-yu, bu bajo keltirmadi yo e'tiroz bildirdi? Qaysi bir buyruqlari ijrosiz qoldi?

Shunday bo'lgach, nega unga bunday munosabatda bo'lishyapti. Mana shuni tushunolmayapti Usmon. Battar alam qilyapti, g'azabi qo'ziyapti. Fikri-zikri Ada Bolida: otasi, akasi, Oyqut Alp derkan, ko'z o'ngida faqat Ada Boli gavdalanaveradi. Uni eslagan sayin anglay boshlaydi kamsitishlarini, yoqtirmasliklarini, hatto yomon ko'rilishlari sabablarini.

Otasi bilan emas, akasi bilan emas, Oyqut Alp, Oq Temur, boshqa beklarbilan emas, balki hammasi bilan birdan orani ochiq qilish uchun u Ada Bolining ro'parasiga chiqishni istaydi... O'ziga xos jahl bilan.

Chunki Ada Boli bo'lmasa, boshqalar bunday bo'lmaydilar, o'ziga bunday qarashmaydi, uni sevishadi, yoqtirishadi va maqtashadi, deb o'ylaydi.

Ada Bolining oldiga borish uchun ich-ichini yeb yotibdi, borolmayapti. Ammo bir kuni, albatta, chiqadi uning ro'parasiga. Yuraksizligidan emas uning borolmayotgani... balki, o'zining hali tayyor emasligini his qilayotganidan.

— Chiqishim shart ro'parasiga, — deydi g'ijinib.

* * *

Mixail Usmonni o'ziga yaqin olayapti, ehtirom ko'rsatayapti. Lekin Usmonning nazdida u o'ylaganchalik do'st emas. Faqat tirik qolgani evaziga unga minnatdorlik bildirish ilinjida. Usmon buni sezib turibdi. Zoya bo'lmaganda, allaqachon uzib tashlardi bu bordi-keldini. Zoya band etgandi Usmonni.

Usmonning Zoyaga oshiq bo'lib qolgani haqida lom-mim deyilmasdi. O'zi ham indamaydi bu haqda. Uning go'zalligiga, ish-

vasiga besh ketadi Usmon. Hadeb uni ko'rgisi kelaveradi, yonida bo'lgisi kelaveradi tez-tez. Uning yarim-yorti, uzuk-yuluq turkcha gapirishini sog'inadi. Kulishlarini, Usmonjon deyishlarini yanada ko'proq sog'inaveradi.

Va unga, yuz, yuz ellik rumcha kalimasi ila hamda boshqadan emas, Mixaildan, Zoyaning o'zidan o'rgangan oddiy so'zlar bilan unga chiroyli, juda chiroyli gaplar aytgisi kelardi.

Boshqa birovning sevgilisiga ko'ngil berish, qiyo boqish Usmonga yarashmaydi. Ammo Kalanoz, o'ziga orqa o'girgan va mensimay kin bilan, hatto nafrat bilan qaragan edi. Buning aksi o'laroq, ofatijon Zoya uni butunlay maftun etgandi. Buni Zoyaning o'zi sezgandi avval. Hozir ham Usmonga gapirarkan, uyalinqirab, sal o'zini yo'qotib boshini egdi:

— Oh... Kalanoz emasman, men... — dedi shirin kulib, yigitning quchog'idan sirg'alib chiqarkan.

Usmonning tushunmaganidan nasha qilib kularkan, tushuntirishga urindi:

— Suyaklarimni sindiray deding-ku.

Uni bag'riga bosganida esiga Kalanoz tushgandi.

Shundan bo'lsa kerak, qizni qattiq qisdi. Kalanoz xayol qildi, shekilli. Buni o'zi ham sezdi.

Keyin oraga Mixail aralashdi.

— Usmon, e, qizlar kammi? Kalanozdan baloga qolamiz. Tinch qo'ymaydi.

Ko'ysang-chi, Zoyani... uni unut. Tez-tez kelaverma. Kelganingda ham yolg'iz kela ko'rma.

Usmon o'ylab qoldi. Uning gapini ma'qul ko'rdi. Shundan keyin Mixail bilan ham kam kurishadigan bo'ldi, o'shanda ham ikkovi baravar chaqirilgan yig'ilishlarda uchrashib qolardi.

* * *

Qish oxirlab qoldi. Qorlar eriyapti. Ungurlarda loyqa suv oqayapti. Havolar zamharir o'rtalaridayoq bahor hidini ufura boshlagandi. Oyqut Alp to'shini fevral quyoshiga tutib tosh o'g'ir ustida o'tirardi. Sal nariroqda kelinlardek pushti-oq gullarga burkanib turgan bodom daraxtini ko'rsatdi:

— Aldanishdi, esiz...

— Atrofida, bir qanchasi u bilan tengdosh, boshqalari yosh yigitlar o'n besh chog'li odam to'plangan edi. Quyoshda toblanishardi. Ba'zilar cho'kkalagan, boshqalari chordana qurib o'tirishibdi. Usmon va Qunduz kabi yer yigitlar ulardan sal orqaroqda tikka turishibdi.

Oq Temur hech kimning xayoliga kelmaydigan yoqimli so'zlari bilan tanilgandi.

— Esi yo'q-da ularning, — dedi va qo'shimcha qildi, — ikki pullik quyoshga aldanib, qor va ayozda juvonmarg bo'lib ketishadi.

Kulgi ko'tarildi: daraxtlarning aqlliligi-yu, aqlsizligi haqida hazil-mutoyiba boshlandi. Lekin Dursun Faqiga ilk e'tibor bergan Oq Temurning o'zi bo'ldi. Hushyor tortdi:

Agar bema'ni gapirgan bo'lsam, uzr...

— Yo'... — dedi Dursun Faqi. — Senda bema'nilik ko'rmadim. Gaplaring menga bir narsani eslatdi.

Bir oz jimlikdan so'ng ohista gap boshladi.

Bahordan darak beradi ular, biz kutgan bahordan. Axir bizlar kutamiz bahorni, o't-o'lanlar, qurt-qumursqalar, el-elatlar kutadi. Kirib kelayotgan bahordan darak berib, mujda so'rovchi bodom daraxtlari bo'ladi. Kun qaytganini eng avval o'shalar sezadi. Bahorga peshvoz chiqib, mujlalar oladi. Bahor kirib kelayapti. Buni tuygan ko'ngillar, ko'rgan ko'zlar, anglagan miyalar bodomlar mujdasini oladi, suyunchi deb qabul qiladi. Keyin tayyorgarlik ko'radi. Axir yaylovlarga ko'chish kerak. Kechikmaslik tadorigini ko'rmoq lozim.

Havo aynishi mumkin. Qish qaytib kelganday bo'lishi tabiiy. Darakchi bodomlarni sovuq urishi hech gapmas. Lekin baribir darakchilarga rahmat.

Dursun Faqi, daf'atan, Usmonga o'girildi:

— Buvang Sulaymon Shohning ruhiga rahmat, Usmonjon.

* * *

Usmon yana... Dursun Faqini emas, Ada Bolini ko'rayapti. Ko'rib turgani Dursun Faqi emas, uning shayxi Ada Bolidir. Lekin

bu safar, negadir yuzi qizarish o'rniga sarg'ayib borayapti. Lablari titrab, ko'z oldi qorong'ilashganday bo'ldi. Endi uning qarshisiga chiqishni, ro'baro' bo'lishni emas, balki ko'rishni istaydi. Otasining gaplarini eslaydi: "Quloq sol, o'g'lim. Ala Bolining tarozisi to'g'ri o'lchaydi, misqolga adashmaydi... Ada Boli urug'imizning ziyosi..."

Usmon hozir his etayotgan narsa uning qalbiga yot bo'lgan qo'rquv. Usmon ilkbor qo'rqayapti. Tog' boshidagi kechada yolg'iz qolgani singari, bola singari, ziyoga, nurga talpingan qo'rquv bilan. Miyasida esa hamon o'sha gap: "Ada urug'imizning ziyosi". Usmon o'sha ziyoga talpina boshlaydi.

Dursun Faqi bularni sezib turganday. Chunki boyadan beri Usmonga qarab turibdi. Nihoyat kulimsiradi. Kulgisidan biror narsa sezilmasa-da, ichidagi mehri barq urib turibdi. Ovozi ham shunaqa, mayin va mehrli:

— Juda soz, — deb qo'ydi Usmonga, — yashavor.

ENG MUHIM HAQIQAT O'TGAN KUNLARDIR

Usmonning nazdida So'g'ud kundan-kun o'z tarovatini yo'qotayotir. Kundan-kun boshqa mazmun kasb etmoqda. Chunki u otasining va otasi jo'ralarining hikoyalarini, uzuq-yuluq gapirganlarini jamlay boshlagandi. Bu hikoyalardan tushunilgan narsa shuki, Amudaryodan kelgan o'sha, katta bobosi Sulaymon Shoh bo'ladi.

Usmon bunga ishonch hosil qilgach, So'g'udga nima uchun kelganini, So'g'udda unga nima kerak bo'lganini bilishni istaydi. Uning uchun uyqusiz kechalar boshlandi. Ammo behuda o'tayapti bu kechalar. Chunki tugunni yechish qiyin bo'layapti.

Ziyo Ada Bolida, Buni shunday deb bilishga tayyor u. Chunki otasiga ishonadi Usmon. Ammo Usmon uning ustiga ot bilan bostirib bormoqchi bo'lganini o'ylarkan, g'alati bo'lib ketadi.

Qiziq, Ada Bolining ustiga bostirib borish, yoqasidan olish, javob talab qilish boshqa-yu, istihola qilish, uyatni yengish, yuziga

tik qaray olish jasorati boshqa narsa ekan! Uning hozircha tushunib yetgani shu.

Yana boshqa bir narsani angladi Usmon: Odam hamma narsani bilavermaydi. Ada Bolidanmi yoki boshqasidanmi bilmagan narsasini so'rashga tayyor bo'lishi kerak ekan. So'ragan va qo'lga kiritgan narsasini nima qilishini ham bilishi kerak ekan.

Usmon bu savollar girdobida o'ralashib qoldi. O'ylab o'yiga yetolmasdi.

Sulaymon Shoh g'oziy... buvasi... ellik ming uy bilan ko'chib, nega Arzirumga, Erzinjonga kelishgan?

Sulaymon Shoh roziydan keyin, nima uchun Sungur Tekin va Kuntug'diamakilari Ona yurtga-yu, otasi shimoliy g'arbga, Rum diyoriga ko'chishgan? Minglarcha uy bilan yana? Usmonning boshini qotirayotgan jumboq shu. Axir, kim edi ular? Nega ko'chishgan?

Bu so'roqlardan ayrimlari javobini akalari bilardi. Albatta, otasi ham. Usmonga ham aytmoqchi edi. Lekin Usmon havoyi havaslarga berilib ketgandi. U Ada Bolining o'sha yaylov kechasida Sivriqoyada aytganlarini unuta olmasdi. Bir gapi, ayniqsa, miyasida charx urardi: "Otangning qilichini akang Qunduzga berishi seni ranjitmaydimi?"

Usmon ushbu xotirlashi bilan Ada Boli va Dursun Faqini ayni bir ehtiromda ko'rishini his etdi. Esiga ham kelgani yo'q haligi qilich. Uning nazarida hilol osmonga, qilich esa Qunduzga yarashadi. Chunki odobu qonun-qoidani, gapirish va tinglashni Qunduz yaxshi biladi. O'sha qilich esa otasining belida turibdi. Unda bo'lsa nima-yu Qunduzda bo'lsa nima? Qunduz otasini izlatib ovora qilib yurmaydi. Usmonga kelsak, uning o'z qilichi bor va shuning o'zi kifoya.

* * *

Bodom daraxtlari aldangandi, gullarini sovuq urgandi. Lekin ular darak bergan bahor kelgan va bog'-u rog'lar yashil libos kiygandi. Qo'y-qo'zilar ma'rab, qushlar chug'urlashar, toylar kishnay boshlashdi. Qirlar va tog' etaklari yam-yashil maysalarga burkandi.

So‘g‘udda esa yaylovga ko‘chish taraddudi boshlab yuborildi. Eng muhim masala uylarda qoldiriladigan ashyolarning nima bo‘lishi edi. Chunki, mana ikki yozdirki, ular yaylovga chiqarkan, Inago‘l takfurining[1] odamlari Ayo Nikola boshchiligida So‘g‘udga bosqin yasab, talab ketayotir.

Erto‘g‘rul ashyolarning Bilajik hokimiga omonat qoldirilishini ma’qul ko‘radi. Garchi bu osonlikcha amalga oshiriladigan tadbir bo‘lmasa-da, chorasizlikdan qilinayotgan ish edi. Taklif qabul qilindi. Bilajikka yuborilgan keksa vositachi u tomonning rozilik javobini olib keldi. Lekin ashyolarni keksa va oz sonli kishilar olib borishi shart qilib qo‘yildi. Shunda Erto‘g‘rul ishonch qozonish maqsadida o‘z xalqining ashyo va buyumlarini keksa xotinlar bilan jo‘natdi. Bu tadbirlar amalga oshirilishi jarayonida Usmon otasining qilichidan ko‘z uzmadi.

* * *

Yaylov tongi. Oftob hali yuz ko‘rsatganicha yo‘q. Osmon zangori, archalarni yashil, shudring tushgan o‘tloqlar zumrad qoplagandi. Cho‘ponlar hali qo‘ylarni to‘plaganicha yo‘q. Ayg‘ir, biyalar va toylar hali og‘ildan chiqarilmagan. Qorachodirlar bilan og‘illar orasida yelib-yugurib yurganlar odmi, qizil, lojuvard, tillarang, jigarrang kiyimli ayollar va qizlardan iborat. Kunning junbushgakelishiga hali vaqt bor.

Oyoqlari tizzagacha shudringdan ho‘l bo‘lgan Usmon Sivriqoyaga qarab ko‘tarilib boryapti. Negadir bugun quyosh chiqishini o‘sha yerdan tomosha qilgisi kelib qoldi.

Bir tomoni chuqurliklaridan guvullash avozi kelib turgan vodiy; ikkinchi tomonda cho‘zilib ketgan yaylov, qarshisida esa behudud tekislik.

Quyosh o‘sha yerdan, o‘rkach-o‘rkach tepaliklarning orqasidan chiqadi. Uning chiqishini poylayotgan Usmonning esiga yana otasining qilichi tushdi. Negadir Ada Boli, Dursun Faqi va otasining boshqa jo‘ralari bu qilichga boshqacha e’tibor bilan qarashadi. U qilich boshqa, o‘z qilichi emas. U Usmonning qilichiga ham, boshqa qilichlarga ham sira o‘xshamaydi. Usmon o‘zini tu-

[1] Takfur – hokim.

shunishga, idrok etishga majbur biladi, bu ham farz, ham qarz deb o'ylaydi.

Oftob chiqayapti. Qushlar hali uchib o'tolmaydigan xuv baland cho'qqilarning tepasidagi bulutlarga qon rangi yugurdi. Olam sarvari yuz ko'rsatgach, cho'qqilarga ilashib turgan bulutlarning rangi oqardi.

DOVONDAGI UCHRASHUV

Usmon qiziq odat chiqardi, har tong hali oftob chiqmasdan Sivriqoyada hoziru nozir.

Lekin negadir Oy qut Alp ham har sahar kun chiqar-chiqmas qirlarni Sivriqoyaning ikki o'q otimi masofada nariyog'idan aylanib o'tib, otini yo'rg'alatganicha yaylovga yelka tirab turgan tepaning orqasiga o'tib ketardi.

Bu Usmonga juda qiziq tuyuldi. U Ol-Ishiqni yetaklab kelayotgandi. Oyqut Alp tepa nariyog'ida ko'zdan g'oyib bo'larkan, Usmon ham otga mindi. U otini yo'rg'alatib haydadi. Chunki Oyqutning izidan tushganini bildirgisi kelmasdi. Ma'lum masofadan qoralab boraverdi. Muyulishdan o'tgach, qarasa, Oyqut Alp g'oyib bo'libdi. Shunda u otiga qamchi bosdi. Lekin har qancha ildam haydamasin, Oyqut Alpning qorasi ko'rinmasdi.

Anchadan keyin Usmonning ko'rgan narsasi u sira kutmagan bir kulba bo'ldi. U toshdan qurilgan ikki xonali mo'jazgina uy edi. Kulba tekislik chekkasiga qurilgan burgut uyasiga o'xshardi. Keng maydonning ikki-uch uylik joyi haydalib ekin ekilgan, nihollar o'tqazilgan, yarmi tomorqa, yarmi bog' edi. U yerda yoshi noma'lum, kigiz po'shli, daroz, qo'ng'ir soqolli bir kishi turardi. Kulba yonida ozg'in kuchuk yotgan ekan. Usmonning otiga qarab vovullab tashlanib qoldi. Haligi kishi itga qarab:

– Tur ket, hoy yaramas, – deb baqirdi.

It darhol jimib qoldi. Lekin ko'zini Usmondan uzmasdi. Shunda Usmon haligi kishining keksa emasligini payqadi. Bo'lsa qirq-qirq beshlarda bordir. Yo'g'on va baland ovozda nimadir degan edi, it borib yana joyiga chuzildi. Ko'zlarini yumib oldi. Quloqlari

kesilgan. Ko‘ppakdayin bir ko‘ppak. Usmon yoqtirib qoldi uni. Otidan tushib itga yo‘naldi.

— Yaqinlashmaganingiz ma’qul, bek, — dedi sohibi.

Usmon kulimsiradi:

Sening gapingga kirar, axir.

U haq edi. It irillasa ham, dumini likillata boshladi. Usmon uni erkalab qo‘ydi. Keyin haligi kishiga o‘girildi:

— Men Domanich atrofini juda yaxshi bilaman deb o‘ylardim. Lekin buyerni ham, seni ham endi ko‘rib turibman. Bu yerda ko‘pdan beri yashaysanmi?

— Bu yil uchinchi yoz, — dedi kulimsirab haligi odam.

— Isming nima sening?

— Darveshga ism ne kerak? — dedi u va birozdan keyin qo‘shib qo‘ydi:

— Ism beklarga kerak... senga kerak.

Usmon kuldi. Keyin jiddiylashdi.

— Men bek emasman.

Suhbatdoshining yuzi ham jiddiy tus oldi.

Usmon kulbaning orqasiga o‘tdi.

Janubga o‘tiladigan dovon pastdagi jarlikning qarshisida, ancha pastda edi. U yerdan quyon o‘tsa ham ko‘rinardi. Usmon boshini burmay, so‘radi:

— Sal oldinroq bir otliq kishi o‘tmadimi?

Oyqut Alpni so‘rayapsanmi?

Usmon o‘girilib qaradi. Darvesh bir to‘nkaning tagini kovlash bilan ovora edi. Nima deyishini bilmay qoldi. Gapni boshqa yoqqa burdi:

— Bir o‘zing zerikmaysanmi bu yerlarda?

Darvesh o‘girilib qaradi. Quyosh yuziga tushib turardi. Sochi, soqol-mo‘ylovi, qoshlari qo‘ng‘ir, ammo ko‘zlari qop-qora, yonib turardi.

— Men bu yerda bir o‘zim emasman, — dedi u.

— Boshqa hech kim ko‘rinmayapti-ku, — dedi Usmon va hazil kulgi bilan ko‘ppakka qaradi.

Darvesh ham kuldi.

— Shunday desa ham bo‘ladi, bek.

Usmon nimanidir tushunganday bo'ldi va yana gapni boshqa yoqqa burdi.

— Juda qanoatliga o'xshaysan.

— Qayoqdan bilding buni?

— Ekin-tikinga shuncha yaroqli joylar turib, bir parcha yerga qanoat qilib o'tiribsan. Shundan bildim. Qara, soyning narigi betini, rosa yaxshi joylar ekan. Ekaman desang joy ko'p-ku.

Darvesh uning yoniga keldi:

— Bir kun bu yerga boshqalar ko'chib kelishadi, degan umiddaman. Bu joylar o'shalarga qolsin, deb o'yladim-da.

U bir oz jim qoldi-da, so'zida davom etdi:

— Bu yerni men o'zim topib, egallab olganim yo'q. Borgin deyishdi, keldim. Shu yerni loyiq ko'rishdi menga. Otang o'zi berdi bu yerni menga. Shuning uchun amallab turibman.

Usmon sharsharaning ikki minora bo'yi balandlikdan jarlikka otilishiga qarab xayolga tolgandi.

— Nomini "Harlaq" deb atadim, —dedi darvesh, suvga ishora qilib. — Uning Harlaq bo'lib qolishini va bu sharsharani Harlaq deb ataydiganlar ko'payishini istayman.

— Men ham shunga tilakdoshman, — dedi Usmon.

Darvesh uni aylantirib atrofni ko'rsatdi.

Bir burchakda qalayi eritadigan o'choq bor edi.

—Qo'limdan keladi, — dedi darvesh, — pastdagi rum qishloqlaridan idish-tovoqlarini ko'tarib kelishadi, kavsharlab beraman.

Ichkarida quritilgan turli o't-o'lan va gullar, ildizlarga ko'zi tushdi.

Darvesh izoh berdi:

— Xurosonda o'rgatishgandi. Ba'zi kasal va illatlarni davolayman. Rumlar tez-tez meni izlab kelishadi.

Usmon darvesh tutgan bir kosa ayronni ichgach, xayrlashib, otga mindi.

Ko'ppak dumini likillatib, erkalandi. Mezbon:

— Yana kutaman, — deb qoldi.

* * *

Oyqut Alp tushga yaqin ko'rindi. Ko'rinishi bilan uning Usmonga aytgan birinchi gapi shu bo'ldi:

— Darvesh yoqdimi?

Yoqdi, — dedi Usmon. O'zingiz qayoqqa boruvdingiz? — dedi Oyqut Alp.

— Shunaqa bittasinikiga, — dedi Oyqut Alp.

— Shunaqalardan yana bormi? — Anchagina bor. Haq yo'lida mehnat qilishadi, halol yashash va o'z eldoshlariga foydali bo'lishga intilishadi.

* * *

Oyqut Alp gapirar, Usmon esa tinglardi:

— Yuragida qo'ri, miyasida nuri, bilagida zo'ri bor ularning. Ham jangchi, hamda kuch sohibi edilar. Birovlari temirchilikni, po'lat quyishni, idish-tovoq kavsharlashni bilsa, boshqalari to'qish, tikishni eplardi. Ayrimlari mollarning, odamlarning kasalini tushunar, davolashardi. Ularning hammasijuda olislardan yagona maqsad bilan kelishgan. Ha, olisdan Qayi qavmi kelgan joylardan, Qayi urug'i kutayotgan niyat uchun kelishgan.

Bu maqsadning kuzatuvchisi, posboni, darakchisi va yoyuvchisi ayni shular bo'ladi. Xuddi shular o'sha maqsadni amalga oshirish fidoyilarini izlab yurishibdi.

Xuddi shu urug' Qayi qavmi bo'lishi mumkin.

Nega endi Qayi qavmi bo'lmas ekan?

* * *

Ular kelgan joydan Rum diyoriga oldin ham, keyin ham kelgan urug'lar bor. Qayidan tashqari, faqat O'g'izlarning o'zidan yigirma to'rt urug' ko'chib kelgan. Muhimi ana shu urug'larni birlashtirib, yo'lga solish lozim. Usmon bunitushuna boshladi, tushundi-yu, yuragi hovriqib ketdi: o'zini kuchsiz, hatto, umrida birinchi bor ojizdek sezdi. O'zini ovutish uchun "Buni akam eplasa kerak" deb o'ziga dalda beradi. Otasining qilichini butunlay unutgisi keladi, o'z qilichini silab-siypaydi. Bu orada akasining ustunliklarini sanay boshlaydi.

1619315

Qunduz o‘qishni biladi, yozishni ham biladi.

Qunduz kattalar bilan o‘tirib turishni, muomalani biladi.

Qunduz gapga quloq solishni, tinglashni biladi.

Qunduzning gapiga quloq solishadi, suhbatini tinglashadi.

Qunduz nozik fe’lli, nihol bo‘yli. Hamma yaxshi ko‘radi Qunduzni.

Qunduz yigitlarning guli, polvoni, jasur va mard o‘g‘lon.

Shuncha fazilatlar sohibi bo‘lgan akasi oldida Usmon nima degan gap?! Sal shiddatkorligi-yu, olishuvdagi epchilligini aytmasa, Usmon kim bo‘libdi?!

* * *

Oyqut Alp bilan suhbatda Usmon:

— Otam o‘rnini unga atagan, — degandi.

O‘shanda qariya: “Aslida gap bunday” deb anchagina narsalarni aytib bergandi:

— Endi yoz boshlangan kunlarda Erto‘g‘rul g‘oziyga bir yoqimtoy darveshning ikkita echki va bir kuchugi bilan aylanib yurganini xabar qilishgandi. Ubilan gaplashganlar muomalasini, fahm-farosatini rosa maqtashibdi. Shunda Erto‘g‘rul: “Bir kelib ketsin, uchrashaylik”, debdi.

Unga borib:

— Bek seni ko‘rmoqchi, deyishibdi.

Darveshlar beklarning oldiga bormaydi, debdi darvesh. — Beklar darveshning huzuriga kelishadi.

Uning javobini bekka yetkazishibdi.

Erto‘g‘rul g‘oziy o‘ylab qolibdi: — Mayli, boramiz, — debdi. Shunday deb darveshni izlab yo‘lga chiqibdi. Ancha izlab yurib, Burguttepada uchratibdi uni. Salom-alikdan, eson-omonlikdan so‘ng, haligi kishidan ko‘ngli yorishgan bek so‘rabdi:

— Nima qilib, aylanib yuribsan bu joylarda?

— Ko‘chib ketayinmi yoki joylashib olayinmi, deb aylanib yuribman-da, — javob beribdi darvesh.

— Biror qarorga kelolmadingmi?

— Shu, nima qilishni bilmay, boshim qotib turibdi-da...

Erto‘g‘rulbek haligi kishini yoqtirib qolibdi va yordam berish maqsadida:

— Senga nima bersam ekan? — depti.

Haligi kishi kulimsirabdi. Bek uning soddaligini ko‘rib ko‘ngli yumshabdi va “tila tilagingni” depti. Darvesh yana o‘zini soddalikka solib:

— Darvesh nimani ham tilardi? — degan javobni beripti. Keyin Burguttepa tomon qo‘lini cho‘zib: “Mana shu tepaning manavi yonbag‘rini bersang bo‘ldi”, — debdi.

Shundagina bek qarshisida kim turganini payqabdi.

— Ana shunaqa, — depti Oyqut Alp. — Burguttepani ko‘z oldingga birkeltirib ko‘r...

Hazil gap emas Burguttepa degani. To‘rt tomonni kuzatib turgan burgutga o‘xshaydi. Chor-atrof baland-past tepalar. Ko‘z yetguncha yashil qirlar, adirlar, maysazorlar. Haligi kishiga kelsak, u ikki echkisi va bir kuchugi bilan shu joylarning egasi. O‘zini katta tutayapti deb o‘ylamasligi uchun bekdan bu joylarni so‘radi. Bek buni sezdi. Sezdi-yu, unga ehtirom ko‘rsatdi. Bayramlarda, ayniqsa, zerikkan paytlarida uning oldiga borib turadigan bo‘ldi.

* * *

Ushbu hangomalardan keyin Usmon o‘z qilichi, o‘z nayzasiga ko‘proq bog‘lanib qoldi. U otasining qilichidan mumkin qadar uzoqroq yurishni ma’qul ko‘rardi. Lekin uning xohishiga kim ham qarardi. Sharoit butunlay boshqa narsani talab qilardi. Bunga qarshi borish qiyin: “Ot choptirish, qilich chopish, o‘q uzish, kiyik ovlash, qalqon teshishdan ko‘ra qiyin edi bunga qarshi borish”.

Bir qilich... O‘ylashni, yetti o‘lchab bir kesishni taqozo etardi bu qilich. Otasining qilichi edi bu!

Va yana bir qilich... Ko‘zing va qulog‘ing, g‘aming va quvonching his vahayajoning, buguning va kelajaging amrida, ixtiyorida edi bu qilich.

O‘zining qilichi edi bu!

Usmon buni juda yaxshi his etib turibdi. U hozircha o'z qilichidan boshqanarsani o'ylamaydi. U otasining qilichiga xizmat qilib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Buning ustiga Usmon akasini juda sevadi, hurmat qiladi. Boshqacha bo'lishini xohlamaydi ham. Beshta, o'nta yaxshi jo'rasi bor, bir necha dushmani ham bor. Uning Mixaildek, Zoyadek oshnasi, sirdoshi bor, Kalanoz singari g'animi ham bop.

Bundan tashqari, Ada Boliga, Dursun Faqiga, Oyqut Alpga... hatto Qunduzga, otasiga aytadigan gaplari bor uning. Usmon endi o'zini, niyatini himoya kila olishiga ishonadi. Zerikish qayoqda deysiz?!

* * *

Mezon yarimlab qolgandi. Osmonni tez-tez bulut qoplardi. Shunday damlarda tepaliklarni qorong'i bosardi. Shamollar ham avvalgiday emas, izg'irinli, etni junjiktiradi. Endi ko'proq shimol va g'arbdan esadi. Ba'zan yomg'ir savalab qoladi.

Bir safar tog'-u toshni quyuq bulut qopladi. Ulkan Domanich ko'zga zo'rg'a ilinardi. Otlar boshqacha kishnadi, qo'ylar boshqacha maradi, itlarning vovullashi ham o'zgardi, o'rmondan g'alati tovushlar eshitildi. Keyin qorabulutlar muz singari erib, suvga aylandi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, qattiq shamol turdi va kechasi bilan tinmadi.

Ertasi kuni esa xuddi yoz oylaridek osmonda uch-to'rt bulut parchalari suzib yurardi, quyosh po'rtahol rangida edi. Erto'g'rulbekning uyida to'planishgandi. Ular ko'chishga qaror qilishdi.

Buning uchun uch kun tayyorgarlik ko'rishdi. Uchinchi kun saharida chodirlar buzildi. Yuklar ulovlarga ortildi. Ko'ch-ko'ronini yig'ishtirib yo'lga tushishdi.

Karvon Burguttepaning narigi tomonidagi vodiydan keyin boshlanadigan tekislikda, Ko'shterak bulog'i yonida, boshqa yaylovlardan keluvchilar bilan qo'shilib yo'lda davom etdi.

Usmon yonida Saltuq va Rahmon bilan Burguttepadan ularni kuzatib turardi.

Dunyoda hech qanday gullar chamani bunchalik rango-rang, bunchalik go'zal tusda bo'lolmasdi. Yonbag'irlardagi daraxtlar-

ning yashilligi, qizil va sariq bir tomondan; minglarcha odamlarning moviy, ko'k, pushti, to'qqizil usti-boshlari — ikkinchi tomondan ko'zlarni qamashtirardi.

Usmonga bu xuddi tush ko'rayotganga o'xshab tuyulardi. Keyingi paytlarda u bunaqangi aralash-quralash tushlarni ko'p ko'radigan bo'lib qolgandi. Bu ko'chish chinakam tushga o'xshardi.

* * *

Zoya bilan Kalanozning to'ylari oktyabrda bo'lib o'tdi. To'y juda dabdabali bo'libdi. Hammaning og'zida o'sha to'y. Butun atrofda bu to'y haqidagi maqtovgaplar ancha vaqtgacha davom etdi.

Zoya bo'lsa to'ydan oldin, butun yoz bo'yi katta umid bilan "Usmon keladi", — deb kutdi. Buni Mixail aytdi.

— Bor, chaqirib kel, deb yalindi menga, — dedi Mixail. — Senga gapi bor ekan... sening huzuringga qochib borishga ham tayyor edi, davom etdi Mixail. — Onam ham rozi edi... Baribir ayol ayol-da, ular... Hech bo'ladigan ish emas. O'zing o'ylab ko'r. Sentyabrning boshlarida "borasan" deb turib oldi."Agar bormasang akam demayman" deb Xudoning zorini qildi. Qarasam, bo'lmaydigan, "mayli" dedim. Ikki kun ko'ziga ko'rinmay yurdim, keyin "topolmadim" deb aytdim. Mana shunaqa, hech bo'ladigan ishmi bu? Dini boshqa bo'lsa, zoti boshqa... Kim ham rozi bo'lardi?

Usmonning yuzidan, qarashlaridan hech narsa tushunmadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, so'zida davom etdi:

— Keyin... Kalanoz ham menga oshkora aytdi, nimadandir shubhalanardi, shekilli, o'sha kunlarda... Singlingni o'sha to'pori turk bilan ko'rsam, chatoq bo'ladi, deb...

Xuddi shunda Usmonning yuzi ham, qarashlari ham ko'p narsani anglatdi Mixailga. Mixail dovdirab qoldi:

— E, Usmonjon, bo'lgan ish bo'lib o'tdi. Men bularni o'sha pastkash Kalanozning senga munosabatini bilgin, g'aflatda qolmagin deb aytdim. Biz o'zimizga ehtiyot bo'laylik.

— Ha, ehtiyot bo'laylik, — dedi Usmon.

Bu gap, to'g'rirog'i, bu gapni aytishga undagan vaziyat Usmonning taqdiriga aloqador edi.

Inonyu begi Mahmud Usmonni kelgusi hafta bo'ladigan ziyofatga taklif qilgandi. Ziyofatda Eskishahar begi Az-Zohid, Kulaja qal'asining hokimi Yorgopulos va tevarak-atrofdagi bir qancha sardorlar ham qatnashi kerak edi.

Usmon tushga yaqin kelgan chorlovchiga borolmasligini aytgandi. Biroq u Mixailning gapidan so'ng fikrini o'zgartirdi:

— Qani, Mixail, ketdik bo'lmasa, — dedi, otlariga minishdi. Ular bugun Sungur Tekin ziyofatiga borishlari kerak edi. Bekning ziyofatlari juda mashhur edi. Bu oqshomgi o'tirish ham shu dovruqqa mos o'tdi. Istaganlaricha yeb, istaganlaricha ichishdi. Sozlar chalinib, raqqosalar xiromon aylashdi, hamma miriqib ko'ngil yozdi.

Usmon u-bu narsadan bir oz tatib ko'rganidan so'ng Sungur Tekin ko'rsatgan xonaga kirib cho'zildi-yu, darhol uyquga ketdi. Ertalab barvaqt turdi-da,boshqalar hali uyg'onmasdan otini egarladi. U Itburniga tomon, o'zining buyuk qismatiga tomon bedovini uchirib borardi.

Itburni Ada Bolining qishlog'i edi. Shayxning bu qishlog'i kichkina, lekin juda so'lim, sersuv, ozoda bir manzil edi. Shayxning xonaqohi uyining shundoqqina yonboshida bo'lib, kelib-ketuvchilar yotib qoladigan karvonsaroyga, karvonsaroydan ham ko'proq mehmonxonaga o'xshardi. Shayxning saboqlari ham Dursun Faqi bilan qilgan suhbatlaridan, bahslaridan va savol-javoblardan iborat bo'lardi...

* * *

Usmon xonaqohga tushdi va shayxga xabar yubordi. Lekin shayx Ada Boli emas, Dursun Faqi yetib keldi.

Ada Boli "Xush kelibdi" deyaptilar, — dedi Dursun Faqi Usmonga. —Marhamat qilib, kirsin, dam olsin, — dedilar.

— Bir ko'rib ketsam, degandim, — dedi Usmon hafsalasi pir bo'lib.

— Chopar aytdi. Shayxim Ada Boli: "Hozir vaqti emas" deyapti. Marhamat qil, damingni ol. Sut, ayron deysanmi, istaganingni muhayyo qilishadi...

Usmon "Keragi yo'q" degandek boshini sarak-sarak qildi. Dursun Faqi shirin jilmayib:

— Demak, faqat o'zini ko'rmoqchisan, shundaymi, — dedi. Nima, birorgap bo'ldimi? Yo menga aytging yo'qmi, Usmonjon...

— Unday ekan, men ham vaqti bo'lgunga qadar kutaman...

Dursun Faqi avvaliga shoshib qoldi, keyin zavqlanib:

Yashavor, Usmonjon, — dedi, — qani, gapir-chi?

Ular ichki hovlida edilar. Hovli derazalari katta va kichik xonalar bilan o'rab olingandi. O'rtada esa har burchagida bittadan jo'mragi bo'lgan oltiburchakli favvora bor edi. Hovli yo'lagi darvozasiz. Undan bir arava bemalol kirsa bo'lardi. To'rt tomoni panjarali ayvon bilan aylantirilgan ikkinchi qavatga o'n besh zinali narvon bilan chiqilardi.

Dursun Faqi "Qani gapir-chi" deganicha shu narvon tomonga boshladi. O'zi oldinda, Usmon uch zina pastda, asta-asta bosib tepaga ko'tarildilar. Bu qavatda ham eshiklari ayvonga ochiluvchi xonalar bor edi. Dursun Faqi Usmonni o'ngtomondagi xonaga boshlab kirdi.

— Mana yerda qolasan.

Usmon atrofni ko'zdan kechirarkan, u qo'shib qo'ydi:

— Otang Erto'g'rulbek g'oziy ham sen tug'ilmasdan burun shu yerda yotib qolgandi. Uxlashdan oldin shayxim Ada Boli bilan gurunglashgandi... Men tezda qaytib kelaman.

Shunday dedi-yu, chiqib ketdi.

Yerga bo'yra to'shalgan. Ustidan gilam solinibdi. To'rda bitta deraza: Bu tomonda devor bo'yi divan. Divanning ustiga gilam to'shalib, yostiq, bolishlar tashlab qo'yilgan.

Eshikning ro'baro'sidagi devorda mo'jazgina bir joynamoz ilig'liq. Joynamozning tepasidagi mixga usti kashtali duxoba xaltacha osib qo'yilibdi.

Eshikning o'ng tomonidagi devorda ikki taxmon, ularning oralig'ida naqshinkor chiroq toqchasi. Toqchada bronza shamdon turibdi. Usmon shamdonning yonida bir necha Saljuqiy va Vizantiya tangasini ko'rdi... Ataylab, ko'rishsin deb qo'yishganga o'xshaydi.

Usmon divanga o'tirdi. Negadir bemalol o'tirolmadi. Derazadan atrofnikuzata boshladi.

Va Malhun Xotunga ko‘zi tushdi. Yo‘q, ko‘rmadi: u Malhun Xotunni ko‘rgani yo‘q, xayol olib qochdi, shekilli. Yo tush ko‘rayapman deb o‘yladi. Atrofga yana ko‘z yugurtirdi. Pastqam devor bilan o‘rab olingan kenggina bog‘. Bog‘ning bir chekkasida og‘il va katak. Ularning o‘rtasida yerto‘la ustiga qurilgan ikki qavatli uy.

Usmonning ko‘ziga tashlangan shular. Ko‘rganlariga yana bir-bir nazar solib chiqdi. “Tavba, og‘ildan chiqib, g‘izillab uyga kirib ketgan kim bo‘ldi? Xuddi uchib o‘tganday bo‘ldi-ya?!”

Usmon uning qoshi, ko‘zi, yonoqlari, sochi, bo‘yi-basti, kiygan ko‘ylagi, rangi-ro‘yi qandayligini aytib bera oladi, Xudo haqqi, aytib bera oladi. Ammo nima bo‘lganini aytib berolmaydi: tush ko‘rdimikin... Yo xayol qildimikin?

Usmon yo‘tal tovushini eshitib o‘ziga keldi. Yo‘talgan yoki yo‘talganday bo‘lgan bir yosh yigit edi. Usmondan uch-to‘rt yosh kichikroq bo‘lsa kerak. Chamasi, o‘nbesh-o‘n olti yoshlarda, yelkador, Usmon singari qoramag‘iz.

— Marhamat, bek! — u Usmonga mis mashrapada[1] ayron tutdi. Gullibuloq suvidan, bek. Gullibuloq suvi shifobaxsh.

Usmon mashrapaga qo‘l cho‘zayotganda Dursun Faqi qaytib kirdi. Uning yonida baland bo‘yli, siyrak soqolli, iliq chehrali, bug‘doyrang bir kishi bor edi.

Dursun Faqi uni ko‘rsatib:

— Qumral Abdal, — dedi. Usmon qo‘lida ayron to‘la qo‘lchani hamon ushlabturganini endi tushundi. Uni olib kelgan yigit eshik oldida kutib turardi. Usmon ayronni bir ko‘tarishda sipqordi. Qumral Abdal qo‘lchani olib yigit ushlab turgan patnisga qo‘ydi. Yigit chiqib ketdi. Usmon “Bu kim?” deganday Dursun Faqiga qaradi.

— Shayxim Ada Bolining o‘g‘li. Ismi Husomiddin Turg‘ut, — dedi Dursun Faqi.

Usmon o‘rnidan turdi. Shamdon turgan tokcha yoniga bordi. Tangalarni olib, qo‘lida naridan-beri ag‘darib ko‘rdi. Joyiga qo‘yarkan, so‘radi:

[1] **Mashrapa** — qo‘lcha, suv ichiladigan idish, finjon.

— Bular nima?

— Saljuqiylar va Vizantiya tangalari, — dedi Dursun Faqi.

— Narigi xonada ham ko'rdim. Nega qo'yishgan bularni?

— Mehmon zerikmasin, ko'rsin deb qo'yishgan. Buni Sulton Alouddin shayx Ada Boliga hadya qilgan. Xorazmda zarb qilingan...

— Buni aytmayapman, — dedi Usmon. — Anavi xaltachada kitob bor, shekilli?

— Ha, kitob, — dedi Dursun Faqi. — "Qur'on". Allohning Kalomi. Mehmon kechasi uyqusi qochsa o'qisin deb qo'yilgan. Uni o'qisa ko'ngli yorishadi, begim...

Usmon boshini xam qilgandi. G'alati ahvolga tushganidan ularga qaray olmasdi. Ming'irladi:

— Men bek emasman!

Dursun Faqi yo eshitmadi, yoki o'zini eshitmaganga soldi, gapida davom etdi.

— Oldin aytgandim, Usmonjon, otang Erto'g'rul bek g'oziy ham shu xonada tunab qolgandi.

Keyin to'xtab:

— O'tir, Usmonjon, o'tir, shunda biz ham o'tiramiz, — dedi. Shundak o'zimiz ko'zga tushadi, suhbatimiz ham qovushadi...

Usmon dunyoning eng og'ir amriga bo'ysunayotganday divanga cho'kdi. Qumral Abdal yerdagi ko'rpachaga cho'kkaladi. Dursun Faqi ham Usmonning sal berirog'iga o'tirib, gapida davom etdi:

— Otang Erto'g'rulbek G'oziy ham shayx Ada Bolidan: "Bu kitob nima" deb so'ragandi. — Usmon toliqqan edi, xuddi tush ko'rayotganday, Dursun Faqining ovozi olis-olislardan quloqqa chalinayotganday bo'lardi.

* * *

Ular chiqib, Erto'g'ul yolg'iz qolgach, Bismilloh deb, "Qur'on"ni olibdi. Qiblaga qarab o'qiy boshlabdi. Shu ko'yi, tong otguncha, tikka turganicha o'qiy beribdi. Faqat xo'rozlar qichqira boshlagach, divanga o'tiribdi-yu, uyquga ketibdi.

Bir soatlar chamasi cho‘zilgan ana shu uykusi chog‘ida Erto‘g‘rul g‘alati bir tush ko‘ribdi:

Go‘yo gapirayotgan “Kur’on” emish, ishonch, e’tiqodmish. Bu ovoz shunday dermish: sening va farzandlaringning, ularning farzandlarining farzandlari va urug‘larining shon-sharafi va qudrati hamda yuksalishi Alloh Kalomiga ko‘rsatgan hurmat va e’tibordadir.

O‘sha kechasi tikka turgancha “Kur’on”ni o‘qiyotgan Erto‘g‘rulning derazaga tushib turgan soyasini ko‘rganlar bor edi. Dursun Faqi ana shulardan bittasi edi. Ayni shu Dursun Faqi Usmonning otasi Erto‘g‘rul xuddi shu joyda yotib qolgani, tush ko‘rgani, ertasi barvaqt bizlar uning oldiga chiqqanda ko‘rgantushini gapirib bergani, duolar o‘qiganini so‘zladi.

* * *

Usmon o‘sha kuni boshqalar bilan birgalikda nonushta qildi. Yo‘lga chiqmoqchi edi-yu, hech oyog‘i tortmadi. Xuddi qo‘l-oyog‘i bog‘liqdek o‘ziga bo‘ysunmasdi. Havo bulutli, yomg‘irmi, qormi yog‘adiganga o‘xshardi. Hech bunaqa bo‘lmagandi. Negaketishga oyog‘i tortmay qoldiykin?

O‘sha joyida, divanda o‘tirgancha, Ada Bolining bog‘iga qaragan derazadan tashqarini kuzatardi, qalbini qandaydir baxtiyorlik egallagandi. Bu baxtiyorlik, bu orzumandlik avvallari his etgan quvonch va baxtli onlarning hech qaysi biriga o‘xshamasdi. Yuragi nega buncha bezovta bo‘layapti? Bu tuyg‘u qayerdan paydo bo‘ldi? Usmon o‘ylab o‘yiga yetolmasdi. U endi tushuna boshlaganday edi. Yo‘q, bu na tush, na xayol. Haligi ko‘rgani xuddi o‘sha edi. O‘zini bu yerda qo‘l-oyog‘ini bog‘lab kuttirayotgan o‘sha edi. Usmon unga shaydo bo‘lib qoldi. Ko‘z o‘ngida, ko‘nglida, miyasida o‘shandan bo‘lak hech narsa yo‘q edi. Zero, qiz uydan chiqib, bog‘ni Usmon qarab turgan deraza ro‘parasidan kesib o‘tgan va ko‘chaga chiqib ketgandi. Usmondan atigi o‘n qadam naridan o‘tdi u. Boshini ko‘tarib osmonga qaradi... Go‘yo, yo Tangri, Usmon o‘sha yuzni yaxshiroq ko‘rsin, maftun bo‘lsin, kuyib kul bo‘lsin deb shunday qilganday edi.

Usmon oshiq bo'lib qoldi, qalbiga o't tushdi, yuragi hovriqdi, nima qilarini bilmay o'rnida chir aylandi. Keyin eshikka otildi. Tashqarida kimgadir duch keldi, kimligini ko'rmadi ham — qo'lidan ushlab deraza oldiga yetakladi:

— Anavi ketayotgan kim? — deb so'radi.

— Singlim, — dedi u.

Usmon shundagina o'girilib Husomiddin Turg'utni, Ada Bolining o'g'liniko'rdi:

— Singlim deysanmi?

— Ha-da! — dedi Husomiddin. Joni og'ridi, shekilli, qo'lini Usmonning changalidan qutqarishga urinardi. Usmon qo'lini qo'yib yuborgach, qo'shib qo'ydi:

Bir yosh kattaman.

— Ismi nima? — so'radi Usmon.

Malhun Xotun.

Usmon yana nima so'rashni bilmay:

— Nima, shayx otang betobmi? — dedi.

— Yo'q. Xudoga shukr, yaxshilar.

— Bo'lmasa meni ko'rgisi kelmadimi?

— Bilmadim, — dedi Husomiddin. — Ba'zi narsalarning vaqti kelishini kutadigan odatlari bor...

Usmon ham shunga ishonishni istardi, ming'irladi:

— Dursun Faqi ham shunday degandi.

* * *

Usmon o'sha kuni ham, ertasiga ham qoldi Itburnida. O'sha kuni ham, keyingi kuni ham ko'rdi Malhun Xotunni. Ko'rgani sayin ko'rgisi kelaverdi.

U xonoqohda nimalar bo'layotgani, kimlar kelib ketayotgani bilan qiziqmasdi ham. Faqat bilgani shu bo'ldiki, Qumral Abdal yunonchani juda yaxshi bilarkan.

U yetti kishilik guruhga yunon tilidan saboq berarkan. U uchinchi kuni ertalab eshikka chiqib, bog'ining pastkam devori yonida Malhun Xotunni kuta boshladi.

Tong endi oqarib kelayotir, maydalab yomg'ir yog'ardi. Qiz uydan chiqdi, og'ilxonaga yo'naldi. Usmon chaqirdi.

— Husht... Malun Xotun.

Qiz to‘xtadi. Qo‘lida sutchelak. Qayrilib qaradi, jilmaydi.

— Labbay.

Usmonning yuragi gup-gup ura boshladi. Nihoyat, tili kalimaga keldi:

— Iltimos, sal beriroq kel...

Qiz hech tortinmay, kulimsiraganicha yaqinroq keldi. Kutib turdi. Bir-biriga qarab olishdi. Qizning kulimsirashi to‘xtadi, rangi quv o‘chdi. Usmon:

— Men... — dedi-yu, davomini aytolmadi.

Qiz jilmayishga urindi:

— Bilaman, Siz Erto‘g‘rulbek g‘oziyning o‘g‘li Usmonjonsiz...

— Haligi, — dedi Usmon, — men... seni judayam sevib qoldim...

Qiz seskanib ketganday bo‘ldi. Lablari yanada kattalashdi. Usmonning kuzlariga tikildi. Keyin boshini burib, xamqildi. Xuddi tepalikka chopib chikkanday zo‘rg‘a nafas olardi. Ovozi zo‘rga chiqdi:

Unday bo‘lsa, surattiring...

Qiz shunday dedi-yu, g‘oyib bo‘ldi.

O‘sha kuni kechqurun Dursun Faqi Usmonga:

— Shayxim seni ko‘rmoqchi,— dedi.

Dursun Faqi Usmonni xonokohdan ko‘rinib turgan asosiy uyning orqasidagi uchta zina bilan chiqiladigan, bir qavatli, kattagina ikki xonali uyga boshlab bordi. Ada Boli qariyb hech qanday ashyosi bo‘lmagan, poygakiga bo‘yra to‘shalgan xonada, namat ustida tiz cho‘kib o‘tirardi.

Usmon tez va shaxdam odimlar bilan uning yoniga bordi, qo‘lini o‘pishga harakat qildi. Shayx bunga yo‘l qo‘ymay, qo‘liga Usmonning qo‘ulini olib ko‘rishdi va darhol gap boshladi:

— Meni ko‘rmoqchi ekansan, vaqti emas, dedim. Vaqtni tilagan kutadi, Usmonjon. Vaqtni sabr va sabot topadi. Sening sabring, saboting va azming ma’lum bo‘ldi. Meni ham xursand qildi. Chunki bular eng yuksak fazilatdir. Xushvaqt bo‘l!

Usmon qizardi, bo‘zardi, o‘zini tiyib turolmadi. Dilidagini to‘kib soldi:

Alloh bilgan narsani sizdan yashirishga uyalaman, Ada Boli. Men vaqtni kutganim yo‘q. Men sizga bir gapni aytish uchun kutdim. Nima desangiz deng, ne istasangiz qiling. Ada Boli, men sizning qizingiz Malhun Xotunni sevib qoldim...

Usmonning orqasida kimdir “eh” degandek bo‘ldi. Dursun Faqi bo‘lsa kerak. Lekin Ada Boli shoshmadi ham, hayratlanmadi ham. Usmonga kulimsirab karab turardi. Indamasdi. Usmon gapirishga majbur bo‘ldi:

— Albatta, shariatga, qonun-qoidaga binoan nima kerak bo‘lsa, qilinadi. Lekin men sizning bilib qo‘yishingiz ma’qul deb uyladim. Sizga xurmatim boisi buni yashirishni lozim topmadim. Buni o‘zimga deb bildim.

Ada Boli kulimsirab turardi. Nihoyat, Usmonga Sivriqoyadagi suhbatdan yaxshi tanish bo‘lgan ovozda dedi:

— Ha, Usmonjon, rost gapni aytding. Undoq bo‘ladi, bundoq bo‘ladi. Lekin qandoq bo‘lganda ham odati bilan bo‘ladi. Sizlarga ham, bizlarga ham yarashadigani shu. Sen hech narsaga chalg‘imay So‘g‘udga bor. Onang, otang bilan gaplash. Nima bo‘lsa, o‘sha bo‘ladi...

Va o‘sha zahoti, tovushini o‘zgartirgan holda:

— Dursun Faqi, — dedi.

Bu kuzatib qo‘y, degani edi. Buni yaxshi tushungan Usmon itoatkorona Dursun Faqiga ergashdi.

Ol-Ishiqning yem xaltasini boshidan olib yuganini soldi, egarladi. Uni nariroqda kuzatib turgan Dursun Faqi:

— Eh, Usmonjon, — dedi, — menga sal oldinroq shipshib qo‘ysang nima qilardi.

Usmon unga g‘alati qarash qildi. Nima demoqchi ekanini tushunish qiyin edi. Otning sag‘riniga qamchi soldi:

— Chu, jonivor!

Ol-Ishiq Usmonning nima istayotganini, qaerga borish kerakligini, qanday borish lozimligini yaxshi bilardi. U orqadan qarab qolganlar ko‘zidan zumda g‘oyib bo‘ldi. Ikkinchi qamchiga hojat yo‘q edi. Jonivor sohibini ko‘p o‘tmay So‘g‘udga yetkazdi.

Xufton namozi o‘qilayotgandi. Shivalab yomg‘ir yog‘ar, harorat ancha pasaygan, qor yog‘adiganga o‘xshardi. Usmon to‘g‘ri

otasining uyiga bordi. Otidan tushib, yetaklab oldi. Eshikni taqillatdi. Ichkaridan "Kim u?" degan ovoz keldi. Bu onasining ovozi edi.

— Menman, oyi, — dedi Usmon. Eshikni ochgan onasiga bor gapni aytdi. Otam bilan gaplashing. Malhun Xotunga sovchi yuboringlar, — dedi gapni qisqa qilib.

Ada Boli Usmondan keyin o'yga toldi. Farzandlarini juda yaxshi ko'rardi, lekin Malhun Xotunga mehri bo'lakcha edi. Uni juda avaylardi. Unga birornarsa bo'lmasin deb jonini berishga ham tayyor edi. Kechasi bilan Usmonni o'ylab chiqdi.

Usmon o't-olov.

Yigitlarning mardi.

G'ururli yigit. Har jihatdan o'ylab ko'rdi. Ada Boli uning mardligini, jasurligini, yaxshiligini, vafodorligini, ko'ngilchan va botirligini ham yaxshi biladi. Ammo qizining baxti haqida gap ketarkan, bu fazilatlarning o'zi yetarli bo'larmikin?

Bundan tashqari Ada Boli Usmonning o'ta harakatchan, uchar yigitlardan ekanini ham yaxshi biladi. Eh-hye, bu Qora Usmon Rum qishloqlaridan tortib butun atrofda mashhur.

Xullas, Ada Boli qaysi tomondan qaramasin sira ko'ngilga o'tirmaydi. Lekin Erto'g'rulbek g'oziyga nisbatan hurmat-ehtiromini o'ylab:

— Eh-h, — deb qo'ydi.

Qizini so'rab sovchilikka kelgan Erto'g'rulbek G'oziy vakillariga ham:

Fe'llari mos emas, ishqilib, Alloh ikkalasiga ham o'z tengini nasib qilsin-da, degandi.

* * *

Usmon butunlay o'zgardi, majnunga aylandi-qoldi: qish-qirovli kunlarda tog'larga yo'l oladi, ovga chiqadi. Aysh-ishrat, ko'ngilochar o'yinlarga moyil bo'lib qoldi.

Ada Bolidan javob kelar-kelmas otasi uydagilarni ogohlantirdi:

— Ehtiyot bo'lsin, qizning yo'lini to'sib yurmasin tagin: Ada Bolini xafa qilib yurmasin. Bizlar uchun ham, ular uchun ham

sha'n va or-nomusga dog' tushiradigan ishlarga qo'l urmasin, — deb tayinlattirdi.

Shunga qaramay, Usmon bir kuni Malhun Xotunning yo'lini to'sib chiqdi:

"Seni olib qochmoqchiman", dedi. Lekin Malhun Xotunning gaplaridan dovdirab qoldi:

— Sizni yoqtiraman. Bo'lmaydigan ishni boshlab meni o'zingizdan sovutmang. Yoki mening o'limimni istaysizmi? — dedi. Otamga yoqishga harakat qiling.

Men urf-odatdan, onam va otamning so'zidan chiqolmayman. Ishingiz otam bilan hal bo'ladi.

— Men to otangga ma'qul bo'lgunimga qadar seni tinch ko'yisharmidi?!

— Otam xohlamagan odamga rozi bo'lolmayman, — dedi Malhun Xotun Usmonga javoban. — Lekin, otam xohlasa ham o'zim xohlamagan odamga "xo'p" deyaolmayman.

Usmon devonalarday sevar va endi o'zini ham sevishlariga ishona boshlagandi. Lekin vaziyatni tushunishni istamas, qabul qilolmasdi. Endi u his-tuyg'ularini yashirolmas, dardini do'stlariga aytar, sevgilisini maqtar, Malhun Xotunning go'zalliklarini ta'riflay ketardi.

Usmonning bu ta'riflari shu qadar keng yoyildiki, Eskishahar begi, asli saljuqiylardan bo'lgan Az-Zohid ham Malhun Xotunga uylanishni niyat qilib, katta sovg'a-salomlar bilan Ada Boli uyiga sovchilar yubordi.

Ada Boli bu odamni yaxshi tanirdi. Az-Zohidning ichkilikka berilgan birpalid ekanini, or-nomusdan yiroqligidan xabardor edi. Shu boisdan xotinidan ham, qizidan ham surab o'tirmay, bo'lmaydi deb, qatiy javob berdi.

Az-Zohidda bet bor deysizmi? Janjalning uyasi. Koshki odobaxloqning ko'chasidan o'tgan bo'lsa. Yana odam qo'ydi. Yalinib-yolvordi. Javob o'sha. Do'q-po'pisa qildi: javob o'sha-o'sha.

Lekin Ada Boli uning qo'lidan har qanday yomonlik kelishini ham yaxshi tushunardi. Do'stu birodarlari va muridlarining zo'rlashi bilan: "Yuzi qursin, falokatdan nari bo'laylik" deb Itburnidan So'g'udga yaqin bo'lgan Tepapinarga ko'chib o'tishdi.

Az-Zohidning a'yonlari bu ko'chishni Erto'g'rulga sig'inib borish deb ta'riflashdi.

— Zotan, Usmon tufayli qizini senga bermadi,— deyishdi.

Bu ham o'sha mayxo'rning Usmonga tish qayrashigga sabab bo'ldi.

— Men unga ko'rsatib qo'yaman,—dedi Az-Zohid alam bilan.

U bir tomondan Ko'nyo saroyiga xabarlar yuborib Qayi qavmi va Ala Bolidoirasi isyon ko'tarish niyatida deb chaqib, bu borada ancha muvaffaqiyat qozondi. Buning ustiga, Usmonga qasd qilib:

— Men unga ko'rsatib qo'yaman hali, — deb jar sola boshlagandi.

Fevral kunlarining birida Az-Zohidning odamlari unga xabar yetkazishdi:

— Usmon ertaga kechqurun Inonyu viloyati beginikida bo'ladi...

Az-Zohid tishlarini g'ijirlatib:

—Demak, ertaga kechqurun Usmonning so'nggi kuni bo'larkan-da, — dedi ming'irlab.

Ada Bolidan biror natijaga erisha olmaganligi va atrofdagi gap-so'zlar uni yanada g'azablantirdi.

Shayxning Usmonga "Yo'q" deyishi ko'p ma'noni bildiradi. Chunki uning bir qarorga kelganiga ancha bo'lganligi aniq. So'g'udga ko'chib o'tishi ham shuni ko'rsatib turibdi.

Az-Zohid o'ylab o'yiga yetolmasdi: Ada Bolining istagi pul va boylikda emas. Chunki bular uning o'zida oshib-toshib yotibdi. Ada Boli shu atrofning eng badavlat kishilaridan biri. Pulga muhtoj joyi yo'q. "Yo'q, u juda aqlli odam. Vaziyatga qarab ish tutadi, — deb o'yladi Az-Zohid, — menimcha, u beklikni ko'zlayapti".

Erto'g'rul to'qsonni qoralab qoldi. O'g'illaridan Savjini ko'chish ishlariga tayinlab qo'yibdi. Qunduz aqlli, bilimdon, lekin rahbar, yo'lboshchi bo'lish, beklik qilish xislatlari yo'q uning. Botirlik, chapdastlik va jangovarlik yetishmaydi unda. Lekin bu xislatlar Usmonda bor. Biroq uning yetakchilik qilishga ishtiyoqi yo'q. Mayda guruhlar bilan ish olib borishni yaxshi ko'radi.

Urug‘-aymoq tushunchalari unga begona. Rahbarlik qilish, boshqarishga emas, ko‘proq boshqarilishga moyil...

Ala Boli qiziga oshig‘u beqaror bo‘lib qolgan Usmonni qo‘lga oldimi, tamom, Qayi qavmini buysundirgan bo‘ladi. Bu elat o‘ta intizomli, fidoyi xalq.

Ala Bolining maqsadi mana shu.

— Malhun Xotun Usmonga, Usmonning qavmi esa unga... — o‘ylaydi Az-Zohid.

Az-Zohid chiqargan bu hukmiga qat’iy ishonadi, boshqacha bo‘lishi mumkin emas deydi va yana tishlarini g‘ijirlatib takrorlaydi:

— Ertaga kechqurun Usmonning so‘nggi kuni bo‘ladi. — xayollariga erk berdi.

Az-Zohid shunday qarorga kelganidan ancha huzur qildi. U saljuqiylar saroyini Ada Bolining niyatlariga ishontirsa bo‘ldi,

So‘g‘udni ham osonlikcha o‘z tasarrufiga oladi.

Shunda qarabsizki, Usmon o‘rtadan olib tashlansa, Malhun Xotun ham chorasiz qolib o‘ziniki bo‘ladi-qo‘yadi.

Az-Zohil ertaga kechqurun Inonyu begining uyida bo‘ladigan ziyofat nima ekani, qanday bo‘lishini va necha kishi qatnashishini yaxshi bilardi. Yasovuliga:

— Ertaga kechqurun o‘n besh otliqni shay qilib qo‘y, — dedi. Keyin qo‘shib qo‘ydi:

— Eng urishqoqlardan bo‘lsin!

OLISHUVDAN TASHQARI BIR KISHI

Usmon Malhun Xotundan ko‘ngil uzgani yo‘q, chunki beklardan, boylardan kelayotgan sovchilarni Ala Boli armug‘on ortilgan tuyalari bilan birgalikda qaytarib yuborayotir. Usmonga nisbatan yomon gap aytmasa-da, ikkinchi va uchinchi bor yuborgan sovchilarini ham:

— Fe’llari mos emas, — deb qaytarib yubordi. Sovchilarga javob berarkan: — Xudo ikkalasi uchun ham nima ma’qul bo‘lsa,

shuni nasib aylasin, — degan so'zni takrorladi. Usmon buni biladi. Nimanidir ko'ngli sezib turibdi: Ada Boli uning o'zidan nimadir umidvor. Lekin bu nimaligini Usmon hech tushunolmayapti. Necha bor o'zidan borib so'ramoqchi ham bo'ldi. Lekin baribir, shayx yana o'sha gapni ayttirib yubordi:

— Hali vaqti emas, Usmonjon.

Hatto Malhun Xotun ham endi Itburnidagiga o'xshab o'zi bilan uchrashuvga rozi bo'lmayapti. O'zini olib qochyapti. Xullas, Usmonjonning ahvoli chatoq. Bir qarasang, devona sifat, majnundek tentirab o'zini qaerga qo'yishni bilmaydi. Bir qarasang ko'z oldi qorong'ilashib, duch kelgan narsani urib sindirgisi, yer bilan yakson qilgisi keladi. Ba'zan uzlatga chekinadi. Akalarini, jo'ralarini, hatto onasini ko'rgisi kelmaydi. Qish, hammayoq qor bo'lishiga qaramay, otiga qamchi bosib, qir-adirlar bo'ylab qushday uchiradi. Lekin bunday ot qo'yishlar ham endi uni ovutmaydi.

Ana shunday yolg'iz qolgan paytlarida ich-ichidan ezilib, yig'lab-yig'lab olardi. Ba'zan onasiga borib yolvorganday termilardi.

Qani endi shunda onasi:

— Qo'y, bolam, qancha-qancha Malhun Xotunlar sening joningdan aylansin... qo'y, o'kinma, — desa.

Hech bo'lmasa:

— Senga nima bo'ldi, dardingni ayt, bolam, — deb ham so'ramaydi.

Yo'q, onasi uning dardini tushunadiganga o'xshamaydi. Gapni nuqul boshqa narsaga chalg'itadi.

Borib Qumral Abdal bilan turgan Dursun faqiga yorildi Usmon: — Shayxingiz rozilik berishi uchun nima qilishimni istaydi?

— Hoy Usmonjon, — dedi Dursun Faqining jim qolganini ko'rgan Qumral Abdal, — aytaylik, nima qilishingni istashingni bilolmayapsan. Lekin nima qilishing kerakmasligini istashini o'ylasang-chi? Ishni mana shundan boshlasang-chi?

Bu so'z Usmonni o'ylantirib qo'ydi! U bu ikkalasi bilan xayrlashib ketgach, ancha bosh qotirdi. Domanichdagi o'sha oqshomni, Sivriqoyadagi suhbatni esladi. Ada Bolida otasi Erto'g'rulni, bobosi Sulaymon Shohni va Qoya Alpdan Qizil Bugaga, Boyin-

turga, Oyquluqqa, ulardan ham nari, butun ota-bobolarini ko'rganday bo'lishini esladi. Usmon Sivriqoya manzaralarini eslaganday bo'ldi.

Vodiyning cheksiz kengliklaridan, archazorlarning olis xilvatgohlaridan keluvchi guvullashni ham, yaylovlardan eshitilgan vovullashlarni ham, uzoq-uzoqlardagi tepalik orqasidan paydo bo'lgan oltin yoymisol hilolni ham eslay boshladi.

* * *

Usmon o'sha Sivriqoya kechasida, Ada Boli yorug'i so'nib borayotgan bir soyamisoli g'oyib bo'lib ketganidan so'ng, mana shularni o'ylaganiga ishona boshladi.

Lekin o'ylaganlari nima ekanini anglab yeta olmayapti. Shuning uchun ham endi o'zini o'ylayoganlarini tushunib olishi uchun intilib yashashga majbur deb hisoblaydi.

Holbuki, kun peshinga kelib qolgan va Usmon bir ozdan keyin Inonyuga qarab yo'lga chiqishi kerak. O'zi bilan olib boradigan jo'ralari ila shunga kelishgan edi.

Esiga shu tushib, to'xtab qoldi:

— Qiziq, Ada Bolining istamaganlari orasida shu ziyofat ham bormikin?

Lekin endi fikrini o'zgartirish qiyin. Vaqt o'tdi. Endi kech. Bo'lganicha bo'lar. Buni keyin o'ylab bir qarorga kelarman, deb yo'lga tushdi.

* * *

Usmon besh jo'rasi bilan So'g'uddan Inonyuga qarab otlarini yeldirib borisharkan, xayolidan shu kechdi. Bunaqangi o'tirishlarga ko'p martalab ot uchirib borgan.

Inonyu... Inago'l. Mudurni va undan ham narigi tomonlar; mazkur ziyofatlarga borar ekan, hech qaysi birida, loaqal bir marta uzoqlikni xayoliga keltirmagandi. O'rtoqlari bilan hazil-mutoyiba qilib, qah-qah urib, na'ra tortib, qo'shiqlar aytishib, goho bahslashib va bellashib, bir pasda Iznik ko'li sohiliga yoki Ulutog' etaklariga yetib kelishganini bilmay qolishardi.

Ilk bor shunday bo'lishi, Inonyu yo'li unga birinchi marta uzoq ko'rinib ketdi. Negadir yuragi siqilib g'ashi keldi. Ko'ngli boshqa

narsalarni tusaganday bo'ldi. Usmonning yodiga yana Ada Boli, uning aytganlari, Ada Boli yonida ot o'ynatib yurishi tushdi.

— Hoy Usmonjon... Senga aytayapman, Usmon! — deya baqiradi bir ot narida arg'umog'ini yeldirib kelayotgan Saltuq Alp. Usmon uyqudan uyg'onganday, qayrilib unga qaradi.

— Namuncha xayolga sho'ng'iding? — dedi Saltuq Alp.

Sungur ham u bilan yonma-yon kelayotgandi.

— Nima degan gap, sen o'zing bilan ovora, Qo'nur Alp uzi bilan, — dedi Sungur, — yo'lda yo'ldosh bo'lishdan hech ma'ni qolmadi.

Ular baravar ot qo'yib borishyapti.

Usmon Ol-Ishiq bilan o'rtada.

O'ng tomonida G'ozi Rahmon, chap yonida Sungur. Ikkovining arg'umog'i ham bo'zg'irot.

Eng o'ngdagi Saltuq Alp bilan chapdagi Abdulloh va Oqcha Xo'ja to'riq otlarga minishgan.

Anchadan beri Usmonning Ol-Ishiqiga mos holda otlarini yo'rg'alatib borishyapti. Har birining otiga gullari har xil xurjunlar solingan. Ularda kechqurun bo'ladigan ziyofatga sovg'a tariqasida qirg'ovul, kiyik to'shlari, asal, qaymok, pishloqlar bor. Usmon alohida Inonyu begiga ipak joynamoz ham olib borayapti.

Cholg'u asboblari ham hamisha yo'lga chiqqanda olinadigan qilichlari, o'q-yoylari singari yonlarida.

Qo'nur Alp santurni zo'r chaladi.

Sungur chang chalishga usta.

Usmon nayga jon kirgizadi.

Abdullohmi? U tinglashni yaxshi ko'radi.

Sivizg'ani sayratishda G'ozi Rahmonga teng keladigani yo'q. Ayniqsa uning Dovudiy tovushiga toshlar eriydi.

Xayolga cho'mib borayotgan Usmon hushyor tortarkan.

— Chu, jonivor, deya otini niqtadi.

— Ovozingni ehtiyot qil, Rahmon.

Uning oti oldinga o'tib ketdi, lekin tezda orqadagilar yetib kelib yana baravarlashishdi. Shunda G'ozi Rahmonning ovozi yangradi.

Bu ovozda yaylovdan yaylovga xabar berguvchilar; Xurosondan Diyori Rumga[1] ziyo tashuvchilar bor edi. Bu ovozda necha yillar davom etgan buyuk ko'chishning sirli yo'nalishini jo'shdiruvchi, zavqlantiruvchi hangomalari bor edi. Bu ovozda Usmonni u istayotgan narsaga... Ada Boliga yaqinlashtiruvchi his-tuyg'u bor edi. Ular qolgan yo'lni bir zumda bosib o'tishdi.

* * *

Ziyofat tugab, soz bazmi boshlangan edi.

Usmon va uning jo'ralari ichmay o'tirishardi. Boshqalar, Mixail bilan uning to'rt rum og'aynisi va uy sohibi — Inonyu begi Mahmud hamda uning ikki mehmoni sharob ichishda davom etishardi.

Avvaliga Usmon nayda hazin kuy chalib berdi. Nay sehridan xamma jimib qoldi. Endi chang, surnay, santurlarning sho'x navolari yuksalishi, kuylar qo'shiqlarga ulanishi kerak edi.

Lekin bunday bo'lmadi. Sozlar navosi o'rniga bog' aylanasi devor orqasidan ot tuyoqlarining tovushlari va hayqiriqlar eshitildi.

Va Usmon haligina nay chalgan Usmon emas, u Usmon botirga aylandi. G'ozi Rahmon, Sungur, Qo'nur Alp, Oqcha Xo'ja... Ular ham endi hazin nay kuyidan mahzun bo'lgan kishilar emasdi. Usmondan keyin hammasi bab-baravar ko'z ochib-yumguncha qilichlarini yalang'ochlab shay bo'lib turardilar.

Mixail va o'rtoqlari o'tirgan joylarida qotib qolishdi. Uy sohibi dahlizga yugurib chiqdi. Derazani ochdi. Shunda tashqaridagi hayqiriq, ovozlar aniq eshitildi.

— Hoy, Mahmud bek... Senga aytayapman, Mahmud bek!

— Kimsan? Nima kerak? — deb so'radi uy sohibi.

— Men Az-Zohidman, — degan javob eshitildi. — Erto'g'rul o'g'li Usmon shu yerdami?

Uy egasi nima deyishini bilmay to'xtab qoldi.

Usmon ham dahlizga chiqdi.

— To'g'risini ayting, — dedi.

Mahmud bir unga, bir tashqariga qaradi. Usmon qat'iy takrorladi:

[1] **Diyori Rum** — hozirgi Turkiya o'rta asrlarda shunday atalgan.

— To‘g‘risini ayting.

Mahmud bek labini tishladi, lekin rostini aytdi:

— Shu yerda.

— Menga o‘sha kerak, — dedi Az-Zohid.

Mahmud bek bu safar Usmonga qaramay, so‘zida davom etdi:

— Bu qanaqa odat, Zohid bek? Mehmonni berib bo‘larkanmi? — Rangi quv o‘chgan, qaltirab turibdi, — yaxshisi meni ola qol!

Az-Zohidning ovozi pasaydi, lekin yanada kat’iylashdi:

— Senga yomonlik tilamayman, Mahmud bek. Agar bermasang hamma yoqni ostin-ustin qilaman. Hammangizning dodingizni beraman.

Buning aksicha, Mahmud bekning ovozi yanada balandlashdi:

— O‘zingga nima yarashsa, shuni qil. Men mehmonimni berolmayman. Shunday dedi-yu, jahl bilan orqasiga qaytdi. Qaytdi-yu shoshib qoldi. Haligina yoy shaklida tizilib turgan olti kishi yo‘q edi. Sal o‘tmay bog‘dan Usmonning;

— Ur, ha, ur! — degan hayqirig‘i eshitildi.

Usmon Mahmud bekka “To‘g‘risini ayting” degan zahoti hayron qolarlik chaqqonlik bilan jo‘ralarini ergashtirib boqqa yugurib chiqdi. Hammasi yashin tezligida yuz beradi. Yaydoq otlariga sakrab-sakrab mindilaru yollariga yopishdilar. Usmon Qo‘nur Alp bilan Oqcha Xo‘jaga ishora qildi:

— Darvozani ochinglar!

O‘zi bo‘lsa, Sungur, Abdulloh va G‘ozi Rahmon bilan darvoza ro‘parasida shay turishardi.

Uch odam bo‘yi keladigan baland darvozaning to‘siq surgichlari zumda olib tashlanib, keng tavaqalari ochib yuborildi. Kamondan uch o‘q uchdi. Uch suvori otdan ag‘darildi. Usmonning hayqirigi yangradi:

— Ur, ha, ur!

Besh qilich besh hamlada beshta otliqni qulatdi. Boshqalari beshta yarador bilan ovora bo‘lib qolishdi. Keyindagilar esa, Az-Zohid yetakchiligida orqaga burilishdi. Lekin, harholda G‘ozi Rahmonning tovushi qochib ketayotganlarga yetib bordi:

— Hoy, Al-Zohid! Usmonni olmasdan qayoqqa qochayapsan?!

* * *

Bularning hammasi besh-olti daqiqa ichida bo'lib o'tdi. Ular boqqa qaytib kirishganda Mahmud bekning odamlari endi qilichlarini olib, to'planishgan, darvoza oldida turishardi.

Otlardan tushishgach, Usmon ularga: — Otlarni olinglar, — dedi. Boshqalariga qarab ishora qildi, — yaralarini bog'langlar.

Mahmud bek ham o'sha yerda, odamlaridan sal oldinroqda turardi. Hali o'ziga kelolmagan, dir-dir qaltirardi.

Usmon qo'lini uning yelkasiga qo'ydi:

— Bazmimiz sovumasin, Mahmudbek.

Ular ichkari kirishdi. Uydagilar ularga uyqudan yangi uygonib, ko'rayotgan tushlari chala bo'lib qolgan bir alpozda qarashardi. Faqat Mixailning qarashlari boshqacha edi. U qandaydir jumboqni yechishga urinayotganga o'xshardi. U ko'zlarini qisganicha, lablarini qimtib Usmon va uning jo'ralarini, Mahmudbekni bir-bir kuzatib chiqdi. Mixail ko'rgan va bilgan odamlarga o'xshamasdi ular.

Bir safar otasi:

— Bu turklar bizga kun bermaydi, — degandi.

U qo'rqqanidan aytgandi bu gapni.

Lekin keyin, Usmonni yaxshi bilib olgach, turklar haqida bunday demaydigan bo'ldi. Mixail hozir yuz bergan voqeaning guvohi bo'lgach, yana otasining gaplarini esladi. U yana Xormanqoya kashishini esladi. O'sha kashish ham Mixaylning otasiga o'xshab fikr yuritardi.

Mixailning otasi saxiy odam edi. U Kashishdan, cherkovdan yordamini ayamasdi. Shanba kunlari Kashish bularnikiga, albatta, kelardi. Bu uydagilar Kashishning hurmatini joyiga qo'yishardi. Gaplariga jon deb quloq solishardi.

Ammo Kashishga nisbatan bunday ehtiromni Mixail chin dildan his qilmasdi. Zoya ham shunaqa edi. Kashish buni sezar, lekin uncha e'tibor bermasdi.

Bir kuni Kashish:

— Anavi bosh yorar turk bilan jo'ralikni yanada mustahkamlayotgan emishsan, Mixail bo'tam, — deb qoldi. — Bu gapni Kalanozdan ham, boshqalardan ham eshitdim. Ular buni unchalik ma'qul ko'rmaydilar. Lekin men buning boisi bordir, deyman.

— Ha, buning boisi bor, muhtaram otaxon, — dedi Mixail. — Buni Kalanoz ham yaxshi biladi. Sizga aytmaganmidi?

— Yo'q, bu borada hech narsa degani yo'q.

— Men ayta qolay bo'lmasa: Usmonjon mening va Kalanozning joninisaqlab qolgan...

Shunday deb Mixail ovdan qaytayotib yo'lto'sarlarga uchrashganini, to'qnashuvda Usmon jonlariga ora kirganini gapirib berdi.

YAQIN-U YIROQ BARIBIR EMASMI?

Inonyu voqeasi So'g'udga to'rt kundan keyin, bir-biriga zid mish-mishlar bilan yetib bordi. Bunday mish-mishlar orasida Usmonga o'q tekkani, Eskishahar begidan "Meni o'ldirma" deb omonlik tilagani va aksincha, Usmonning Eskishahar begini tilka-pora qilgani haqidagi gaplar ham bor edi. Bundan tashqari Mixail va uning jo'ralari haqidagi mish-mishlar ham shunga o'xshardi; Ayrim gaplarga qaraganda, ular olishuvga umuman aralashmaptilar, pisib yotishibdi. Boshqa gaplarga ko'ra, ular sherdek olishib, Usmonni Az-Zohidning qo'lidan qutqarib qolishibdi.

Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki mish-mishlarni tarqatgan bozorchilar edi. Zero ular — Eskishahardan kelganlar unday, Inago'l tomonidan kelganlar bunday, Inonyudan tashrif buyurganlar esa yana boshqacha hikoya qilardilar. Usmon bu mish-mishlarga uncha e'tibor bermasdi, lekin tilga tushganidan g'azablanardi. Buning ustiga hech o'ylamagan bir ish yuz berdi. So'g'ud bozorining ertasi kuni Dursun Faqi kelib:

— Shayx Ada Boli seni so'rayapti, — dedi.

Usmon endi yo'l tadorigini ko'rmoqchi bo'lgan ham ediki:

— Yo'q, hozirmas, — dedi Dursun Faqi. — Ertaga, bomdod namozidanoldin...

* * *

Ada Bolining qishlog'i So'g'uddan ot choptirib borganda bir yarim soatlik yo'l, Mudurni yo'nalishida edi. Usmon tong qorong'isida yo'lga chiqdi, yonida Sungur ham bor edi. So'g'ud hali uyquda. Ikki kundan beri ochiq turgan havokechga borib ayni-

di, achchiq izg'irindan keyin qor yog'a boshladi. Pag'a-pag'a qor. Shamol tingani uchun atrofni parda to'sgandek edi.

To yarim yo'lgacha indamay borishdi. Usmon yo'lga, tevarak-atrofga e'tibor bermay borardi. Borishi kerak bo'lgan joyga, qanday tezlikda borish kerakligini Ol-Ishiq ixtiyoriga topshirgandi.

Usmonning uyida "Nimaga ekan" degan fikr charx urardi. "Ada Boli nimagachaqirgan ekan?

Avvalo, Dursun Faqi — gapirar-gapirmas umid uyg'otgandi. Hayajonga solardi shu umid. Bu-ku bir umid, lekin Ada Boli deyishi bilan Malhun Xotundan bo'lak hech narsani aqli bovar qilmasdi.

— Malhun Xotun Kof tog'ining orqasida, — deb o'ylardi Usmon. — Ol-Ishiq Qof tog'ini oshib o'ta oladimi?

Qiziq, bu nima degan gapki, Ada Boli singari ellikdan oshgan keksa birkishi Usmon kabi bir yigit oldida Kof tog'i misol, hatto undan ham yuksalib borardi, oshib bo'lmas cho'qqiga aylanardi.

Eh-hye, bu cho'qqidan oshib bo'lmaydi. Uchqur oti Ol-Ishiq bo'lganda ham, Usmonning ko'zi yetmaydi bunga. Pag'a-pag'a yonib, oppoq gul yaproqlari kabierga to'shalayotgan qor yorug'ida o'sha oshib bo'lmaslik Savriqoya kechasidagi mayin tabassumdek ko'rinib ketdi unga. Shu onda, o'sha tabassumni qalbiga muhrlagan ovozni eshitganday bo'ldi:

— Sen juda ham katta deganing Dunyo, shu ko'rinib turgan yulduzlarning eng kichkinasi yonida tirnog'ing uchichalik ham kelmaydi.

Xuddi shu mayinlik, shu shirinlik, shu ofatijonlik Savriqoya kechasidagi singari o'jar bo'ladi:

— Odam bir narsani tushunolmasa, Dunyo juda ham katta; u qamrab bo'lmas darajada buyuk. Bunday odam uchun Dunyo, albatta, aql bovar qilmas darajada katta bo'ladi. Uning boshi-oxiri yo'q hisobi... Bursadan o'tib ketsang ham, yetolmaysan... Korajahisor ham bunday odamlar uchun mana shu ko'rinib turgan yulduzlarning eng yaqinidan olis...

Usmon eshitgan ovozining so'nggi so'zlaridan hushyor tortdi, boshini ko'tardi, lekin "yulduz"ni Qof tog'i bilan, Qorajahisorni Malhun Xotun bilan chalkashtirib yubordi.

Bu ovoz butun vodiyda aks sado berib, Domanichdan, Sivriqoyadan kelayotganga o'xshab tuyuladi.

— Ada Boli buni yana bir bor yuzimga solish uchun chaqirayaptimi meni? — deydi Usmon.

Uning chap tomonida borayotgan Sungur ham:

— Tushunolmadim, — deydi, — yana ayt-chi...

Usmon aytadi; lekin Sungurga emas, o'zi-o'ziga:

— Bizning ham unga aytadigan gaplarimiz bor...

Chunki Usmon Inonyuga borarkan, yo'lda yiroq va yaqin uchun nimalar his qilganini gapirib bermoqchi... Butunlay boshqa va hech sinab ko'rmagan kurashga o'zini qanday tayyorlagani va maydonga ilk bor chiqadiganday!

"Qorajahisorning, Bursaning hamda yulduzning va Malhun Xotunning qayerdaligini va nimaligini anglay boshladim" deyish uchun!

"Ustiga minadiganim Zumrad Anqo qushini topaman va Qof tog'i safariga chiqaman" deyish uchun!

"Va yiroq nima degani-yu, eng yiroq qanday yaqin bo'lishini tushuna boshladim" deyish uchun!

Chunki Usmon to Sivriqoya suhbatidan, Harlaqdagi darveshdan, Dursun Faqi, Qumral Abdal va Oyqut Alp so'zlaridan va keyinroq Inonyu voqeasidan ushbu chaqiruvga qadar bo'lgan barcha sezib, bilib yurganlarini jamlay boshlagandi.

Ana shularni gapirmokchi u Ada Boliga; eski bilganlari va yangi o'rganganlarini, olishuv ustasi ekanligini, biror kurashda past ketmaganligini gapirmoqchi Ada Boliga.

Va Ada Boliga ko'p narsani, uni Malhun Xotundan judo qilolmaganini gapirmokchi; "Mening Zumrad Anqo qushim Malhun Xotundir" demoqchi u Ada Boliga.

GULLAR OCHILARMI, BAHOR KELMASA!

Lekin Ada Boli Usmon bilan gaplashmay, aytadiganlarini Qumral Abdal orqali ayttirdi. Qumral Abdal esa:

Gapirayotganga emas, gapirilayotganga qara... deyapti shayxim Ada Boli. Uning aytganlarini men gapiraman, — deya boshladi gapni.

Mavzu Inonyu voqeasi edi. Hamma: "Usmon-ku bu, qo'lidan keladi" derdi.

Ada Boli bo'lsa buni sal boshqacharoq qilib:

— Usmon-ku bu, bunaqa narsalar uning qo'lidan keladi, depti.

Shu mavzu tilga olinganda ular to'rt kishi ekan: Dursun Faqi, Qumra Abdal, Ada Boli va uning rafiqasi Yulduz Xotun.

Ada Boli haligi gapni aytganidan keyin xotiniga o'girilibdi:

— Qizning nomidan nega qaytarib yuborganimni hali bilmaysanmi?

Qumral Abdal bilan Dursun Faqi shuni sezishibdiki, qiz Usmonni xohlaydi, ona ham "beraqolaylik" deb turib olganga o'xshaydi. Qumral Abdal:

— Har nima bo'lganda ham, — deganidan keyin tushuntirdi. — Shayxim Ada Boli shunday degandan so'ng Yulduz Xotunga: shoshma, men senga tushuntiray, dedi. Tushuntirdi.

Ada Boli gapirib berganidan keyin Yulduz Xotundan so'rabdi:

— Yana aytadigan gaping bormi?

— Bor, depti Yulduz Xotun. — Mana shu menga aytganlaringizni Usmonjonga ham ayting... Men undan umidimni uzmayman. Siz ham uzmang. Palagi toza, yaxshi suloladan u... Zoti ulug'... Bol ko'zadan bol chiqar...

Ada Boli xonimning so'ziga emas, o'jarligiga kulibdi. Keyin Qumral Abdalga shunday depti:

— Shayx Ada Boli hech kimdan g'azablanmaydi.

Yulduz Xotundan ham jahli chiqmaydi. Shayx Ada Boli birovni xafaqilmaydi. Yulduz Xotunga ham hech ozor bermagan. Yulduz Xotun shunday deyaptimi, mayli, shunday bo'la qolsin, dedi va Dursun Faqiga o'girilib:

— Usmonjonga ayt, kelsin... Agar ulgura olsa, ertaga azondan oldinroq kelsin, — dedi.

Qumral Abdal o'z odatiga ko'ra hazil bilan aytdi bu gaplarni. Keyin kulganicha o'ziga topshirilgan gaplarni bayon qildi.

* * *

Ada Boli Yulduz Xotundan so'radi:

Usmonjon bizdan nima istaydi?

Javobini xam uzi berdi:

— O'g'illaringdan ham yaxshi ko'radigan qizingni so'rayapti. Sen bo'lsang beraveraylik deyapsan. Berishga-ku beramiz-a... Lekin Usmonjon kim o'zi?

Ada Boli bu surog'iga ham o'zi javob qaytardi:

— Tagli-zotli, bo'y-basti bor, kuchli dasti bor. Lekin badfe'l, jahli ham bor. Jahli tez, yana manmanroq. Janjalning uyasi, qayerda talotup bo'lsa, o'sha yerda hoziru nozir. Kuch-quvvatdan Xudo bergan, es-hushi joyida. Kuch-quvvat bilan aql-farosatni nimaga ishlatishni uylamaydi. Aynan shu kuch-quvvatu aql balosining nimaligini bilishni istamaydi. Duch kelganni jazolaydi: lekin bir qilich sermashning to'qqiz sharti borligini tan olmaydi. Xonim, xonim, jon Xotun, bu yo'l to'g'ri yo'l emas. Bu yurishda bir kun bir baloga yo'liqishi hech gapmas. Bir kun kelib o'qi otmay, qilichi o'tmay qolsa, nima bo'ladi. Unda Malhun Xotunning ahvoli nima kechadi? Mayli, oshiqi beqaror,Malhunimni jonidan-da ortiq ko'radi ham deylik. Lekin unga biror falokat bo'lib qolsa-chi... Malhun jonimga shahid bevasi deyaolmaysan, ajal bevasi deyaolmaysan "oh" deganing bilan, "voh" deganing bilan o'rniga tushmaydi.Yo'q, men buni Malhunimga ravo ko'rolmayman. Endigina o'n beshga kirdi. Unga biror narsa bo'lsa, men buni ko'tarolmayman. Qizimning uvoliga qolishni istamayman. Tushundingmi? Meni qiynayotgan narsa shu. Faqat shuni o'ylayman. Bu gaplarni aytayotganimning boisi ham shundan. Ana shu gaplarimni, o'ylarimni, dardimni Usmonjon ham bilsin deding, mayli, bilsin.

* * *

Qumral Abdal hayron bo'lib qoldi... Chunki: "Elchiga o'lim yo'q" deya gapirganlarida Usmon sira g'azablanmadi. Aksincha, Qumral gapirgan sari rangi o'chib, bo'yni bukilib, ko'zlari yoshga to'la bordi. Nihoyat, u o'n to'qqiz yoshdagi yigit emas-u, yetim bir bola singari:

— Evoh, — deya chuqur xo'rsindi va zorlanib-zorlanib dilini yordi: — Ada Boli meni shunchalik yomon ko'radimi? Menga ishonmaydimi? Men bir yildan beri o'z-o'zim bilan olishib kelayapman. Bir yildan oshdiki, Ada Bolining Domanichda, Savriqoyada aytgan gaplari ustida bosh qotiraman. Men kimman-u, kim bo'lishimni istar ekan deb jonim halak. Ada Boli rost aytadi: siz ham shunaqa deysiz. Dursun Faqi ham shu fikrda. Otam Erto'g'rulbek g'oziy ham shunday deydi. Hamma shunaqa o'ylaydi. Ammo Qumral akaginam, ont ichamanki, Ada Boli adashyapti: odam o'zgaradi. Men o'zgaraman. O'zgara olishimni bilaman. Yordam bering menga... U ham yordam bersin menga. Borib ayting unga. Ada Boliga ayting shu gaplarimni. Men ahdimdan qaytmayman. Men yo'limdan qaytmayman. Men borayotgan yo'limni bilishim kerak. Buni ham ayting Ada Boliga. Ha, Qumral akaginam, Ada Boliga shuni ham aytingki, Alloh nomiga kasam ichaman, Malhun Xotun uchun emas, goho-goho mehmon bo'lib kelsam, sizlarni ko'rmoqchi bo'lsam, menga ruxsat berishadimi?

Qumral Abdal xayajonlangandi, otiga minmoqchi bo'layotgan Usmonning qo'lidan tutdi:

— Sen bir oz kutib tur, — dedi. — So'rog'ingga hozir javob olib kelaman.

Rostdan ham o'n daqiqa o'tmay u qaytib keldi:

Shayxim Ada Boli, men unga ham, qizimga ham ishonaman, dedi.

Mehmonxonam hamma uchun ochiq. Istagancha kelib, xohlagancha mehmon bo'lishi mumkin, deb aytdi.

* * *

Qor hamon yog'ayotir. Ammo atrof yorishib turibdi. Besh, o'n qadam narini bemalol ko'rsa bo'ladi.

— Qola qol, — dedi Qumral Abdal. — Ketadigan bo'lsang ham sho'rvani ichaylik, keyin ketarsan.

Usmon ko'ndi.

— Men hozir oshxonadan xabar olib kelaman, — dedi.

Usmon otini yetaklab ichki hovlining narigi burchagida uni kutib turgan Sungurning yoniga bordi.

— Yo'lga chiqamizmi? — so'radi Sungur. — Bir oz dam olib, otlarga yem berib, o'zimiz ham issiqqina sho'rvadan ichsak yaxshi bo'lardi, Usmonjon.

Usmon jilmaydi:

— Yana kech qolding, Sungur. Sendan oldin aytishdi buni.

Sungur ko'p martalab eshitgan "Yana kech qolding" so'zidan bu safar kayfiyati ancha ko'tarildi:

— Kech qolganim bilan baribir aytganim to'g'ri chiqayapti-ku, Usmonjon.

Otlarini ichkari olib, egarlarini yechishdi, suvliklarini chiqarishdi. Keyin og'ilgabog'lashdi.

— Dursun Faqi kutayapti, — dedi ularning yoniga kelgan Qumral Abdal.

Atrof ancha yorishganday bo'ldi. Usmon o'zini Itburnida yurgandek his qildi. Hamma narsa o'sha joydagi singari edi. Ichkari hovlidagi olti jo'mrakli favvoradan tortib, ikkinchi qavatga olib chiquvchi yog'och zina ham!

Ikkinchi qavat ham xuddi shunday. Dursun Faqi ularni kutib turgan xonaga kirishi bilan Usmon chinakamiga lol bo'lib qoldi.

Yig'ma divan, sholchalar, gilamlar, yostiqlar, deraza, shamdonlar, ulardagi Saljuqiy va Vizantiya tangalari, devordagi ipak joynamoz va "Qur'on" g'ilofi, hamma-hammasi burungiday edi.

Yuragi hovriqib ketdi. Derazaga qarab yurdi: derazadan qarab tashqarida yozgi bog'ni va bog' ichida Malhun Xotunni ko'rish uchun!

— Bizdan arazladingmi, Usmonjon?

Uning qulog'iga "Usmonjon"gina chalingan edi, sergak tortdi va Dursun Faqiga ro'para bo'ldi.

— Labbay, Dursun Faqi?

Dursun Faqi kulimsiradi:

Bizdan arazladingmi, deyapman?

— Bu ne deganingiz, Dursun Faqi? Men sizdan nega arazlayin?

Dursun Faqi hamma narsani tushunib turganday kulimsiradi:

— Bilaman. Xabarim bor hammasidan. Bilaman-u, salom berib, hol-ahvol so'ramaganing uchun aytayapman-da. O't bu yoqqa, o'tir... charchagansizlar.

Usmon divanga, Dursun Faqi ko‘rsatgan joyga o‘tirdi. O‘tirarkan, deraza tomon yana bir qiya qarab qo‘ydi.

— Kechirasiz, Dursun Faqi... Aytganingizday, charchaganlikdan...

Lekin eplay olmadi. To‘g‘risini aytishga shoshildi:

Charchaganim yo‘q... Yana Itburniga kelib qoldimmi, degan xayolga boribman, kechirasiz.

Yana deraza nigohini tortdi. Tashqarida saf tortgan mirzateraklar, nariroqda bir soy ko‘zga tashlanardi. Lekin na uy, na bog‘ ko‘rinardi.

Eshikdan kimdir kirib:

— Marhamat, dasturxon tayyor, — dedi.

Usmon tanidi: bu Husomiddin Turg‘ut, Ada Bolining kenja o‘g‘li, Malhun Xotunning akasi edi. Usmon jilmaydi. Unga javoban Husomiddin ham jilmaydi.

— Xush kelibsiz, Usmonjon.

Husomidin mexr bilan aytdi bu gapni. Usmon Itburnida ham undan juda xursand bo‘lgandi.

* * *

Nonushtadan keyin ikki soatlar chamasi o‘tgach:

— Bizga ruxsat beringlar, — dedi. Ruxsat tekkach, Sungurga yuzlandi: —

Qani, Sungur, ketdik. Yo‘lovchi odam yo‘lda bo‘lgani ma’qul.

Yo‘lga chiqishdi, yo‘l-yo‘lakay goh qor buraladi, goh oftob mo‘raladi, keyin bo‘ron turdi. Besh qadamdan narini ko‘rib bo‘lmay qoldi.

So‘g‘udga yetib borishlari bilan Qo‘nur Alp Usmonga Zoyaning o‘lganini aytdi. Bu xabarni Mixail yuborgan bir chopar yetkazibdi. Kelgan odam Xo‘jayini Usmonni ko‘rish niyatida ekanini aytibdi-da, darhol iziga qaytibdi.

— Usmon ko‘p imillamadi, — yoniga Sungurdan tashqari G‘ozi Rahmon bilan Qo‘nur Alpni ham olib yo‘lga chiqdi. Mixailning aytishiga qaraganda, Zoya o‘lmagan, o‘ldirilgan ekan. Uni Kalanoz zaharlabdi. Mixail shubhalanmas, aniq bilardi; chunki so‘nggi uchrashuvlarida singlisi unga:

— Men Pasxa bayramigacha yetib bormasam kerak, — degan ekan.

Kalanoz uni bo'lar-bo'lmasga tergayverar, so'zni aylantirib kelib Usmonga taqayverar va kesataverarkan.

— Usmonga nisbatan rashki va adovati uni bir kuni telba qilib qo'yadi.— dedi o'shanda Zoya. — Usmonjonga hech narsa qilolmagani uchun g'azabi va alamini mendan olayapti. Bir kuni tomog'imga yopishdi. Uni ham, seni ham o'ldiraman, dedi. Usmonga ayt, o'ziga ehtiyot bo'lsin...

— Sen ham o'zingga ehtiyot bo'l, — dedi Usmon Mixailga. — Imkonim boricha seni himoya qilaman...

Mixail Usmonni boshqa gapdan ham xabardor qildi.

Kalanoz keyingi paytlarda Ayo Nikola va germiyonliklar bilan og'iz-burun o'pisha boshlabdi, aloqalari juda jo'shqin tus olibdi. Az-Zohid bilan bordi-keldilari kuchayibdi. Usmon bu borada ilk bora jiddiy o'ylab qoldi. Avvallari bunaqa narsalarga e'tibor bermas, unutib yuborardi. Lekin endi unday emas, Mixailning aytganlari uning miyasini burg'ilay boshladi.

Endi u Kalanozlarni, Ayo Nikolalarni, Az-Zohidlarni, Alisharlarni yakka o'zi uchratishini, ular bilan bitamma-bitta yoki shikor, yoxud yurishlardagi sakkiz-o'n odam sifatida olishadigan odamlar ekanini his eta boshladi. Endi Usmon o'zini faqat o'zi va jo'ralari bilan. G'ozi Rahmon, Sungur, Qo'nur Alp, Saltuq, Abdulloh eng ko'pi bilan yana besh-o'nta tengquri bilangina cheklamaydi... cheklay olmaydi. Esiga hadeb o'tgan kuzda yaylovdan qaytishi tushaveradi. Turib-turib bir yonida Saltuq, bir yonida Rahmon, Burguttepadan keng pastliklarga nazar tashlaganini eslab qoladi. O'sha ko'rinishlarni, beqiyos manzaralarni hech unutolmaydi. Endi uning qalbida boshqacha his-tuyg'ular tug'ilmoqda, hayajon jo'sh urmoqda edi.

Shunda birdan Usmon Ala Boli va Dursun Faqi, Qumral Abdal va Xarlaqdagi darveshning, Oyqut Alp va otasining undan nima istashayotganini tushunib yetganday bo'ldi. Usmon endi o'zidan kutilayotgan manzilga olib boradigan yo'lni bilishni va shu yo'lni topib olishni istayotir. Chunki Usmon endi hammasini tushuna boshladi.

— Yo Tangrim!— dedi u iltijo qilib. — Yuzimni yerga qaratma; meni yarim yo'lda qoldirma. O'zing madadkor bo'l!

U butun vujudini junbushga keltirayotgan tuyg'ulariga bo'ysunib:

— Menga Zumrad Ankoni ham nasib et, — demoqchi ediyu, aytmadi, o'zini qo'lga oldi. U butun borligini o'rab olgan va o'zligining o'rnini egallab bo'lgan iltijosini Malhun Xotundan ayru tasavvur qilolmasdi.

* * *

Usmonning kunlari o'zgardi.

Usmon jo'ralarini ham o'zgartirdi.

Usmon har o'n besh kunda bir Ada Bolining qishlog'iga boradigan bo'ldi. Har borganda bir, hatto bir necha tun qolib ketadigan bo'ladi.

Ala Boli hali Usmonni qabul qilganicha yo'q. Usmon ham uning huzuriga kirishga unchalik shoshilmayotir. Usmonga shu yerda bo'lishining o'zi bas. Dursun Faqini, Qumral Abdalni ko'rsa bo'lgani. Ada Bolining bir hovli narida va Malhun Xotunning bir hovli berida ekanini uylashning o'zi kifoya unga. Usmon go'yo hozirgina ulardan ajraldi, bir ozdan keyin ular bilan yana ko'rishadiganday. O'ziga ajratilgan xonani juda yoqtirib qoldi. Bu xonada u rohatlanib, halovat topadi. Bu xonada o'ylari osonlashadi, kuchiga kuch qo'shiladi, zavq-shavq oladi.

Asta-sekin, lekin jiddiy o'zgarib borayapti Usmon. Uning so'zlari, gapirish ohanglari, tovushi, qarashlari o'zgarayapti. Usmon endi avvalgiday baqirmaydi, har bir gapini o'ylab gapiradi.

Endi Dursun Faqi, Qumral Abdalning, boshqalarning, hatto Husomiddinning ham xatti-harakatlari o'zgarib qoldi. Ularda qandaydir iliqlik, mehr paydo bo'lganday go'yo. Usmonga endi kam gapirishar, uni ko'proq tinglashga intilishardi. Zero, Usmon ham endi juda kam gapiradigan bo'lib qolgandi.

Usmon endi o'zi bilan gaplashadigan, yangi-yangi gaplar axtaradigan bo'lib qoldi. Nihoyat, Usmon yana darg'azab, yana qilich sug'urib, hamla qilish jahli bilan silkinib qo'ymoqda, lekin bu g'azab, bu jahl butunlay boshqacha!

Usmon bunday darg'azab bo'lishining sababini bilishga intiladi va battar jahli chiqadi.

Usmon ko'rayotgan tushlar ham asta-sekin o'zgara boshladi. Bu tushlar uning balog'atga yetishiga, kuch-quvvatga to'lishiga yordam bermoqda.

Hamal oyining so'nggi kunlari, dov-daraxtlar gullarga burkangan damlarda, mehmonxonada uxlab yotgan Usmon saharga yaqin g'alati, butunlay boshqacha tush ko'rdi.

TUSHLARNI YORITGAN HILOL

Usmon Sivriqoyada bir o'zi o'tiribdi.

Pastdagi o'tloqda na biror chodir, na ot, na biror odam ko'rinadi. Yaylov bo'm-bo'sh. Usmon bittagina narsani ko'rib turibdi, u ham bo'lsa shimoli-sharqdagi hadsiz-hududsiz bo'shliqlarni chegaralab turgan, huv olislardagi qushlar ham uchib o'tolmaydigan cho'qqilardir.

Usmon seskanib tushdi; chunki o'sha ko'rgani cho'qqilar emas, Ada Boli edi. Aslo o'xshamasa ham, bu o'sha — Ada Boli bo'ladi. Ana o'sha tepa — Ada Bolining ortidan ergashib o'n besh kunlik oy kelayotir. Lekin bu oy butunlay boshqacha. Hech qaysi oy bunchalik ravshan bo'lolmaydi, ko'k yuzini bunchalik yorita olmaydi.

Usmonning yuragi tipirchilab, gup-gup ura ketdi. Badani qizib, lovullay boshladi. Uning butun vujudi ko'zga aylanib oyni kuzatmoqda.

Ana, oy tepadan — Ada Bolidan ajrala boshladi. Usmonning qalbi battar ura ketdi. Chunki oy yuksalyapti, Usmonga qarab kelyapti. Chunki oy — Malhun Xotun, o'sha oy — Malhun Xotun, issiqqina kelib, kelib shundoqqina Usmonning ko'ksiga tushdi. Usmon bu harakatdan hayotning eng aziz ma'nosini his etdi. U tengsiz bir baxtiyorlik og'ushiga tushganday sezdi o'zini.

Endi olis-olislardan, butun o'lkalarning tog'-u toshlaridan, daryolaridan, bog'-u bo'stonlari va o'rmonlaridan suvlar shovullashi, bulbul navosi kelayotganday bo'lardi unga. O'z nayining shirin navosi daryolar, bog'-rog'lar osha eshitiladi quloqlariga.

U ko‘rayotgan tush davom etadi. O‘sha oy — Malhun Xotun — endi oy emas. Oy isitgan joyda, shundoqqina yuragining ustida endi bir chinor niholi bo‘y cho‘zayapti, yana o‘sha nihol o‘sib har tomonga shox yozmoqda. Butoqlari gurkirab, tepadan, tog‘dan oshmoqda. O‘lkalarga soya-salqini bormoqda. Uning shoxlaridan rahmat yog‘ilmoqda, nur yog‘ilmoqda.

Usmon o‘sha oy — Malhun Xotundan, taralayotgan yorug‘dan, nurdan, haroratdan yayrab, kulimsiragancha uyg‘ondi.

* * *

Tong oqara boshlabdi. Shafaq yorishib kelmoqda. Ko‘k yuzi oqish-moviy bir tusda. Usmon tushlarini yoritgan narsani endi biladi. Yorug‘ emas u... Yangilik kutayotgan, hayotga kelish uchun doyasini poylayotgan asl inson u. Usmon o‘zining haqiqiy shaxsiyatini, nega yaratilganini va qanday yashashi kerakligini endi fahmlagandi. Ko‘rgan tushining ta’birini anglab yetgandi.

* * *

Ulkan xumdagi yorma va sunbula oftobida quritilgan qo‘y qobirg‘asi tandirning qo‘rida ertalabgacha pishgan edi. Go‘sht hil-hil bo‘lib ketibdi. Ertalabki nonushtaga asal ham qo‘shishibdi. Nonushtadan so‘ng duoni Dursun Faqi o‘qidi va darhol o‘rnidan turdi. Ketmoqchi edi.

Birpas to‘xtang, — dedi Usmon. — Aytadigan gapim bor.

Keyin Qumral Abdalga o‘girildi:

— Siz ham eshiting.

Dasturxon uzra ulardan tashqari G‘ozi Rahmon, Qo‘nur Alp hamda Ada Bolining katta o‘g‘li, Malhun Xotunning akasi ham bor edi. Ular dasturxon atrofida qolishdi. Boshqalar esa Usmonga ergashib narigi xonaga o‘tishdi.

Qumral Abdal:

— Marhamat, bek, — dedi kulimsirab.

Lekin Usmon hamisha aytadigan gapini aytmadi. “Men bek emasman”, demadi. U ko‘rgan tushini gapirib berdi, uni o‘zi sharhlaganidan so‘ng qo‘shib qo‘ydi:

— Menimcha, tushimning ta’biri shunday, sizlar nima deysizlar? — deb so‘radi.

Dursun Faqi soqolini silab turib bir oz o'yga toldi, keyin:

— Menga qara, Usmonjon, — dedi. — Tangri yanglishtirmasin-u, ta'biring to'g'ri. Men ham shunday deb o'ylayman. Sen podsho bo'lasan. Malhun Xotun senga tug'ib beradigan o'g'illar ularning farzandlari, farzandlarining bolalari sening bayrog'ingni va Allohning marhamatini hamda adolatini chor tarafga yetkazadilar. Men bunga aminman.

— Men ham ishonaman bunga, — dedi Usmon ham.

Hamon kulimsirab turgan Qumral Abdal yanada jonlandi:

— Hey, Usmonjon, — dedi, — modomiki, senga podsholik berilar ekan, sen ham bizlarga suyunchi berishing kerak.

Qiziq, hazillashyaptimi yo chin gapiryaptimi? — bilib bo'lmasdi. Lekin Usmonning gaplari yurakdan edi:

— Qachon podsho bo'lsam, sizga bitta shahar beraman.

Qumral Abdal ham kulardi:

— Shahardan voz kechdik; bizga mana shu qishloqchaning o'zi yetadi.

— Mayli, roziman.

— Unday bo'lsa, bizga bitta qog'oz ber, — dedi Qumral Abdal hazilni yig'ishtirib.

Usmon bo'lsa:

— Qog'oz yirtilib, yo'qoladi, yozuvi o'chib ketadi, — dedi. — Shu sizga aytsam, bir qilichim bor, Sulaymon Shohdan qolgan. Shuni sizga bersam. Yana bitta qo'lcha beraman. Ikkovi hamisha sizda bo'lsin. Naslingiz ham asrasin ularni. Agar Tangri Taolo meni podsho qilsa, mening avlodim ham ana shu belgilarni ko'rib qo'yishsin, qishlog'ingga tegishmasin. Men Dursun Faqiga, Ada Boliga va boshqalarga ham suyurg'ol bergum...

Usmon shunday deb Dursun Faqiga o'girildi.

— Muhtaram Dursun Faqi, marhamat, endi borib Ada Boliga ayting, mening uni ko'rish niyatida ekanimni bildiring. Bu so'nggi tilagim, deb ayting. Meni yolg'iz qo'yish niyati bo'lmasa, tilagimni qabul qilsin. Lekin, Dursun Faqi og'a, ehtiyot bo'ling, bu yerda bo'lib o'tgan gaplarni bilmasin. Bu narsalarni uydirma deb o'ylashidan qo'rqaman. Endi boring. Men Ol-Ishiqni egarlab, poylab turaman.

Dursun Faqi ketdi va darrov orqaga qaytdi:

— Shayxim Ada Boli seni kutayapti.

* * *

Dursun Faqi Usmonni sal oldinroqdagi masjid mutavallisi xonasiga olib bordi. Eshikni to'sib turgan pardani oralatib uni ichkari kiritib yubordi-da, o'zi qaytib ketdi.

Ada Boli o'choq oldida, bir rahlaning[1] orqasida tiz cho'kib o'tirardi:

— Xush kelibsan, Usmonjon, o'tir, — dedi.

Qo'li bilan deraza osha quyosh nuri tushib turgan yerni ko'rsatdi. Usmon o'sha joyga tiz cho'kdi. Oftob yuziga tushdi. Ada Bolini ko'rolmay qoldi. Ko'zlari qamashgani uchun boshini egib, kutdi.

Ada Boli Usmonga juda cho'zilib ketgandek tuyulgan jimlikdan so'ng, Sivriqoyadagi tovushi bilan gapirdi:

— Seni necha bor orqaga qaytardim. Avvalgisida ham, keyingisida ham ranjiganing yo'q, degan umiddaman. Senga rad javobi berishim menga ham, senga ham, Malhun Xotun qizimga ham yaxshi bo'ladi, deb o'ylagandim. Shunday o'ylab yanglishmadim degan umiddaman.

Jim qoldi va Usmonga qaradi.

Usmonga uning yuzi ko'rinmayotgandi. Xuddi Sivriqoya oqshomida bo'lgani singari Ada Boli oddiy qilib gapirdi. Lekin o'sha oqshom bilan hozirgi lahzaning orasida farq bor edi. Quyosh shundoqqina Usmonning yuziga tushib turardi. Kiprigi qimirlasa ham Ada Boli ko'ra olardi. Usmon buni yaxshi tushunardi. Ada Boli Malhun Xotunni gapirar-gapirmas, Usmon qon tepgan yuzini unga ko'tarib qaradi. Ada Boli buni, albatta, ko'rgandi.

Ada Boli, go'yo bularni Usmon yaxshilab o'ylab ko'rsin, deganday bir oz jim qoldi. Keyin gapida davom etdi:

— Sabru saboting, azming ma'qul, Usmonjon.

Qiziqqon bir yigit eding, zavq-shavq va kayfu safoga berilganding. Qahru g'azabing va izzat-nafsing dushmanlarni emas, odob, arkoni davlatni, aqlni yengardi; sen buni o'ylamasding. O'ylab

[1] **Rahla** — kitob o'qish uchun yog'och moslama, lavh.

ko‘rsin, dedim. Haliyam shunday deb o‘ylayman va sen o‘zgarguningga qadar shu fikrda qolaman. Sen bilan bugun ham gaplashmoqchi emasdim. Ammo sen “Meni yolg‘iz qoldirmoqchi emas bo‘lsa“ debsan.

Jimib qoldi. Lekin sukuti uzoq cho‘zilmadi.

— Usmonjon, eh Usmonjon, — deb gap boshlarkan, ovozi yuksala bordi. — Odamni faqat iymongina yolg‘iz qoldirishi mumkin, g‘oyagina yolg‘iz qoldirishi mumkin. Buni shunday tushungil. Yordam so‘ragan ekansan, yordam faqat iymondandir. E’tiqoddandir. Buni shunday tushungil. Bir kun... Umid qilamanki tez keladi o‘sha kun va sen buni tushunib yetasan, sendan kutilayotganni anglab olasan.

— O‘sha kun — mana shu bugundir, Ada Boli.

Usmonjonning faqat boshiga tushib turgan nur lablarini, butun yuzini yoritdi.

Ada Boli qat’iy ohangda dedi:

— Yo‘q, Usmonjon, undaymas, chunki sening jahling chiqib turibdi.

Endi Usmon ham bo‘sh kelmadi:

— Jahlim chiqdi, chunki menga ishonmayapsiz. Xafa bo‘ldim, chunki sizga ehtiromim zo‘r edi. Agar indamasam, sizga munofiqlik qilgan bo‘lardim.

— To‘xta, — dedi Ada Boli. U qo‘lini Ham ko‘targandi.

Usmon jim bo‘ldi. Kutib turdi. Ada Boli darrov boshlamadi gapni. Boshlaganda ham “to‘xta“ degandagi tovush emasdi. Yana Sivriqoyadagiday kulimsirab, mehr to‘la ovoz bilan gapirdi:

— Usmonjon, yaxshilab eshit va shunga yarasha javob ber. O‘sha gapni bu kun yoki o‘n yil keyin, sen qanday ahvolda bo‘lishingdan qat’i nazar, aytishsa; to‘g‘ri qabul qilasanmi?

Usmon shoshib qoldi. Aytgan gaplarini unutgandi. Soddalik bilan:

— Qaysi gapni, Ada Boli? — deb so‘radi.

Ada Boli juda muhim bir tugunni yechganday gapirdi:

— Aytding-ku, jim tursam munofiqlik qilgan bo‘lardim deb. Shuning uchun men ham aytayapman, bugunmi, ertami, qanday

ahvolda bo'lishingdan qati nazar, senga gapirganlarga o'shqirmay, g'azablanmay, kerak ishni qila ololasanmi?

Usmonning hayrati yanada kuchaydi, jahlini bosdi. "Ha" deyishga shoshilmasdi. Nihoyat, o'zini bosib oldi. Boshini egib jim qoldi.

Ada Boli uning qanchalik indamay tura olishini sinayotganday edi. U ham jim bo'lib, kutib turardi. Anchadan keyin Usmonning umidsizlikka tushayotganini sezganday gapirdi:

— Men seni yolg'iz qo'ymayman, Usmonjon. Biz seni yolg'iz qoldirmaymiz, ishon. Senga yordam qilishga hamisha tayyormiz. Buning qiyin joyi yo'q. Men, butun tevarak-atrof sendan yordamini ayamaydi. Lekin sen nima uchun yordam so'rayapsan? Avvalo shuni bilish lozim.

Usmon uning bir zumga to'xtab qolganidan foydalandi:

— Bilaman buni, — deb ming'irladi.

Ada Boli xo'rsindi:

— Nima uchun, Usmonjon?

Uning so'rog'idagi ishonchsizlik Usmonning bor dardini to'kib solishiga sabab bo'ldi:

— Bilaman, Ada Boli... Nima uchun yordam so'rayotganimni yaxshi bilaman. Gap bo'ladiki, bir qulog'imdan kirib, ikkinchisidan chiqib ketadi. Ammo, shunday gap bo'ladiki, qulog'imdan sira chiqmaydi. Bu qanday gaplar deysizmi? Ikkitasini aytaqolay. Avvalo, haligi, Itburnida meni mehmon qilishgan xonadagi chiroqdonda Saljuqiy va Vizantiya tangalarini ko'rib: "Bular nimaga kerak?" deya so'ragandim. Dursun Faqi menga: "Tang ahvolda qolganda so'rash uyatidan qutqarish uchun" deb javob berib, orqasidan "Shayxim o'sha uyatning oqibatidan hayiqadi" degandi. Men, Ada Boli, uyalib, orlanishni tashlagayman, siz esa o'sha chaqalaringizni gum qilasiz.

Ada Boli ikkinchi bor, lekin birinchiga sira o'xshamagan tarzda:

— To'xta, — dedi.

Usmon ham:

— To'xtadim, — dedi.

Usmon jim turib, kutdi.

Ada Bolining jilmayishi kulgiga aylandi:

— Senga o'sha chaqalar kerakmi? Men asrab yurgan chaqalar-a? Unday bo'lsa, olib keta qol bor-budimni; haloling bo'lsin. Men boshqa narsa so'raysanmi, deb o'ylovdim.

Yana kuldi-da, keyin:

— Yoki yolg'on gapirayapmanmi? — dedi.

U javob kutayotgandi.

— Yo'q, rost aytayapsiz. Lekin nimani xohlayotganimni, istaganim tangalar emasligini men ham bilaman. Tanga bilan mening bilganim bitta narsa deb o'yladim. Kechiring.

— Ginaxonliging haliyam qolmabdi-da, — dedi Ada Boli.

— Lekin siz shogirdlikka olmaysiz-da.

Qochiriqqa javob muvaffaqiyatli chiqdi. Ada Boli yana kulimsiradi:

— Ikkinchisi, Usmonjon?

Usmon to'xtamasdan javob qildi:

— Ikkinchisi... Esingizdan chiqibdi, shekilli. Yaylovda menga aytgandingiz.

Ada Boli jim turolmadi:

— Usmonjon, men gapni behuda gapirmayman. Aytgan gapimni esdan chiqarmayman.

Usmon uzr so'radi:

— Kechirasiz, og'zimdan chiqib ketdi... O'sha aytganlaringiz haqida ko'p o'yladim. O'ylab-o'ylab oxiri yiroq nima-yu, yaqin nimaligini bilib oldim. Bursa olis emasligini bilaman endi. Eng olislarni ham yaqin qilguvchi nimaligini ham bilaman.

Jim qoldi.

Endi Ada Boli kutmoqda edi.

Usmon ancha kutdirdi. Keyin dedi:

— Men, Ada Boli, yulduzlarga olib boruvchi yo'lni bilaman. O'sha yo'lni ochish, uchun nima kerakligini bilaman. Oyijonim Qof tog'ini oshib o'tgan shahzoda haqida gapirardi. Uning Zumrad Anqosi bor ekan. O'sha yo'llarga Zumrad Anqo kerak, Ada Boli. Mening Zumrad Anqom Malhun Xotundir. Bering uni menga, uzoqni yaqin, dunyoni bir qadam qilay, Ada Boli.

Uning yuzi lov-lov yonardi. O‘t chaqnardi ko‘zlaridan. Ovozi ham shunga yarasha edi. Lekin qarashi ham, yuzi ham, tovushi ham o‘zgardi uning. Bo‘shashib, shivirlaganday bo‘ldi:

— Bering uni menga...

Usmonning ko‘ziga hech narsa ko‘rinmasdi. O‘zini bilmas bir holatda edi.

Ada Boli avvaliga:

— Yana aytaman, — dedi. — Azming, saboting, sabr-bardoshing maqbul. Azm, sabot, sabru bardosh bandasi uchun ham, Tangri uchun ham maqbul ish. Seni, Usmonjon, faqat qizim uchungina o‘ylayotgan bo‘lsam, to‘xtamasdim. Sening hozir men ko‘rib turgan ahvoling kifoya menga. Lekin bu yog‘i...

Boshqa gapirolmadi. Chunki Usmon xuddi o‘qday uchib uning yoniga bordi, uning qo‘llarini yirik kaftlariga oldi.

— Ada Boli, Malhun Xotunni menga bu “yog‘i” uchun bering. Ada Boli, men Malhun Xotunni bu “yog‘i” uchun so‘rayapman. Sizga, mening Zumrad Anqom bo‘ladi, deyapman. Uni bersangiz, O‘g‘izlar yulduzlarga yuksalgay.

Keyin o‘zini bosib, Itburnida aytgan gaplarini takrorladi:

— Albatta, urf-odatlar nimani lozim ko‘rsa, o‘sha qilinadi. Biroq men Qumral Abdal orqali menga aytganlaringizni unutganim yo‘qligini va ularni yaxshi tushunganimni, keragicha ergashganimni bilishingizni istayman.

Ada Boli qo‘llarini tortib olmadi:

— Bora qol, sen hech chalg‘imasdan to‘g‘ri So‘g‘udga bor. Onang, otang bilan gaplash. Nima kerak bo‘lsa, nima mos kelsa o‘sha qilinadi. Shuni ham esdan chiqarmaki, peshanamizga nima yozilgan bo‘lsa, o‘sha bo‘ladi.

Usmon Itburnidan beri o‘zida nimalar o‘zgarganini yaxshi bilardi. Ammo Ada Bolida biror narsa bormi, yo‘qmi, hech bilolmadi. Ada Boli o‘sha kuni ham: “Borib, ota-onangga ayt”, degan, keyin esa sovchilarni qaytarib yuborgandi. Yana shunday bo‘ladimi?

Ada Boli qo‘llarini uning hovuchidan ohista tortib oldi. Keyin Usmonning yelkasini siladi. Xuddi uning his qilayotganini sezganday, ovutmoqchi bo‘layotganday edi. Usmonga shunday tuyuldi. Quvonch baxsh etdi.

Ada Boli o‘rnidan turgandi, u ham qaddini rostladi.

— Menga qara, Usmonjon, — dedi.

Usmon unga qaradi.

Ada Bolyning yuziga endi yorug‘ tushib turardi. Endi ro‘parasidagini Usmon emas, u ko‘rmayotgandi.

— G‘ovlar juda ko‘p, — dedi Ada Boli. — Ko‘p bo‘lsa ham ulardan oshib o‘tiladi. Lekin bitta shunday g‘ov borki, uni oshib o‘tganni hech kim ko‘rmagan. O‘sha g‘ovning oti nafsdir. Nafsning changaliga tushgan hech qayoqqa borolmaydi. Malhun Xotun jufti haloling bo‘ladimi, bo‘lmaydimi, buni faqat Yaratgan biladi. Ammo men, bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham shuni tilaymanki, Malhun Xotun sening nafsingni yo‘ldan urmasin, o‘tib bo‘lmas g‘ovingga aylanmasin. Xuddi sen o‘ylaganingday, sening Zumrad Anqong bo‘lsin.

U yengil bir harakat bilan o‘ng tomonga surildi va Usmon uning yuzini ko‘rmaydigan bo‘lib qoldi. Bu voqeaning nihoyasi har jihatdan barcha holatlarni soyada qoldiradigan darajada hayratomuz o‘tdi.

Erto‘g‘rulbek g‘oziy bu safar buyuk ko‘chish davrida unga yo‘ldosh bo‘lgan maslakdoshlaridan sovchilar tanladi. Bular Oyqut Alp, Oq Temur va Qora Tekin edilar. Ularni:

— Shayximiz keksayib qolganimni biladi, sizlarni yaxshi qabul qilib, mening o‘rnimda ko‘radi degan umiddaman, — deb yo‘lga soldi. Sovg‘a tariqasida quyidagilarni berib yubordi:

Yulduz Xotunga zar bilan tikilgan joynamoz va bir juft naqshli paypoq;

Ada Boliga uch nishli shamdon;

Mahmud bilan Husomiddinga bittadan uzangi va bittadan qilich;

Malhun Xotunga ham Usmon tomonidan yasalgan o‘yma naqshinkor dekcha ichiga solingan bir durra, bir juft paypoq, bitta taroq, mis chelakcha va Usmon yasagan bir urchuq.

Shayx qizining qo‘lini so‘rash marosimida Dursun Faqi, Qumral Abdal hamda Malhun Xotunning katta akasi Mahmud ishtirok etishdi.

Ada Boli hadyalarni qabul qilib olgach, Oq Temur maqsad mavzusida so‘z ochib, avvalo Ada Boli bilan Yulduz Xotunning, keyin butun oilasining, so‘ngra Mahmud va Husomiddinning maqtovini keltirdi. Bu ta’rifu tavsifda Malhun Xotun sha’niga alohida maqtov so‘zlar aytildi.

So‘z navbati kelgach, Ada Boli ham gapga chiroyli to‘n kiydirib ta’riflar qildi. Ayniqsa, Usmon xususida ko‘proq to‘xtaldi, tilidan bol tomib gapirdi. Oq Temurdan farqli o‘laroq, u Qayi qavmini ko‘proq maqtadi.

Ada Boliga ko‘ra, Qayi qavmi Tangri vakilidir; Qayi qavmiga kuch-qudrati yetgan joylarda adolat o‘rnatish majburiyati yuklangan; Qayi qavmiga kuch-qudrati yetgan o‘lkalarda odamlarga ishonch, huzur-halovat, boy-badavlat va yaxshi hayot kechirishni ta’minlash vazifasi yuklangan; Qayi qavmi, avvalo O‘g‘izlardan boshlab birlashtirish, jipslashtirish, yaxlitlashtirish, yangilash va yuksaltirish mas’uliyati yuklangan va Qayi qavmi bu vazifani bajarishga majburdir.

Ada Boli qizi — Malhun Xotunni Qayi qavmining begiga kelin sifatida berishdan shon-sharaf va g‘urur tuyishini gapirgandan so‘ng shunday dedi:

— Faqat... Hammalaringiz ham, o‘g‘il uylantirgansizlar, qiz uzatgansizlar; past-balandni yaxshi bilasizlar... Yana Malhun Xotun, tag‘in uning onasi Yulduz Xotun ham bor... Bu borada yaxshi-yomonni, to‘g‘ri-egrini bizlardan ko‘ra ular ko‘proq bilishadi, gapning indallosi, so‘nggi so‘zni ular aytishadi. Bu hamisha shunday bo‘lgan va shunday bo‘lgani ma’qul kelgan. Endi meni ma’zur tutasizlar; oldin ular bilan gaplashay, keyin fikrimni aytaman...

Oq Temur bosh egib javob qildi:

— Gaplaringizning hammasi to‘g‘ri, shayxim. Lekin, ruxsat etsangiz, bir gap aytmoqchiman.

Oq Temur Ada Bolining bosh egganini ko‘rib:

— Biz ham yaxshi bilamizki, — deya gapini davom ettirdi, — Malhun Xotun qizingizni so‘rayotganlar juda ko‘p. Bunday ahvol sizni ham, bizlarni ham bezovta qilmasligi uchun ko‘ngilsizliklar-

ga barham beraylik. Birovlar behuda umidvor bo'lib yurmasin, bizlar ham bekorga behatovat bo'lmaylik. Kutmoq — olovdan battar kuydiradi, deydilar, yana kuyib yurmaylik.

Usmonning ahvolini bundan yaxshiroq izohlash qiyin, bunaqangi chiroyli ta'rif esa Ada Boli yuziga tabassum yugurtirdi:

— Hoy, Oq Temur birodar, yana bir karra iqror bo'ldimki, sevgi inson tilini shirin va burro qiladi. Sening Usmonjonni va Erto'g'rulbek g'oziy xonadonini bunchalar sevishing suhbatimizni osonlashtiradi, tezlashtiradi. Endi menga aytinglar-chi, ko'ngillaring nima tusaydi, yeyish, ichish deganday?

Ada Boli o'g'li Xusomiddinga o'girildi:

— Qara-chi, bolam, dasturxonga tortadigan nimalar bor?

Bu yog'i ko'pga cho'zilmadi, Usmon tushida qanday ko'rgan bo'lsa, shunday ro'y berdi. Ota-onaning roziligi bilan u Zumrad Anqosiga erishdi. Usmon tushida ko'rgan to'lin oy uning ko'ksiga qo'ndi. Usmon bilan Malhun Xotunning Sug'uddagi baxtiyor onlari boshlandi.

Qizlarini ko'rish uchun Malhun Xotunning uyiga borib kelishgach, Yulduz Xotun Ada Boliga:

— Agar bermaganimizda Malhunimizning holi nima kechardi? — dedi.

Ada Boli kulimsiradi:

— Ha-ya, rost aytasan, Yulduzim...

KURK TOVUQ QISSASI

Yaylovga ko'chib o'tildi. Bultur ham yoz boshlarida ayni shunday bo'lgan edi.

Erto'g'rulbek g'oziy avvaliga Bilajik hokimiga xabar qildi, olib boriladigan ashyolar uchun rozilik so'radi. Keyin ashyolar bilan keksa ayollarni yubordi.

Lekin Usmon bu safar o'tgan yildagining aksicha, otasining qilichiga boshqacha qarab qo'ydi, tishlarini g'ijirlatdi. Usmon bu safar, butun yig'ilish davomida tikka turdi, miq etmadi, yerdan ko'zini uzmadi. Bunday o'zgarishni sezganlar ham yo'q emasdi.

Oyqut Alp bu o‘zgarishni yaxshilikka yo‘ydi. U Ertug‘rulbek g‘oziyni va Dursun Faqini bu holatdan ogoh etdi. Erto‘g‘rulbek bunga suyundi, xolos.

— Inshoolloh, xuddi aytganingday, — deb qo‘ydi.

Dursun Faqi bo‘lsa buni Ada Boliga yetkazdi. Ada Boli ham:

— Shuni umid qilardim, — dedi. —Usmonjondan kutardim buni. Ishqilib, Tangrim bandasini uyaltirmasin-da.

Ada Boli birinchi bo‘lib bu borada Qunduz bilan gaplashdi.

Hoy Qunduzbek, — dedi, — ko‘nglimga kelgan bir gapni so‘ramoqchiman. Otang Erto‘g‘rulbek g‘oziy hamda qavmimiz oqsoqollarining qaror qiladigan kunlari hozir. Otang boshliq bu elimiz ulug‘lari Qayi qavmi taqdiri kimga topshiriladi? — deb so‘rashadi. O‘zing bilasan, seni xohlashardi. Men ham, otang ham shuni yaxshi bilamizki, o‘sha istakka qarshi sen hamisha “Usmonjon” der eding. Haliyam shu qarordamisan?

Qunduz savolga javoban soddadillik bilan boshini egib, kulimsiradi:

— Nega shu qarorda turmas ekanman. Axir, Usmonjon men umid qilganday yetishdi. Axir, Usmonjon menga nisbatan kuchli, mendan chaqqon. Uni mendan ko‘ra yaxshi ko‘rishadi. Butun qavmimiz kutayotgan odam mana shu “Men hamisha Usmonjon deganman, yana Usmonjon”, deyman.

— Bordi-yu, Usmonjon seni aytsa, akam bo‘lsin desa-chi?

Shunda Qunduz boshini ko‘tarib:

— Kattalar aytgani bo‘ladi, — dedi va qo‘shib qo‘ydi: — Men uning akasiman, buyuraman. Usmonjon gapimga kiradi.

* * *

Domanichda va uning yaqin-atroflaridagi yaylovlarda bu yilgi yoz barcha yozlardan farq qilardi. Qayi elatida bunaqa yozni ko‘plar ko‘rmagan: Bekning o‘rnini kim egallaydi? Uning o‘rnini kim olishi lozim?

Qunduzmi?

Savjimi?

Usmonmi?

Erto‘g‘rulbek g‘oziyning o‘g‘illaridan biri bo‘lmasa, unda ukasi Dundar bekmi?

Hamma har xil gapiradi va hamma o‘z gapini ma’qullaydi. Lekin Qunduz bilan Usmondan tashqari biror ismni aytganlar uchramayapti. Shu ikki ismni yoqlab tortishuvlar esa bo‘shashmay, avjga chiqayapti.

* * *

Usmon hamda Malhun Xotun yaylovda besh-o‘n qo‘yni, uchbesh otni boqish, kuv pishish, urchuq yigirish, kashta tikish va sevgilarining zavqi bilan yashashmoqda.

Kunlarning birida Usmon ovga taraddud ko‘rarkan, Burguttepa biqinidagi Xarlaq suvini eslab qoldi. “Bizga ism ne kerak” degan darveshni xotirladi. O‘sha joylarni Malhun Xotun ham ko‘rsa yaxshi bo‘lardi, deb o‘yladi.

— Qo‘y, o‘sha ishingni, — deb yorini sudradi.

Qarabsizki, Malhun Xotun Benlibo‘zning belida, Usmon o‘z Ol-Ishig‘ida Xarlaq tomon ravona bo‘lishdi.

Uchinchi qayrilishdan keyin ko‘zga tashlangan Xarlaq dashti Usmonni hayron qoldirdi. Chunki o‘sha toshdan o‘ralgan kulbaning ro‘parasida, suvning narigi betida yana to‘rtta kulba paydo bo‘lgandi. Jarlikning etagida besh-olti kishi o‘tirardi. Buning ustiga ot dupiriga vovullab chiqqan it ham yolg‘iz emasdi. Uning yonida yana o‘shanday kattakon beshta kuchuk bor edi. Usmon singari Malhun Xotun ham gurzisiga yopishdi. Biroq ismsiz darveshning ko‘ppagi pastda o‘tirganlardan oldinroq tushunib, balandroq vovulladi-da, sheriklarini hurishdan to‘xtatdi, xuddi o‘ziga o‘xshab ularning ham dumlarini likillattirdi: Bo‘z o‘g‘lon Usmonni bir yildan keyin ham tanigan edi.

* * *

Harlaq jarlikka oqib tushayotgan joyda o‘tirganlar Usmon va Malhun Xotun yoniga kelishdi. Ular to‘rt ayol, yetti kishi edilar. Narigi erkaklar Usmon bultur tanigan kishidan ancha yosh edilar. Ayollarning uchtasi yosh, bittasi keksaroq edi. Keksa ayol qotmadan kelgan gavdali, ancha baquvvat ko‘rinardi. Gapni o‘sha ayol boshladi:

— Juda yaxshi kelding-da, Usmonjon. Sizlarni yuborgan Tangriga shukr. Sen ham, Malhun Xotun ham maqtaganlaricha bor ekansizlar. Meni yoqtiradiganlar "Dali Go'kcha"[1] juda yaxshi ko'radiganlar esa "Go'kcha baji"[2] deyishadi. O'ruzning onasimon, uning onasi bo'lishim bilan baxtliman.

U "O'ruz" der ekan, qo'lini uzatib, Usmon taniydigan haligi kishini ko'rsatdi. Keyin boshqalarini tanishtirdi.

— Mana bu qorasoch, qoraqosh, qora ko'z Saljon, kelinim bo'ladi. Anavi qiyiqko'z, tillasoch go'zal Oybola — Bijon darveshning xotini. Manavi qizilyuz, qo'ng'irsoch, suluv boqishlini so'rasang Emran avliyoning zavjalari. Marhamat qilib, ayron ichinglar, qatiqdan tatib ko'ringlar, bizni xursand qilinglar.

Otlardan tushishdi. Malhun Xotun to'g'ri Go'kcha bajiga borib qo'lini o'pdi. Usmon jilmayib qo'ydi.

Otlarini Emran avliyo bilan Bijon darvesh oldi. Soyning teparog'ida, qiyalik boshlangan joyda yettita ot o'tlab yurgandi, ularga qo'shib qo'yishdi. Soyning narigi tomonida tovuqlar, xo'rozlar yer titar, suvda ikki o'rdak suzib yurardi. Usmon o'rdaklarga qaradi. Jarlikning chekkasidagi ular o'tirgan yerga bo'yra to'shalgan edi. Saljon bir gilam olib keldi, bo'yraning ustiga to'shadi. Go'kcha baji Usmon bilan Malhun Xotunni "o'tiringlar" deb taklif qildi. Usmon o'tirdi. Malhun Xotun esa avval Go'kcha bajining o'tirishini kutib turdi. Boshqalar tikka turishardi. Bir ozdan keyin Oybola bilan Zaliha sut va asal aralashgan qaymoq olib kelishdi. Shu paytda avval bir, keyin ikkinchi go'dak yig'isi eshitildi. Yig'ilar boshqa-boshqa uydan kelardi. Saljon bilan Oybola yugurib ketishdi. Go'kcha baji kuldi:

— Bittasi Saljonniki, nabiram, narigisi esa Oybolaniki, Tangri xayrli umr, munosib ismlar nasib aylasin; ikkovi ham o'g'il. Oyday chiroyli. Malhun Xotun senga ham o'g'illar, qizlar berishini tilayman.

Va kutilmagan bir so'z qo'shimcha qildi:

— Toki sening bekliging va nomingni davom ettirgaylar.

Usmon unga yuzlandi:

---

[1] **Dali** — telba, devona.

[2] **Baji** — opa-singil.

— Bekligim yo‘q mening, xonim baji.

— Bo‘ladi, — dedi Go‘kcha. — Biz ham boya shuni gaplashib turuvdik. Qayi qavmiga kerak ekan, xabarim bor.

Erto‘g‘ulbek g‘oziy Usmonni uylantirgach, urug‘ oqsoqollarini, do‘stlarini, donishmandlarini to‘plabdi. Ularga:

— Mening ahvolim qandayligini ko‘rib turibsizlar. Bu mening yaylovga so‘nggi chiqishim bo‘lsa kerak, — debdi. Keyin istagini aytibdi. — Elatimizga bir bek saylash lozim. Toki, ko‘zim ortimda qolmasin, go‘rimda tinch yotay.

Eshitganlar Erto‘g‘ulbek g‘oziy gapini ma’qul topishibdi. Har tomonga chopar yuborib “Kim-kimga ishonadi, kimni yoqlaydi” deb so‘rattirishibdi. So‘rab-surishtirishlar aylanib kelib, Qunduz bilan Usmonga taqalibdi.

Bir to‘da odamlar: “Qunduz aqlli, ehtiyotkor, bekordan-bekorga dushman orttirib yurmaydi; begimiz o‘sha bo‘lsin”, deyishibdi. Boshqa guruhlar esa: Begimiz Usmonjon bo‘lsin; chunki Usmonjon serg‘ayrat va kuchli, dushmanni yanchib tashlaydi, bizga yo‘l ochadi. Bizga yozlik yaylovlar, qishlik ovullar topadi”, deyishibdi.

Bu atrofdagilarning hammasi shu haqda gapirayotir, — dedi so‘zini davom ettirib Go‘kcha baji. — Qunduzmi yoki Usmonjonmi? — Usmon bek bo‘lishni istaydimi, yo‘qmi? — deyapti hamma. Hoy, Usmonjon, rostini ayt, mening O‘ruzim aytayotgani to‘g‘rimi: sen bek bo‘lishni xohlamaysanmi?

* * *

Usmon birpas jim turdi. Javobi tilining uchida turardi. Savolga savol bilan javob berdi:

— Oldin siz menga ayting-chi, Go‘kcha baji, oldimda akam turib, men qanaqasiga beklik da’vo qilishim mumkin.

— Bultur, “Menga beklik kerakmas” degan odam, endi “Oldimda akam bor” deb turibdi. Oldin ham “Oldimda akam bor“ deb xohlamayman degan bo‘lsang yaxshi; Lekin beklikni xohlab, xo‘jako‘rsinga shunday deyayotgan bo‘lsang, bunisi yomon.

Usmonning burun kataklari o‘ynay boshladi. Jahli chiqqani shundoqqina bilinib turardi. Buni sezgan Go‘kcha baji yana kulimsiradi:

— Nega jahling chiqadi, Usmonjon? — dedi. — To‘g‘ri gapga ham qizishadimi odam? Onangda yoki otangda hech ko‘rganmisan bunaqa qiziqqonlikni?

Usmon jahlini bosishga urinardi. Javobi ham shunga yarasha bo‘ldi:

— To‘g‘ri gapga jahlim chiqmaydi. Yolg‘on gapirganingiz alam qiladi. Go‘kcha baji shirin qilib so‘radi:

— Nega yolg‘on deyapsan, ayt, bilaylik biz ham...

“Bilaqoling” deganday gapirdi Usmon ham:

— Bu yerlarga yangi kelganga o‘xshaysiz. Aks holda, hammaga o‘xshab siz ham bilardingiz “Bek bo‘lmayman“ deganimda nimani nazarda tutganimni. Otam ham, akam ham, boshqalar ham menga: “Beklikka tayyorlan, bek bo‘lasan” deyishardi. “Shunga qarab harakat qil, shunga ko‘ra tadorigingni ko‘r” deyishardi.

— Xo‘sh, sen-chi? — dedi Go‘kcha baji.

Usmon o‘girilib Malhun Xotunga qaradi. Yorining sevgi va faxr to‘la ko‘zlarini ko‘rib, jahlidan tushdi.

— Go‘kcha opa, Go‘kcha opa, dedi shiddatli, lekin do‘stona ovozda. — Siz menga rostini gapiring, zero men so‘raydigan narsaning rostini faqat siz ayta olasiz: es-hushimni yig‘ishtirib olamanmi, yo‘qmi, shuni gapiring.

Go‘kcha baji bir tikka turganlarga, bir suvga qaradi. Keyin nariroqda yer titkilab yurgan tovuqlarga o‘girildi. Qayrilib, o‘g‘liga, keliniga va boshqalarga qararkan, hammasi birdaniga kulib yuborishdi.

Usmon ham, Malhun Xotun ham hayron bo‘lishdi.

— Nega kulayapsizlar? — so‘radi Usmon.

— Kulishimizning boisi shundaki, Usmonjon, — deya tushuntira ketdi Go‘kcha baji. — Manavi yer titkilayotgan tovuqlar orasida qop-qora bittasi bor. Bahorda kurk bo‘lib, tuxum bosgandi... Go‘kcha baji o‘sha kurk tovuq tuxumlari orasiga ikkita o‘rdak moyagini ham qo‘shib qo‘ygan ekan. Nihoyat, kurk tovuqlar jo‘ja ochibdi. Ajoyib jo‘jalar tuxumni yorib chiqishibdi. Qora tovuq baxtining cheki yo‘q, u o‘z vazifasini yaxshi biladi. Hamisha sergak, jangari, ikki o‘rdak, to‘qqiz tovuq jo‘jasini ketidan ergashtirib, parvona bo‘lib, don-dun topib oziqlantiradi. Ammo shunday

quvonchli damlar barham topib, birdaniga falokat boshlanadi. Chunki boshqa jo'jalarga qo'shila olmay yurgan o'rdak bolalari suv hidini sezib qolishgandi. Ikkalasi baravar qanotlarini yoyganicha chopishib, "g'aq-g'aq"lagancha o'zlarini suvga urishdi.

Ona tovuq dahshatga tushib, tipirchilab qoldi. Jon achchig'idan "kurk-kurk"lab jo'jalarini yoniga chorlay boshladi. Oh urub, faryod ko'tardi: oxiri ikkita jo'jasi suvga tushib ketdi, hozir cho'kishadi yo Tangrim, kim yordam beradi? Jo'jalarni kim qutqaradi endi?

Kurk tovuq birdaniga shoshib qoldi. Ikkita jo'jasi suvda maza qilib suzib yuribdi. Suvga sho'ng'ib, yana qaytib chiqadi, deng. Ularning xursandligini, baxtiyorligini aytmaysizmi?!

Ona tovuqning sarosimasi va es-hushidan ayrilgani uzoqqa cho'zilmadi. U ikki jo'jasini o'z holiga qo'yib, boshqalarining yoniga qaytdi...

Go'kcha baji o'shandan beri "Usmonjon quyilib qoladimi, yo'qmi" degan gap qo'zg'ashi bilan shu voqeani eslaydi. Hozir ham, Usmon bilan Malhun Xotun kelishidan oldin shuni eslab, gaplashib turishgandi.

* * *

— Kulishimizning boisi shundan, — dedi Go'kcha baji. Keyin qo'shib qo'ydi: — So'raganing uchun aytdim-da. Menga qolsa Usmonbek bo'lsin deyman. Hammamizning tilagimiz shu. Shunday bo'lsin deb barchamiz duo qilmoqdamiz...

Shunday degach, qaddini rostladi, tizzasi bilan yurib, Malhun Xotunning yoniga bordi:

— O'n to'rt kunlik oydek balqqan Malhun Xotun, suluv Malhun Xotun. Iloyim qo'sha qaringlar, o'g'illaringizning bekligini ham ko'ringlar.

Usmon bek bo'lishim uzil-kesil hal etilgan shekilli, deb o'yladi. Shu damda quloqlariga chalinayotgan tovushlar qoya toshlarga urilgancha pastga shovullab tushayotgan Harlaq soyining suvi emas, nog'oralar tovushidek tuyuldi; nog'oralar chalinmoqda, qilichlar sharaqlamoqda, otlar kishnayotir, olqishlar yangrayotir.

Ana, Malhun Xotun mujdalar olayapti, qutlug‘ suyunchilarga kulimsirayapti. Qayrilib qaradi, Malhun Xotun rostdan ham kulimsirab turibdi.

— Ketdik, — dedi Usmon.

— Yaxshi xabar kutib qolamiz, — dedi Go‘kcha baji.

Unga javoban “Xush kunlar” tilab, yo‘lga tushishdi. Yo‘lda Usmon anchagacha jim bordi. Anchadan keyin:

— Otang Go‘kcha baji singari o‘ylamaydi, — dedi.

Malhun Xotun kuldi.

— Nega kulyapsan?

Malhun Xotun yana kuldi:

— Otam ham shunday o‘ylaydi, shunday o‘ylamaydi ham. Qanday aytishimni bilolmaganim uchun kulgim qistadi.

Keyin yana nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, o‘ylanib qoldi. Aytmoqchi bo‘lgan gapini topdi, shekilli:

— Esi kirib, quyilib qolmoq — nima degani o‘zi? — deb so‘radi.

Bu savol mavzuga anchayin aniqlik kiritdi. Usmon o‘ylanib qoldi: “Ada Boli uning jasurligiga, jangariligiga, dadilligiga qarshi emasdi... — Ada Bolining istagan narsasi Usmonning ana shu xislatlaridan o‘rnida foydalana bilish edi. Albatta, o‘zi uchun emas, urug‘-aymog‘i, qavm-qarindoshi uchun!”

“Otam ham shunday o‘ylaydi, shunday o‘ylamaydi ham”. Malhun Xotun judachiroyli aytdi buni. Usmon juda yaxshi tushundi gap nima haqda borayotganini. U yo‘rg‘alab borayotgan otining jilovini sal tortdi-da, yorining otiga yondashdi. Qo‘lini cho‘zib, Malhunni quchoqladi...

Domanichga borgach, to‘g‘ri yetti ustunli, ikki bo‘limli mo‘jazgina chodirga kirishdi. Yayrab-yayrab gaplashib olishdi.

* * *

Usmon o‘zida beklik yukini ko‘taradigan darajada kuch his qilayotir.

Avvalo otasi, qolaversa, Ada Boli, Oyqut Alp, Dursun Faqi, Qumral Abdal va tog‘-u dovonlarda maskan qurgan darveshlarn-

ing kelajagi, butun urug'ining kelajagi uchun nimani xohlashayotgani va uning o'zidan nimani kutishayotganini anglay boshladi.

Balki bir bodom niholi... balki bir chinor!

Izlanayotgan narsa ana shu! Usmon endi buni aniq biladi. Bolaligidan uni diqqat bilan kuzatib kelishayotganini yaxshi anglaydi. Tengdoshlariga nisbatan xatti-harakatlari, ilk bor otga minishi, ilk yoy tortishi, qilich sermashi, kurashlari, dastlabki shikori, kiyik qulatishi va bir kuni hamma yoqni ostin-ustin qilib yuborgan asov buqani yiqitishi! Bularning hammasi kuzatib borilgan.

Lekin qarindosh-urug'ining, qavmi, ulusi, elatining e'tiborini qozonganmi, hurmatini joyiga qo'yganmi?

Qolaversa, akasi Qunduzning yuziga oyoq qo'ymayaptimi, izzat-nafsiga tegmayaptimi?

Usmon bularni birma-bir tushuntirdi Malhun Xotunga:

— Menga to'g'ri yo'l ko'rsat, nima qilay? — dedi.

Malhun Xotun ancha o'ylab turib dedi.

— Akangiz Qunduzbekdan sira xavfsiramang, polvonim. Hamma yaxshi biladi, men ham. Uning istagi chin. Sizni yaxshi ko'radi va ishonadi. Agar xohlasangiz, otam bilan gaplashing, shubhalaringiz tarqalsin.

— Rost aytasan, — dedi Usmon.

Qunduz ko'zlari chaqnab, uni bag'riga bosdi, bo'ynidan o'pdi:

— Mana bu boshqa gap! Mana bu senga yarashadi, — dedi. Keyin qo'shimcha qildi: — Yaxshi bilaman, bu xabardan otamiz xursand bo'ladi.

Usmon ham uning qo'lini o'pdi.

XUDO YORLAQASIN, USMONJON

Usmon Ada Boliga xabar yuborib, ruxsat so'rattirdi:

— Qaynotam va qaynonam qo'lini o'pib, o'zlari bilan gaplashmoq istayman.

Xabar yetkazgan G'ozi Rahmonga Ada Boli: — Borib ayt, kutamiz, — dedi.

G‘ozi Rahmon, Oqcha Xo‘ja, Qo‘nur Alp, Sungur va Saltuq bilan kelayotgan Usmon hamda qizini shayx darvoza oldidagi zinapoyada turib kutib oldi:

— Xush kelibsizlar, Sizlarni ko‘rib, ko‘zimiz quvondi, ko‘nglimiz yayradi. Bizni rosa xursand qildinglar, Tangrim sizlarni sevintirsin.

Ada Bolining chap tomonida Yulduz Xotun, ikki qadam orqaroqda o‘g‘illari turardi. Zinapoyaning ikki tomonida ba’zisi yosh, ba’zisi qari o‘ntacha odam saf tortgandi. Usmon ularning orasida faqat Dursun Faqi, Qumral Abdal hamda darvesh O‘ruzni tanirdi.

Otasi so‘zini tugatar-tugatmas Malhun Xotun otidan yengilgina tushdi. Navbatma-navbat otasi, onasi hamda Mahmud va Husomiddin bilan ko‘rishdi. Ular ham Malhun Xotunni bag‘irlariga bosib, qo‘lidan o‘pishdi. Usmon ham otdan tushib, zinaning o‘ng va chap tomonida saflanganlar bilan salomlashdi, Ada Boli va Yulduz Xotunning qo‘lini o‘pdi, Mahmud hamda Husomiddin ila quchoqlashib ko‘rishdi.

So‘rashish udumi tugagach, Ada Boli Husomiddinga:

— Bolam, — dedi, — ichkari boshla.

Keyin boshqalarga yuzlandi:

— Qani, marhamat qilinglar.

Uyning orqa tomonidagi boqqa o‘tishdi. Daraxtlar soya solib turgan kenggina shiyponga gilamlar to‘shalib, ko‘rpachalar tashlangandi.

Malhun Xotun onasi bilan uyda qoldi.

Hamma o‘tirib bo‘lgach, Ada Boli gap boshladi:

— Usmonjon, bolam, bir diydorlashib, suhbatlashsak, debsan. Mana, ko‘rishdik, juda xursandmiz. Endi gaplashsak ham bo‘ladi. Bizga aytadiganlaringni uyda aytishga asrab, qolganlarini gapiraver. Akang Qunduzbek sening aytganlaringni bizga suyunchi tariqasida yetkazdi. Men ham: Usmonjonning gaplashish istagi shu bo‘lsa kerak deb o‘yladim. Ammo bu faqat ota va bola o‘rtasidagi suhbat mavzusi emas, deb hisoblaganim uchun men ishongan odamlar ham tinglab fikr qilishsin. Endi gapirsang ham bo‘ladi.

Usmon avval Ada Boliga, keyin o‘tirgan va tikka turganlarga birma-bir qarab chiqdi, uzoq tikilib qaradi.

— Hazrat Ada Boli. Tangriga ayon, men avvalo to‘g‘ri yo‘ldamanmi yoki yanglishayapmanmi, bilayin degan niyatda huzuringizga keldim. Aql tarozisiga solib ayting fikringizni. Niyatimni oshkor qilishim uchun otam Erto‘g‘rulbek g‘oziydan ham oldin sizdan so‘rashim kerak, deb o‘yladim. Modomiki, siz shunga munosib ko‘rgan ekansiz, men ham ma’qul ko‘raman. Endi katta-yu kichik birodarlarim, men e’zozlagan va yaxshi ko‘rgan odamlarning hammasi bilib qo‘ysin. Agar menga yarashsa, mening haqqim bor bo‘lsa va loyiq ko‘rilsam, men bek bo‘lishni istayman. Bunga men o‘zimni loyiq deb bilganim va bu mansab menga yarashadi hamda shunga haqqim bor deb o‘ylaganim uchun shuni xohlayapman. Xususan, hali aytganingizday, oldin akam Qunduzbekning roziligini va rizosini olganim uchun xohlayman. Endi menga aytinglar: to‘g‘ri qilayapmanmy, noto‘g‘rimi?

Usmon gapirib bo‘lgach, yana hammaga bir-bir qarab chiqdi. Ammo bu safar u nigohini Ada Bolida to‘xtatdi... Bu bilan javobni undan kutayotganini bildirdi. To javob bo‘lmaguncha undan ko‘zlarini uzmay turdi.

Ada Boli jilmayib turardi; avvalo Usmonning, qolaversa, hammaning sabrini sinab ko‘rayotgandek edi. Sabrsizlik esa, faqat qo‘l qovushtirgancha tik turganlarda sezildi; yoshlar hayajonlanishardi. O‘tirganlarda bunga hech qanday qarshilik ko‘rinmasdi. Tizzalab o‘tirgan Usmon esa, asabi yoydek taranglashib, Ada Bolidan ko‘zini uzmasdi.

— Azmingni, sabotingni, sabr-bardoshingni bilardik, Usmonjon, — deya gap boshladi Ada Boli. — Bularning maqbulligini senga aytgan edim. Endi oqko‘ngil va to‘g‘riso‘z ekanligingni ham ko‘rib turibmiz. Bular ham maqbul. Kuch-quvvatingni, jasoratingni bezay boshlading, Usmonjon. Seni yoqtiradigan, yaxshi ko‘radigan va yoqlaydiganlarning aksariyati va biz xuddi shuni kutayotgandik. Xursand qilding bizlarni. Endi so‘rog‘ingga kelsak, to‘g‘risan, to‘g‘ri yo‘ldasan, Usmonjon. Ammo beklik xususida bu yerda senga aytiladigan gap yo‘q. Beklikning o‘z qonun-qoidalari, odatlari bor. Biz— o‘zimizni otang Erto‘g‘rulbek g‘oziyning aytgan kuni va tayinlagan joyida boshqa so‘zlar bilan birga aytgumizdir.

Ada Bolining jilmayishi o‘zgardi, ovozi ham boshqa ohangda:

— Hoy, bolam, — dedi Husomiddinga, — qara-chi, onang Yulduz Xotun mehmonlarimizga yeyish-ichish uchun biror narsa tayyorladimikin? Yoki qizi bilan gapga berilib ketdimi?

* * *

Oftob Domanichning g‘arbini qurshagan tepalar ortiga tusha boshladi.

Usmon chodirning old bo‘limida, ayiq po‘stini ustida chordana qurib o‘tiribdi, qimir etmay, kiprik qoqmay kutayapti.

Malhun Xotun ora-sira, o‘zi uchun to‘qiyotgan palaxmonni qo‘yib, narigi xonaga o‘tadi, o‘sha yerda o‘zini chalg‘itib, Usmonning kutishiga sherik, betoqat bo‘layapti.

Yuz qadamcha yuqoridagi Erto‘g‘rulbek g‘oziyning chodiridan hali xabarchi kelganicha yo‘q.

Qaror nega kechikdiykin?

Malhun bezovtaligini yashirmayapti.

Usmon bo‘lsa Harlaqda Go‘kcha baji tomonidan e’lon qilingan bekligiga hamon ishonmoqda.

Go‘kcha bajining aytganlari hanuz quloqlari ostida jaranglab turibdi.

“O‘n to‘rt kunlik oyday to‘lishgan Malhun Xotun, go‘zal Malhun Xotun menga o‘xshab uvali-juvali bo‘ling, iloyim bolalaringizning bekligini ko‘ring”.

Peshana yozig‘i bu; Usmon bunga ishonadi.

Albatta, o‘zi bek bo‘ladi; Usmon bunga ishonadi.

Chunki beklikning nima ekanligini eng yaxshi biladigan ham o‘zi edi. Biladiganini eng yaxshi amalga oshiradigan ham Usmon bo‘ladi. Usmon bunga ishonadi.

Erto‘g‘rulbek g‘oziyning chodirida bahslar har qancha cho‘zilmasin, oxiri shunday xulosaga kelishadi. Usmon bunga ishonadi.

Nihoyat, chodir oldida bir soya ko‘rindi. Bu kelayotgan otasining chopari Somsachovush[1] edi. Somsachovush:

— Hoy, Usmonjon, otang Erto‘g‘rulbek g‘oziy seni so‘rayapti, — dedi.

[1] **Chovush** — zobit, yuz boshi.

* * *

Erto‘g‘rulbek g‘oziyning chodiridagi bahsning cho‘zilishiga sabab Usmonning Qayi bekligi masalasi emasdi.

Erto‘g‘rulbek g‘oziy to‘rt-besh so‘z bilan gapni boshlab shunday dedi:

— Hoy, ahli donish — yoronlar, men bilan ot surganlar, ko‘kragini kerganlar, qilich sermab, yoy tortganlar, g‘anim dodin berganlar; birodarlar, yo‘ldoshlarim, mening ahvolimni ko‘rib turibsizlar. Qarib qoldim; o‘rnimga yangi bek kerak. Sizlarga xabar berdim, ma’lum qildim. O‘tgan oydan beri maslahatlashib, o‘ylashib ko‘rdinglar. Endi bo‘ldi deb o‘yladim, sizlarni yana chorladim. Qayiqavmi, qolgan O‘g‘iz qavmlari sizlarning qaroringizni kutayapti, aytinglar, — dedi.

Undan keyin Alqauy begi, qalbi sof, ko‘ngli toza. Qiyan Saljuqning otasi Ertug‘mish gapirdi:

— Ey, katta suvlar kechib, qorli tog‘lar oshirgan, qavm-urug‘lariga yurt, uy-joy qurgan Erto‘g‘rulbek g‘oziy, bilaylik-chi sen nima deysan, kimni xohlaysan? Pahlavon, mard o‘g‘illaring bor, seni o‘g‘illar kabi sevguvchi yigitlaring bor. Ukang bor, Xudoga shukur, qaysi birini ma’qul ko‘rasan?

Shunda Erto‘g‘rulbek g‘oziy aytdi:

— Men to‘ng‘ich o‘g‘lim Qunduz bo‘lsin, degandim. U bo‘lsa, bu ish kattaning ishi emas, deydi. Kenjatoyimiz Usmonjon bo‘lishini xohlayapti. Sizlar nima deysizlar?

Bayot begi Xo‘ja Qulmash:

— Juda ma’qul gap, — dedi.

Do‘durg‘alik Qora Guna esa gapni boshqacha boshladi:

— Ayni kunlar juda xatarli dam hisoblanadi: noto‘g‘ri qo‘yilgan bir qadam behuda otilgan bir o‘q, yanglish urilgan bir qilich yolg‘iz Qayi qavmiga emas balki barcha urug‘larga balo yog‘dirishi mumkin bo‘lgan; ming o‘lchab bir kesiladigan payt...

Qora Guna biroz to‘xtadi, gapiga quloq solib turganlarning ko‘zlariga qaradi va taxminiga ishonch hosil qilgach, asl aytadiganlarini gapirishga o‘tdi:

— Usmonjon mard yigit, bilamiz. Bilagida kuchi bor, bilamiz. Yurap botir, qo‘rquv nimaligini bilmaydi, buni ham yaxshi

bilamiz. Usmonjon Qaqb begi bo'lsin, shunga loyiq deb bilamiz. Ammo-lekin, Erto'g'rulbek g'oziy, unin tilaklariyu nasihatlarini sening istaging va o'gitlaring singari buyruq deb hisoblash bizlarni o'ylatadi, ranjitadi. Chunki Usmonjon yosh yigit, o'ta jizzaki, o'ta jahldor. Hech kimni ayab o'tirmaydimi deb qo'rqaman...

Odamlarning qarashidan Qora Gunaning yonini oluvchilar kam emasligin bilsa bo'lardi.

Ertug'mishbek Ada Boliga qaradi.

— Qonun-qoidani bilaman, shayxim, jim turishim lozim. Lekin o'rtada qaltis vaziyat vujudga keldi. Usmonjon uchun emas, ushbu vaziyat uchun nima deysiz?

Shunda Ada Boli o'rtaga savol tashladi:

— Ertug'mish bekning gapini to'g'ri deb hisoblaysizlarmi?

U gapidan so'ng Qora Gunaga qarab dedi:

— Bizlar bu yerda Usmonjon bek bo'lsin deyapmiz. Yana nechtasi qancha odamga beklik berishgan. Nima qilibdi, birov birovni bek qilolmaydi. Beklik — sutda, qonda, yurakda, kallada bo'ladi. Biz, Usmonjon bek deymiz. Lekin bek bo'ladimi, yo'qmi bu uning ishi. Senga aytayapman, Qora Guna, birodarim. Sizlar ham yaxshilab eshitinglar: Erto'g'rulbek g'oziyning tilaklari va o'gitlari tabiiy bek bo'lganidan buyruq hisoblanadimi? Yana shuni ham so'ramoqchiman: Erto'g'rulbek g'oziy bir paytlar, shu bizlarga o'xshaganlar bek bo'lsin degani uchun bek bo'lganmidi?

Biroz jim qoldi, keyin:

— Ko'p gapirgan bo'lsam, kechirasizlar, — dedi. — Men shunday deb o'ylaganim uchun gapirdim.

Nihoyat mashvarat tugadi.

Usmonjon bek saylanadi, sinaladi.

Bu qarorga Qora Guna ham qo'shildi.

Ada Boli aytganday, Usmonjon yo bek bo'ladi, yoki bo'lmaydi. Ammo bek bo'ladigan bo'lsa, uning amrini hamma bajarishi kerak.

Shunday qarorga kelinganidan so'ng Ada Boli:

— Hoy, Somsa chovush, borib ayt, Usmonjonni kutishyapti degin.

Erto‘g‘rulbek g‘oziy ham o‘z odami Qora Tekinni Qunduzga yubordi. Ularni tez yetib kelishlarini tayinlashdi. Dundar bekning vaqtliroq kelgani ma’qul. Unga Oyqut Alpni jo‘natishdi.

Somsa chovush bir chopar, xolos, mujdachi emas. Yuzidan hech narsa tushunib bo‘lmasdi. Malhun ham biror narsa anglay olmadi, bezovta bo‘ldi, ularni orqasidan chiqib Qunduzning ham Qora Tekin bilan ketayotganini ko‘rib, battar hayajonlandi.

Katta chodir yoniga baravar yetib borishdi. Somsa chovush katta aka choparga yo‘l berdi. Ichkariga avval Qunduz bilan Qora Tekin, keyin Somsa chovush bilan Usmon kirishdi. Erto‘g‘rulbek g‘oziy chodirini yigirma-yigirma besh odim naridan o‘rab olgan ayol, erkak, qari-yosh — mingtacha odam hammasi bayramdagidek kiyinishgan.

* * *

Qora Tekin bilan Somsa chovush joylariga borib o‘tirishdi.

Qunduz bilan Usmon eshikdan ikki qadam ichkarida yonma-yon turishdi.

Qavm beklari, urug‘ beklari, darveshlar va Ada Boli hamda Erto‘g‘rulbek g‘oziy ularga tik qarab turishardi. Yuzlari va ko‘zlaridan hech narsa anglab bo‘lmasdi.

Ularga qaramayotgan, boshi egik, lablari qisilgan, rangi o‘chgan bir kishi bor edi: bu Usmonning amakisi Dundarbek edi. Usmon uni ko‘rdi. Sukunat ancha cho‘zildi.

Keyin Ada Boli gapirdi:

— Erto‘g‘rulbek g‘oziyning to‘ng‘ich o‘g‘li Qunduz, senga aytayapman, beklik kenja ukang Usmonjonga berilayapti, Aytadigan gaping bo‘lsa, so‘zla.

Qunduz yuzida hech qanday o‘zgarishsiz javob berdi:

— Men so‘zimni aytganman. Otam Erto‘g‘rulbek g‘oziyga ham gapirganman. Kenja birodarim Usmonjon ham eshitgan va shunga rozi bo‘lgan. Bu yerda ham aytamanki, qabilalarimiz, urug‘-aymoqlarimiz, el-elatlarimiz nomidan beklik unga munosibdir.

U birdan Usmonga o‘girildi:

— Usmonjon, ey mening bahodir birodarim, bundan buyog'iga men har bir gapingni, nasihatingni amr deb qabul qilaman.

Usmon qo'lini akasining qo'liga uzatdi, uni ushlab o'pdi. Qunduz ham uni bag'riga bosdi, ensasidan o'pdi.

Ular bir-biridan ajralib, yana yonma-yon turishgach, Erto'g'rulbek g'oziy gapirdi:

— Ey mening Qunduzim; o'g'lim, faxrim, quvonchim, bolam. Meni quvontirding, baxtiyor qilding. Hamisha baxtli bo'l, o'g'lim, Endi Qora Tekin yo'ldoshim yoniga o'tir.

U Qunduz joyiga borib o'tirgunga qadar kutib turdi-da, Usmonga o'girildi:

— Ey, o'g'lim, Usmonjon; shayxim Ada Bolining senga aytadigan gaplari bor. Tingla. Yaxshilab eshit. Meni tinglagandek tingla. Bobong Sulaymon Shohni tinglagandek tingla. Bobongga gapirganlar gapirgandek tingla. Mening bobomni tinglaganimdek tingla. Sening bobong mening bobomni tinglagandek tingla, — dedi.

Boshini egib jim qoldi.

Hamma boshini egib jim turardi.

Faqat bir kishi Usmonga qarab turardi. Bu amakisi Dundarbek edi. Usmon unga qarab qo'ydi. Amakisi lablarini qimtib turardi.

Ada Boli xuddi Domanichdagidek, Sivriqoyadagidek ovoz-la gapira boshladi:

— Ey Usmonjon, Tangri ko'nglingni va yo'lingni yoritsin, ko'zingga nur bersin. Bilagingga kuch; yuragingga quvvat bersin. Seni haqdan, adolatdan, marhamatdan, azmi-qarordan, sabot-matonatdan kam qilmasin.

Ey Usmonjon, sen beksan. Bekligingni bilib qo'y, bekligingni unutma.

Ey Usmonjon, sen beksan. Bundan keyin g'azab bizga, toqat senga; ranj bizga, ko'ngil so'rash senga; ayblash bizda; bo'ysunish senda; bundan buyog'iga: yanglishish bizdan, kechirim sendan; ojizlik bizdan, yordam sendan; kechimsizlik, uyushmaslik, anglashilmovchiliklar, olishuvlar bizdan, adolat sendan; kechirish sendan.

Ey Usmonjon, bundan buyog'iga: bo'lmak bizdan, butunlamak sendan, dangasalik bizdan, g'ayrat sendan.

Ey Usmonjon, yuking og'ir, ishing qiyin; Tangri senga madadkor bo'lsin, bekligingni qutlug' qilsin.

Barcha boshlar egik edi. Usmon oyoqda edi, tikka turardi. U Erto'g'rulbek g'oziy tomon yurdi, tiz cho'kdi va qo'lini o'pdi. Erto'g'rulbek g'oziy ikkinchi qo'lini uning yelkasiga qo'ydi:— Usmonjon, o'g'lim, — dedi. — Kuvonchim eding, g'ururim bo'l; sevinchim eding, ishonchim bo'l. Bor endi, onangning fotihasini ol.

Usmon qaddini rostladi. Avval shu yerdagilarga qarab qo'lini ko'ksiga qo'ydi, boshini egdi-da, chodirni ikkiga ajratib turgan gilamni qayirib, oshxonaga o'tib ketdi.

* * *

Qoplar, xalatlar, meshlar, kuvlar, chelaklar, kapkir-cho'michlar, gilam- hurjinlar, idish-tovoq va kichik yangasi — Savji akasining rafiqasi Oyna Malak. Onasi ko'rinmasdi.

Usmon so'raganday unga qaragan edi, yangasi Oyna Malak onasining sal toblari yo'qligini anglatuvchi ovozda:

— Yotoqxonada, — dedi-da, boshi bilan chodirning narigi xonasiga ishora qildi.

Usmon jadallik bilan yotoqxonani to'sib turgan gilamni qayirib onasining yoniga o'tdi.

* * *

Usmon onasi haqidagi maqtovlarni juda ko'p eshitgan. Ayniqsa, otasi Erto'g'rulbek u haqda gapirganda og'zidan bol tomardi.

— Hoy, Jonqizim mening, senga aytayapman, Jonqiz, — derdi Erto'g'rulbek.

— Nima deysiz, sadag'angiz ketay? — der edi erkalanib Jonqiz.

— Hayronman, Jonqiz. Oyna Malak, Kutlug' Malak... Birgina umidim Usmonjon edi. U ham endi Malhun Xotunga girdikapalak. Men, onalari Jonqiz bo'lgach, bu o'g'illarim qizlarni yoqtirishmaydi, men nabira ko'rolmayman deb o'ylardim... Kelinlarim har qancha go'zal bo'lmasin, senga teng kelolmaydi, Jonqiz...

...Mana hozir ota chodirining yotoqxona bo'limida behol yotgan onasini ko'rib g'alati bo'lib ketdi.

— Nima balo, otam meni vidolashgani yubordimi? — xayolidan o'tkazdi Usmon.

Quchog'ini ochib onasiga entikdi, bag'riga bosdi.

— Hoy bolam, o'zingni qo'lga ol...

Onaning kulib turib hazil aralash aytgan bu gapi Usmonning bag'rini o'rtab yubordi. Usmonning esiga tushdi. Bu ancha yillar burun bo'lgandi. Onasi tez-tez kasal bo'lib turardi. Usmon uning boshi uzra o'tirib, parvona bo'lar, oyijonini quchoqlab:

— Oyi, oyijon, siz o'lmang, men o'laqolay, — derdi.

— Ey bolajonim, o'zingni qo'lga ol, —derdi onasi.

O'shanda o'zini zo'rlab bo'lsa ham o'g'liga shunday degandi Jonqiz:

— Erto'g'rulbek o'g'liga bo'shashish yarashmaydi; O'zingni qo'lga ol, bolam. Dunyo o'zi shunaqa, kuni yetgan ketadi. Bobong Sulaymon Shoh ketdi... Fotima onamiz ketdi. Muhammad Mustafo ketdi. Bu dunyodan xotirjam ketishga nima yetsin, o'g'lim. Yuzing oq bo'lsa, men xotirjam ketaman.

Ona so'zini zo'rg'a tamomladi:

— Senga ishonaman. Yanglishma, bolam. Akalaring mard, or-nomusli yigitlar. Lekin men senga ko'proq ishonaman. Ishqilib, yanglishma bolam, toki men go'rimda tinch yotay...

Usmon onasining boshini, siyraklashgan sochlarini siladi. Xuddi o'ziga gapirayotgandek, ming'irladi:

— Beklikni menga berishdi, oyi.

Jonqiz zo'rg'a jilmaydi.

— Men ham shu umidda edim, murodim hosil bo'ldi, — dedi.

So'ng bir amallab boshini burdi, o'g'lining ko'zlariga tikilib, yolvorib gapirdi:

— Usmonjon, Usmonjon... jon bolam, Jonqizning joni bolam. Seni sevganlarni, senga ishonganlarni ehtiyot qil.

— Ehtiyotlayman, oyijon.

— Shunday qil, bolam.

Usmon uning qo'lini o'payotganda onasi qo'shimcha qildi:

— O'zingni ehtiyot qil. Sev... Sevgingni ehtiyotla. Nonko'r bo'lma. Vafosh oyoqosti qilma. Boraqol endi, seni kutishayapti.

"Boraqol", dedi. Lekin qo'lini qo'yvormasdi. Yana nimadir demoqchi edi "Nima demoqchi edim" deganday o'ylanib qoldi. Keyin qo'lini asta bo'shatdi. So'nggi so'zlari shu bo'ldi:

— Usmonjon, bor... Oyna Malakni yubor, ayt, Malhun Xotunni olib kelsin...

* * *

Usmon hech narsaga aralashmadi, lekin hammasi ko'ngildagidek o'tdi.

Mehmonlarning ulug'larini Qunduzning o'zi kutib oldi. Kichik akasi Savji bo'lsa keragicha tuya, qo'y so'ydirdi, qozon ostirdi. Kechqurun shu paytgacha ko'rilmagan ziyofat berildi. Xohlagancha yeb, istagancha ichishdi. Quvnab qo'shiq aytib, yayrab raqsga tushdilar, gulxan yoqib suhbat qurdilar.

To'linoy g'arbga yonboshladi hamki, Usmon ko'rinmasdi, har bir davra Usmon boshqasida bo'lsa kerak, deb o'ylardi.

Malhun Xotun ham turli o'ylar, alam va sevinchlar iskanjasida Usmonning ziyofatdan qaytishini kutardi.

Usmon esa bu paytda hech kimga bildirmay, piyoda Sivriqoyaga chiqib olgandi. U shu topda yolg'iz qolishni istardi. Oldingi safar chiqqanida o'tirgan joyini topib o'tirdi, o'yga toldi.

— Hoy, Usmonjon, nimalarni o'ylayapsan?

Bu tush bo'lsa kerak deb o'yladi yangi bek.

— Sendan so'rayapman, Usmonjon, nimalarni o'ylayapsan?

Usmon tushundi. Bu tush emasdi. Gap so'rayotgan Ada Boli edi.

Ada Boli unga ota hisobida. O'rnidan turib:

— Keling, — dedi va savoliga "hech" deb javob qaytardi.

— Mayli, bir pas o'tiraylik, — dedi Ada Boli va Usmonning yonidan joy oldi.

Ikkalasi ancha gaplashishdi, o'tgan uchrashuvlarini, suhbatlarini eslashdi. Usmonning otasi Erto'g'rulbek, akasi Qunduz haqida, Malhun Xotun, Yulduz Xotun xususida gap aylandi.

— Usmonjon, — dedi nihoyat Ada Boli, — senga yana ikkita nasihatim bor: kekkayib ketma; dushmanga mensimay qarama... — Keyin qo'shib qo'ydi: — Bu yerlardan ancha olisda bir mozor ko'rdim. Uning qabr toshida shunday yozilgandi:

"Ey, Alp Arslonning sha'ni olamni tutgan deb bilguvchilar, kelib uning tuprog'ini ko'ringlar".

Alp Arslonni bilib qo'y, Usmonjon. Tangridan bo'lak biror ulug' o'tgan ersa, hozir bo'lsa va kelgusida yashasa, ana shu ulug'larning ulug'i edi u. Qancha o'lkalarni zabt etgandi. O'limi oldidan shunday degandi: — "Bu o'limga, shunday o'limga o'zim sababchiman. Yoshligimda bir donishmand menga: mag'rurlanib ketma, ko'ngli ochiq bo'l, dushmanni o'zingdan kam o'ylama, degandi. Shu o'gitga amal qilmadim. Kibru havoga berilib ketdim. Endi jazosini tortayapman. Kuni-kechagina dunyo oyoqlarim ostida deb o'ylardim. O'z-o'zimga: sen Dunyoning xo'jayinisan va yengilmas jangchisan, derdim. Endi bo'lsa, g'aflatda qolib, ojiz bir g'animning zarbasidan o'layapman. Bu qo'shinlar, bu shon-sharaf, bu taxtu toj endi meniki emas".

Haq gapni aytdi Alp Arslon. Bu gaplari barcha beklarga tegishlidir.

* * *

Pastda, qishloq tevaragida yoqilgan gulxanlar qoraya boshlagan, endi juda olis va mitti yulduzlardek ko'rinar, bir yonib, bir o'chardi.

Usmon o'rnidan turib chodirlar tomon bormoqchi edi, Ada Bolining ovozito'xtatdi.

— Hoy Usmonbek, — dedi Ada Boli, — senga ikkinchi nasihatni aytay: dushmanni ko'paytirma. Qavmingdan, urug'ingdan, diningdan bo'lgan odamlarga g'anim bo'lma, kek-adovat saqlama. Ayniqsa, qavming, urug'ingdan, dindosh odamlar bilan do'stligingni hamroh do'stligi bilan chalkashtirma, bir xil tutma; bunday do'stlarga sodiq bo'l, lekin jon fido qilma, hisob-kitobingni bilib qil. Dushman kuchidan ogoh bo'l, yetti o'lchab bir kes. Gapimni tushundingmi, bek?

Usmon unga o'girildi:

— Otam Ada Boli, hamma gapingizga rioya qilaman...

O'tov oldidagi hali o'chmagan gulxan atrofida besh kishi bor edi. Usmon ularga qarab qoldi. Birdan u yerda bir qo'shiq yangradi.

— G'ozi Rahmon, — dedi Usmon.

G'ozi Rahmonning ovozi go'yo uch-to'rt o'q-yoy otimichalik joydan emas, Sulaymon Shohning ko'chishni boshlagan yeridan kelayotgandek edi. Uni qo'ng'iroqdek jarangdor ovozi Domanich tog'larini va yana qancha tog'larni oshib Usmonning nomini uni bilgan va bilmagan o'lkalarga yoyar va Usmonning o'zini ham o'z orqasidan ergashtirardi.

— Tushundim, — dedi Usmon. — Mening jon jo'ralarim, aziz safdoshlarim shular: Oqcha Xo'ja, Qo'nur Alp, Sungur va Saltuq — qadrdonlarim.

BEK BO'LSANG, BUYUR!

Usmonning bek bo'lib saylangani vohaning narigi tomonlarida ham, nasroniy, musulmon, turk, tatar, rumlarda, barcha jamoalarda suhbat mavzusi bo'ldi. Bundan suyunganlar ham bo'ldi, afsuslanganlar ham. Kimdir labini bursa, kimdir peshanasini tirishtirdi. Birov Erto'g'rulbek g'oziy bilan do'stligini yangilab, Usmon bilan davom ettirishga tayyorlanmoqda. Birov; do'stligiga chek qo'yish taraddudini ko'rmoqda. Bittasi Erto'g'rulbek g'oziy Qayi qavmi dushmanligini avj oldirish niyatida, boshqasi g'animlikka chek qo'yish uchun uni unuttiradigan qutlov armug'onlari tayyorlamoqda. Shundan bo'lsa kerak, Usmonni yo'qlab keluvchilar ko'payib qoldi.

— Bek, bir kishi sizni ko'rmoq istaydi.

Dursun Faqining ishonchli odamiman deyapti...

— Bek, sizni darvesh O'ruz so'rayapti...

— Bek, sizni bir g'arib devona izlab kelibdi.

Uni yo'qlab keluvchilarning ko'plari darveshlar. Lekin oralarida rumlar, tatarlar, olmonlar ham oz emas. Ularning hammasi xabar olib kelishyapti, xabarlarining aksariyati juda muhim. Bular Usmonni jiddiy bosh qotirish hukm va qarorlar chiqarishga undamoqda.

* * *

Usmon o'ylab, hukm va qarorlar chiqarmoqda, bu orada qabilasining tizimini ham yangilashga kirishdi. Bu yangilashning muhim tomoni shunda uni amalga oshirilishi o'z-o'zidan bo'ldi.

Marosimning ertasi kuni uning chodiriga Somsa chovush, Qora Tekin, Temur, Hasan Alp va shayx Mahmud — beshalasi baravar kelishdi. Hammasi qilich taqqan, o'q-yoy, sadoq, cho'qmor bilan qurollangan.

Somsachovush gapboshladi.

— Hoy Usmonbek, eshitdingmi? Otang Erto'g'rulbek g'oziy qaridim deb aytdi. Nima, bizlar qarimadikmi? Bizlar ham keksayib qoldik. Kechirasan endi. O'rnimizga o'z tengqur jo'ralaringdan, yosh yigitlardan qo'y deyapmiz. Amring shu xususda bo'lsin deymiz-da. Bizlar qonun-qoidaga bo'ysunamiz, sening ham unga amal qilishingni istaymiz.

Usmon tik turardi. U asta yurib borib ularning ko'llarini olib, birma-bir o'pib chiqdi. Keyin o'rniga qaytib borib, ularga bir-bir qarab gapirardi:

— Ey, ulug' otam Erto'g'rulbek g'oziyning ulug' safdoshlari: yoy ustozim Oq Temur, qilich ustozim Hasan Alp, chavandozlik ustozim Qora Tekin, shikorga o'rgatgan Somsa chovush va imon-e'tiqod nurim shayx Mahmud: Mening buyrug'im sizlarning tilaklaringizdan nariga o'tmaydi. Mening tilagim ham shu: meni tashlab ketmanglar, og'ir kunlarimda yolg'iz qo'ymanglar, endi boringiz; ko'nglingiz istagandek yashayveringlar. Faqat unutmangiz, eshigim sizlar uchun hamisha ochiq.

Ular Usmonni bag'irlariga bosib, ketishdi. Usmon esa o'z jo'ralariga xabar yubordi.

— Tez kelishsin, — dedi. Dedi-yu, seskanib ketdi. Orqasida kimdir kutib turgandek edi. Uning orqa tomonida o'lim to'shagida yotgan onasi bilan homiladorligiga suyunchi so'ragan Malhun bor edi.

Bek Usmon. Farzand va er Usmon! U ikkalasini — onasi va yorini bir biridan kam ko'rolmasdi. U shiddat bilan ichkari kirdi-da, ikkalasini ko'rdi, bag'riga bosib, darhol do'stlari huzuriga shoshildi.

* * *

Oq Temurning o'rniga Rahmon. Rahmon ham yaxshi yoy tortadi.

Hasan Alpning o'rniga Sungur. Sungurning qilichi toshni kesadi.

Qora Tekinning o'rniga Qo'nur Alp. Safdoshlariga va Usmonga hech kim bilmaydigan maqollarni o'rgatgan o'sha. Usta Chavandoz, otning qanaqaligini bir qarashdan bilardi. O'ziyam otga juda yarashardi-da shu Qo'nur Alp.

Nihoyat, Somsa chovushning o'rniga Oqcha Xo'ja, shayx Mahmud o'rnini Saltuq egallaydi. Chunki Saltuq uning jiyani — opasining o'g'li.

* * *

Usmon do'stlariga tanlovini ma'lum qildi. Ular ham:

— Amri farmoningga hozirmiz, — deyishdi.

Faqat G'ozi Rahmon bunga qo'shimcha qildi:

— Amri farmoningga hozirman, Usmonbek; lekin afv et, meni to'g'ri tushunishingni istayman.

Usmon do'stiga bir qarab qo'ydi. Tushundi. G'ozi Rahmonning gapi og'ir botsa-da, o'zini bosdi. Chunki do'stining ko'ngil majorasini esladi. Do'stining yoniga bordi. Qo'lini yelkasiga qo'ydi:

— Qo'ysang-chi, Rahmon, — dedi, — menga qara.

G'ozi Rahmon boshini ko'tardi. Ko'zlari to'qnashdi.

— Yo'ldan adashma. O'zingni qo'lga ol, Rahmon. Yigit kishi bo'sh-kelmasligi kerak. Tuyg'ularing qurboni bo'lishingga yo'l qo'ymayman...

Rahmon jilmaydi. Qaddini rostladi. Qarashlari keskinlashdi:

— Bo'ldi. G'aflatdan uyg'ondim, — dedi.

G'ozi Rahmon hozir Usmonning Sivriqoyada o'tkazgan og'ir damlarini boshidan kechirmoqda edi. Malhun Xotunga oshiq bo'lib, ota roziligini ololmay rosa qiynalgandi Usmon o'shanda.

Qutlug' Malak edi Rahmonning Malhuni.

Do'durg'a urug'idan. Qora Gunabek ammasining qizi edi Qutlug' Malak. Ko'zlari binafshani eslatardi, sochlari sap-sariq edi Malakning. Yuzi bug'doyrang. Hozir o'n besh yoshda, do'durg'alik bir yigitga qayliq.

G'ozi Rahmon uni uch martagina ko'rdi. Birinchi bor Qutlug' Malakni ot olib qochganda ko'rgandi. Ayg'ir chavandozga bo'yin

bermas, Qayi urug'i yozgi yaylovining ustidan toqqa qarab o'rlab borardi. Buni ko'rgan atrofdagilar, ayniqsa ayollar chuvillashdi:

— Hoy, kim bor, qutqarsanglar-chi.

G'ozi Rahmon allaqachon tulporiga sakrab minib, quturgan ayg'ir ketidan ot qo'ygandi. Ana u, bolani olib qochayotgan otga yaqinlashdi. Chavandozning ovozini ham eshita boshladi.

U qo'rqmagan, faqat jahli chiqqan edi. U yordam uchun emas, balki otiga do'q qilib baqirardi. Rahmon uning ovozini aniq eshitdi:

— Hoy g'ajirlarga yem bo'lgur, o'zingni ayasang-chi!

Rostdan ham Rahmon uning ayg'iriga yondashib tizginidan tutganda bolaning qo'lidagi cho'qmorga ko'zi tushdi, u ayg'irning boshiga urmoqchi edi.

G'ozi Rahmon chavandozning bola emasligini, yosh qiz ekanini shunda angladi.

— Kimsan?

Qiz o'pkasini zo'rg'a bosib, bazo'r nafas olarkan, jahl yarashib turgan yuzini unga o'girib maqtandi:

— Ismim Qutlug' Malak. Do'durg'alikman. Qora Gunabekning jiyaniman...

Shu asnoda u G'ozi Rahmonni zimdan kuzatib yaxshilab ko'rib oldi, jilmayib, yo'rg'alashga o'tgan ayg'iri Yirendan yerga sakradi. G'ozi Rahmon qizning o'z qo'llaridan qanday sirg'anib chiqib ketganini ham bilmay qoldi.

Qutlug' Malakka bir ot berilib, Rahmonning singlisi Ummuxon bilan qishlog'iga yuborildi. Berilgan otni qaytarib olib kelishga u ma'qul topildi.

Ummuxon qaytishda ot bilan birga bitta palaxmon ham olib keldi. Uni Qutlug' Malak to'qibdi, G'ozi Rahmonga sovg'a ekan.

G'ozi Rahmon Do'durg'a qishlog'iga borib kelish uchun fursat poylardi. Oyqurt Alp buni sezgandi. Shu boisdan Usmonga:

— Voz kechtirgin Rahmon jo'rangni... ovutib esidan chiqartirib yubor, —dedi. Chunki do'drug'aliklar Qayi qavmiga qiz bermasligini, Qora Guna bunga ko'nmasligini yaxshi bilardi.

Lekin G'ozi Rahmon ikki marta Qutlug' Malak bilan uchrashish yo'lini topdi va keyingisida:

— Ey Qutlug‘ Malak, go‘zal Qutlug‘ Malak, seni sevib qoldim, — deb aytdi.

Qutlug‘ Malak bunga shunday javob qaytaribdi:

— Gapingga ishonaman; otamdan so‘rattir.

Bu rizolik G‘ozi Rahmonga qanot ato qildi. Lekin ahvol u o‘ylaganchalik emasdi. Tog‘asi, amakisi, qolaversa, qishlog‘i va dahasidan sovchi bo‘lib borishga hech kimning yuragi betlamasdi. Rad javobi berilishini bila turib kim ham borardi sovchi bo‘lib?

G‘ozi Rahmon ana shunday chorasizlik ichra o‘z yog‘iga qovrilib yurgan kezlarda Qutlug‘ Malakdan yana bir xabar kelib qoldi.

Xabarni olib kelgan Go‘kcha baji edi. Qutlug‘ Malak shunday depti:

— G‘ozi Rahmon degan yigit va’dasini bilmaydimi? Yoki biladi- va’dasiga vafo qilmaydimi? Men onamga bor gapni aytdim, tilagimni oshkor qildim...

Endi oraga Dali Go‘kcha baji ham tushdi. Unga ishonib, Qutlug‘ Malak onasini rozi qilibdi, onasi ham otasini rozi qiladi. Demak, sovchi yuborilishi kerak.

Go‘kcha bajining gaplarini eshitganlarning ko‘ngli joyiga tushganday bo‘ldi. Nihoyat, sovchilarga bosh qilib yoshligida Qora Guna bilan gap-gashtagu ziyofatlarda bo‘lib yurgan Somsa chovushning ukasi Sulamish ma’qul ko‘rildi:

Lekin Sulamish olib borgan sovg‘a-salomlari bilan qaytib keldi. Garchi:

— Qizning ko‘ngli senda, olib qoch, — deguvchilar bo‘lsa ham, G‘ozi Rahmon uchun hammasi tamom bo‘lgandi. Chunki, Erto‘g‘rulbek g‘oziy va safdoshlari otasiga, otasi esa G‘ozi Rahmonga juda chiroyli qilib tushuntirdiki, Do‘durg‘a bilan Qayi qavmlarining do‘stligi qil ustida turibdi, Qora Guna shu nozik rishtani ham uzishga bahona qidirib yuribdi. Bu bahonaga sabab G‘ozi Rahmon bo‘lmasligi kerak.

* * *

Qutlug‘ Malak endi unashtirilgan.

Shuning uchun ham G‘ozi Rahmon to Usmon yelkasiga qo‘l tashlab: Yo‘ldan adashma“ degunga qadar, dunyo ko‘ziga tor

ko‘rinib yurgandi. Keyin esa: “Bo‘ldi G‘aflatdan uyg‘ondim”, deb o‘ziga keldi. Endi u bekning safdoshi. Bundan keyin u har qancha yonib kuylamasin, ovozi avvalgiday jaranglamasligini yaxshi biladi. Chunki endi Qutlug‘ Malak yo‘q...

G‘ozi Rahmon yana qo‘shiqlar aytadi, eski qo‘shiqlarni kuylaydi. Va tabiiyki, tinglaganlar:

— Ovozi yana ham ochilib ketibdi, — deyishsa-da, g‘oziy Rahmon ovozining o‘zgarishiga Qutlug‘ Malak sabab bo‘lganini endi sira ham o‘ylamaydi. Qutlug‘ Malak, bug‘doyrang yuz, binafsha ko‘z, sap-sariq soch, g‘unchalab dildor endi yo‘q.

* * *

Harlaq shu kunlarda juda jonlanib ketdi. Tik qoyalardan xarsang tushirilar, yo‘nilib, yangi uy-joylar, og‘ilxonalar uchun devorlar urilardi; yangi kataklar tiklanar, bog‘-rog‘lar barpo qilinar, ko‘chatlar o‘tqazilardi.

Ikki haftacha burun O‘ruz darvesh Usmonbek huzuriga kirib:

— Kun chiqishdan keluvchilar bor, agar ruxsat berilsa Harlaqda qolishadi, — dedi. — Bizni qanday bilsangiz, ularni shunday biling. Sizni ham, Qayini ham onam Go‘kcha qanday sevib ardoqlasa, shunday sevib ardoqlashadi.

— Bizning ruxsatimiz shart emas, — dedi Usmonbek, — o‘sha atros Erto‘g‘rulbek g‘oziy senga bergan ekan, nomini o‘zing qo‘ygansan, ruxsat o‘zingdan bo‘ladi.

Shundan keyin Harlaqda masjidiyu tegirmoni bilan enli-bo‘yli bir qishloq vujudga kela boshladi. Shu tariqa Harlaq Domanichni g‘arb bilan bog‘laydigan yagona dovondan qushni ham o‘tkazmaydigan joyda qad rostladi. Bularni Usmonbek ko‘rib-bilib turardi. Uning qarorini, ishini ma’qul ko‘rib, duoda bo‘layotganlar soni ortib bormoqda. Usmonbek bundan ham xabardor. Eng muhimi, unga ishonuvchilar ko‘payib bormoqda edi. Usmonbek bilan yo‘lga chiqsa bo‘ladi! — deguvchilar ko‘payib borardi.

* * *

Ziyofat Savjining ola-chipor shiyponida edi. Savjining to‘ng‘ich o‘g‘li, shahlo ko‘z Bonuning akasi, Usmonbekning sevimli

jiyani, endigina o'n uchga qadam qo'ygan Boyxo'ja bir kun oldin shikorda otiga teng keladigan kiyikni ovlagan edi. Ziyofat shunga atab uyushtirilgandi.

Boyxo'janing onasi Oyna Malak, katta kelinoyisi Burla Xotun, kichik kelinoyisi Malhun Xotun va singlisi Bonu Chechak sochlarini o'rishgan, qo'llariga xino qo'yishgandi. Boshlarida kashtali ipak chambarlar, peshanalarida tilla tizimli qizil va yashil peshanabandlar. Hammasining oyog'ida bezakli boshmoqlar.

Savji chodirining oshxona bo'limida hammasi o'ziga yarasha yasangan ayollar va qizlar yumush bilan band edilar.

Yaxni[1] tayyorlashda ustasi farang Burla Xotun o'choq boshida, kabobga Oyna Malak mutasaddi. Tandir esa Malhun Xotun ixtiyorida. Tayyorlanayotgan yemaklarning hammasi Boyxo'ja otib kelgan kiyik go'shtidan tayyorlanmoqda. Ichimliklarni boshqalar tayyorlar, mayda-chuyda yumushlar Bonu Chechak va dugonalari zimmasida edi.

Bonu Chechak burnini jiyirar, yuzi qizarib ketgandi. Uning g'ashiga tekkan narsa Burla Xotun akasining qizi, Oqcha Xo'jaga unashtirilgan Asmaxon edi.

Hazil-mutoyibaga moyilligi bilan tanilgan Asmaxon narigi dugonalariga ko'zini qisdi-da, jiddiy bir sirni aytmoqchi bo'lgandek, Bonu Chechakni tashqariga imladi.

— O'rgilib ketay sendan, Bonu Chechak, endi katta qiz bo'lib qolding. Senga ishonsa bo'ladi, a? — dedi.

— Ha, — dedi Bonu Chechak.

Shunda Asmaxon uning qulog'iga engashib pichirladi:

— Bilasanmi, sening akang Boyxo'jaga kashtali jujuncha tikib qo'ydim, shuni yubormoqchiman.

Ko'zlarining paxtasi chiqib ketgan Bonu Chechak duduqlandi:

— Sen unashtirilgansan-ku.

Asmaxon xo'rsinib qo'ydi.

— Ha. Tangrim bu dardni senga bermasin-da ishqilib.

Bonu Chechak shoshib qoldi. Uni bu yo'lidan qaytarishga bahona qidira boshladi. Topdi, shekilli:

---

[1] **Yaxni** — piyoz bilan qovurilgan go'sht.

— Akam o'n to'rt yoshda, sen o'n oltidasan, — dedi.

Asmaxon jiddiy e'tiroz bildirdi:

— Bilsang, o'n beshga endi kirayapman.

Bonu Chechak g'azablana boshladi:

— O'n besh o'n to'rtdan katta.

— Mayli, — dedi Asmaxon, — qaytaga yaxshi-ku. Ovda, urushda unga qarab yuraman, yordam berib turaman.

Bonu Chechak tutoqib ketdi.

— Bo'lmaydi, — dedi bo'g'iq ovozda. — Men akamga Aminani olib beraman.

— Ho-o, — deb labini burdi Asmaxon va chopib ketdi.

Lekin ichkariga emas, tashqariga yugurdi va jilva bilan chaqirdi:

— Hoy, Boyxo'ja... bu yoqqa kelgin, senga aytadigan gapim bor...

Bonu Chechak alamidan yig'lab yuboray dedi. G'azab to'la ko'zlari chaqnab, chehrasi yanada ochilib ketdi. Jahl bilan chodirga kirdi. Buni ko'rgan Burla Xotun uni darhol quchoqlab, bag'riga bosdi. Kabob pishirayotgan Oyna Malakka o'girildi

— Menga qara, ovsinjon, mana bu Bonu Chechak qizingga tezda chodra yoptir, toki yigitlar yuzini ko'rib kuyib yurmasin...

Hammaning kayfi chog' edi. Kulishib, suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilishardi. Bonu Chechakning yuzi qizargandan qizarib borardi: chunki Asmaxon uning qulog'iga engashib shivirlardi:

— Jujunchani yuboraman akangga, bilib qo'y!

Oxiri Bonu Chechak chiday olmadi, ovozi boricha qichqirdi:

— Oqcha Xo'ja-chi?

Ammo Asmaxon ham bo'sh kelmadi, sochlarini bir siltab tashlab, battar jig'iga tegdi:

— Yo Oqcha Xo'ja! Yo Boyxo'ja!

Birdan kulgi ko'tarildi. Bonu Chechak yig'lab yubordi...

Nega endi? O'n to'rt yoshida kiyik ovlagan akasi jonidan yaxshi ko'ruvchi dugonasi Aminaga emas, mana bu kap-katta Asmaxonga uylanadimi? Buning ustiga u amakim Oqcha Xo'jaga unashtirilgan-ku. Yo'q, bunga chidab bo'larmidi? Lekin bunga onasi Oyna Malakning ham, kelinoyilarining ham yuraklari chi-

day olmadi. Tandirga, kabobga, o'choqqa, kuvga qarayotgan kim, axir?

Har qancha erkalab o'pishlar, quchishlar Bonuga kor qilmasdi. Shu payt shoshib Boyxo'ja kelib qoldi:

— Otam, hech qursa bozlama[1]larni berib yuborishsin, deyapti.

Oyna Malak unga:

— Hoy, birdaniga dovrug' taratgan bolam, otang aytganini qo'yatur, — dedi.

— Bu Oqcha Xo'janing qaylig'i senga nima dedi, shundan gapir.

Boyxo'ja hech narsa tushunmay, beparvolik bilan javob berdi:

— Asmaxon opam, men ovlagan kiyikning bo'yin terisini singlim Bonu Chechakning dugonasi Amina qizga berganing ma'qul deb aytdi.

Oyna Malak qiziga qaradi. Ammo Bonu Chechak uning kinoyali jilmayishini ko'rmadi, g'azab bilan Asmaxonga o'girildi: endi unga rosa jahli chiqqandi. Asmaxon esa, go'yo hech narsa bo'lmaganday, unga buyurdi:

— Hoy, shahlo ko'z Bonu Chechak, senga aytayapman, nega turibsan ammamning buzog'iday ag'rayib, qatiq kosasini olib ber menga.

Bonu Chechak darhol Asmaxonga yaqinroqdagi suzma xaltani olib berdi, lekin yuziga qaramadi. Faqat onasiga ko'zi tushdi. Oyna Malak qiziga, "Hamma ayb o'zingda" degandek qarab turardi.

Yeguliklar tayyor bo'ldi. Oyna Malak chodirdan chiqib, shiyponga bordi-da, hammasi tayyorligini xabar qildi. Bu orada Qunduz, Savji, Usmonbek, Boyxo'ja u bilan chodir oshxonasiga kelishdi. Bu yerda ularga Burla Xotun bilan Malhun Xotun ham qo'shilishdi. Hammalari qo'llariga yegulik va ichguliklardan olib, Erto'g'rul g'oziyning chodiriga borishdi. Yotoqxona oldida to'xtashdi. Qunduz ovoz berdi:

— Otam Erto'g'rulbek g'oziy, onam Jonqiz; uch o'g'lingiz bilan keldik. Kirsak bo'ladimi?

[1] **Bozlama** — tunuka gardish ustida tagidan o't yoqib pishiriladigan yupqa non.

Kutib turishdi.

Bir ozdan keyin yotoqxonaning pardasi ochildi. Erto‘g‘rul g‘oziy bir qadam oldinga chiqdi.

— Keksa onangizni, qari otangizni xursand qildinglar, baxtli bo‘linglar. Xabarimiz bor, kelishlaringni kutayotgandik. Juda xursand bo‘ldik. Sizlarga ham hamisha quvonch yor bo‘lsin. Nabiramiz Boyxo‘ja bilan faxrlandik. Ishlari bundan ham yurishib ketsin. Oshig‘i hamisha olchi bo‘lsin. Onangizning turishga holi yo‘q. Kirib ko‘nglini so‘ranglar.

U orqasiga o‘girilib, “Jonqiz“ deb chaqirdi.

Jonqiz allaqachon o‘rnidan turib, behol bo‘lishiga qaramay, jilmayib boqardi. Boshi bilan ishora qilib avval erini, keyin esa otasiga o‘xshab so‘rashishmoqchi bo‘lgan Usmonbekni to‘xtatdi:

— Xush kelibsizlar, xushnud qildinglar. Hamisha xushnud yashanglar. Sen, Usmonjon, bekligingni yog‘iylarga ko‘rsat. Sen esa, katta kelinim go‘zal Burla, gulday ovsinlaringni boshla yemakxonaga. Joy hozirlab, dasturxon yozinglar.

Aytganlari darhol ado etildi. Ko‘n dasturxon yoyildi, kosa, tovoq, mashrapalar tizildi. Keyin ayollar ota va ona qarshisida turgan erlarining yonidan joy olishdi. Qo‘l o‘pishi marosimi Boyxo‘jadan boshlanib, kichikdan kattaga, navbatma-navbat Qunduzda nihoyasiga yetdi.

Jonqizning ishorasi bilan o‘zi oldinda eriga suyangan holda, orqadan qolganlari tizilishib, chodirning oshxona bo‘limiga o‘tishdi. Erto‘g‘rul duo qildi: Tangridan ajdod-avlodiga, dindoshlariga omonlik, nozu ne’matlar, tinchlik, osoyishtalik va kamolot tiladi.

Oldin Jonqiz, keyin Erto‘g‘rul g‘oziy, ulardan so‘ng qolganlar yoshiga qarab birin-ketin yeguliklardan bir-bir tatib ko‘ra boshlashdi. Jonqiz har tatib ko‘rganda:

— Buni kim pishirdi? — deb so‘rardi.

Har javobdan keyin esa, pishirgan kelinini:

— Balli, — deya maqtab qo‘yardi.

Tatib ko‘rish tugagach:

— Mehmonlarni kuttirib qo‘ymanglar, bora qolinglar, — dedi.

Darhol o‘rinlaridan turishdi.

Jonqiz o'rnida qimirlamay o'tirgan Erto'g'ul g'oziyga yuzlandi:

— Hoy, oq arslon, yoli oppoq arslon; turishga holingiz qolmadimi? Nima, Boyxo'janing ziyofati bobosiz o'tadimi? Ular u yoqda, siz bu yoqda, xotiningizning tizzasida o'tirsangiz yarashadimi? Darrov boring. Mendan tashvishlanmang. Ziyofatda sizni kutib o'tirishibdi.

Erto'g'rul g'oziy, Usmonning, Savjining, Qunduzning otasi, Boyxo'janing bobosi, ming uyli Qayi qavmining begi, g'azovotning o'tkir qilichi "xo'p" dedi-da, yo'lga tushdi.

* * *

Usmonbekning Boyxo'jani hammadan ham yaxshi ko'rishini barcha bilardi. "Bordi-yu, Xudo menga o'g'il bermasa, — deb o'ylardi Usmon, — g'amimni aritadigan, ko'nglimni quvontiradigan, ishonchimni qozonadigan jiyanim shu bo'ladi".

Malhun Xotunga uylangach, farzand ko'rishiga ishonardi. Shu boisdan ham bir yildan beri Boyxo'jani "Mening o'g'lim suyunchisini oluvchi jiyanim" deb alohida mehr bilan ardoqlardi.

Ziyofat oxirlab qolgach, Usmonbek qo'lini Boyxo'jaga cho'zdi:

— Hoy Boyxo'ja, otiga teng keladigan kiyikni ovlagan yigit, quvonchim, akam Savjibekning o'g'li, jiyanim Boyxo'ja; senga ilk arg'umoqni men hadya qildim. O'zing katta qilib, egarlading, minishga o'rgatding. Senga ilk yoyni o'zim yasadim, ilk o'qni men nishonga urdirtirdim. Akam Savjibek seni otamiz safdoshi Qora Tekinga shogirdlikka berishdan oldin seni kurash tushishga, qilichbozlikka o'zim o'rgatdim. Endi yigit bo'lib yetilding, yangi orzularing paydo bo'ldi: tila tilagingni.

Boyxo'ja amakisining gaplarini eshitib bo'lgach, egik boshini ko'tardi, ko'zlariga tik qaradi.

— Ey, mening bilagi bukilmas, o'qi adashmas, qilichiga qarshi turib bo'lmas Usmonbegim, so'raganingiz uchun aytay; ko'nglimda ikki tilak bor: menga ilk qilichni ham o'zingiz tutqazsangiz; tag'in meni eng yaxshi safdoshlaringizdan birining bo'lugiga qo'shsangiz...

Usmonbek avval Qunduzning, keyin Savjining ko‘zlariga qaradi.

Akalarining ko‘zlari “So‘z senga“ deyishardi.

Ruxsat berilgach, Usmonbek jiyanining ko‘zlariga boqdi.

— Ikkala tilaging ham maqbul, Boyxo‘ja. Ammo ikkala tilagingga ham hali vaqt erta. Otang Savjibek akam, amaking Qunduzbek akam va buvang Erto‘g‘rulbek g‘oziy otam kechirsa, senga ilk qilichni men beraman va seni Sungur safdoshim sarbozlariga qo‘shib qo‘yaman. Ammo yana aytamanki, hali vaqt erta.

— Buyrug‘ingiz bosh ustiga, — dedi Boyxo‘ja.

* * *

Yaylov kuzi qishni kutayapti. Shamollar, bulutlar, yulduzlar, otlar, qo‘y-qo‘zilar, tuyalar, qushlar, kiyiklar, qir-adirlar, dov-daraxtlar, barcha ranglar va bor tovushlar qishdan darak bermoqda. Kunning rangi o‘zgarib borayapti.

Ana shunday kuz kunlarida kutilmagan bir voqea yuz berdi. Usmonbek qarorgohiga rumlardan bir darakchi keldi. Erto‘g‘rul g‘oziy: “Ishongin, uning gaplari hamisha to‘g‘ri chiqadi” deb kafolatlagan bu darakchi Aratun degan kishi edi. Somsa chovush uni armug‘onlar va pul bilan siyladi va Usmonbek bilan uchrashtirdi.

Aratunning Usmonbekka yetkazgan xabari quyidagicha edi: “Ayo Nikolaning odamlari Xarmonqoyaga hujum qilib, Mixail Kossesni o‘ldirmoqchi”.

Somsa chovush rumlar orasidagi xunrezliklarga aralashmaslik kerakligini yaxshi biladi. Lekin “Mixail Usmonbekning yaxshi tanishi, qadrdoni. Bordi-keldisi bor. Men nega xabarsiz qoldim, deb qayg‘urishi mumkin”, deya o‘yladi Somsa chovush va to‘g‘ri yo‘l tutdi.

Usmonbek bosqinning ertaga kechqurun bo‘lishidan darak topganidan keyin Aratunni bir ot va egar bilan siyladi va Qo‘nur Alpga bosqinning oldini olish vazifasini topshirdi. Qo‘nur Alp topshiriqni bajarganidan so‘ng qo‘lga tushirgan odamlardan bittasi bilan Ayo Nikolaga shunday xabar yuboradi:

“Usmonbek Mixail Kossesga yomonlik qilgan odamni o‘ziga yomonlik qilgan deb hisoblaydi. Ayo Nikola buni bilishi lozim”.

* * *

Qo'nur Alp yoniga o'n besh nafar otliqni olib, kechqurun yo'lga chiqdi. Xarmonqoyaga yetib borganlarida butunlay qorong'i tushgandi. Uch kishi yelka tirasa yiqilib tushadigan darvozani Kosseslarning keksa darboni ochdi. U kishi yosh xo'jayinning turklar bilan og'ayni ekanini bilardi. Lekin ro'parasida o'n olti suvoriyni ko'rgan darbon dovdirab qoldi.

— Nima kerak sizlarga? — deb so'radi qaltirab.

Bu orada tuyoq tovushlari va darvoza taqillaganini eshitgan Mixail bir qo'lida chiroq, ikkinchi qo'lida qilich bilan tashqariga chiqdi. Qo'nur Alp unga gapirdi:

— Hoy Mixail, Men Qo'nur Alpman. Senga Usmonbekdan salom olib keldim.

— Marhamat qilinglar, — dedi Mixail.

Qo'nur Alp darbonga darvozani berkitishni buyurdi.

Endi o'n olti sarbozning hammasi ichkarida, bog'da edi. O'n olti otliq ikkita chiroqning pirpirab turgan yorug'ida soyalari bilan qo'shilib, o'n olti emas, yuz olti bo'lib ko'rinardi.

Qo'nur Alp sarbozlarini qoldirib, otini Mixail tomonga burdi. Tosh zina oldiga kelgach, egardan sakrab tushdi-da, tepaga ko'tarilib Mixailga bor gapni tushuntirdi.

— Endi ichkari kir. Ayt, barcha chiroqlarni yoqishsin. Anavi odamingga ayt, xonasiga kirsin, u yerda kim bor bo'lsa, yotishsin.

Mixail uning aytganini qilib, darbonini jo'natdi. O'zi qaytib kelib:

— Aytaman, chiroqlarni yoqishadi. Lekin men ichkarida qolmayman, sizlarning yoningizda bo'laman, mana, qilichim ham qo'limda, — dedi.

Qo'nur Alp buni xohlamasdi:

— Senga biror narsa bo'lsa men bekning yuziga qanday qarayman.

Mixail kulimsiradi:

— Men Inonyuda, Mahmudbekning uyida, Az-Zohid hujum qilganda yoningizda edim, Qo'nur Alp. Hech qaysingizning unga ziyon yetkaziladi, bunga zarar qilinadi degan gaplaringizni eshitmagandim...

Belidan pastroqda ushlab turgan chirog'i yuziga quyidan nur berar, bu yorug' uning qaroriga qatiylik baxsh etardi.

— Mayli, otga min, — dedi Qo'nur Alp. Mixail qo'lida chiroq, otxonaga yugurdi.

Qo'nur Alp jo'ralari yoniga qaytdi. Ularni bog' hovli darvozasining ikki yoniga ikki yoy singari safladi. O'zi ulardan birining bosh qismidan joy egalladi. Endi hammasi qilich yalang'ochlab turishardi.

Ancha kutishdi. Lekin o'zlarida ham, otlarida ham sabrsizlik belgilari ko'rinmasdi. Ancha vaqtdan so'ng tashqaridan tuyoq tovushlari eshitildi. Tovushlar borgan sari yaqinlashib kelib, darvoza oldida tindi. Endi faqat otlarning pishqirishigina eshitilardi. Ko'p o'tmadi, darvozaga yelka tirab itarishdi va tavaqalar ochilib ketdi. Shu zahoti ichkariga ikkitadan, uchtadan otliq kira boshladi.

Dastlab kirgan yetti-sakkiztasi ahvolni ko'rgan, lekin og'iz ochishga ulgurmay qolishgandi. Baribir, ular baqirib, xabar bergunga qadar bosqinchilar guruhidagi yigirma besh kishining hammasi hovli boqqa kirib ulgurgandi.

Dastlab kirganlar omonlik tilashga ham vaqt topisha olmadi. Orqada qolganlarning hisob-kitobini qilish uncha vaqtni olmadi. Savashishning foydasi yo'qligini tushunib, bog'ning qorong'i tomoniga qochganlar ham bir pasda qurshovga olindi.

Qilichini tashlab, qo'l ko'targan va jarohatlanganlar soni o'n ikkita edi. Darbon va uning odamlari tutgan chiroq yorug'ida ularni devor tagiga tizgan Qo'nur Alp:

— Boshliqlaring kim? — deb so'radi.

yerda yotgan murdalardan bittasini ko'rsatishdi.

Qo'nur Alp yana so'radi:

— O'rnini bosadigan kim?

Devor tagidagilardan bittasi turkcha javob berdi:

— Men.

— Unda o'rnini yaxshilab egalla, — dedi Qo'nur Alp va yoyini o'qladi:

— Oting nima?

— Arkelaos, — dedi haligi odam chuldirab.

Qo‘nur Alp yoyini tortib, uning ikki qoshi orasini nishonga oldi.

— Yaxshilab qara, — dedi va qo‘shimcha qildi. — Senga Usmonbekning qoidasini o‘rgataman: Borib xo‘jayining Ayo Nikolaga ayt, Usmonbek yengdim deb o‘ldirmaydi. Usmonbeknochor ahvolda qolganni o‘ldirmaydi. Usmonbek rahm qiladi, kechiradi, yiqilganni ko‘tarib qo‘yadi. Usmonbek do‘stiga qasd qilganni o‘ldiradi. Bor, xo‘jayining Ayo Nikolaga aytki, Usmonbekning yoy tortgan bilagini ko‘rdim. O‘sha bilak o‘qning sohibi ekan, xohlasa uzadi, xohlamasa uzmaydi, deb ayt. Usmonbek Mixail Kossesning do‘sti ekan, degin. Unga aytib qo‘y; Usmonbek do‘stining dushmaniga dushman. U dushmanini kechirmaydi. Unga o‘q uzadi, qilich soladi...

Shundan keyin Qo‘nur Alp yoyidagi o‘qini ikki barmog‘i bilan ilib oldi va sadog‘iga joyladi, so‘ng peshanasini marjon-marjon ter bosgan Arkelarsga tayinladi:

— O‘liklarni va yaradorlarni tezda yig‘ishtirib ol. Darhol jo‘na. Aytganlarimni yetkaz xo‘jayiningga. Qanday gapirgan bo‘lsam, shunday ayt.

Arkelaos aytilganlarni qilgach, Mixaildan kechirim so‘radi.

Bu orada Qo‘nur Alp o‘z yaradorlaridan xabar oldi. Jiddiy jarohat olganlar yo‘qligini ko‘rgach, ko‘ngli tinchib, xuddi bir ziyofatdan qaytayotganday:

— Bizlarga ruxsat, — deya sakrab otiga mindi.

Mixail ham, qolganlar ham xuddi tush ko‘rib uyg‘ongandek, ularning orqasidan qarab qolishdi.

* * *

Mixail anchagacha o‘ziga kelolmadi, o‘ylab o‘yiga yetolmasdi. Hammasi tush misoli bo‘lib o‘tdi. U Usmonjonni esladi. Singlisi Zoyani ko‘z oldiga keltirdi. Uning muhabbatini endi tushunib yetdi. Usmon o‘z nafsini tiydi, tuyg‘usini yengdi, odamgarchilik qildi. Erkakmi, ayolmi, agar ko‘ngli va miyasi bo‘lsa, ana shu insoniylikka bog‘lanadi; shunday odamgarchilik qilgan chashmaga intiladi.

Mixail Kosses o‘ylay boshladi. Bu ikkinchisi. Usmon uning jonini ikkinchi bor qutqarib qoldi. Ustiga-ustak, bu safar u mol-mulkini, onasini, otasini, butun oilasini qutqarib qoldi.

Mixail Kossesning joni, oilasi, mol-mulki Usmonga nima?

Usmonning, safdoshlarining gapi hamon qulog‘ida:

“Tuz-namak haqqi, baham ko‘rganimiz xush kunlar haqqi, gapirgan go‘zal kalomlarimiz haqqi...”

Mixail Kosses nega qilich taqib yurganini, hatto yonida qilichi bormidi, yo‘qmidi, bilmagan Mahmudbekning o‘sha tunda Al-Zohidga gapirganini esladi:

— Bu qanaqa odat, Zohidbek? Mehmon beriladimi?

Yana:

— Meni ola qol, yaxshisi. O‘zingga yarashadigan, ma’qul ko‘rgan ishingni qil.

Keyin Usmon va jo‘ralarining qonli olishuvdan g‘olibona qaytishlari. O‘sha olishuvda ularga yordam bermaganlari uchun, o‘zi va boshqa rumlik yigitlarga ta’na qilishmagani-chi?

Va Usmonning nay chalishi-chi?

Hozir uning qulog‘iga Usmon chalgan nayning tovushi eshitilganday bo‘ldi. Ochiq derazadan ko‘rinib turgan Mezon yulduzlari go‘yo nur emas, o‘sha nayning Usmon nayining ovozi bo‘lib kelganday edi.

Mixail Kossesning sira uyqusi kelmasdi.

Mahmudbek...

Usmonjon...

Qo‘nur Alp...

Keyin Sungur, Oqcha Xo‘ja, Saltuq, G‘ozi Rahmon...

So‘ngra, yana boshqalar...

Tag‘in bu yoqqa: Kalanoz... Ayo Nikola... Xarmanqoya kashishi, boshqa kashishlar hokimlar... Shularni o‘ylab Mixail Kossesning sira uyqusi kelmasdi.

* * *

Oradan bir kun o‘tgach, Erto‘g‘rul g‘oziyning chopari keldi:

— Hoy, Usmonbek, otang seni ko‘rmoqchi, — dedi.

Usmonbek "Nima bo'ldiykin?" deb o'yga toldi: yaqindagina borib onasida xabar olgandi. Ahvoli tuzuk edi. Tashvish bilan yetib bordi.

Otasi uni kutib o'tirardi. Yolg'iz emasdi; yonida amakisi Dundarbek, Qor Tekin, Oyqut Alp va Oq Temur safdoshlari bor edi. Usmonbek chodirga kirar kirmas, bag'riga bosdiyu, qo'lini o'pishga qo'ymadi.

— Mengaqara, o'g'lim, — deya gap boshladi. — Aytganlari rostmi? Mixailni bosqin qilgani borgan Ayo Nikola odamlarini Qo'nur Alpga qirg'in qildirganing chinmi?

Usmonbek chodirning ochiq eshigidan ikki odim ichkarida tikka turardi. O'tirganlar yuz-ko'zlaridan, otasining gapidan bir narsa anglash qiyin edi.

— Rost. Qo'nur Alp safdoshim, mening amrim bilan Ayo Nikola kofirning bosqinini daf qildi. Yana shuni aytishim kerakki, Mixail Kosses foydali kofirlardan va mening og'aynim bo'ladi. Oramizda non-tuz va yana suhbat haqqi bor.

Erto'g'rul g'oziy:

— O'tir, o'g'lim, — deb joy ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan joy ularning ro'baro'sida edi. Usmonbek o'tirdi. So'roq boshlandi.

— Kofirlarning urush-janjaliga aralashish to'g'rimi?

— Bilaman, to'g'rimas.

— To'g'ri emasligini bilaturib, bu ishga aralashgan ekansan, non-tuz va suhbathaqidan bo'lak bir sabab bormi?

— Yo'q.

Erto'g'rul g'oziy boshqa savol bermoqchi edi, Usmonbek davom etdi:

— Ammo-lekin bu ishning orqasidan nimalar bo'lishi mumkinligini ham o'ylab ko'rganman.

— Nima o'ylaganingni men ham bilsam bo'ladimi?

Usmonbekning boshi egildi, sukut saqladi. Ammo bu uzoq cho'zilmadi. Usmonbek o'zi istamagan holda gapirishga majbur edi:

— Ulug' otam shuni istar ekan, men ham aytaman.

Bu gapdan Erto'g'rul g'oziy ham, boshqalar ham sergak tortishdi. Zero, Usmonbek gapini boshqa ohangda aytgandi. U so'zida davom etdi:

— Ayo Nikola kofirni, siz Erto'g'rulbek g'oziy ota, nima qildingizki, Qayiga dushman bo'lib qoldi. Bundan keyin ham dushman bo'lib qolishi aniq. Nuqul pisib, payt poylagani-poylagan. Imkon topdi deguncha mol-mulkimizga, chorvalarimizga, yaylovlarimizga hujum qilish, So'g'udni bosib olish payida. Bizni ojiz bilganidan bu. Dushman g'animlikning nihoyasini bilishi kerak, axir. Men bilamanki, Mixail Kossesning tarafdorlari, uni yaxshi ko'ruvchilari ko'p. To'g'ri, ular yaxshi jangchi emaslar. Lekin bu atrofda ularning gaplariga kuloq solishadi, gaplariga kirishadi. Biz haqimizda aytadigan gaplari esa foydadan xoli emas. Mixail Kosses o'z qarzini uzishi tayin...

Erto'g'rul g'oziy darrov gapira qolmadi. O'lchab, tortib, hisoblab ko'rdi. Keyin:

— Chiroyli gapirayapsan, o'g'lim, — dedi. — Bu ishing yolg'iz Ayo Nikola bilan emas, Qorajahisor hokimi bilan ham urush ekanini nazarda tutish kerak. To'g'rimi?

Usmon boshini ko'tardi. Yondan tushayotgan yorug'dan qamashayotgan ko'zlarini otasiga qadadi.

Tizzalari ustiga cho'kkaladi. Belidan yuqori qismi hammadan balandroq edim. Keskin va qat'iy dedi:

— Ota, bek siz bo'lsangiz, buyuring, ergashaylik. Yo'q, agar bek men ersam, ota, o'g'lingiz bekligini ezg'ilayvermang...

HOKIM BILAN UCHRASHUV

Yaylovdan qaytadigan kun belgilangan edi.

Usmonbek barcha ovullarga chopar yuborib, tayyorgarlikni tugallashlarini buyurdi. Ertaga saharlab yo'lga chiqiladi.

Kun peshindan oqqan edi. Usmonbek Malhun Xotunga:

— Mening go'zal Malhunim, yur, otlanib bir Harlaqni aylanib kelaylik, — dedi.

Malhun suyunib ketdi; chunki Go‘kcha bajini sevadi, Saljonni, Oybola va Zalixani yaxshi ko‘radi. Besh kun bo‘ldi ular bilan ko‘rishish istagini bildirganiga, Usmonbek, ertaga-ertaga deb keyinga surib kelardi.

Malhun Xotunning qorni ancha bilinib qolgan, lekin u hanuz otga minarkan yoki choptirarkan, qizlik paytidagidek yengil harakat qilardi.

Harlaq endi bir qishloq, hozir uning masjidi, mehmonxonasi bor, Harlaq quyuladigan joyda tegirmon ham qurishgan. Temirchi, ko‘nchi, aravakash aholi xizmatida. Qiyaliklarga uylar solinmoqda, tekisliklarda bog‘-rog‘lar barpo etilmoqda, polizlar, ekinzorlar paydo bo‘lmoqda.

Ayol, erkaklar orasida Go‘kcha baji singari keksalar kamchilik. Lekin bari unga o‘xshab epchil va chaqqon.

Keluvchilarni birinchi bo‘lib qarshilovchi kuchuklar ham ko‘payishib qolgan. Ammo Bo‘zo‘g‘lon ular orasida hamon yetakchi. Ularning vovullashidan yo‘lga qarashdi, Usmonbek bilan Malhun Xotunni ko‘rib jilmayishdi. Har tomondan ishlarini tashlab kelishdi. Bugun Harlaqtegirmon arig‘iga quyiladigan joyda katta yig‘in bor. Emizikli ayollar ham shu yerda.

Birov:

— Xush kelibsiz, — deydi.

Boshqasi:

— Qadamingizga hasanot, — deydi.

Oralarida:

— Alloh sendan rozi bo‘lsin, hamisha yorlaqasin!

— Alloh kuchingga kuch, quvvat qo‘shsin, yuragingni musaffo qilsin, — deguvchilar ham bor.

Harlaq bekni qarshilayapti. Bu bekni sevishlari bilinib turibdi. Bu bekka ishonishlari sezilib turibdi. Bu bekdan ko‘p narsalar kutilayotgani ham aniq.

Usmonbek buni tushunib turibdi.

U o‘zini o‘rab turganlarga qarab gapira boshladi:

— Harlaqni sevaman. Chunki men undan hikmatlar eshitganman. O‘ruz darveshga hurmatim baland. Men sizlarni halol yo‘l

uchun da'vat qilgani keldim. So'g'udga ko'chib boraylik deb kelganim yo'q. So'g'uddan narilarga boraylik deb da'vat qilib keldim. Bek o'zini bek deguvchilarga bek bo'ladi. Men sizlarga aytdim, sizlar ham boradigan joylaringizda gapiringlar, so'zimni barcha qavmlarimizga, dindoshlarimizga yetkazinglar.

Hammaning yuzi jiddiylashdi, ko'zlar yerga qadaldi. Hamma nafasini ichiga yutib, bekning gapini tinglamoqda. Usmonbek bosiq ovozda davom etdi:

— Men bu yerga tilaklaringizni bilish uchun keldim. Mendan nima tilagingiz bor?

Unga javoban O'ruz gapirdi. U Usmonbekka yetarli kuchga ega ekanliklari, agar ruxsat bo'lsa Inago'l yaqinidagi Qulajahisorni bosish mumkinligini, bekning o'zidan shuni so'rashlarini ma'lum qildi. Gap shundaki, deb tushuntirdi darvesh O'ruz, qulajahisorliklar Iiago'ldagi Ayo Nikolaning qaroqchi qavmidir. Elimiz yaylovlarga ko'chib chiqqanida Ayo Nikola ularni So'g'udga bosqinga yubormoqda, yo'lto'sarlik qilishga undamoqda. Agar sizdan izn bo'lsa, o'chimizni olardik.

Nima uchun ruxsat so'rayotgani ham ma'lum.

Qulajahisorni bosish, o'ch olish har qancha qiyin bo'lmasin, eplasa bo'ladigan ish. Ammo Qulajahisorning orqasida Ayo Nikola bor. Bunday bosqindan keyin Ayo Nikolaning faqat hujum qilganlarga emas, shu atrofdagi barcha turkmanlarga va So'g'udga bosqin yasashini e'tibordan qochirmaslik kerak. Buning hisob-kitobini qilish ko'p jihatdan bekka bog'liq.

Usmonbek O'ruz darveshning ko'zlariga qarab birpas jim qoldi. So'ngra vazmin ohangda dedi:

— Tayyor bo'lib turinglar. Men xabar qilaman. Kutinglar.

U Malhun Xotunga o'girildi. Bu "ketdik" degani edi.

Lekin Malhun Xotun Saljon bilan Oybolaning o'g'illarini ko'rmoqchi edi, Usmonbek rozi bo'lgach, Go'kcha baji:

— Yuraqol, — dedi.

Usmonbek ular bilan birgalikda masjidni, tegirmonni borib ko'rdi. Malhun Xotun Go'kcha bazqiga ergashib yosh-yalanglarni ko'rdi, kichkintoylarni erkaladi.

* * *

Barcha qishloqlar ahli, qabilalar to'planishgan. Usmonbek talab qilganiday, bepoyon Qo'shterak chashmasi maydonini qoplab olishgandi. Sarbonlar tuyalarini, yilqichilar otlarini, cho'ponlar qo'ylarining tartibini saqlab turish uchun sergak poylashardi.

Keksayu yoshlar, bola-chaqalar, ming-minglab odamlar bashang kiyingan, mingan otlari-yu, tuyalarini ham bezatib olishgan.

Usmonbek endi Burguttepaga shoshilardi. Yaylovdan bu tarzda chiroyli ko'chish uni junbushga keltirgan, shunday tengsiz manzarani Burguttepadan turib tomosha qilgisi kelardi. Lekin bulturgiga o'xshab yonidagi to'rt-besh jo'rasi bilan emas, balki Alqauy begi Erto'g'mish, Bayot begi Xo'ja Qulmash, Do'durg'a begi Qora Guna va boshqa katta-kichik beklarni yoniga olib ko'zlarni hamda ko'ngillarni quvontiruvchi bu manzarani Burguttepadan tomosha qilish istagida edi.

Odatga ko'ra, xuddi mana shu kenglikda Qayi begi boshqa beklar bilan uchrashib, kelguvsi yaylov mavsumiga qadar ularga sog'liq va omonlik tilaydi. Bu uchrashuv, xayr-xo'shlashuvlar nari borsa bir soat davom etadi.

Usmonbek buni bilardi, biroq chodirini otidan tushgan yeriga qurdirmadi. Aksincha, chodir tikishga tayyorlanayotganlarni to'xtatdi va xabarchi sifatida beklarga jo'natish uchun uning amrini kutib turgan safdoshi Sungurni chaqirdi.

— Hoy, Sungur, chodir anavi qiyalikdagi Oq toshning yoniga tikilsin, — dedi. Keyin Savjiga o'girildi:

— Savji og'a, yangam Oyna Malakka, yangangiz Burla Xotunga va keliningiz Malhun Xotunga ayting, olinadigan zarur nimaiki bo'lsa, chodirga eltishsin; sholcha, gilamlar esdan chiqmasin.

Keyin baland ovoz bilan qo'shimcha qildi:

— Qavmlari ulug' bek birodarlarim bilan bir piyola choy ustida shirin suhbat qurish niyatidaman...

Uning bu gaplarini o'n qadamcha orqada kelayotgan va hali otlaridan tushib ulgurmagan Erto'g'rul g'oziy bilan uning safdoshlari ham eshitishdi. Hamma jim edi.

Usmonbek yo'ldoshlariga o'girildi:

— Istagimni eshitdingiz, Oqcha Xo'ja yo'ldoshim, Qo'nur Alp yo'ldoshim, Saltuq va Rahmon yo'ldoshim, tez borib bek birodarlarimga niyatimni yetkazinglar.

Otiga minishga tayyorlanarkan, Sungurni endi ko'rganday, hali ham o'sha yerda turganiga ishonmaganday qaradi:

— Hoy, Sungur, men nima dedim?

Sungur dovdirab qoldi. Usmonbek otini niqtadi. Savjibek allaqachon jo'nab ketgandi; boshqalar ham otlanishdi.

— Ey mening kiyik otgan jiyanim Boyxo'ja, — dedi Usmonbek, — qani, ketdik.

Ular Sungurga ko'rsatilgan oppoq tosh yonidagi maydonga borishdi. chodir ko'tarib olgan Sungur ancha keyin keldi. U tanlagan joy minglab odamlar va o'n minglarcha tuya, ot va qo'ylar o'rmalab yurgan tekisliqdan bir o'q otimichalik balandda edi va bu yerdan ko'rinishi, albatta, Burguttepadagiga o'xshamasdi. Lekin Usmonbek:

— Ko'nglim quvonchi Boyxo'ja, — dedi. — Mening polvon jiyanim. Yaxshilab qara. Yaxshi ko'rib qo'y, toki esingdan chiqmasin. Istagim shuki, Tangri qo'llab, mening ham o'g'lim bo'lsa. Bilib bo'lmaydi: kim o'ladi-yu, kim qoladi. Uning tili chiqqunga qadar ehtimol men qolmasman. Agar taqdir shunday bo'lsa, o'sha ukangga, yaylovdan qaytar chog'i aytarsan, otang bu qaytishda yashirin ma'nolar sezardi deb. Ana shu ma'nolarni jiyanlarim, o'g'illarim yechishini tilardi, deysan.

Pastdagi tekislikka qarab ketayotgan Boyxo'ja ertami, kechmi, Usmonbek sezgan ma'nolarni yechadiganga o'xshardi. Usmonbekni bunga ishontirgandi.

Beklar, bu tarzda da'vat qilinganlaridan hadiksirab kelishdi. Usmonbek hammasidan yosh edi. Hatto Do'durg'a va Alqauyi beklarining o'g'illari bilan tengdosh edi. Lekin Usmonbek Erto'g'rul g'oziy singari bekdan keyingi yosh Qayi begi edi. Uning o'zidan kattalarga ham buyruq bera boshlagani erish tuyulardi. Ehtimol, oralarida "Bu uzoqqa bormaydi" deguvchilar ham bor edi.

Lekin ular kutganicha bo'lmaydi, Usmonbek obro'li beklarni piyoda yurib borib qarshi oldi. Buning ustiga ikki qo'li bilan ikki keksa bek — Qora Guna va Erto'g'mishning otlari tizg'inidan

ushlab yetakladi. Katta ehtirom ko‘rsatdi: chodirga taklif qildi va to ular joylashib o‘tirmagunlaricha o‘zi o‘tirmadi. Bu esa beklarda g‘ijinish o‘rniga ishtiyoq uyg‘otdi.

— Ey, mening ulug‘ beklarim, — deya boshladi Usmonbek gapini, — ijozatingiz bilan shuni aytmoqchimanki, men Qayi begi bo‘lgan ardoqli va buyuk Erto‘g‘rulbek g‘oziyning kenja o‘g‘li Usmon, Tangri guvohligida ont ichaman: Qayi qavmi sizlardan, qavmlaringizdan bo‘lak emas, men, Erto‘g‘rul o‘g‘li Usmon, qasam ichib aytamanki, mening yo‘lim — hammamizning yo‘limiz. Men, Erto‘g‘rul o‘g‘li Usmon, Tangri Haqqi, ishonamanki, bu yo‘l ajralib ketmagay. Men, Erto‘g‘rul g‘oziy o‘g‘li Usmon shuni aytamanki, buyuklik, ulug‘lik jihod o‘ljasi tufaylidir, lekin u taqsimlanishi, bir kishiniki bo‘lmasligi kerak...

Hamma diqqat bilan uni tinglardi: Usmonbek gapida davom etdi:

— Ey, mening ulug‘ beklarim; quloq solinglar, menga qaranglar, deyish bilan hurmatsizlik qildim, qonun-qoidalarimizni buzdim. Xudo hammamizni o‘z panohida asrasin, ulug‘lik qilib kelgansizlar, shunday ekan, mening, Erto‘g‘rul g‘oziy o‘g‘li Usmonning gapini eshitinglar: Otam bundan uch marta — oldingi yaylovdan qaytishimizda: “Ancha ko‘payib qoldik” degan edilar. Ko‘payishmoqdamiz. Bu kuz o‘tgan kuzdagidan ancha ko‘pchilikmiz. Kelasi kuzda yanada ko‘payayapmiz. Otlarimiz, tuyalarimiz, qo‘y-qo‘zilarimiz tag‘in ko‘proq bo‘ladi. Domanich yaylovlari torlik qilib qolyapti. Hali yana ham torayib qoladi. Bog‘-rog‘larimiz, ekinzorlarimiz torlik qilyapti. Tag‘in torayadi. Qishloq, ovullarimiz torlik qilib qoldi. Yanada torayadi...

U borgan sari qizishib borar, ko‘zlaridan o‘t chaqnar, so‘zlari keskinlashardi.

— To‘g‘ri, g‘arb, janub, shimol bo‘m-bo‘sh yaylovlar, egasiz dala-tuzlar bilan to‘la. To‘g‘ri, g‘arb, janub, shimol Tangri ziyosidan bebahra. Haq, adolat va insofga tashna bo‘lganlar qishloq va shaharlarda to‘lib-toshib yotipti. Men, Erto‘g‘rul g‘oziy o‘g‘li Usmon aytamanki, bizni birlashtiruvchi qonimiz va iymonimizga suyanmog‘imiz kerak; bizning el-elatimizni yomon ko‘ruvchilarga, xo‘rlovchilarga qarshi turmog‘imiz kerak; bizga intilganlarni

bag‘rimizga olmog‘imiz kerak; qo‘y-qo‘zilarimiz, tuyalarimiz, yilqilarimiz, onalarimiz, otalarimiz, o‘g‘il va qizlarimizni bo‘g‘ayotgan torlikni kengaytirmog‘imiz kerak; shon-shuhratimiz, quvonchimiz va ishonchimizni oshirmog‘imiz lozim. Buning uchun esa qo‘l qovushtirib o‘tirishni bas qilaylik. Men, Erto‘g‘rul g‘oziy o‘g‘li Usmon, shunday deyman...

Chodir ichida “tiq“ etgan tovush eshitilmasdi. Hech kim qimirlamasdi.

Usmonbek kengliklarga cho‘zilgan qo‘lini tizzalari ustiga qo‘ydi va kutilmagan tabassum bilan:

— Sungur? — dedi.

Shu zahoti dasturxon tuzalib, yeguliklar tortildi.

— Marhamat qilinglar, — dedi Usmonbek.

Dasturxon uzra qo‘llar harakatga keldi.

Usmonbek so‘zida davom etdi:

— Men o‘zimning dindosh birodarlarimga, qondosh birodarlarimga bizga hujum qilayotganlarga hujum qilaylik deyapman va bunga rizolik so‘rayapman. Shuni ham aytmoqchimanki, menga biror kor-hol bo‘lsa, xohlagan yordam qo‘lini cho‘zsin, xohlamagan uzatmasin; mening boshimga tushgan yomonlik hech kimning boshiga soya solmasin. Ammo-lekin qarorim qat’iy: birortangizga yomonlik qilsam, o‘zimga va Qayi qavmiga yomonlik qilgan deb hisoblayman. Va men, Erto‘g‘rul o‘g‘li Usmon ont ichamanki, yaxshiligimni yaxshiligingiz, yutug‘imni yutug‘ingiz va aksincha sizning yaxshiligingiz o‘z yaxshiligim, yutug‘ingizni esa o‘z yutug‘im deb bilaman. Ana shunga izn so‘rayman.

Qisqagina jimlikdan so‘ng, hech kutilmaganda Do‘ddurg‘a begi Qora Guna gapirdi:

— Ey, kechagi Usmonjon, bugungi Usmonbek, begimiz ulug‘ Erto‘g‘rul g‘oziy o‘g‘li Usmonbek; ruxsat sendan va Do‘durg‘a aytadiganingga ham, qiladiganingga ham bo‘ysunadi. Erto‘g‘rulbek g‘oziy qanday bo‘lgan ersa, sen ham bugundan boshlab shunday bo‘lasan.

Shundan so‘ng Ertug‘mish ham, Qutolmish va boshqalar ham birin-ketin:

— Qora Guna to‘g‘ri aytyapti, — deyishdi.

Usmonbek o'rnidan turdi:

— Chaqqon yig'ishtir, Sungur, — dedi, keyin qolganlarga o'girildi:

— Yo'lchining yo'lga tushgani ma'qul...

Bundan bu yog'i shu kuzga qadar qanday bo'lgan esa shunday bo'ldi; o'tov beklari yaylov beklariga, ular ham bir-birlariga qishlovni omon-eson o'tkazishni tilashdi, og'ir damlarda madadkor bo'lishga so'z berishdi va Usmonbekning ishorasi bilan nog'oralar qoqildi, burg'ular chalindi, hamma yo'lga otlandi. Ko'ch yo'lga tushdi. Yo'l-yo'lakay ashulayu qo'shiqlar, terma va laparlar, o'yin-kulgilar avjiga chiqdi.

Qayi qavmi So'g'udga tong payti kirib keldi.

* * *

So'g'udga o'rnashgach, Usmonbek G'ozi Rahmonni otasining do'sti Oq Temurga yubordi.

G'ozi Rahmon borib unga:

— Ey, o'qi qochganga ham, uchganga ham yetguvchi Oq Temur ulug'imiz, agar ijozat bersangiz, Usmonbek kelib siz bilan gaplashish niyatida, — dedi.

Oq Temur darhol tadorigini ko'rdi:

— Yo'q, o'g'lim, beklarning bu yoqqa kelishi yarashmaydi, — dedi. — Hoziroq o'zim boraman.

— Lekin kechirasiz, aql o'rgatayapti demangu, — dedi G'ozi Rahmon. — Men bekning buyrug'ini yetkazdim.

Shunda Oq Temur:

— Rost aytayapsan, yigit, marhamat qilsin, — dedi.

Oq Temur yonida rafiqasi, o'g'li, kelini va ikkita nabirasi bilan bir to'nka ustida o'tirgan edi. Usmonbekning Rahmon bilan gaplashganidan keyin o'ziga qarab yo'nalganini ko'rgach, o'rnidan turdi. Yonidagilar u yerni tark etishdi.

Usmonbek kelgach, Oq Temur o'pish uchun uzatilgan qo'lini tezda tortib olib, yelkasiga qo'ydi:

— Marhamat, bek, — dedi Oq Temur.

— Ulug' otam Erto'g'rulbek g'oziyning ulug' do'sti, sizdan iltimosim shuki, darhol Bilajikka boring, hokimning huzuriga ki-

ring, Usmonbek siz bilan uchrashib gaplashish niyatida, deb ayting. Nimani gaplashmoqchi deb so'rasa, Ayo Nikola va Inago'l hokimi, tatarlar xususida, deng. Va tag'in hadyalarini topshirib, omonatlarini olish umidida ekan, deb ayting.

Oq Temur uning ko'zlariga qaradi, nimadir demoqchi bo'ldi, lekin:

— Buyrug'ing bosh ustiga, Usmonbek, — dedi.

* * *

So'g'udda, barcha uylarda yangidan joylashishlar jadal bormoqda. Hamma chaqqon, sho'x va quvnoq. Faqat Usmonbek unaqa emas.

Usmonbek asabiy bir tusda naridan-beri yurib turibdi. Ish bilan huzuriga kelganlarni ham, o'zi chaqirtirganlarni ham hayron qoldirmoqda. Xuddi ularni kurmayotganday. Lekin uni asabiy ham deb bo'lmaydi. Negadir indamaydi.

— Xayoli parishon, — deb o'ylaydi Malhun Xotun. Lekin parishon- xotirligining sababini bilolmay hayron.

Ehtimol yordami tegar, ammo qanday yordam berishni bilolmay tashvishda.

Uning tashvishda ekanini hamma tushunib turibdi. Birgina Usmonbek buni sezmayapti. Malhunning tashvishini tushunuvchilar orasida qaynanasi Jonqiz ham bor.

Uyini tartibga solish, ovqat pishirib berish uchun kelganida Jonqiz unga:

— Hoy, mening suluv kelinim, juda ko'rinishing g'alati. Bir darding borga o'xshaydi. Bu yoqqa kel-chi, — dedi.

U boqqa qaragan deraza oldidagi yig'ma divanga cho'zilgandi. Uning holsizligi ovozidan ham, Malhun Xotunga o'tirish uchun joy ko'rsatib cho'zilgan qo'lidan ham bilinib turardi.

Malhun Xotun o'tirgach, Jonqiz uning oppoq va mayin qo'llarini qovjiragan hovuchiga oldi. Kulimsiradi:

— Homilali ayolga dard yarashmaydi. Dardni ichga solish ham yomon. Men nabiramga ziyon yetishini istamayman. Dardingni menga ayt, bolam, balki davosi mendadir. Menda bo'lmasayam, baribir, topaman davosini.

Malhun Xotun uning qurib, dag'allashgan, tirishib-burishib yotgan qo'llarini o'pdi. Boshini derazaga qaratib burdi. Chiroyli lablari titrardi. Ko'zlariga yosh to'lib turardi. Jonqiz shivirladi:

— Bir darding bor sening, ber o'sha dardingni menga.

Malhun Xotun biroz jim turdi, o'zini sal bosib dedi:

— Meni juda e'zozlab yuborganingizdan qo'rqayapman. Chunki, siz dard deyapsiz. Lekin bu dard emas...

U bir nafas to'xtab, yutinib olgach, Jonqizga Usmonbekning ahvolini tushuntirdi. Shunda Jonqiz:

— Bundan og'ir dardni bilmayman, — dedi va nasihat qildi: avvalo o'zing bir gaplash Usmonjon bilan... ochiq gaplash, xuddi men bilan gaplashganingday. Agar foydasi bo'lmasa, men gaplashaman, otasi gaplashadi... Ko'ramiz nima ekan sababi...

* * *

Malhun Xotun qaynanasining aytganini o'sha kechasiyoq qildi:

— Qani, yonimga keling-chi, Qayi begi, yigit bek. Bu yoqqa keling, boshim taxti, ko'nglim baxti; shayx otamning kuyovi, bu yoqqa keling-u, ayting menga:

Sizga nima yomonlik qildim? Nima, arpangizni xom o'rdimmi? Nega menga kulib qaramaysiz, nimaga mundoq yozilib gaplashmaysiz? Sadag'angiz bo'lay, gapiring mundoq...

Uning ko'zlarini to'ldirgan yoshlar chiroq nurida yaltirab ketdi. Usmonbek hayron bo'lib qaradi unga. Baxtiyorona jilmayish bilan qaradi xotiniga va birdan quchoqlab, bag'riga bosdi. Malhun Xotun uning keng yelkalari orasida, uzun qo'llari ichida mumday eridi.

Usmon uning sochlarini o'pdi, uzoq hidladi. Keyin uni divanga, yonboshiga o'tqazdi, yuzini chiroqqa qaratdi.

— Usmonbek sendan aylansin, sen qayg'urma, — dedi. — Dardingni olay...

So'ng qo'shimcha qildi:

— Sen, mening Zumrad Anqom, sira qayg'urma.

Shundagina tushunganday bo'ldi Malhun Xotun. Usmonbek uchun u tug'adigan farzandlari muhimligini his etdi.

Malhun Xotun boshini egdi, asta shivirladi:

— Sizga o‘g‘il tug‘ib beraman.

Usmonbek mehr bilan qaradi yoriga:

— Sen mening Zumrad Anqomsan, — dedi bag‘riga bosib.

* * *

Oq Temur ertasiga qaytib keldi:

— Hokim kelsin deb aytdi, — dedi Oq Temur va uchrashuvlar tafsilotinni gapirib berdi.

Hokim OqTemurni qabul qilmabdi. Nima maqsadda kelganini lashkarboshi orqali surishtiribdi. Shunda Oq Temur:

— Usmonbegimiz meni hokim huzuriga yubordi. Muhim gaplarim bor. Faqat o‘ziga aytishim kerak, — debdi.

Hokim uni yana huzuriga kiritmabdi. Nima haqda gaplashmoqchi ekaniga qiziqibdi. Biroq Oq Temur tag‘in o‘sha javobni aytibdi. Hokim shundan keyingina:

— Kelsin, — debdi.

Oq Temur suhbatini shunday tushuntirdi:

— Qanday buyurgan bo‘lsang, shunday yetkazdim. Omonatlarini olishga keladiganlardan alohida kelsin, oldin o‘zi kelsin, dedi.

Usmonbek uni jilmayib tingladi. Keyin bu jilmayish kulgiga aylandi. Ko‘zlari charaqlab ketdi, ming‘irladi:

— Bizga ishonmaydi... Bizdan qo‘rqayapti... — Ancha davom etgan jimlikdan keyin qo‘shimcha qildi:

— Ishonadigan bo‘ladi, qo‘rqmaydigan bo‘ladi.

Usmonbek Bilajikka faqat Oq Temurni yonida olib bordi. Yigirma besh nafar otliq odami bilan Qo‘nur Alpni qalaga uch o‘q otimi masofada qoldirib o‘zi ham qurolsizlanib bordi.

Usmonbekni hokim huzuriga bittasi oldinda, ikkitasi yon tomonida, uchtasi orqada — olti jangchi kuzatib bordi. Ular suhbat chog‘ida ham uning yonida bo‘ldilar. Oq Temurni ichkari kiritishmadi, dahlizda qoldirishdi. Uning yonida ham uch jangchi bor edi.

Hokim Usmonbekni qimir etmay kutib oldi, marhamat ham demadi, bir kalima so‘z aytmay gapirishini kutdi.

Usmonbekning yuzidan hech qanday ifoda bilinmasdi. Salomsiz va ehtiromsiz gapni boshlayverdi:

— Men, Qayi begi Usmon, sizga shuni ma'lum qilamanki, maqsadim do'stingizga do'st, dushmaningizga dushman bo'lish. Ming nafar suvoriyim bor itoatkor, chapdast yigitlar. Qardosh qavmlarim bor; keragida buyrug'imga hoziru nozir. Demoqchimanki, do'stligim foydadan xoli emas. Endi tatarlar sizga tashvish, boshqa tomondan Ayo Nikola sizga ham, menga ham ziyon. Qulajahisordagi itlari bilan sizning ham, mening ham yilqilarimizga, suruvlarimizga hujum qilayapti, qishloqlarimizni talayapti. Ayo Nikola bo'lsa, sizga ustunlik da'vo qilayapti. Endi: men, Qayi begi Usmon, sizga aytmoqchimanki, men avvaliga Kulajahisorni bosib olaman, siz buni tan olasiz. Keyin tatarlarni haydab yuboraman. Siz menga bozor haqqini tan olasiz. Va tag'in, Ayo Nikola siz bilan yaxshi munosabatda bo'lmasa, men unga qarshi chiqaman, agar yengishga muyassar bo'lsam.... sizga olingan o'ljadan hissa beraman, siz menga beklarcha munosabatda bo'ling. Men, Qayi begi Usmon, sizga ma'quli shul deb aytayapman; siz nima deysiz?

Hokim ko'zlarini unga tikib, butun diqqat-e'tiborini Usmonbekning yuzidan biror narsani anglashga qaratgandi. Lekin hech narsa tushunmadi, ancha vaqt indamay turdi, keyin so'radi:

— Menga bu ma'qul emas desam, nima qilarding?

— Alishar men bilan kelishishni kutib turibdi, — dedi Usmonbek va gapida davom etdi. — U bilan gaplashaman. Qulajahisorni egallab olaman. Sizga baribir do'st bo'lib qolaman. Chunki siz Qayi elatining tang kunlarida yordam qo'lingizni cho'zdingiz, mollarimizni hisoringizda[1] asradingiz. Lekin sizga hissa bermayman. Urush qilsangiz, yoningizni olmayman. Mening bekligimning sizga aytadigan gapi shu.

Takfur uzoq vaqt jim qoldi. Keyin:

— O'tir, — dedi yonidagi divanning bosh tomonidan joy ko'rsatib. Usmon o'tirdi. Jim kutdi.

— Bilasanki, — dedi hokim, sal kulimsirab. Uning ovozi ancha yumshagandi. Usmonbekning o'ylagani to'g'ri chiqdi. —

[1] **Hisor** — qaa.

Bilasanki, janobing Sulton Alouddin meni yaxshi ko'radi, himoya qiladi. U menga do'st ekan, buyrug'ingning nima daxli bor?

Usmon ham ilk bor kulimsiradi:

— Bilaman, albatta. Huzuringizga kelishim ham shu boisdan. Ammo Ko'nyo bu yerga juda olis. Buning ustiga Alouddinxonning boshi uzra g'alvalar charx urayapti. Bu joylarning taqdiri uchun sizu bizga ishonayotir...

U shunday dedi-yu, hokim sira kutmagan ishni qildi. O'rnidan turdi:

— Aytadigan gapim shu. Javobini esa, kechirasan, ketishim kerak...

Takfur Usmonbekdan to'rt-besh yosh katta edi. Kuch-quvvati ham joyida edi. U suhbatning shu joyigacha ustun ko'rinishni eplab o'tirdi. To'g'rirog'i, unga shunday ko'rinardi. Usmonbekning bunga rozi bo'lganini, hatto buni tayyorlaganini xayoliga ham keltirmasdi: bir iltimosini qabul qilgan edi. Endi bo'lsa esankirab turardi. Nihoyat:

—Tatarlarni quv, — dedi.

— Oldin Qulajahisorni olishim lozim, — dedi Usmonbek. — Tatarlarni haydash uchun bu juda zarur.

Takfur o'tirolmadi, o'rnidan turib derazaning oldiga bordi. Qo'li bilan mo'ylabini o'ynardi. Ovozi ham past chiqdi:

— Mayli, shunday bo'la qolsin. Lekin men Ayo Nikola bilan oralaringga tushmayman, urushsalaringiz aralashmayman.

— Aralashingiz shart emas, — dedi Usmonbek. — Menga bozor haqqi yetarli.

Takfur rozi bo'ldi:

— Sen tatarlarni quvib yubor. Men senga bozorni ochib beraman.

Hokim so'zining ustidan chiqishi sezilib turardi. Chunki Usmonbekni beklarni kuzatganday yo'lga chiqarib qo'ydi.

* * *

Qo'riqchi sarbozlar yoniga qaytishganda tekis vodiyning narigi tomonidan aravalarning g'ijirlashlari quloqqa chalinardi. Bu aravalar hokimning yillik armug'onlarini olib borishi va qoldiril-

gan omonatlarni ortib orqaga qaytishlari kerak edi... Har yildagi kabi!

Faqat, o'tgan yillarga nisbatan muhim bir o'zgarish bor edi va boshqa o'zgarishlar bo'lishi kutilardi.

Oldinlari armug'onlarni keksa, vositachi kishilar olib ketishardi. Bu safar hadyalarni hokimning o'zi qabul qilib oldi va Usmonbekka salomlarini yetkazishni so'radi.

Usmonbek qaytayotib bir og'iz ham so'z aytmadi. Ol-Ishiq ustida o'tirgancha faqat oldinga qarab borardi. So'g'udga kirib borganda ham indamadi. OqTemur bilan ham xayrlashmadi, faqat bosh egib, ehtirom bildirdi.

Uyiga kelgach, Malhun Xotunni boshqacha tarzda quchoqladi va butunlay boshqacha o'pdi. U endi butunlay o'zgargan bir ohangda pichirladi:

— Tangriga shukurlar bo'lsinki, g'azovot kunlarim keldi.

USMON G'OZIY

Usmonbek yanada kamgap bo'lib qoldi. Endi u tez-tez aylangani chiqib ketar, uzoq vaqt kezib yurardi. Ol-Ishiqni minganicha tepalardan oshib, odamlar ko'zidan yiroq aylanardi.

Usmonbek o'ylayapti, Ada Bolini o'ylayapti, uning so'zlarini eslayapti.

Usmonbek Go'kcha bajini o'ylayapti, uning gaplarini xotirlayapti.

Usmonbekning o'ylaridan boshqa narsalar ham kechayapti. U otasi, Erto'g'rulbek g'oziy va uning aytganlarini o'ylayapti. Dursun Faqi, Kumral Abdal va O'ruz darveshni, ularning so'zlarini eslayapti.

Keyin Alqauy begi Ertug'mish, Bayot begi Xo'ja Qulmash, Do'durg'a begi Qora Guna yana boshqa qavmlar, urug'-aymoqlar, qabilalar, ularning ulug'lari bir-bir o'tadi ko'z o'ngidan, ularning so'zlarini, pand-nasihatlarini eslaydi.

Usmonbekning miyasida o'zlarini ko'rmagan ko'plab ismlar ham bor. Ana shu ismlar bilan bog'liq gap-so'zlar o'ylantirayapti Usmonbekni.

Usmonbekni bobosi Sulaymon Shoh o‘ylantirayapti. Uni Sulton Alouddin, tatar begi Alishar o‘ylantirayapti.

Usmonbekni qal’alar, qo‘rg‘onlar, shaharlar o‘ylantirayotir, Inago‘l o‘ylantirayotir. Uni Iznik o‘ylantirayotir, Qorajahisor, Bursa, Konstantinopol o‘ylantirayotir. Bu o‘ylarining amalga oshishi uchun Tangridan madad tilaydi. Iltijolari orasida Allohdan o‘g‘il tilashni ham kanda qilmaydi.

* * *

Qulajahisor xususidagi qarorini besh safdoshiga ma’lum qilgan kuni kechqurun Usmonbekka Aratun degan bir rum kishining uni ko‘rish niyatida ekanini aytishdi.

— Kelsin bu yoqqa, — dedi Usmonbek.

Yangi qurilgani uchun hali eshigi va derazalari o‘rnatilmagan masjidda, minbar yonida o‘tirishgandi. Yonida Oqcha Xo‘ja va G‘ozi Rahmondan boshqa hech kim yo‘q edi.

— Bu kofirning otam Erto‘g‘rulbek g‘oziyga ko‘p foydasi tekkandi. Menga ham to‘g‘ri xabarlar yetkazib turibdi, — dedi ularga Usmonbek. Unga katta e’tibor berayotgani ko‘rinib turardi. Xususan, Aratun bu safar ham muhim bir xabar olib kelayotgandi.

Haligi kishi Usmonbekning yonidagi odamlarni ko‘rib, to‘xtadi.

— Bemalol kelaver, — dedi Usmonbek, — bular mening yo‘ldoshlarim. Men bilgan narsani ular ham biladi.

— Siz Qulajahisorga bostirib bormoqchi ekansiz, Ayo Nikolaning bundan xabari bor, — dedi hovliqib Aratun.

Oqcha Xo‘ja bilan G‘ozi Rahmon Usmonbekka qarashdi.

Usmonbek birdan toshdek qotib qolgandi. Ko‘zlarida o‘t chaqnagandek bo‘ldi. Aratundan so‘radi:

— Ayo Nikola qal’aga qancha odam to‘plaganini bilasanmi?

— Yuz o‘n suvoriy sanadim, — dedi Aratun.

Usmonbekning qarashlari yumshadi:

— Biz yaxshilikning qadriga yetamiz va aslo unutmaymiz.

— Bilaman, Usmonbek, — dedi Aratun.

Usmonbek G‘ozi Rahmonga o‘girildi.

— Rahmon, Aratunni Savji og'am huzuriga olib bor. Xursand qilsin. O'zing esa Qo'nur Alpni, Abdullohni, Saltuq va Sungurni yoningga olib, tezda yetib kel!

Aytganlari bajarilib, besh safdoshi yetib kelgach, Usmonbek Aratun olib kelgan xabarni takrorladi va so'radi:

— Qulajahisorning uch yuz nafar suvoriysi borligini bilamiz. Ayo Nikola kofir bizlarga to'rt yuz o'n olti sarbozi bilan bas kelaman deb o'ylayapti. To'g'ri o'ylayaptimi yoki noto'g'rimi? Xo'sh, nima deysizlar? Nima qilishimiz kerak?

Usmonbek ularga bir-bir qarab chiqdi. Javob kutardi.

Oqcha Xo'ja:

— Sen beksan, — dedi. — Bizlarga sening buyrug'ing vojib.

Sungur ham uni quvvatladi:

— Oqcha Xo'ja to'g'ri aytayapti.

Qo'nur Alp esa:

— Sanog'ining bizga ahamiyati yo'q. Qilamiz dedikmi, sanashning nima keragi bor? — dedi.

Rahmon ulardan boshqacha o'ylardi:

— Ma'qul ko'rsang, kutaylik deyman. Toki Ayo Nikola bu xabar yolg'on ekan deb, Qulajahisorni o'z holiga tashlab qo'ysin.

Navbat Saltuqqa keldi. U ham:

— Men Rahmon birodarim fikriga qo'shilaman, — dedi va qo'shib qo'ydi: Sen o'zing asl maqsad Qulajahisor emas, deding, dushman dushmanligini bilib, oxir nima bo'lishini o'ylab ish qilar, deding, shunday bo'lgani ma'qul.

Abdulloh hamishagiday jim turdi.

— Men esa, aytganimday ish qilaylik, deyman, — dedi Usmonbek. — Har doim aytganimizdek ish qilaylik deyman. Endi bo'lsa, jon yo'ldoshlarim, imon yo'ldoshlarim, gapimga quloq solinglar.

Toki Ayo Nikola bizning niyatimizdan xabardor ekan, shu aytadigan gaplarim faqat ichimizda qolsin. Men hatto onamga, otamga, xotinimga ham aytmayman.

Demak, reja shunday: oltovlon yetmishtadan suvoriy bilan ertaga sahar payti beshta boshqa-boshqa yo'l bilan borishadi. Usmonbek Abdulloh bilan birga to'g'ri Qulajahisorga yo'l oladi.

Shu kuni Ko'prujukda bozor bo'ladigan kun. Kulajahisorning darvozalari ochiq bo'ladi va bozor karvoni yo'lga chiqadi. Usmonning bostirib kelishi kutilayotgani uchun otliqlari shay bo'lib, yo'llarni qo'riqlab turishadi. Usmonni kam suvoriy bilan ko'rgach, qal'adan tashqari chiqib hujumga o'tadilar. Shunda Usmonbek dushmanning ko'pligini ko'rib, otlar boshini buradi-da, daryoning berigi yoqasiga qocha boshlaydi. Oqcha Xo'ja, G'ozi Rahmon, Sungur va Saltuq o'sha tomondagi tepaning orqasida kutib turishlari, quvlab kelayotganlar ham daryoni kechib o'tishgach, ot solishlari kerak. Ular o'sha yerda savashar ekanlar, Qo'nur Alp Qulajahisorga yetib borib, himoyasiz qolgan qal'aga kiradi.

Gap shu yerga kelganda Usmonbek Qo'nur Alpga yuzlandi:

— Ehtiyot bo'l, mening Qo'nur Alp mardi maydonim. Ayollarga, qizlarga tegilmasin. Qurolsiz va qurolini tashlaganlarga qilich ko'tarilmasin. Ehtiyot bo'lib harakat qilinglar.

* * *

Hammasi Usmonbek aytganday bo'ldi: Qulajahisordagi sarbozlar Usmonbekning bir hovuch suvoriy bilan kelganini ko'rib jo'shib ketishdi.

— Bularning otlari chopqir, yuganlari, egarlari, uzangilari juda qimmatli, qilich va o'q-yoylari tengsiz bo'ladi, — degancha hayqirishib, Usmonbekning suvoriylariga tashlandilar. Daryoni kechib o'tgach esa, shiddatli o'q yomg'iriga duch keldilar, keyin beomon qilich zarbasiga uchrab, yerparchin bo'ldilar. O'z otlari, qilichlari, yoylari va sadoqlaridan ajraldilar. Qo'l ko'tarib taslim bo'lgan qirqtasidan tashqari hammasi halok bo'lishdi.

Olishuv uzoqqa cho'zilmadi. Biroq shu qisqa vaqtning o'zi Qo'nur Alpning Qulajahisorga kirib, qal'a boshlig'ini barcha himoyachilari bilan birga qo'lga tushirish uchun yetarli bo'ldi.

Usmonbekning buyrug'iga binoan hech kimning moliga ham, joniga ham qasd qilinmadi. Bu orada Qo'nur Alp bozorchilarning asosiy qismi to'xtatib turilganini, Usmonbekning ishi biryoqli qilingandan keyin Ko'prujukka jo'natilishi kerakligini aniqladi. Rostdan ham bozorchilarning mol ortilgan otlari, aravalari katta darvozaning narigi tomonidagi maydonda kutib turgan edi.

Usmonbek yetib kelgach, Qo'nur Alp unga vaziyatni tushuntirdi. Usmonbek o'ngu so'lga odam yuborib ma'lum qildi, xalqni o'sha maydonga chaqirtirdi.

Usmonbek otlarga minish uchun maxsus o'rnatilgan tosh ustiga chiqib olgandi. Qilichi qo'lida. Safdoshlari uning ikki tomonida qilich yalang'ochlab turishardi.

Xalq to'planib bo'lgach, Usmonbek qilichini qiniga soldi. Yo'ldoshlari ham darhol shunday qilishdi. Shundan keyin Usmonbek baland ovozda dona-dona qilib gapirdi:

— Ko'nglingizni cho'ktirmanglar. Qo'rqmanglar. Joningizga, molingizga, or-nomusingizga zarra ziyon yetkazilmaydi. Buni men, Qayi begi Usmon aytayapman. Endi bozorga bormoqchi bo'lganlar yo'lga chiqaversin. Ularni mening yigitlarim qo'riqlab boradi. Qaytishingizda ham xuddi shunday bo'ladi. Bundan keyin hamisha shunday bo'ladi. Qulajahisorni mening yigitlarim qo'riqlaydi. Sizlarga ziyon yetkazuvchilarni mening sarbozlarim jazolaydi. Kechalaringiz kunduzlaringizdan ham tinch, osuda bo'ladi. Buni sizlarga, men, Qayi begi Usmon aytayapman.

Maydon birdaniga minnatdorlik tovushlariga va duolarga to'lib ketdi. Keyin bozorchilar Usmonbek ajratgan suvoriylar himoyasida yo'lga chiqishdi. Ular ketgach, Usmonbek Sungurga:

— Sungur, to O'ruz darvesh kelguncha Qulajahisor mas'uliyati sening bo'yningda, — dedi. Mening aytganlarimga amal qilib, boshqarib turasan.

Usmonbek Sungur bo'linmasini yetarlicha kuchlar bilan ta'minlab, qolgan yo'ldoshlari bilan yoniga asirlarni ham olib So'g'udga qaytdi. Birinchi bo'lib O'ruz darveshni Qulajahisorga jo'natdi. Keyin ilk g'azovotining xabarini berish uchun otasining oldiga yo'l oldi. Uni uyning birinchi qavatida shayx Mahmud, Qora Tekin va Hasan Alp kutib olishdi. Hammasi g'amgin edi. Usmonbek ularning biror narsa deyishlarini kutar ekan, uyning jim-jitligi ichra bir ming'irlash sezganday bo'ldi va tushundi. Yuqori qavatda Qur'on o'qilayotgandi.

U shayx Mahmudga qaradi:

— Onammi?

Yo‘q, onasi o‘lmagandi, lekin juda og‘irlashgandi. Butun oila uning tepasida edi: o‘g‘illari, kelinlari, nevaralari, birodarlari — hammasi.

Jonqiz hammasiga bir-bir qarab chiqdi.

Uning Usmonni qidirayotgani aniq edi.

— Usmonjon qani? — deb so‘ragandi kelini Malhun Xotundan.

Usmonbekning qayerdaligini faqat Erto‘g‘rulbek g‘oziygina bilardi.

— O‘g‘lim g‘azovot qilayapti, — dedi.

Jonqiz unga qaradi. Jilmaydi. Qattiq og‘riqlarga va madorsizligiga qaramay ko‘zlari yorishganday bo‘ldi. Lablarini qimirlatdi, lekin gapirolmadi. Bir amallab boshini burdi. Kimnidir izladi. Boyxo‘jani ko‘rgach, yuziga iliqlik yugurdi. Oyna Malak o‘g‘lini unga to‘g‘riladi.

Jonqiz yoniga kelib tiz cho‘kkan Boyxo‘jaga bir soniyagina qaray oldi. Biroq, ko‘zlari yumilarkan, jilmayishga ulgurdi.

— Tangri onangga, otangga g‘azovot kunlarini ko‘rsatsin, mening polvon nabiram.

Nabirasi Boyxo‘jani haddan tashqari sevardi Jonqiz.

So‘ngra ko‘zlari yumildi uning.

Peshinga qarab shayx Mahmud xabar yuborgan Dursun Faqi bilan Qumral Abdal kelishdi. Yonlarida Xafiza Gulishiq otin ham bor edi. Jonqizning huzurida faqat o‘sha bilan Burla Xotun qoldi. Erto‘g‘rulbek g‘oziyning bir yonida Savji, bir yonida Qunduz uyga olib ketishdi.

Usmon Qulajahisordan qaytganida Gulishiq otin Jonqizning tepasida Qur’on o‘qir, boshqalar boshi egik, ko‘zlari yumuq holda tilovatga qo‘l ochib turishgandi.

Uni zina oldida katta akasi Qunduz qarshi oldi:

— G‘azovoting muborak bo‘lsin. Onamiz eshitib suyundilar.

Avval Erto‘g‘rulbek g‘oziyning huzuriga borishdi. Usmon otasini bag‘riga bosdi, tiz cho‘kib, qo‘lini o‘pdi.

— Ulug‘ otam Erto‘g‘rulbek g‘oziy, — dedi, — Alloh bizdan yordamini ayamadi.

Kulajahisor endi islomniki bo‘ldi.

Erto‘g‘rulbek qo‘lini o‘g‘lining yelkasiga qo‘ydi:

— Baxtli bo‘l, o‘g‘lim. Tangri yana ko‘plab g‘alabalarga erishtirsin. Bor, onangning qo‘lini o‘p, yaxshi xabarni yetkaz. Seni eshitsa kerak deb o‘ylayman.

Usmon onasi uni eshitdimi, yo‘qmi, bilolmadi. Lekin u shuni yaxshi his qildiki, Jonqiz Usmonga ko‘p narsalar aytdi va undan ko‘p narsalar so‘ragandek bo‘ldi. Usmon buni yaxshi tushundi. Onasining o‘zidan so‘raganlari uchun so‘z berayotganday:

— Oyijonim, noumid ketmang, ko‘zingiz yo‘lda qolmasin, — dedi. Hovuchi ichida ushlab turgan qo‘lni hidlab-hidlab o‘pdi, yuziga, ko‘ziga surdi.

Jonqizning ko‘zlari bir zumga ochildi, o‘g‘liga qaradi va manguga yumildi, Qur’on o‘qiyotgan Gulishiq ovozini balandlatdi, olamning eng qat’iy haqiqatini takrorladi:

— Qullu man alayha fan...

* * *

Onaning janozasida barcha o‘g‘illari, ularning yonida nabiralar — Oyto‘g‘di Boyxo‘ja, Bonu Chechak, Gulpak, Akrom, Temir saf tortib turdilar. Do‘stining onasi bilan vidolashish uchun Mixail Kosses ham keldi.

Jonqizning qabri tayyorlanar, Dursun Faqi bilan Qumral Abdal tilovat qilardi.

Erto‘g‘rulbek g‘oziy yonida Usmon, Qunduz va Savji duoyi kalomga qo‘l ochib turishardi.

Jonqizning tobuti mozorga tushirilgach, Erto‘g‘rulbek g‘oziy qabr tuprog‘iga sanchilib turgan belkuraklardan birini oldi. O‘g‘illari ham shunday qilishdi.

Tobut ustiga ilk tuproqni ular tashlashdi.

Mixail Kosses ham tilovatga qo‘shildi, yuziga fotiha tortdi. Ko‘zlaridan oqqan yirik tomchilar yonoqlaridan oqib, lablari chetiga tushdi. Jonqizning tobuti tuproq tagida qolib ko‘rinmay ketgach, Mixail ham odamlardan birining qo‘lidan belkurakni olib, qabr ustiga tuproq tashladi.

* * *

Qish oylarining sokinligini ikki katta voqea alg'ov-dalg'ov qildi. Jonqizdan keyin o'zini qo'yarga joy topolmagan va kelinlarining mehr-muruvvati hamda safdoshlarining hamisha birga bo'lishlari bilan ham ovunolmagan Erto'g'rulbek g'oziy fevral oyida Haqning rahmatiga qovushdi. Uning vafotining ertasi kuni Malhun Xotun o'g'il ko'rdi.

Erto'g'rulbek g'oziyning o'limi Qayi qavmini xush ko'rmaydigan ba'zi hokimlar tomonidan haqiqatga sira to'g'ri kelmaydigan tarzda izohlanildi. O'lar endi Erto'g'rulbek g'oziy yo'q, Usmonbekning harakatlarini boshqa urug'lar qo'llab-quvvatlamaydi deb ishonishar, Inago'l takfuri boshchiligida bahorda birgalikda ish ko'rishni rejalashtirishayotgandi.

Usmonbek bo'lsa bunday harakatlar haqidagi xabarni har kuni olib turardi. Eng muhim xabar Mixaildan kelgan edi.

Jonqiz dafn etilgach, Mixail Usmonbek bilan yakkama-yakka gaplashish niyatida ekanini aytib, yolg'iz qolishgach:

— Mening ba'zi yashirin niyatlarim bor, — degan edi. — Vaqti kelishi bilan senga aytaman, Usmonbek. Hozir esa o'shanga qadar senikiga kelmasam deyman, sen ham menga odam yubormay turganing ma'qul...

Usmonbek uning fikriga rozi bo'ldi. O'sha kundan boshlab Mixail to'plagan xabarlarni Go'l Falonoz viloyatilik musulmon bo'lgan bir rum yetkazib turdi.

Mixailning qizi Taliya Go'l Falonoz begining o'g'li Axileasning turmush qurish haqidagi taklifiga sevinch bilan qabul qilgandi, chunki unga ko'ngil qo'ygan ekan. Shu boisdan Mixail to'y o'tgunga qadar o'z niyatini va Usmonbek bilan musulmon turklarga nisbatan xayrixohlik tuyg'ularini saqlamoqchi edi. Bu tomondan esa amalga oshadigan qarindoshlik Mixail uchun takfurlar eshigini ochib bergandi. Bu narsalardan xabardor bo'lib turish Usmonbek uchun juda muhim edi. Mixail ularni Usmonbekka vaqtida yetkazib turardi. Bu narsa o'z navbatida ikki do'stning bir-biriga ishonchini yanada oshirdi.

Usmonbek o'g'lining ismini O'rxon qo'ydi. Shu munosabat bilan vodiydagi o'lka beklariga ziyofat berdi. yeyish-ichish,

o‘yin-kulgi, to‘y-tomosha ikki kechayu ikki Qunduz davom etdi. Uchinchi kuni esa bu tantananing o‘g‘il to‘yi uchungina o‘tkazilgan ziyofat emasligini tushunib yetdilar. Usmonbek boshqa urug‘ beklaridan Erto‘g‘mish, Xo‘ja Kulmash, Qora Guna va Cho‘ponga alohida-alohida tayinlab, kechqurun xuftondan keyin otasining yuqoridagi uyida yuzma-yuz gaplashmoqchi ekanini aytdi.

Katta ziyofatning charchog‘i bilan So‘g‘udning barcha mehmonlari uyquga ketgach, Usmonbek nega chaqirganidan tashvishlanib turgan to‘rt nufuzli bekka shunday dedi:

— Ey, mening ulug‘ bek birodarlarim, bahor boshlanay deb qoldi. Menga kelayotgan xabarlarga qaraganda, Yorhisor, Qorajahisor, Adranos takfurlari bahor boshlanishi bilan qishloklarimizga, shaharlarimizga, bozorlarimizga hujum qilishlaridan darak bermoqda. Bular javdarliklardan ham foydalanishmoqchi. Javdarliklar ham bunga rozi bo‘lishibdi. Endi, men, Qayi begi, Erto‘g‘rulbek g‘oziy o‘g‘li Usmon ulug‘ birodarlarimga shuni ma’lum qilamanki, biz bu kofirlar foydalanmoqchi bo‘layotgan qo‘lni oldinroq qayirmog‘imiz lozim. Javdarliklar bizni qirishga tayyorlanar ekanlar, biz ularni qiraylik. Sizlar bunga nima deysizlar, ulug‘ bek birodarlarim?

Hech kutilmagan bu gaplardan ular hang-mang bo‘lib qolishdi. Sukunat uzoq cho‘zildi. Birinchi bo‘lib Bayot begi Xo‘ja Qulmash gap boshladi:

— Ey, Usmonbek, sen qiraylik deyapsan. Lekin javdarliklar musulmon. Musulmon musulmonni qirishi joiz ermas.

Usmon undan ko‘zlarini uzmay gaplarini tingladi. Gapi tugaguncha biror so‘z qotmadi. Boshini Alqauy begi Ertug‘mish tomon burdi. Uning qarashi bekni gapirishga undardi.

Xo‘ja Qulmash singari u ham yotsirardi:

— Javdarliklar kofirlarni bosadi. Ularning bizlarga ziyoni kam, — dedi.

Bu gap Qorauy begi Cho‘ponning g‘azabini qaynatdi.

— Ha, sizlarga, — dedi kesatib.

Shu payt Do‘durg‘a begi Qora Gunaning yo‘talgani eshitildi. Bu zo‘raki yo‘tal uning gap so‘raganini bildirardi.

Usmon unga:

— Marhamat, Qora Guna birodarim, — dedi.

— Meningcha, Usmonbek birodar, — dedi Qora Guna, — avvalo sen bizlarni gaplaringga ishontirsang yaxshi bo'lardi.

Hammasi chordana qurib o'tirishgandi. Usmon cho'kkalab o'tirdi: shunda uning boshi boshqalardan bir qarich yuksaldi:

— Sen juda to'g'ri aytayapsan, — dedi Usmonbek. — Juda chiroyli gapirayapsan, Qora Guna birodarim. Avvalo, Xo'ja Qulmash og'amdan bir narsa so'ramoqchiman: Xo'ja Qulmash birodarim, musulmon musulmonni o'ldirishi joiz emasdir, deding. Gaping to'g'ri, albatta. Lekin shu gapni Javdar o'g'liga borib aytib ko'r-chi?

Xo'ja Qulmash javob berolmay qoldi. Bu esaUsmonga gapini davom ettirish imkonini berdi:

— Xo'ja Qulmash birodarim, senga aytayapman: Alloh shohid va guvohlarim bor. Men shayx Mahmudni uning huzuriga yuborib fikrlarimizni bildirgandim. Javdar o'g'li bizni o'zidan qo'rqadi degan fikrda ekan. Bizni xo'rlab, boj talab qilayotibdi. Bizlardan uning bosqinlariga qarshilik ko'rsatmaslikni so'rayapti. Bu ham yetmagandek, yanada ko'proq musulmonni talab, ko'proq molmulk, ko'proq o'lja olish umidida yanada ko'proq musulmonni o'ldirish uchun kofirga qo'l beribdi.

U jim qoldi va biroz kutdi. Keyin Erto'g'mish bekka o'girildi.

— Mana, siz gapiring, Alqa uyning ulug' begi Erto'g'mish; javdarliklar kofirni bosadi, bizga ziyoni kam deyapsiz. Men sizga aytsam, yerlaringiz Javdarga chap. Shuning uchun ham ziyoni kamdek ko'rinayapti. Mana, Cho'pon birodarimdan so'rab ko'ring, boya bekorga luqma tashlamadi. Javdar bostirib kelaverib, qishloq va yaylovlarimizga qancha zarar yetkazdi. Buni Qora Guna birodarim ham juda yaxshi biladi. Undan so'rang, aytib beradi.

Usmonbek Qora Gunaga qarab qo'ydi va so'zida davom etdi:

— Men buni bekorga aytayotganim yo'q. Chunki Javdarning kofirga bosqin yasashi ham koni ziyon.

U jim qoldi. Gaplaridan hammasi shoshib qolgandi. U so'zida davom etdi:

— Mening ulug' bek birodarlarim... Xo'ja Qulmash birodarim, Javdar bosqin qilishni bilmaydi. Javdar kimga hujum qilishni bil-

maydi. Javdar qanday hujum qilinishini bilmaydi. Javdar bosqin yasash paytini bilmaydi.

Yana jimib qoldi. Yana boshqalar singari chordana qurib o'tirdi. Boshqalar bilan bir xil vaziyatga tushdi, ovozi ham o'zgardi, yumshadi, uni tushunishlarini iltimos qilardi.

— Inago'l takfuriga hujum qilish Bilajik takfuriga bostirib borish bilan tengmi? Hujum qilishga kuchim yetsa, qaysi birini tanlay? Bitta dushman ikkita bo'lib qolmaydimi? Xo'ja Kulmash, birodar, mening yigitlarim tog'ni oshib, o'rmonni yorib, daryoni kechib Mudurnigacha bora oladilar. Mudurni bozorini bosib, sog'-omon So'g'udga qaytib kela oladilar. Mudurni takfuri So'g'udga kelolmaydi. Ammo Mudurni takfuri Bayot qavmiga yaqin, o'chini Bayotdan olishi mumkin. Hozir Qayining ko'zi Bayotning nihoyasini ko'rmasa, takfur kutib turadimi?

Gap shu yerga kelganda Usmon o'zini tutolmadi, yana cho'kkaladi:

— Javdar bularni bilmaydi. Bilolmaydi ham. Buni men yaxshi bilaman. Buni men faqat o'zim uchun, faqat Qayi urug'i uchun besh-o'n dirham pul olish, bir hovuch don undirish niyatida qilayotganim yo'q. Men Javdar singari emasman. Men, o'zimdan ortiq ko'rganim qavmim, dinim, iymonim haqqi qilayapman bu ishni. Men hujum qilarkanman, o'zimdan ortiq bilguvchi birodarlarim va dindoshlarim farog'atini o'ylayman. Buni sizlarga men, Erto'g'rulbek g'oziy o'g'li Usmon, aytayapman. Va men aytganimni qilaman.

U yana chordana qurib o'tirdi. Yana davradagilar bilan bir xil vaziyatga tushdi. Ovozi ham yumshadi.

— Endi, aytinglar menga, men sevib, e'zozlaydigan birodarlarim. O'z aka-ukamday ko'rganim ulug' beklar. Javdarga bosqin yasashim to'g'rimi yo noto'g'rimi?

Kutilganidan aksincha, birinchi bo'lib Bayot begi Xo'ja Qulmash gap ochdi:

— To'g'ri, Usmonbek!

U gapini tugatar-tugatmas, Alqauy begi Ertug'mish gap qo'shdi:

— Ey Usmonbek, senga aytar gapim shu: bilagi baquvvat, yuragi toza azamat o'g'lim Qiyan Saljuq sening amringda. Uni mard jiyaning Oytug'didan begona tutmassan, degan umiddaman.

Cho‘ponbek kulimsiradi:

— Umring zavol ko‘rmagur Usmonbek, — dedi va qorauyliklarning Javdarlardan tortgan ko‘rgiliklarini gapirib berdi.

Qora Guna ham kulimsiradi, lekin uning tabassumi boshqacha edi. Gapi ham shunga yarasha bo‘ldi:

— Men nima ham derdim, bek birodarlarim? Menga: “Xudoga shukur” deyishdan boshqa hech narsa qoldirmadinglar. Bir miriqib qimiz ichishga ne yetsin!

Bu so‘zlardan Usmonbekning yuzlariga qizil yugurdi. Qimiz-xo‘rlik — haqiqiy beklikning qabul marosimi, axir! Nihoyat, Usmonbek suhbatdoshlariga eng muhim gapni aytdi:

— Men Javdarni haydab yuborsam, Bilajik bozori bizlar uchun ochiladi. Takfur menga bu borada so‘z bergan.

Bilajik bozori hammalarini ko‘p narsadan bahramand qilardi. Bu bozor tevarak-atrofdagi butun aholini bosh kiyimidan paypoq-qacha, taroqdan urchuqqacha, sholchadan gilamgacha, yog‘dan asalgacha, yugandan uzangigacha, kashtadan bo‘yoqqacha, qasqondan tovagacha, somondan palaxmongacha oson ayirboshlashga imkon beradi.

Bu narsa barchaga ma’qul edi. Juda xursand bo‘lishdi.

— Ey Usmon g‘oziy, — dedi Qora Guna, — otangning ruhi shod bo‘lsin. Erto‘g‘rulbek g‘oziyga o‘g‘il ekanliging ko‘rinib turibdi.

* * *

O‘ruz darvesh Qulajahisor boshqaruvini Sungurdan qabul qilib oldi va Usmonbek g‘oziy amri bilan ish ko‘rdi. Qulajahisorliklar bunday boshqaruvdan mamnun edilar. Qal’a atrofidagi qishloqlardan har xil armug‘on va sovg‘a salomlar kelib turardi. O‘ruz darveshga kelayotgan hadyalardan ko‘ra maqtov so‘zlari ko‘proq edi. O‘ruz darvesh ham o‘z navbatida bu sovg‘a-salomlar va dil so‘zlariga yanada kattaroq armug‘on va iliqroq javoblar qaytarar edi. Chunki Usmonbek g‘oziyning buyrug‘i shunday edi.

Usmonbek qish kunlari ko‘pincha o‘g‘li O‘rxonning beshigi yonida bo‘lar, uzoq o‘yga tolardi. Uning uchun hozir dunyoda o‘g‘li O‘rxon va yangi qurilayotgan masjid mavjud edi. U tez-

tez borib masjid qurilishidan xabar olar, suhbatlarda ham bu katta qurilishni bot-bot tilga olib turardi.

Ana shunday qish kunlarining birida akasi Qunduz kelib:

— Hoy birodar, akang Savji bilan shuni aytmoqchimiz: kelayotgan juma oldidan bir yig'ilib onamiz bilan otamizni xotirlaylik, xudoyi qilaylik dedi.

* * *

Erto'g'rulbek g'oziyning So'g'uddagi uyiga to'planishdi. Bu uyga endi Haym Jonqizning singlisi — eng kenja xolalari Manaksha qarab turardi. Uyning xarajatlarini uch og'a-ini ko'tarishardi.

Xudoyi uchun pishiriqlarni Manaksha xolaning istagi bilan Burla Xotun, Oyna Malak va orqasiga o'g'li O'rxonni bog'lab olgan Malhun Xotun tayyorlashdi. Uyga erkaklardan Qunduzning o'g'li Oytug'di va Savjining o'g'li Boyxo'ja kelishgan edi. Dasturxon yozilgach, uch og'a-ini Qunduz, Savji va Usmon kelishdi ammo ichkari kirmay, eshikdan turishdi. Ularning otlarini Oytug'di bila Boyxo'ja yetaklashdi. Oradan ancha vaqt o'tdi. Amakilari Dundarbek ham katta akasi Erto'g'rulbek g'oziyning unga vasiyat qilib qoldirgan bedov otda keldi. Uning orqasida ikkita sayisi ham bor edi.

Usmon yugurib borib amakisining otini ushladi, uning sayislariga qo'ymay, Dundarbekning otdan tushishiga o'zi ko'maklashdi. Shunga qaramay, Dundarbek Usmonga e'tibor bermadi, narigi jiyanlari tomon yurdi, ulardan hol-ahvol so'radi va Qunduz bilan Savjini ergashtirib ichkari kirdi.

Dundarbekning duosi bilan boshlanib, yana uning duosi ila yakunlangan ovqat paytida hech gaplashishmadi. Undan keyin ham suhbatlashmadilar.

Vaqt xuftonga yaqinlashganda Dundarbek ketish uchun turdi. Uni uch og'a-ini birga kuzatib chiqishdi. Otga minayotganida yana sayislaridan oldin Usmon yordamlashib yubordi. U bo'lsa, Usmonga qaramay, otini niqtadi. Otining ustida tippa-tik o'tirar, harakatlari chaqqon edi. Yoshi yetmishga yaqinlashgandi. Lekin ellik-oltmish orasidagidek ko'rinardi. Qunduz uning orqasidan qarab qolarkan, ming'irladi:

— Xudo o‘zi insof bersin-da...

Usmon ham, Savji ham yaxshi tushunishdi. Birgalashib ichkari kirishdi. Yig‘ilganlar davrasiga iliqlik yugurdi. Jonqiz va Erto‘g‘rulbek g‘oziy faqat so‘zlarda emas, balki tuyg‘u va idroklarda hayotga qaytganday bo‘ldi.

* * *

Boyxo‘ja otasi Savjiga tushuntirishga urinardi:

— Menga kichkinasan, deysiz. Lekin buvam sizni Ko‘nyo sultoniga elchi qilib yuborganda... haligi Qunduz amakim aytdilar, siz hali mening yoshimda, ekansiz.

Oytug‘di bilan Boyxo‘jadan boshqa hamma kulib yubordi. Savjibek jiddiy bir qiyofada e’tiroz bildirdi:

— Yo‘q, — dedi. — Akam adashdi. Men o‘shanda o‘n besh yoshda edim.

— Otajon, — dedi Oytug‘di. — Siz amakim... Savjibekdan uch yosh kattasiz. Sultonga sizni yuborish o‘rniga, nega u kishini yuborishgan?

— Hoy bolam, og‘ir savolni berding-ku, — dedi Qunduz. — Demak, izzat-nafsingga tegib ketibdi-da. Lekin rostini aytish kerak bo‘lgani uchun aytayapman bu gapni. Buvang, Alloh rahmatini, Muhammad Mustafo shafoatini kam qilmasin, Erto‘g‘rulbek g‘oziy Savji amaking tug‘ilgach menga, Usmon amaking tug‘ilgach esa Savji amakingga e’tibor bermay qo‘yganlar, shundan...

Shunda Boyxo‘ja xuddi Usmon amakisi singari cho‘kkalab o‘tirib oldi:

— Yo‘q, — dedi u. — Men bilaman, shundanki, kiyik ovlagan kunim buvam Erto‘g‘rulbek g‘oziy menga, ilohim joylari jannatda bo‘lsin, keksa buvim Hayma Jonqiz va akam Oytug‘di oldida aytgan edilar: Qunduz o‘g‘limga ishonaman; Savji o‘g‘limga ishonaman; ammo nabiralarim Usmonjon o‘g‘limga o‘xshashlarini tilayman, deb...

— Ey mening lochin ko‘zli jiyanim; buni men ham bilaman. O‘sha gapni menga ayni bek bo‘lganim kuni ham aytgan edilar. Shunday degan edi, rahmatli. Akalaringga ishonaman. Sen ham ishon ularga va maslahatlariga quloq sol, gaplarini tingla: Qayi qav-

mining ko'chish, bozor va mol-mulk ishlarini Savji akangga; turmush tarzini boshqarishni Qunduz akangga topshir, degan edilar. Ko'rib turganingday, men shu vasiyatga amal qilayapman.

Boshini onasi Oyna Malakning tizzalariga qo'yganicha yirik-yirik shahlo ko'zlarini u gapiruvchidan bu gapiruvchiga o'tkazib, gapga quloq solib turgan Bonu Chechak kulib yubordi:

— Bu qanaqa beklik o'zi, kichkina amakijon, bek buvam unvonini aynan sizga qoldirdi?

Boshqalar kulayotgan paytda Oyna Malak qiziga paqillatib tushirib qoldi. Akasi Boyxo'ja esa chinakam akalarday gap qotdi:

— Usmonbek amakim g'azovot uchun, bilib qo'y...

G'azovotga alohida ahamiyat berishi, eng ko'p xohlagan narsasi Usmonbekka o'xshash bo'lgan bu yigitchaning uning yonida mas'uliyatli bo'lishga intilishi, xatti-harakatidan shundoqqina sezilib turardi. Buni hammasi yaxshi tushunib turardi.

Shundan keyin Qunduz bilan Savji buyuk ko'chish jarayonida qilingan ishlar, yuz bergan voqealar, jang-u jadallar xususida bir-birini to'ldirib gapirib berdilar. Usmonning tug'ilishini, onalari Jonqizning qo'lida emizikli bola, palaxmon bilan bir kofirni qanday urib yiqitganini esladilar. Oltmish yoshida ham qilich chopib, yoy tortgan buvalari, uning boshqa beklar bilan olib borgan tortishuvlari, buvalarining safdoshlari va o'sha tortishuvlarda katta yordami tekkan darveshlar, abdallar[1] haqida hikoya qilib berdilar. Bu xotiralarni Usmonbek oldin ham eshitgan bo'lishiga qaramay, alohida diqqat bilan tingladi.

Yig'ilish so'nggida Gulishiq baji Tangri nomiga shukronalar o'qidi, bu fotiha-duolarga Bonu Chechakdan tortib hamma qo'shildi.

[1] **Abdal** — Onado'li (Turkiya)da yashagan urug'lardan birining nomi.

2006-YIL 6-SON DAVOMI

TARIK BUG'RA

Usmonbek qurdirgan masjid bir necha kungacha namoz uchun ochib qo'yilmoqchi edi. Hovlisidagi suv jo'mraqlari, o'tqazilgan nihollar va mehmonlar uchun hujralari bilan masjid juda hashamatli edi.

Usmonbek hamrohlariga:

— Birinchi namozni juma kuni o'qiymiz, — degan edi.

Payshanba kuni tushlik oldidan Bijan Abdal yonida uch nafar yordamchisi bilan So'g'udga kelib, Usmonbekka:

— Hoy Usmonbek, Qulajahisorning javobini olib keldik, — dedi.

— Men ham shuni kutayotgandim, — dedi Usmonbek ham shirin tabassum bilan. — Shubham yo'q edi.

G'altaqlarning o'rnatilishi, Go'kcha baji eshdirgan arqonlarning ulardan o'tkazilib tortilishi va pishanglar o'rnatilib, keyin yettita qandil osilgunga qadar kech kirdi.

Hamma ish bitgach, Usmonbek Oyqut Alp bilan g'ozi Rahmonga:

— Bijan Abdal va hamrohlarini mehmon qilinglar, izzat-ikrom ko'rsatinglar, — dedi. — Ertaga namozda birga bo'lamiz.

Jo'nab ketish oldidan esa G'ozi Rahmonni chetga tortdi:

— Rahmon, ummatni juma namoziga sen chorla. Azon aytishga chiroyli ovozlardan top. Ovozi yaxshi hofizlardan bo'lgani ma'qul.

* * *

Chindan ham G'ozi Rahmon azonni o'zining o'ta go'zal ovozi bilan yoqimli va chiroyli qilib o'qidi. O'qiganda ham butunlay boshqacha bir maqomda o'qidi. So'g'ud butunlay o'zgarganday bo'ldi. Bo'y yetgan yigitlar va o'smirlar, Oytug'di va Boyxo'ja-

ning tengqurlari jiddiy qiyofaga kirdilar, yanada sipo bo'lib qoldilar. Ular yangi bir muhitga kirib qolganday bo'ldilar.

Usmonbek juma namoziga So'g'udga yaqinroqda yashovchi Qora Guna bilan Ertug'mish beklarni ham chaqirgan edi. Ertug'mishning yonida hamma havas bilan qarayotgan Qiyan Saljuq ham bor edi. Ertug'mish uni Usmonbekka tanishtirarkan:

— Usmonbek, men maqtagan o'g'lim Qiyan Saljuq mana shu bo'ladi, — dedi. — Yigirma yoshga to'lishi bilan amringga hoziru nozir bo'lish niyatida.

Usmonbek bilan Qiyan Saljuq bir-biriga tikilib qolishdi. Ikkalasining ko'zlari ham chaqnab turardi. Oralarida to'rt yosh chamasi farq bor edi. Qiyan Saljuq uning qo'lini o'pti.

Usmonbek ham uning bo'ynidan o'pib qo'ydi.

Ularni kuzatib turganlarning ishonchlari yanada ortdi.

* * *

Somsa chovush bilan ukasi Sulamish va ularga ergashib kelgan elliktacha otliq namoz boshlanishiga zo'rg'a ulgurishdi. Savji vaziyatga qarab, odamlar yuborib uylaridan bo'yra, sholchalar olib chiqtirgandi. Ular masjidning hovlisiga va daryoga qarab cho'zilgan maydonga joy qilishdi.

Masjidning ichi allaqachon to'lib bo'lgandi. Usmonbek mehmonlari bilan birga hovlida saf tortdi.

Dursun Faqi boshchiligida juma namozi o'qib bo'lingach, Usmonbek jiyanlarini yoniga chaqirib, Qiyan Saljuqqa tanishtirdi:

— Bek birodarim Ertug'mish va Alqauyliklarning faxri Qiyan Satjuq! Bu opamning o'g'li Oq Temur, yoy tortish va qilich chopishning hadisini olgan; buni esa katta akam Qunduzbekning o'g'li Oytug'di bo'ladi. Ishonchimizni qozonmoqda. Bular g'azovot yoshida; sening amringda bo'lishlarini istayman. Qiyan Saljuq oldin Oq Temurni, keyin Oytug'dini bag'riga bosdi.

Usmonbek uch qadamcha orqaroqda, chap tomonda boshini ham qilib turgan Boyxo'jaga qaradi. Bir oz jim qoldi. Keyin jushqin ovozda dedi:

— Ey ko'zimning nuri, o'g'lim O'rxonga otaliqni ishonib topshirmoqchi bo'lgan jiyanim Boyxo'ja, senga amrim shunday:

bo‘yningni sira bukma, boshingni hamisha baland ko‘tarib yur, har nima bo‘lganda ham yulduz ko‘zlaringni erga qadama; niyating nafsingda emas, aqlingga bo‘ysunsin. ulug‘lar nasihatigaergashsin.

Boyxo‘ja boshini baland ko‘tardi.

Usmonbek davom etdi:

— Endi yaxshilab tingla, seni ham qilich berib, Qiyan Saljuq ixtiyoriga bermoqchi edim. Lekin qarasam, orzularing hali havoyiga o‘xshaydi. Bu tuyg‘ular tutqich bermas toyga o‘xshaydi. Senga G‘ozi Rahmon ustozlik qilishi kerak.

Boyxo‘ja yig‘lab yubordi. Lekin amakisi Usmonbekka tik qaradi. Dadil yurib oldiga bordi. Burro-burro gapirdi:

— Ey mening bek amakijonim. Menga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatdingiz. Meni kechiring. Ruxsat eting, qo‘lingizni o‘pay.

Usmonbek jiyaniga qo‘lini uzatdi...

Shundan keyin Somsa chovush Usmonbek bilan yolg‘iz qolish istagida ekanini aytdi.

— Usmonbek, — dedi ular yolg‘iz qolishgach, — Inago‘l hokimi va Javdarning bizlarga zarari ortib borayotibdi. Men va ukam Sulamish, agar izn bersang, elatimizni olib Mudo‘rni atrofiga ko‘chib o‘tsak deyapmiz. Sen nima deysan?

Usmonbek Somsa chovush qo‘lini ushladi, ko‘zlariga qaradi:

— Otam Erto‘g‘rulbek g‘oziy yo‘ldoshi Somsa chovushim, hamon ot choptirib, yoy tortib, qilich chopuvchi Somsa chovushim; ota o‘rnida ko‘ruvchi Somsa chovushim; men sabr ila bardoshning ham g‘azovot ekanini otamdan, uning do‘stlaridan va sizdan o‘rgangan edim. Yana ozgina sabr, bir ozgina bardosh qilinglar, demoqchiman.

Somsa chovush bosh egdi. Usmonbek gapida davom etdi:

— O‘ching olinadi, Somsa chovushim. Sizga ziyon yetkazganlar jazosini oladilar. Ming pushaymon yeydi ular hali... Buni sizga, men, Qayi begi Usmonbek aytayapman...Usmonbek jim yurar, uzoq o‘yga tolardi. O‘ylarini har kimga ham aytavermasdi. Lekin u baxtli edi. O‘rxonning beshigi yonida o‘tirgan onlaruni chinakam baxtiyorlik chulg‘ardi. U kuniga kamida besh marta beshik yoniga tiz cho‘kardi. Agar O‘rxon uxlayotgan bo‘lsa o‘zi yasagan beshikni erkalardi. Beshik ustidagi yopinchiqlarni Malhun Xotun

tikkan edi. Ularni silab erkalarkan, sevgili yori Malhun Xotunni erkalaganday bo'lardi. O'rxon uyg'oq bo'lsa, uni erkalab ovunardi. Bunday paytlarda Malhun Xotun Usmonbekdan orqaroqda o'tirib, o'lib tomosha qilardi. Ba'zan esa chidab turolmas, yoniga kelib, erining sochini silar, go'yo ikkinchi o'g'lini erkalagandek bo'lardi. Shunda Usmonbek unga o'girilar, jilmayardi. Ular bir jon, bir tandek bo'lib ketar, chinakam baxtiyor onlarni his etishardi. Bir kuni nabirasini ko'rgani kelgan Yulduz Xotun O'rxonni emizayotgan qizini quchoqlab: "O'zi chiroyli eding, qizim, endi yanada ochilib, go'zal bo'lib ketding", degandi. Endi Usmonbek bu gapni yoriga takror-takror, boshqacharoq qilib aytar, silab-siypalardi.

* * *

Ayni kunlarda Usmonbekning ko'zlari yo'lda, xabarlar kutayotgandi. Inago'ldan, Javdardan xabarlar kutardi. Qorajahisordan, Qulajahisordan darakchilar kelishi kerak edi. U Do'durg'adan, Bayotdan, hatto bek o'g'li yonida bo'lgan Alqauydan xabar kutardi.

Darakchilarni, ular olib kelayotgan xabarlarni juda oz odamgina bilardi. Usmonbekning bu xabarlardan qaysi azmi qarori uchun qanday foydalanishini o'zidan boshqa hech kim bilmasdi. Qaror qabul qilingach esa, bir necha kishigina xabardor bo'lardi.

Keyingi kelgan xabarlardan bittasi Mixail Kossesdan edi. U shundaydegandi:

"Sen Javdarga xabar yuboribsan, shamoldayin esma, sel kabi yo'llarni kesma, qishloq va bozorlarni bosma; haq yo'liga kir, bundan foydalisi yo'q, debsan. U ham senga rozilik bildirganday bo'libdi. Ishonma. Chunki Inago'l hokimiga odam yuborib, qayerni bosishini istaysan, deb so'rattiribdi. Agar eshitganim rost bo'lsa, besh kundan keyin Yog'lining bozorini bosarmish. Ogoh bo'l".

Yog'li bozoriga ko'proq rumlar keladi. Lekin So'g'uddan hamda Alqauydan bu bozorga keluvchilar ham oz emas. Rumlarning ko'pchiligi aslida Bilajik viloyatida yashaydilar.

* * *

Usmonbek bosqindan bir kun oldin xuftondan keyin o‘z jo‘ralari, otasi Erto‘g‘rulbek g‘oziyning safdoshlari va amakisi Dundarbekni otasining uyiga yig‘di, ularga ahvolni tushuntirdi. Narigi beklardan izn olganini, bir qarorga kelganini ham ularga bayon qildi. Keyin so‘radi:

— Sizlar nimadeysizlar? Sizlar otam rahmatli Erto‘g‘rulbek g‘oziyning harb va zarb ko‘rgan mard safdoshlarisiz. Xo‘sh, nima deysizlar?

Kattakon dasturxon tevaragida o‘n besh kishicha bor edi. Ularning hammasi Usmonbekning fikrini ma’qul ko‘rishgani sezilib turardi. Chunki shayx Mahmuddan boshlab baravariga:

— Ma’qul, — deyishgandi.

Jim qolgan faqat Dundarbek bo‘ldi.

Hamma o‘girilib, unga qaradi. Usmonbek ham unga qarab turardi, so‘radi:

— Otam o‘rnida bo‘lgan Dundarbek amakim nega jimlar?

Dundarbek bir nuqtaga tiqilgancha turardi. Bir zamon jim turgandan keyin gapirdi:

— Bizga ko‘p narsa deyapsan, mening bek jiyanim. Ko‘p narsani bilar ekansan.

Lekin hammasini endi gapiryapsan. Aytishingning nima kerakgi bor? Bularni ham aytmaganing, bilganingni qilganing ma’qul edi. Oqibatini o‘ylab, endi o‘zingga sherik qidiryapsanmi?

Usmonbek tizzalari ustiga cho‘kdi. Burun kataklari kengaydi:

— Amaki, amakijon, amaki, — dedi. U juda bosiqlik bilan gapirdi. Jahlini bosish uchun harakat qilayotgani sezilib turardi. Qo‘lingizni o‘pay, amakijon. Ayting, qo‘yingizni boqay, o‘tiningizni yorib beray, amakijon. Lekin, qo‘yib bering, bekligimga begonalar tosh otsin, toki o‘z bekligimni himoya qilish qiyin bo‘lmasin. Men bu yerda aql so‘rayapman, yanglishgan bo‘lsam to‘g‘risini aytishlaringni istayapman.

Uchta devorga ilingan uchta chiroqning yorug‘i go‘yo unda to‘plangan edi, boshqalar esa qorong‘ida turib, yolg‘iz uni ko‘rish va tinglash uchun kelishganday edi.

Usmonbek nafasini rostlab, so'zila davom etdi:

— Men bu yerda birovni koyimoqchi emasman, hech kimga minnat qilish niyatim ham yo'q...

U bir oz jim qoldi va birdan boshini o'girib chaqirdi:

— Hoy, Rahmon!

Rahmon uning yaqinila o'tirgan edi:

Eshitaman, bek! — dedi.

— Darrov otlan, Qulajahisorga borib ayt, O'ruz darvesh kun chiqishigacha ellik nafar otliq tayyorlasin: Qaldiriq darasida, ko'prikning berigi tomonida meni kutib tursin.

Keyin qarshi divanda o'tirgan obro'li meg'monlariga qarab dedi:

— Otam Erto'g'rulbek g'oziyning safdoshlari, menga ishing to'g'ri deb dalda berayotgan ulug'larim: Do'durg'a begi Qora Gunadan ham otliqlar so'rashni o'ylab turibman. Uchta bo'ladimi, beshta bo'ladimi, mayli, o'zi bilan birga. Ammo Javdarga qarshi biz bilan bo'lishi, biz bilan birga ekanini ko'rsatishi lozim. Unga xabar qilish uchun bir tengquri kerak bo'ladi. Nima deysizlar?

— Rost aytayapsan, — deyishdi hammasi.

Bu g'ozilikka yarim og'izda bo'lsa-da, Dundarbek ham qo'shilgan edi.

— Bu xizmatni kim eplaydi? — deb so'radi.

Qora Mursal:

— Qora Guna bekning Somsaga ixlosi baland, — dedi.

Usmonbek Somsa chovushga qaradi.

— Men boraqolay, — dedi Somsa chovush.

— Otamning aziz yo'ldoshlari, — dedi Usmonbek, — borishdan oldin menga va safdoshlarimga haqqingizni halol qilib ketishlaringizni tilayman. Bu —g'azovot, axir. Ertaga Yog'lida qoladiganlarimiz, qaytmaydiganlarimiz bo'ladi.

Eng keksalardan bo'lgan Hasan Alp:

— Haqqimiz halol, — degach, qo'shib qo'ydi: — Sizning va safdoshlaringizning ko'ngliga ozor berib yanglishgan bo'lsak, kechirgaysizlar.

Usmonbek boshini egib javob qaytardi:

— Ko'nglimiz aytganlaringizdan obod bo'ldi, ko'zimiz qilganlaringizdan ravshanlashdi. Allox sizlardan g'ozi bo'lsin.

Dastlab Erto‘g‘rulbek g‘oziy safdoshlarini kuzatishdi. Usmonbek va uning yo‘ldoshlari keksalarning qo‘llarini bir-bir o‘pib xayrlashdilar. Dundarbekbu xayrlashuvda ham boshqalardek iliq va samimiy bo‘lolmadi. Qiliqlari zo‘rma-zo‘raki ekanligi sezilib turardi.

Ular ketgach, Oqcha Xo‘ja:

— Amaking Dundarbek sening bekligingni ko‘tarolmayapti, shekilli,— dedi.

* * *

Mixail Kossesning xabari to‘g‘ri chiqdi. Javdarning ikki yuzgacha suvoriysi tushlikka yaqin Yog‘li bozorining janubi-sharqidagi keng adirni oshib, na’ralar tortgancha, qilichlar o‘ynatib, bostirib kela boshladilar. Xuddi shu paytning o‘zida adirning ikki chekkasidagi ikki vodiydan Usmonbekning otliqlari hujumga o‘tdilar. O‘ng qanotning boshida Usmonbek, chap qanotni esa O‘ruz darvesh boshlab kelardi. Olishuv uzoq davom etmadi. Aniqrog‘i, Usmonbek suvoriylari shoshganicha ot boshini burib qochaboshlagan Javdarjangarilaridan faqat yetib olganlarinigina yer tishlatishdi.

— Qo‘ymanglar, yigitlarim, — deya hayqirdi Usmonbek, — o‘z yerlarida uringlar!

Qochayotganlar izidan tushishdi, orqalaridan o‘q uchirishdi, bir nechtasini otidan qulatishdi. Qutulib ketganlar esa qishloqqa kirmay, o‘rmonga qochishdi.

Usmonbek quvlayotganlarni to‘xtatdi. Yengil yaralanganlaridan besh kishini olib keltirdi, oldida saf torttirdi; U Ol-Ishiq ustida qilichini yalang‘ochlab olgandi:

— Hey, — deya baqirdi, ko‘zlaridan o‘t chaqnab. Burnidan nafas olar, beshovlonga birdaniga qilich soladiganga o‘xshardi. Shunday vajohat bilan gapirdi:Boringlar, o‘sha dinu imonni bilmaydigan haq-huquqlarini tanimaydigan, qasamxo‘r, marddan qochgan nomard Javdar o‘g‘liga aytinglar: u gapining ustidan chiqmadi, u bizlarga emas, kofirga yon bosdi; men Qayi begi, Erto‘g‘rulbek g‘oziyning o‘g‘li Usmon, aytamanki, har bir hujumini barbod qilish mening bo‘ynimdagi qarz. Aytinglar unga, qo‘limga

tusha ko'rmasin. Agar tushib qolsa, rahm-shafqat so'rab, omonlik tilamasin.

Keyin qilichini qiniga soldi-da, Ol-Ishiqning boshini burib, O'ruz derveshga:

— Hayda bu itlarni, — dedi.

O'ruz ham ularni otlariga teskari o'tqazib, haydab yubordi.

* * *

Bozor ahli bir o'q otimi masofasi uzoqligidagi yonboshdan na'ra tortib kelayotganlarni ko'rib, ularning Javdar sarbozlari ekanini tushunib vahimada otliqlarga ko'zlari tushdi. Shunda qiziqish qo'rquvni yengdi-yu, olishuvni kuzata boshlashdi.

Bozorning to'rt tomonidan kelgan boshqa sarbozlar ham qo'rqib qocha boshlaganlarni to'xtatishdi:

— Hoy, qo'rqmanglar, — dedi otliqlar, — Usmonbek sizlarni himoya qiladi.

Qiyan Saljuq boshchiligidagi bu sarbozlar orasida Usmonbekning ilk da'fa qilich yalang'ochlab jangga kirgan jiyanlari Oq Temur va Oytug'di ham bor edi. Ularni bozorchilar iliq kutib olishdi.

Yarim soatlardan keyin Usmonbek ham bozorga kirib keldi. Usmonbek ham, uning barcha yigitlari ham qilichlarini yalang'ochlab olishgandi.

— Sizlarga, men, Qayi begi, Erto'g'rulbek g'oziy o'g'li Usmon aytayapman, — deya boshladi Usmonbek so'zini. — Oladiganlaringni olib, sotadiganlaringni sotinglar. Ishdan qolmanglar, tinch va xotirjam bo'linglar. Sizlarning ustlaringizga bostirib keluvchilar endi Qayi qavmiga va uning birodarlariga qarshi borayapmiz deb hisoblaydi. Ular avvalo Qayita va uning birodarlariga duch keladilar. Xoh Do'durg'a yigitlari, xoh Bayot yigitlari, xoh Alqauy yigitlari bo'lsin, bundan buyon hamisha shunday bo'ladi...

U shunday deb Ol-Ishiqni choptirib ketdi. Bozor ahli Usmonbek va uning sarbozlarini kuzatib qolishdi.

* * *

Bu xabar tez kunda butun atrofga yoyildi va natijasi Usmonbek o'ylaganidan ham ziyoda bo'ldi.

Eng avvalo, hamma narsadan muhimi butun atrofdagi Rum qishloqlarining aholini qo'shni turklarga yaqinlik his qila boshladilar. Usmonbek va Qayi qavmiga bo'lgan ehtirom va olqishlar kundan-kunga yoyilib, butun viloyatlarni qamrab borardi.

Buyoqda Bilajik hokimi Usmonbekdan xabar olib borgan Oq Temurga:

— Bo'lgan voqealarni men ham eshitdim, — dedi. Usmonning bozorda aytganlaridan ham xabarim bor. Xursandman.

—Qayi begi Usmonbek sizga uchqur Javdar arg'umog'i va o'tkir qilichini arg'umon qilib yubordi, — dedi Oq Temur. — Qayi begi Usmonbek Javdarni bosdim va yana dodini beraman, bozor bizlar uchun ochiqmi? — deb so'radilar.

— Qayi begi Umonbek biz bu haqda gaplashgandik, dedi.

Hokim ham tilga kirdi:

— Bozor Usmonbekning do'stlari uchun hamisha ochiq...

Uning istar-istamasdan gapirayotgani sezilib turardi. Lekin bergan so'zidan qaytolmasdi. U Oq Temur orqali Usmonbekka ikki kumush qadah va yana birdona kumush ko'za berib yubordi.

Usmonbekning bu xatti-harakati qo'shni viloyatlarda yaxshi kutib olindi. Unga bo'lgan e'tibor va izzat-ikrom orta bordi.

Usmonbekning o'ziga kelsak, O'rxonni suyish, erkalash bilan band edi. Malhun Xotunga yanada iliq muomala qilar, u bilan gaplashib, ko'ngil yozishga ko'proq vaqt topardi.

Bu orada Qo'nur Alp bir o'g'il ko'rgandi. U Usmonbekka:

— Onasi ham, men ham ismini sen qo'yishingni istaymiz, - dedi.

Tavalludning qirqinchi kuni Usmonbek yoniga Malhun Xotun va u tayyorlagan sovg'a-salomlarni hamda O'rxonni olib Qo'nur Alpning uyiga jo'nadi.

Fevral oyining oxirlarida oftob charaqlab turgan bir kun edi. Bog'dagi bodom daraxti gulga kirgandi. Usmonbek unga qarab hayron bo'ldi-yu, otasining do'sti Oyqut Alp va uning bodom nihollarini esladi: onasining quchog'idagi O'rxonga jilmayib qo'ydi.

Bog' eshigining oldiga qo'ni-qo'shnilar yig'ilishgandi. Ular Usmonbek, Malhun Xotun va O'rxon sha'niga maqtov so'zlar aytishdi, duolar qilishdi. Ammo Qo'nur Alpning zavjasi — go'zallar

go‘zali, ismi jismiga monand Chigdamqizning ovozi hammasini bosib ketdi; u o‘g‘lini boshi uzra ko‘tarib, o‘n qadamcha naridan qichkirdi:

— Hoy, Usmonbek, O‘rxonga jo‘ra olib keldik.

Kutib oluvchilar orasida Dursun Faqi ham bor edi. Fotihani u berishi kerak edi.

Ayvonda to‘planishdi. Marosim o‘sha zahoti boshlandi.

— Ismi Ali bo‘lsin, — dedi Usmonbek. — Ismiga mos yigit bo‘lsin. Qoramag‘iz, bug‘doyrang yigit bo‘ladiganga o‘xshaydi. Boshqa Alilardan ajralibturishi uchun Qora Ali deb ataymiz. Peshanasi doim oq bo‘lsin. Onasining, otasining nomiga, o‘z nomiga qora dog‘ tushirmasin. Tangri baxt ato qilsin.

Bu orada uning ko‘zi Sungur va uning yonida o‘tirgan rafiqasi Mehribonga tushib qolgandi. Ikkalasi ham qayg‘uli edi. Mehribon yig‘lamsirab turardi. Bir yoshga to‘lay degan nogiron o‘g‘li quchog‘ida edi. Unga qarab turardi. Yoy tortaolmaydigan, qilich chopa olmaydigan edi bolakay. Holbuki, ismini Usmon qo‘yishgandi.

Mehmonlar kuzatib qo‘yilarkan, Usmonbek Malhun Xotunga:

Sen boravergin, — dedi.

O‘zi bo‘lsa tez-tez yurib, Sungur bilan Mehribonga yetib oldi.

— Hoy, Sungur, bunchalar qayoqqa shoshayapsan? — dedi.

Er-xotin to‘xtashdi, o‘girilib unga qarashdi. Ikkalasi ham xafa, zo‘raki jilmayishdi.

— Eshitaman amringni, bek, — dedi Sungur.

Usmonbek ham kulimsiradi. Chin dildan edi uning tabassumi. Gapi ham shunga yarasha bo‘ldi.

— Bunaqa kunda qanday amr bo‘lishi mumkin? Agar buyur desang, adashimni erkalashni istayman. Qani, menga ber-chi, Mehribon baji.

U bolani qo‘liga oldi, ko‘zlariga qaradi:

Qarashlaring muncha aqlli, Usmon? — dedi.

Keyin go‘dakni boshi uzra baland ko‘tardi. Unga o‘g‘li O‘rxonga qarayotgandek, O‘rxonga kulayotgandek, O‘rxonga gapirayotgandek edi. Bor vujudi bilan quvonib:

— Seni bergan Tangriga shukur, — dedi.

Pastga tushirib bo'ynidan o'pdi. Go'dak shirin-shirin jilmaydi, shirin-shirin ovoz chiqardi.

Usmonbek uni onasiga qaytarib berarkan, ovozini yanada ko'tarib dedi:

— O'g'lingga yaxshilab qara, Mehribon baji. Mana, men aytayapman. O'g'ling foydali kishi bo'ladi. U hali maqtovlarga, olqishlarga sazovor bo'ladi, ko'rasizlar.

Keyin Sungurning qo'lidan ushladi.

Mehribon oldinda, ular esa bir necha oqsoqol bilan yonma-yon yurib borardilar. Usmonbek Sungurning qo'lini qo'yib yubormagan holda dona-dona gapirdi.

— Seni va onasini g'amgin ko'rayapman.

Usmon qilich chopolmaydi yoki jangga kirolmaydi deb g'am chekishlaring behuda. Qayiga qilichbozlar kerak. Qayiga ot yeldiruvchilar ham kerak. Qayiga ko'prik soluvchilar kerak. Qayiga bilimdon odamlar ham kerak. Senga misoltariqasida aytayapman. Bitta Ada Boli beshta Usmondan yaxshiroq. Beshta Usmondan bittasi yo Ada Boli, yo Bijan darvesh, yoki Hasan binokor bo'lishi lozim. Qayiga shunaqalar kerak. Sungurlarning uyiga yetib kelishgandi. Mehribon eshikni itarib ocharkan, bir oyog'i ichkarida, orqasiga qayrildi. Faqat ko'zlarigina emas, butun yuzi nur sochardi.

— Ertaga Usmonning tishyordi marosimini qilmokchimiz, — dedi. — Malhun Xotun singlim va O'rxonni birga olib kelsangiz yaxshi bo'lardi.

Usmonbek adashini yana erkalab suydi.

...Qayiga ot yeldiruvchilar kerak. Qayiga qilich chopuvchilar kerak. Qayiga ko'prik soluvchilar kerak. Qayiga o'ylar quruvchilar ham kerak. Qayiga bilimdonlar, albatta, kerak. Usmonbek Foziy shunday dedi. Juda to'g'ri aytdi.

BODOM NIHOLLARIDAN BIRI

Oqcha Xo'ja uylandi. So'g'udda to'y-tomosha. Atrofni qarsak, qiyqiriq tutib ketgan. Surnay va nog'aralar yeru ko'kni larzaga solayapti. So'g'udning narigi tomonidan maydonga qarab kelinni

olib kelayotganlar ko'rinib qoldi. Ular orasida o'zi bir boshqa, tuyasi yana boshqacha yasatilgan Asmaxon kelardi. Umingan tuyani ikki o'smir ukasi yetaklab olgandi. Ularning yonida Asmaxonning dugonalari kelardi. Orqadan esa, qo'shiq aytib, o'ynab-kulib qarindoshlari, oilasining yaqin do'stlari odimlardi.

Keng maydonning boshqa bir tomonidan ot o'ynatib kuyov navkarlar kelaboshladi. Otliqlarning oldida, chapda Usmonbek, o'ngda Oqcha Xo'ja kelardi. Ulardan o'n qadamcha orqada ikkita-ikkitadan bo'lib saf tortgancha yigitlar qilich o'ynatib kelar, ularning tig'ida quyosh aks etardi. Maydonga yetib kelgach, otlardan tushishdi. Orqadagilar yugurib otlarining jilovidan ushlashdi va arg'umoqlarni yetaklab ketishdi.

Keyin o'rtada Usmonbek bilan Oqcha Xo'ja, ikki qadamcha orqaroqda ikkovi chapda, ikkovi o'ngda —Fozi Rahmon, Sungur, Qo'nur Alp va Saltuq bilan oltovlon bo'lib maydonning o'rtasiga kelishdi. Kelinning tuyasini o'rab olishdi. Narigi tomon vakillari esa Oqcha Xo'jani yarim oy shaqlida o'rab, saf tortdilar.

Oqcha Xo'ja yelkasidan yoyini, sadog'idan esa o'qini oldi. Maydon atrofini o'rab olgan olomon ustidan to'rt tomonga ko'z yugurtirib chiqdi. Nihoyat, Inago'l yo'nalishiga qaradi. Kamonga o'qni joylab, tarang tortdi-da, qo'yib yubordi.

Maydon gurulladi, olqishlar yangradi. O'qni undan olisroqqa faqat ikkiki uchira olardi. Bular — Usmon va G'ozi Rahmon edilar.

O'q narigi tomonda odamlar ustidan oshib o'tib, bir chekkada gulga kirgan bodom daraxti yoniga borib sanchildi. Shundan keyin Oqcha Xo'ja to'dasidan uchta, qiz tomondan uchta — olti yigit kuyov bilan birgalikda borib o'sha yerda ikki xonali, to'rt ustunli qilib kuyov chodiri tikladilar. So'ngra Oqcha Xo'ja orqaga qaytdi. Asmaxonning tuyasi arqonini ukalari qo'lidan olib, uni o'z chodiri tomon yetakladi.

O'yin-kulgi avjida. To'yga kelganlarning biri qo'yib, biri olar. Oqcha Xo'ja bilan Asmaxonni maqtashardi.

Bonu Chechak Oqcha Xo'jani olqishlayotganlarga qo'shilib maqtadi, Asmaxon haqida esa:

— Uncha chiroyli emas, — dedi.

Lekin akasi Boyxo'ja bilan Amina unga e'tiroz bildirdilar.

— Undok demang bekbicha, — dedi Amina, — Sizdan keyin bu atrofda eng go'zal-ku!

Shu payt ularning yoniga bir xabarchi keldi:

— Amanking, begimiz Usmonbek g'oziy seni so'rayapti.

Boyxo'ja xabarchiga ergashdi. Usmonbek jiyanini kulimsirab kutib oldi.

Bag'riga bosdi, belidagi qilichini yechib unga tutdi.

— Ey, ko'zlarim nuri, kiyik ovlagan jiyanim Boyxo'ja, bu qilich menga usta Xasan Alining armug'oni. U men uchun juda aziz. Men senga juda ishonam va ushbuni senga topshiraman. Ko'plab g'azovotlarda qo'llashingni istayma. Haloling bo'lsin.

Qilichni o'z qo'li bilan jiyanining beliga bog'ladi. Keyin chaqirdi:

— Hoy Sungur, bu yigit otasining izni va mening rizom bilan bundan buyog'iga sening navkaring hisoblanadi.

* * *

To'ydan keyin Usmonbek o'yga toldi. Chunki aprelgacha havolar yurishib ketmadi. Ketma-ket yomg'ir yog'di, ayoz bo'ldi, yerlar muzladi. Rejalari orqaga surildi. Usmonbek asabiylasha boshladi. Unga hujum qilib qolishlari xavfi bor edi.

Akasi Qunduzga posbonlarni va tungi navbatchilarni ko'paytirishni tayinladi. Safdoshlarini ogohlantirib qo'ydi. So'ngra esa, nima bo'lsa bo'lsin, deb uch kundan keyin hujumga o'tishga qaror qildi. Darhol tayyorgarlikka kirishdi. Har bir bo'lukdan yigirmatadan usta kamonchi va qilichbozlardan ajratib oldi. Qolgan sarbozlarni Oqcha Xo'janing ixtiyoriga topshirdi. Agar o'zi qaytib kelmaydigan bo'lsa, to yangi bek saylangunga qadar Qayini himoya qilishni unga yukladi.

Buni yaxshilab tushuntirgandan keyin Oqcha Xo'jaga:

— Ey, mening o'zi, so'zi to'g'ri yigit birodarim; menga biror narsa bo'lsa, nima qilsang ham o'lkamiz beklari hamda qayin otam Ala Boli va akalarim Qunduzbek, Savjibeklar bilan maslahatlashib ish qil, — dedi.

So‘ngra Malhun Xotun bilan gaplashdi:

— Mening ko‘nglim ziyosi Zumrad Anqom, O‘rxon va qorningdagi bolam uchun borimda ham, yo‘g‘imda ham senga ishonaman. Menga biror kor-xol bo‘lsa, otang Ala Bolining uyiga bor, shunda O‘rxon yaxshi bek bo‘lib yetishgay. Endi esa menga haqqingni halolla, jondan shirin Malhunim.

Malhun Xotun o‘tirgan joydan turib, Usmonbek tizzalari yoniga cho‘kkaladi.Boshini ushlab turgan yirik va kuchli qo‘llarini ko‘z yoshi bilan ho‘l qildi.

— Ko‘z ochib ko‘rganim, ko‘ngil berib sevganim, — dedi Malhun Xotun. — O‘rxonimning va bag‘rimdagi bolaginamning otasi; nima desangiz hammasiga ko‘naman. Ajalim yetgunga qadar yo‘lingizni poylayman, yo‘qligingizni bilintirmayman, peshanamga yozilganidan or qilmayman, g‘amu kadar deb hisoblamayman. Allohning sizni yorlaqab, o‘zimizga qaytarishiga ishonaman...

* * *

Bosqin yasash uchun ertasi kun sahar payti yo‘lga chiqib, tong yorishmasdan oldinroq Inago‘l yoniga borishlari kerak edi. Qal’aning janubi-sharqdagi darvozasini ularga ochib beradigan beshta josus tayinlangandi.

Usmonbek payt poylashdan boshqa iloji yo‘q edi. Xuddi shu payt unga:— Ceni bitta rum ko‘rmoqchi ekan, — deyishdi.

— Olib kiringlar, — dedi Usmonbek.

Kelgan odamni u oldin ko‘rmagandi. U Mixaildan xabar olib kelganini aytdi. Hamishagi xabarchi emasdi, lekin yengidan bir xat chiqardi. Bu Usmonjonning Zoyaga bitgan maktubi edi. Uning ichida esa Mixail Kossesning uzugi bor edi.

— Qanday xabar olib kelding? — so‘radi bek.

Haligi kishi tushuntirdi:

— Siz ertaga saharda Inago‘lga bostirib bormoqchi ekansiz. Xo‘jayinim Mixail aytdiki, hokimning bundan xabari bor va sizlarga Armani belida pistirma tayyorlashyapti. Shuni bilib qo‘y...

Usmonbek bir muddat jim qoldi. Burun kataqlari kengayib, ko‘zlaridan o‘t chaqnardi. Qo‘li qilichi dastasida, hozir qinidan sug‘urib oladiganday... U bosiq ovozda dedi:

— Xabarni yuborgan ham, uni bizga yetkazgan ham omon bo'lsin. Biz yaxshilikni unutmaymiz. Yaxshilikka yaxshilik bilan javob beramiz. Xo'jayining yaxshibiladi, sen ham bilib qo'y. Buni hamma bilib qo'ysin. Mayli, yaxshi bor.

Keyin darvozadan tashqarida kutib turgan Oytug'dini chaqirdi:

— Hoy, Oytug'di jiyanim, bu odamni otang Qunduzbek akamga olib bor, hurmatini joyiga qo'yib, ko'nglini olsin. Keyin bu yoqqa bir kelib ketsin. Ha, bu gapni tag'in Savjibek amakingga hamda Oyqut Alp, Sungur, G'ozi Rahmon va Oqcha Xo'ja safdoshlarimga yetkaz, tezda kelishsin.

Oytug'di ketishidan sal o'tgach, Usmonbekka Aratun uni ko'rgani kelganini aytishdi. U ham xuddi shunday xabar olib kelgandi. Ayo Nikola Armani belida pistirma qurmoqchi ekan.

Akalari va safdoshlari Usmonbekni ko'p kuttirishmadi, darhol yetib kelishdi. Usmonbek vaziyatni tushuntirdi:

— Olgan xabarimiz shundan iboratki, takfur bizning niyatimizdan xabar topibdi va Armani belida bizga pistirma qo'ymoqchi ekan. Nima qilishimiz kerak?

Qunduz:

— Bek sensan, mas'uliyat senda, — dedi.

— Akamiz to'g'ri aytayapti, — dedi Savji.

Shunda Usmonbek:

— Sizlar-chi, jasur safdoshlarim, nima deysizlar? Yo sizlar ham mas'uliyatimizga sherik bo'lmoqchi emasmisizlar? — dedi.

Sungur oldinga chiqdi:

Ey, begim Usmon g'oziy, mas'uliyating bizning ham bo'ynimizda. Sen buyur, bizlar bajaraylik.

Boshqalar ham Sungurning gapini ma'qullashdi.

Usmonbek cho'k tushib, qaddini rostladi:

— E'zozli akalarim, birodarim deb bilgan yo'ldoshlarim, sizlarga aytmoqchimanki, pistirma bilmasa pistirma bo'ladi. Buning ustiga, pistirma ko'rganlar uni bilguvchilarga tayyor o'ljadir.

U o'rnidan turib, gapida davom etdi:

Nima qaror qilgan bo'lsak, bajaramiz. Yo'limizni qisqartirgan Allohga shukrlar bo'lsin.

Hammalari qad rostlashdi. — "Omin" deya qo'llarini yuzlariga tortishdi.

Sungur eshikdan chiqayotib to'xtadi. Usmon unga qaradi:

— Biror gaping bormi, Sungur? — deb so'radi.

— Ha, dedi Sungur. —Boyxo'jani menga omonat topshirganding, u g'azovotga qatnashishni istayapti.

Uning ovozi qat'iy edi.

Akasi Qunduzdan bir qadam orqada dahlizga chiqqan Savji bu gapni eshitib to'xtadi. Shu on Usmonbek javob qaytardi:

— Izn bermayman.

— Nega endi?

Bu savolni bergan Boyxo'janing otasi, Usmonbekning akasi Savji edi. Uning ovozi ham qat'iy edi. Xuddi shu tarzda qo'shimcha qildi:

— Xoy ukajon, g'azovot savobini jiyaningdan qizganyapsanmi? Jiyaning jasur yigit; buning ustiga, Sungur yo'ldoshing maqtoviga sazovor bo'lgan. G'azovotda uning ham haqqi bor.

Usmonbekning jahli chiqdi. Lekin o'zini bosdi. O'zini zo'rlab yumshoqroq gapirishga urindi:

— Mening e'zozli akajonim. Buyrug'ingiz bosh ustiga. Biroq jang-u jadalning turli hollari, kofirning turli nayranglari bo'ladi. Axir, Tangri taolo bizlarga hali ko'p g'azovotlar buyurgusidir.

Savjibekning ko'nadigan siyog'i yo'q edi:

— Har bir narsaning birinchisi, dastlabkisi bo'ladi. Birinchini ertaga qoldirish to'g'ri emas. Mana, akamiz Qunduz. Avvallari bunaqa ojiz emasdi. Kasalga chalinishidan oldin senga o'xshardi. Boyxo'ja aynan shunaqa. Otamiz Erto'g'rulbek g'oziy unga o'n besh yoshga to'lmasdan qilich berib jangga solgandi. Amakisi Usmonbek bu savobdan va bu sharafdan uni mahrum qilolmaydi. Bunisenta Boyxo'janing otasi, sening akang Savji — men aytayapman.

Usmonbek bosh egdi:

— Amringiz bosh ustiga, akajon.

— Yasha, ukajon, dedi Savjibek ham.

Ikki og'a-ini ketgach, Usmonbek Sungurni imladi:

— Boyxo'ja senga omonat, Sungurim. Shuni yaxshi bilib qo'yki, unga tekkan o'q menga sanchilgan, uni chopgan qilich meni jarohatlagan bo'ladi.

* * *

Ular yuz yetmish otliq edilar. Tong qorong'isida yo'lga chiqishdi. Bir soat chamasi yurishgach, bomdod namozini o'qish uchun to'xtashdi. Azonni G'ozi Rahmonaytdi. Baland ovoz bilan, Armani belidagilarga eshittirishni istagandekaytdi.

Yana yo'lga tushishdi. Otlarini uchirib borishardi. Hali tong yorishmagandi. Armani beliga bir o'q otish masofa qolganda, Usmonbekning amri bilan yigirma sarboz otidan tushdi va jonivorlarni tizginidan yetaklab yura boshlashdi. Qolganlar esa o'n beshyigirma ot bo'yi masofada qilichlarini yalang'ochlab orqadan kelishardi.

Keyin, tik vodiyning sarhadiga juda ham yaqinlashib borgach, piyodalar otlariga qamchi urib, ularni vodiyga qarab haydab yuborishdi. O'zlari qiyalikka yoyilishdi.

Bir necha ot kishnadi.

Vodiy yo'lagida hujum qilib kelayotgan Inago'l otliqlari ko'rindi. Ular baqirishib-chaqirishib bo'sh qo'yilgan otlar tomon uchishdi. Xuddi shu payt Usmonbek sarbozlari takbir aytishib, otlarini niqtashdi, hilol shaklida yoyilib, ularni o'rab olishdi.

Dastlab, hali nima bo'lganini anglab olmasdan burun, bittasi qichqirdi:

— Hoy, Qora Usmon, kuning bitdi!

Usmonbek ovozni taniganday bo'ldi. Yanglishmagandi, chunki haligi tovush sohibi maqtandi:

— Men Kalanozman, bildingmi?

Usmon tovush kelgan tomonga ot solarkan, baqirdi:

— Qani, bir ko'ray-chi, o'shamisan, yo'qmi?

Anchadan beri sharpalar aniq ko'rina boshlagandi. Endi tog' cho'qqilari pushtirang, osmon och moviy tus olgandi. Sakkiz, o'n qadam naridagilarning yuzini ajratsa bo'lardi.

Usmon ustiga ot solganlardan birini ilk hamladayoq qulatdi. Ikkinchisi yaxshigina qilichboz ekan, oti ham yaxshi tarbiya qilin-

gani bilinib turardi. Usmonni ancha ovora qildi. Uni ham qilichdan o'tkazganda atrof yorishib bo'lgandi. Endi qilichlarning sharaq-shurug'igina eshitilib qolmasdan, ularning yaltirashlari ko'zga tashlanardi.

Usmonning ko'ziga dastlab ko'ringan Sungur bo'ldi. U ancha narida, qiyalikning etagida, goh u yoqqa, goh bu yoqqa ot solar, qilich sermardi. Ko'ziga qon to'lgan, o'zini yo'qotgandek harakat qilardi.

— Hoy, Sungur, ko'zingga qara! — baqirdi Usmonbek.

Sungur eshitib, javob qaytardi:

— Men xushyorman. Usmonbek. Men o'g'lim Usmon uchun ham jang qilishim kerak, axir....

Uning jang qilishga qodir bo'lmagan o'g'li Usmon uchun qilich solayotgani bilinib turardi.

Usmonbek shu payt Boyxo'jani ko'rib qoldi. U yov ustiga ot solarkan:

— Men Usmonbekning jiyaniman, qani, bu yoqqa kel-chi, kofir!

Usmonbek aniq ko'rdi: Boyxo'ja baqirgancha ustiga ot solgan odam Kalanoz edi. U Kalanozning kulayotganini ko'rdi. Fanim otini yengil o'ynatgancha Boyxo'jani kutayotgandi.

Shunda Usmonbek Kalanozni dastlab, yo'lto'sarlar bilan olishuv paytida uchratganda qilichni qanday ishlatganini eslab qoldi. Usmonbek bir tomondan oldiga chiqqan g'animlarni urib ag'darib o'ziga yo'l ocharkan, ikkinchi tomondan eng baland ovozi bilan, lekin yalingandek baqirdi:

— Otni bur, otni orqaga bur. Boyxo'ja! Sungur, hoy Sungur! Boyxo'jaga yetib ol...

Uning o'zi yetib ololmayotgandi, yetolmasdi ham. Chunki yo'lini qilichlar to'sib turardi. U devordek g'ov bo'lib turgan bu qilichlarni birma-bir daf etib ulgurishi kerak edi.

Usmonbekning yo'lida duch kelganga qilich solib, Boyxo'ja tomon intilayotganini ko'rgan hujumchilardan biri vaziyatdan foydalanib qoldi. Usmonbek qilichiga chap berib, Ol-Ishiqning orqasiga o'tib oldi-da, cho'qmorini ko'tardi.

Buni ko'rib qolgan Abdulloh:

— Ehtiyot bo'ling, begim! — deb baqirdi va otini uzangi bilan niqtadi. Uning oti tikka turdi va bir sakrab qarshidagi otni sag'risi bilan urib uchirib yubordi. U ot yiqildi. Abdullohning arg'umogi esa o'rnida chir aylandi. Abdulloh muvozanatni yo'qotdi, ammo qo'lini ko'tarishga ulgurdi. Usmonbekka ko'tarilgan cho'qmor Abdullohning bilagiga urildi. Uning qo'li bilagi yuqorisidan bolta tekkan shoxdek osilib qoldi. Abdulloh endi qilich sermay olmasdi. Bu paytda Ol-Ishiq chapga burildi va Usmonning qilichi cho'qmor o'rgan sarbozning kallasini uchirib yubordi.

Abdullohning qichqirig'iga uch g'oziy yetib kelgan, Boyxo'ja uchun yo'l edi.

Nachora... peshana yozig'i shunday ekan.

Usmonbek ko'rdi:Kalanoz zaharxandalik bilan qo'lgancha unga qarata otini yeldek uchirib kelayotgan o'n to'rt bahorni endigina ko'rgan Boyxo'jaga chaqqonlik bilan chap berdi-da, yonidan o'tayotganida kula turib qilich soldi... Boyxo'ja endi yo'q edi.

Erto'g'rulbek g'oziyning nabirasi Boyxo'ja endi yo'q edi.

Savjibek bilan Oyna Malakning o'g'li endi yo'q edi.

Bonu chechak endi u siz edi. Aminaning qaylig'i endi yo'q edi.

Boyxo'ja g'oziy emas, shahid ketdi.

* * *

Ustlariga bostirib kelgan otlarning chavandozsiz ekanini ko'rib, Usmonbekning hiylasini sezib qolganlar Inago'l tomon qocha boshladi. Ularning bir qismi qiyalikka joylashgan sarbozlar o'qidan yer tishladi. Pistirmadan chiqib, Qayi otliqlari tomonidan orqaga qaytarilganlar esa, tezroq qochib qolish payida edilar. Qochib qolishni eplaganlar orasida Nikola bilan Kalanoz ham bor edi.

Ularni ta'qib qilishdan foyda yo'qligini Usmonbek fahmlagandi. U Boyxo'janing boshi uzra, ko'zlarini Armani belining hamon qorong'u chuqurliklariga qadagancha tik turardi. Shafaq endi yorishib kela boshlagandi.

— Qasam ichaman, — derdi u alam bilan, —qasam ichaman. O'rxonim va butun naslim uchun ont ichaman...

* * *

So‘g‘udga qaytishlari bilanoq. Usmonbek to‘g‘ri uyiga bordi va yoniga Malhun Xotun hamda O‘rxonni olib, akasi Qunduznikiga o‘tishdi. Mash’um xabarni unga ham aytib, Qunduz va Burla Xotun bilan birgalikda Savjibeklarnikiga borishdi. Savjibek bilan Oyna Malak ularni ko‘rgan zahoti gap nimadaligini tushunishdi.

Hech qanday gap aytilmadi. Oyna Malak Malhun Xotunni, Savjibek ukasini quchoqladi. Unsizgina bag‘riga bosishlar uzoq cho‘zilmadi. Malhun Xotun o‘g‘li O‘rxonni Oyna Malakka tutqazdi. Oyna Malak:

— Rahmat, Tangri sendan rozi bo‘lsin, — dedi va O‘rxonni o‘pib, bag‘riga bosdi-da, onasiga qaytarib berdi:

— Baxti kulsin.

Savjibek qo‘li bilan xonaga ishora qildi. Kirib, o‘tirishdi.

Savjibek Usmonga qarar, tanirishini kutarli. Usmonbek aytib berdi:

— Ko‘rib turgandim, shahid o‘g‘ling Boyxo‘ja sherday olishdi, bir kofirni qilichdan o‘tkazdi. Boshqa bittasi bilan savashib, qochishga majbur qildi.

Uning orqasidan esa... ismini bilaman, juda mashhur. Kalanoz deyishadi, otliq to‘daning sarkori, uning ustiga ot soldi. Boyxo‘ja qayoqdan bilsin, ro‘parasidagi oddiy jangchilardan deb o‘yladi, tikkasiga ot qo‘yib boraverdi. Kalanoz otini burib, ustdan berdi-da, orqasidan qilich soldi. Qichqirdim, eshittirolmadim. Xudoyim joyini jannatdan qilsin.

Boshini xam qilgan holda qo‘shimcha qildi.

— O‘chingni olmasam nomardman...

Savjibek ham zo‘rg‘a eshitiladigan tovushda:

— Ahding mening ham ahdimdir, ukajon, — dedi.

* * *

Osmon tiniq, quyosh qizdira boshlagandi. Daraxtlar gulga kirgan, novdalar yashilga burkangandi. Ammo masjid yonidagi bodom niholining erta ochgan pushti gullari qorayib qolgandi. Usmonbek g‘oziyning ko‘zi qovjiragan bodomgullariga tushib, Oyqut Alpni esladi.

— Aldanishdi, sho‘rliklar, — degandi o‘shanda Oyqut Alp.

— Esi yo‘q-da, ularning, —qo‘shib qo‘ygan edi Oq Temur. — Arzimagan quyosh nuriga aldanishadi, keyin qorda, ayozda qolib qovjirashadi...

Lekin Dursun faqini ko‘rib qolib dovdiradi:

— Noto‘g‘ri gapirgan bo‘lsam, kechiring...

— Gaplaring to‘g‘ri, — dedi Dursun Faqi. — Faqat, shuni ham unutmaslik kerakki, ular bahordan darak berishadi, biz kutgan bahordan elchidir ular...

Ular bahorni mujdalaydilar, bahor uchun suyunchi so‘raydilar. Bahor kelganidan darak berib o‘zlari halok bo‘ladilar. Mujdachilarga rahmat.

— Bobong Sulaymon Shohning ruhiga rahmat, Usmonjon, — dedi Dursun Faqi qovjiragan bodom gullariga qarab.

— Ruhingga rahmat, Boyxo‘ja, — dedi unga hamohang Usmonbek, — senga Allohning rahmati yog‘ilsin.

Boyxo‘janing shahid ketishi butun viloyatni larzaga soldi. Yolg‘iz Qayi qavmi yashayotgan joylardagina emas, butun atrofdagi er yetgan yigitlarda g‘azovot alangasini yondirdi. Bu ishtiyoq Boyxo‘janing urushish nimaligini bilmaydigan otasi Savjibekni va jang-u jadallarda qatnashish yoshidan o‘tgan hunarmandlarni, dehqonlar va darveshlarni ham qamrab oldi.

Endi Boyxo‘janing onasi Oyna Malak hamda uning yoshgina qayligi Amina qizning aytgan marsiyalari tog‘larda, qir-adirlarda, o‘ylarda, dastgoh boshlarida, bozor yo‘llarida kuylanardi. Ayni chog‘da Kalanoz va Ayo Nikolaga, Inago‘l bosqinchilariga la’natlar o‘qilib, Boyxo‘ja uchun o‘ch olishga ontlar ichilardi.

Bu orada Usmonbek g‘oziy Inago‘ldan xabarlar ola boshladi.

Ayo Nikola boshlagan harakatlar sababli bir kuni Adranos takfuri Bidnos, Qorajahisor takfuri Aleksius, Yorhisor takfuri Dukas, Ko‘pruhisor takfuri Fileratos Inago‘lga kelishdi. Yig‘ilishning sababi — go‘yo Nikolaning qizi uchun o‘tkazilayotgan nikoh marosimi edi. Aslida esa, turklar yaylovga ko‘chib chiqadigan kuni Nikola So‘g‘udga qiladigan hujumi uchun bir bitimga erishib, yordam so‘rash niyatida edi.

Xullas, ziyofat tugashi bilan Nikola mehmon takfurlarni xonasiga taklif qilib, darhol maqsadga ko'chdi:

— Nega qarab turibsizlar, axir? Qora Usmon degan bu turk kun o'tgansayin kuch-quvvat to'plab, boyib bormoqda. Mana, Qulajahisorni oldi. Hisorlarimizdan olis qishloqlardan ba'zilarini qo'lga kiritdi. Nafsi kundan kun hakalak otib borayapti. Agar vaqtida xabar olmasam bormi, Inago'lni ham bosib olgan bo'lardi. Bugun menga, ertaga nufuzli Fileratos yoki qahramon Aleksius, senga hujum qiladi. Oxir-oqibatda yurtimiz qo'ldan ketadi. Biz aqlimizni yig'ib, uni bu o'lkadan chiqarib yubormasak yoxud qirib tashlamasak, keyin pushaymon bo'lamiz. Bu ishni cho'zib yuborsak ham bo'lmaydi. Chunki turk faqat kuch-quvvat to'plabgina qolmayotir. U borgan sari obro' e'tibor qozonmoqda. Boshqa turklarni ham to'plamoqda. U hozirdanoq bir ko'chmanchi elatdan beshtaga ko'paydi. Bizlar bilan inoq yashab kelayotgan turklarni o'ziga qaratib, yoniga oldi. Bizning qishloqlarimizdan, rohiblarimizdan ham unga ehtirom ko'rsatuvchilar borligini bilaman. Nikola ustamon siyosat bilan shunday jozibali nutq irod qildiki, ularning izzat-nafslariga tegib, g'ururlarini qo'zg'adi va hammasidan yordam uchun so'z oldi.

Sug'udga qilinadigan bosqin uchun takfurlar besh yuztadan otliq beradigan bo'lishdi. Hujum kuni belgilandi.

* * *

Usmonbek g'oziy avvalo bu yig'ilishni, keyin esa unda qilingan qarorni bilib oldi. Xabar juda vaqtida kelgandi. Chunki ertasiga Do'durg'a, Alqauy, Bayot, yazir beklari yaylovga ko'chish munosabati bilan Sug'udga kelishoqchi edi. Shu boisdan bo'ladigan yig'ilishning ko'chish mavzusida ekanidan shubha qilinmasdi.

Usmonbek g'oziy Qo'nur Alpni O'ruz darveshga yuborib, Inago'lga qaraydigan vodiy va tepaliklardagi kuzatuvchi darveshlarning yanada diqqat-e'tiborli bo'lishlarini tayinladi. Barcha xabarchilariga qat'iy tayinladi: Nikolaga yuboriladigan askarlar Inago'lga borish uchun yo'lga chiqishlari bilan xabar qilinishi shart.

O'sha kuni mehmon beklar So'rudga tush payti yetib kelishdi. Usmonbek ularni yangi masjid oldida kutib oldi. To'g'ri namoz

o‘qishga kirishdi. Namozdan keyin yana masjidning o‘zida, qolgan odamlar ko‘z o‘ngida yaylovga chiqish xususida gaplashdilar, qilinadigan ishlar haqida kelishib oldilar. Suhbat tugagach, Usmonbek mehmon beklarni Erto‘g‘rulbek g‘oziyning yuqoridagi uyida tayyorlangan ziyofatga olib bordi. Ziyofatga Erto‘g‘rulbek g‘oziyning ukasi Dundarbek va safdoshlari ham kelishdi. Ularni Usmonbek da’vat qilgandi.

Usmonbek ularning hammasini katta uyga olib kirib, ko‘rpachalargao‘tirg‘izdi. O‘zi tikka turardi. Xizmat qiluvchilar chiqib ketishgach ham o‘tirmadi, tikka turib gapirdi:

— Ey, mening e’zozlaganlarim, ota o‘rnida, aka o‘rnida ko‘rib siylagan birodarlarim, sizlarga aytayapman: Domanichga bormoqchimiz, xo‘rlik yo‘lichap tomonimizda, sharaf yo‘li o‘ng tomonimizdadir, yo‘qlik yo‘limizda, borliq — hayot o‘ngimizdadir. Nafsimiz so‘l yonimizda, avlod-ajdodimiz o‘ng yonimizda. Botilning oqibati so‘l yonimizda, Haqning rahmati o‘ng yonimizdadir. Xabar oldim va uni sizlarga yetkazayapman: Inago‘l, Ko‘pruhisor, Yorhisor, Qorajahisor takfurlari ittifoq tuzishibdi; yaylovga chiqish kuni ko‘chishimizga va So‘g‘udga hujum qilishmoqchi. Xohlagan o‘z tadorigini o‘zi ko‘rsin, xohlagan mening gapimga kirsin. Men, Erto‘g‘rulbek g‘oziy o‘g‘li, Qayi begi Usmon shunday deyman: Bugun ayni payti. Botil, yanglishish bir bo‘ldi, Haq ham bir bo‘lishi kerak. Bizni bosishmoqchimi, biz ham bosishimiz kerak. Ey, mening siylaganlarim, e’zozlaganlarim, sizlar nima deysizlar?

Ko‘rpachalarda o‘tirgan mehmon beklarning boshlari baland o‘rindiqda o‘tirgan Erto‘g‘rulbek g‘ozining yo‘ldoshlariga burildi. Ular ham xuddi bularga o‘xshab, baravariga eng keksalari Qora Tekinga qarashdi.

Qora Tekin:

— Nega menga qarayapsizlar, deya gap boshladi. — Begimiz Usmonbek g‘ozi gapirdi va juda chiroyli gapirdi. Gapning po‘stkallasini aytdi, juda to‘g‘ri aytdi, uning gapiga kirmoq kerak.

— Ey, qo‘li mendek qaltiroq, ammo tili yoshlardek burro birodarim Oq Temur, qo‘ling ayiq bo‘g‘gan kunlarni unut-da, bir maslahat ber.

Shunda tili biyron, boqishi jayron Oq Temur:

— Ey noinsof, ey menga achinmaydigan birodarim. Nega esimga solding o'sha ayiq ovlagan damlarni? — deb boshladi gapini. Rostini aytsam, bu gaplaringdan mening ham qo'limga qilich olgim kelib ketdi. — Keyin hammaga birma-bir qarab chiqdi-da, qo'shib qo'ydi: — Mehmonni eshikdan qaytarilmaydi. Kelishibdi, endi ket deb bo'ladimi?

O'tirganlarning yuziga kulgi yugurdi. Lekin Usmonbekning yuzi qilt etmadi. U javob kutardi.

Beklar nomidan Do'durg'a begi Qora Guna gapirdi:

— Buyruq sendan, Usmonbek. Gapingga xo'p deymiz.

Shunda Usmonbek g'oziy:

— Ayo Nikola bilan Kalanoz So'g'udni ham, yaylovlarimiz yashilligini ham ko'ra olmaydilar, — dedi. — Bizlarni ko'rishadi.

Erto'g'rulbek g'oziyning yo'ldoshlari va butun suhbat davomida jim o'tirgan Dundarbek chiqib ketishgach, Usmonbek qolganmehmon beklarga vaziyatni tushuntirdi. Dushmanning kuch-quvvati, zaif tomonlari va ustunliklari haqida gapirdi. Yov bilan qayerda uchrashish va jangni qanday olib borish xususida indamadi. Ko'chish karvonlarining So'g'udga har yili qanday bo'lsa, bu yil ham shunday kirib kelishini, qurollarni ko'rsatmaslikka harakat qilishlarini tayinladi.

So'z aylanib Armani belidagi olishuvga taqaldi. O'shanda ikki otliq bulardan qutilib ketgandi.

— Mingani bedov edi, Xo'ja Qulmash birodar. Bayotdan sotib olishgan deb O'ylayman, — dedi Usmonbek. — Kalanozniki ham shunaqa edi. Menimcha, birodarlar, rumlarga hamma narsani sotaylik, bozorga gilam va sholchamizni, yog'imiz va asalimizni, ekkanimiz va o'rganimizni, yasaganimiz va tikkanimizni olib chiqaylik, lekin rumlarga ayg'ir sotmaylik, qo'chqor sotmaylik dastgoh sotmaylik. Jun, bo'yalgan ip sotaylik, bo'yoq sotmaylik, urug' sotmaylik. Ona yurtdan olib kelingan otlarni, qo'ylarni, ish qurollarini asraylik. Hammaga aytinglar, bozorchilarga tayinlanglar, toki dushman mening otimni minib, mening qilichim bilan bizga hujum qilmasin.

* * *

Yo'lga chiqilish lozim edi. Armug'onlar bilajik takfuriga topshirildi. So'g'ud tevaragida odamlar qumdek qaynardi. Usmonbek o'z safdoshlari va boshqa beklarning askarboshilariga so'nggi so'zlarini aytib bo'ldi. Har kim o'z bo'lugining yoniga qaytdi. G'ozi Rahmon ham ketayotgandi, bir ayol uni imladi:

— Hoy, botir Rahmon, dedi u, — bir oz to'xtang, gapimbor.

Rahmon qaradi-yu, darrov tanidi. Bu Qutlug' Malak edi. Uning yonida bir sarboz ham bor edi. Ular bir-biriga juda ham yarashib tushgandi.

Fozi Rahmon otini ularga qarab haydadi, ular ham bunga yaqinlab kelishdi.

Qutlug' Malak kulimsiradi:

— Hoy. Rahmon aka, mana bu yigit mening erim Ejaboy bo'ladi. Fazovot yo'ldoshingiz bo'lmoqchi. Yettita jo'rasi ham bor: sizga qo'shilmoqchi.

Fozi Rahmon bilan Ejaboy bir-birlariga qarab jilmayishdi.

— Mayli, — dedi Rahmon, — baribir, yo'limiz bitta.

Qutlug' Malak otining boshini burib ketarkan. Ejaboy qo'lini ko'tardi, nariroqda turgan hamrohlarini chaqirdi.

— Yo'lingiz oq, yuragingiz pok bo'lsin, — dedi Qutlug' Malak ular bilan xayrlasharkan.

Rahmon yoniga kelgan yettita Do'durg'alik bilan ot qo'ydi. Ko'chish karvoni yo'lga chiqdi.

Domanichning etaqlariga yetib borgach, Usmonbekning buyrug'iga binoan keksalar, bolalar, ayollar, cho'ponlar va yilqichilar otlar, tuyalar, qo'ylar va ashyolarini olib, yaylovga qarab yurishda davom etdilar. Usmonbek ularning yonida yuz ellik suvoriy bilan Oqcha Xo'jani qoldirgandi. O'zi esa ming otliq bilan ikizjaga qarab jo'nadi.

Tushga yaqin Domanich beliga yaqinlashganda, archazor etagida, yam-yashil tekislikda dam olib peshin namozini o'qishdi. Imom O'ruz darvesh edi. Namozdan keyin qo'l ochib Tangridan zafar tiladi. Shundan keyin Usmonbek gapirdi. U Ol-Ishiqqa minib olgan, qilichi qo'lida edi.

— Er-yigit arslonlarim, bahodir eranlarim, - deya boshladi gapini. —Olingan xabarlarga qaraganda, Inago'l, Ko'pruhisor, Yorhisor va Qorajahisor hokimlari birlashib, ikki mingdan ziyod otliq askari bilan ustimizga bostirib kelayapti. Bizni qirib tashlash, molimizni talash uchun kelishyapti. Men, Erto'g'rulbek g'oziy o'g'li, Qayi begi Usmon, aytamanki, ularni ajal yetaklab kelayapti, qirilishga kelmoqda bari. Jangchi arslonlarim, bahodir sarbozlarim; biz ham endi ularning ustiga ot qo'yamiz... Yo bizlar, yoki ular. Tangrimning irodasi shu. Boshqa yo'l yo'q. Yo biz, yo ular! Yo biz, yo ular!

Oftob Usmonbekning qilichida o'ynar, uning shu'lasi ko'zlarida aks etar edi.

Archazorning ichkarisida bir chug'urchiq hushtak chaldi. Boshqa joyda kaklik sayradi. Janubiy g'arbdagi Burguttepaning ustida bir shunqor keng qanot yozib parvoz qilardi. Ol-Ishiq bezovta yer tepindi.

Nafasini rostlab olgan Usmonbek, so'zida davom etdi:

— G'azovotga kelib, qo'rqqanidan orqaga qarab qochadiganning orqasidan kofirning o'qidan oldin mening o'qim yetib boradi. Yo'ldoshlarim o'qi borib sanchiladi. Endi yigitlarim, jangchi arslonlarim, bahodir sarbozlarim, halollashaylik. Kofirga shunday boraylik, halol savashaylik. Qilich yoki o'q yeganlar halol shahid bo'lgaylar. Haqqingiz halol bo'lgay!

Birdan ko'k gumburlaganday bo'ldi:

— Halol bo'lgay, bek!

Bu gumburlash butun vodiyda aks sado berdi.

Keyin Usmonbek yo'ldoshlarini yoniga chorladi. Otliqlar yuztadan uch qismga bo'linadigan bo'ldi. Vizantiyaliklarga duch kelingach, birdaniga hujum qilishga kelishildi. Lekin ikki o'rtadagi masofa bir o'q otimi qadar qolganda, Usmonbekning Qilich silkib bergan ishorasi bilan Qiyan Saljuq bo'lugi o'ng tomonga, Sungur bo'lugi chap tomonga, Usmonbek o'z ilg'ori bilan o'rtaga ot qo'yadigan bo'ldi. Mana shu uchta yuzliklardan orqada qolgan yuz sarboz esa, yana uch qismga bo'linib, Qo'nur Alp, G'ozi Rahmon va Saltuq yetakchiligida dushman qo'li baland kelgan joylarga madad beradigan bo'ldi.

Yo'lga tushishdi. Domanich dovonidan oshishgan zahoti vizantiyaliklarga ko'zlari tushdi. Oradagi masofa besh o'q otimicha kelardi. Takbir aytib, hujumga o'tishdi.

Qarshidagilar lozim darajada yoyilishga ulgurmay qolishdi. Ular uchtomondan o'rab olindi. Savashlar besh-olti aylanishlik bir maydonda shiddat bilan boshlanib ketdi. Hammasi ko'z ochib-yumguncha yuz berdi. Usmonbek o'sha yerda edi. Akasi Savjining telbalarcha ot qo'yishini, o'zi singari oldingi marraga tashlanganini ko'rdi. Unga baqirdi. Xuddi Boyxo'jaga baqirganday chaqirdi:

Akajon, akajon, ko'zingizga qarang!

Lekin eshittirolmadi. O'g'li singari Savji ham eshitmas, ko'rib, tanib qolgan Kalanoz ustiga bostirib borardi.

Usmonbek qilich sermar, oldiga chiqqanni urib, ag'darib, Ol-Ishiqqa yo'l ocharkan, vahimali tush ko'rayotgandek edi. Qilichlarning sharaq-shurug'i, ot kishnashlari, na'ra tortishlar va faryod chekishlar o'ngida emas, go'yo tushida yuz berayotgandek edi.

Savji ham, xuddi o'g'li Boyxo'ja singari unga birinchi bo'lib tashlangan vizantiyalikni urib ag'dardi. Savji — xuddi o'g'li Boyxo'ja singari ikkinchi g'animga qilich sololmadi. G'anim chap berib, qochibqoldi. Savji esa, Usmonbek uchta qilichga qarshi savashar ekan, xuddi o'g'li singari qochayotgan g'anim — Kalanoz ustiga ot soldi. Shunda Kalanoz uning kelishini xuddi o'g'li Boyxo'janing kelishidagi kabi zaharxanda kulgi bilan ot o'ynatgancha kutib turardi.

Usmonbek yo'lini endi ochib ulgurgan edi hamki, Kalanoz ikki marta Qilich sermab, Savjini shahid etdi. Lekin uning kulgisi birdan o'zgardi. Chunki Usmonbek uning ustiga bostirib kelayotganini ko'rib qolgandi. Jonholatda baqirdi:

— Hey, bu yoqqa... Qora Usmon bu yerda...

U yordam so'rayotgandi. Lekin yordamga yetib kelmoqchi bo'lganlar qarshisiga g'oziylar chiqishdi: Kalanoz Usmonbek bilan yuzma-yuz qoldi.

Ikkovi ham bir-birini yaxshi taniydi. Ikkalasi ham bir-birining kuch-quvvatini, mahoratini yaxshi biladi.

Usmonbek ham xuddi Boyxo'ja singari, xuddi akasi Savji misol kelayotir. Kalanoz bo'lsa xuddi o'shalarni kutgani kabi ot o'ynatib kutib turibdi. Ammo hech kutmagani yuz berdi. Usmonbek Ol-Ishiqni niqtab Kalanozning chaptomoniga o'tib oldi:

— Hoy ko'ppak, — dedi. Hamla qil!

Kalanoz shoshib qoldi, muvozanatni yo'qotdi:

Qani, ablah, kutdirma, — deb baqirdi Usmonbek yana. Fazabi cheksiz, qilichini esdan chiqarganday, uni pastga qaratib turibdi. Kalanoz otini uzangisi bilan qattiq niqtadi, yashin tezligida qilich soldi. Lekin Ol-Ishiq chap berdi, o'zini chetga oldi. Kalanoz ham Boyxo'janing ahvoliga tushibqoldi. Usmonbekning qilichi uning bo'yniga qadaldi: faqat boshini uzib tashlash uchun emas, yuziga shapaloq tushirganday.

Kalanoz dovdirab qoldi, qo'rqib ketdi. O'zini yo'qotib, qochmoqchi bo'ldi. Lekin qochishning iloji yo'q. Otini burdi. Usmonbek yana kesatdi:

— It, — dedi, — hamla qil!

Kalanozning hafsalasi pir bo'ldi, alam bilan qilich sermadi. Qilichi Usmonbekning qilichiga duch keldi. Kalanoz bilagida kattiq og'riq sezdi.

— Navbat menga, dedi Usmonbek.

Tovushi vahimali edi, yuzi battar daxshat solardi.

Ol-Ishiq o'zini avval so'lga, keyin o'ngga otdi va Usmonbekning qilichi yashindek tushdi. Kalanoz qilich tutdi, lekin u qo'lidan uchib ketdi. Muvozanatni yo'qotib, egarda osilib qoldi. Usmonbek shiddat bilan qilich ko'tardi va tushirdi. Lekin urmadi. Kalanozning bo'yni hamon o'sha holatda

Usmonbek burnidan nafas olayotir, ko'zlaridan olov chaqnaydi. Tishlarini g'ichirlatdi. Butun vujudi titraydi, tuklari tikondek bo'lib ketgan. Bir Kalanozga, bir qilichiga qaraydi. Ol-Ishiqni asta niqtaydi. Qo'li yetadigan masofaga kelgach, Kalanozga shiddatli tarsaki urdi. U otidan uchib ketdi.

Shunda Usmonbek qilichini qiniga soldi. U qilichini Kalanozning qoni bilan iflos qilgisi kelmasdi. U hamon burnidan nafas olar, ko'zlaridan o't chaqnardi. Birdan bor ovozi bilan qichqirdi:

— Mana bu itning qornini yoringlar, yerni kovlanglar, loshini ko‘minglar. U Ol-Ishiqni haydadi, bu yerdan asta uzoqlashdi. Akasi qulagan joyga borib otidan tushdi.

G‘ozi Rahmon uning boshi tepasida turardi. Usmonbek cho‘kkaladi. Savjining boshini ko‘tarib tizzasiga oldi. Endi ko‘rmayotgan, balki faqat o‘g‘li Boyxo‘jani ko‘rayotgan ko‘zlarini yopdi. Lablari pichirlaydi, duo o‘qiydi. Duodan so‘ng akasi jasadini asta quchog‘iga olib ko‘tardi.

U ohista qadam bosib yurdi, orqasidan G‘ozi Rahmon va o‘ntacha g‘oziy ergashdi. Usmonbek ulkan bir archa tagida to‘xtadi. Yonidagilar tushunib, qabr kovlashdi. G‘ozi Rahmon Qur’on o‘qidi.

Usmonbek belkurak bilan mozor ustiga so‘nggi tuproqni tashlagach, qaddinir ostlab maydonga qaradi. Qancha bodom daraxtlari, qancha mujdachilar yotibdi jang maydonida. O‘limlari o‘zlari uchun jannat eshigini ochishiga imon keltirganlar edi bu yotganlar.

Usmonbek akasi uchun, ayniqsa, Boyxo‘ja uchun yuragi achiganidan uyalib ketdi. Ularni maydonda shahid bo‘lib yotganlardan ajratib haqsizlik qilgan hisobladi o‘zini. Shu bilan akasiga ham, Boyxo‘jaga ham nohaqlik qilganday his etdi o‘zini, qo‘llarini qaytadan ochib, barcha shahid ketganlar ruhiga fotiha o‘qidi.

* * *

Yaylov etaklariga shom barvaqt tushdi. Qiyaliklardagi archalar shovullaydi, esa boshlagan shamol badanni junjiktiradi.

Tumtaraqay qochganlarni quvib ketgan Usmonbek otliqlari qaytib kelishdi. Taxminlarga ko‘ra, qochib qutulgan vizantiyaliklar mingtaga yetmaydi. Shahidlar soni esa ikki yuz atrofida. Domanichga qaytishdi.

Ular qaytib kelishlari bilan chodirlar tiklanib, o‘choqlar yoqildi.Yo‘larini poylab turganlar, ularning kelganini butun yaylovga xabar qilishdi. Har bir ovul yigitlari o‘zlarini kutib turganlar bilan tezda topishib olishdi. Usmonbek O‘ruz darvesh bilan uning yigitlarini Harlaqda qoldirdi. Yonida o‘tloq qo‘shnisi bo‘lgan yuzta suvoriy qolgan edi. Qiyalikdan aylanib o‘tishlari bilan ularga qarab ot choptirib kelayotgan kutib oluvchilarni ko‘rishdi. Oldinda kelayotganlar orasida quchog‘ida O‘rxon bilan Malhun Xotunham

bor. Bir-birlariga yaqinlashishlari bilan Malhun Xotun Usmonga emas, barchaga qarata qichqirdi:

G'azovotingiz muborak bo'lsin!

Boshqa kutib oluvchilar ham shunday, o'g'lini, qaylig'ini yoki erini ajratishmadi. Oddiygina kutib olgani chiqqanlar odamini topolmagach, bo'ynini bukib, Usmonbekka yaqinlasharkan:

— Yashasin Qayi! — deyishardi. O'rxon Usmonbekning quchog'ida, uni yetib kelishi bilan Malhun Xotun eriga tutqazgandi. Usmonbek o'g'lini bag'riga bosganicha O'rxon ham qaytib kelmasligi mumkin bo'lgan g'azovotni o'ylar, faqat shundagina o'g'il, qayliq va eridan judo bo'lganlar oldida his qilayotgan vijdon azobidan qutulganday bo'lardi.

Qulajahisor bir, Ikizja ikki... Usmonbek G'azovotga eng tahlikali ana shu joylarda qatnashgan edi. Ayo Yorgo singari, Dukas, Aleksius, Fileratos va Kalanoz singari u handaq qazib o'zini himoya qilgani yo'q. Chunki u Ikizjadagi jang maydonida qolganlar singari nima uchun va qanday maqsad yo'lida o'lishini yaxshi bilardi. Xuddi ularga o'xshab, o'limining o'ziga jannat eshigini ochishini yaxshi biladi. Shularni o'ylarkan:

— Xudo nasib qilsa, — deb qo'ydi Usmonbek.

* * *

Kechki ovqatni Qunduzbekning chodirida qiladigan bo'lishdi. Usmonbekning o'g'li Oyna Malakning qo'lida edi. Malhun Xotun eri bilan ilk bor yuzma-yuzqolganda Usmonbekka:

— Oyna Malak homilador, — deb shivirladi.

Nonushtada uning otasi va akasi ham bor. Ularning qishlog'i qarshi tomondagi yonbag'irda. Bir sira Oyna Malak haqida gap ketdi. Ota qizini olib ketish niyatida ekanini aytdi. Qunduzbek:

— Bu yerda Burla Xotun bor, Malhun Xotunbor, biz bormiz, — dedi.

Ota qiziga qaradi. Qizi — Oyna Malak esa:

— Yo'q, — dedi. —Men erim uyini, chodirini tark etmayman. Bonu Chechak, otasining uyidan kelin bo'lib chiqishini istayman. Bu uyni, bu chodirni o'zim tiklaganman. Men uni tashlab ketolmayman.

Shundan so'ng bu mavzuga qaytilmadi.

Usmonbek Ikizjadagi jangdan gap ochib, o'sha olishuvda G'ozi Rahmonning bir o'zi Qutlug' Malakning eri Ejaboyni uning atrofini o'rab olgan besh inago'llik sarbozdanqanday qutqarganini so'zlarkan:

— Endi qon-qardosh bo'ldi ular, — dedi.

Xufton namozidan so'ng tarqalishdi.

* * *

Malhun Xotun ancha og'irlashgandi. Endi ot minmasligi kerak edi. Lekin Usmonbek Harlakka boramiz deganda, ot minishiga to'g'ri keldi. Yonlarida Oqcha Xo'ja va Asmaxon ham bor edi. O'rxon otasining otiga mingashib olgandi, u endi bemalol ushlay olardi.

Yo'lga asr salqinida chiqishdi. Usmonbek tez qaytish niyatida edi. Lekin o'ylagandek chiqmadi. Kutib oluvchilar orasida Go'kcha baji, O'ruz darvesh, Bijan abdal, Emran eran, Oybola yo'q edi. Sababini Saljon aytdi:

— Ikizjaga ketishgan. Joy tayyorlab joylashishga yordam berishyapti.

—Qanaqa joylashish o'zi? — so'radi Usmonbek.

Usmonning savoliga ularning otini yetaklab olgan keksaroq bir kishi javob berdi:

— Qo'nyo tomonlardan kelganmiz. Boshchimiz imom Yaxshi Faqi degan kishi, Yuz nafardan oshiqroqmiz. Shayx Ada Boli xabar yuborgani uchun bu tomonlarga keldik. O'ruz darvesh Ikizjada yashashimizni ma'qul ko'rdi.

Usmonbek Oqcha Xo'jani imladi:

— Yur-chi, bir ko'rib kelaylik, — dedi.

Olib kelingan ayrondan ichib ko'rishgach, Usmonbek bilan Oqcha Xo'ja yo'lga otlandi. Malhun Xotun bilan Asmaxon o'sha yerda qolishdi. Saljon ularga go'daqlarni ko'rsatmoqchi edi.

Domanich davonidan oshishlari bilan o'n yonbag'irda, tagida va atrofida Savji va Ikizjashahid bo'lganlarning jasadlari ko'milgan ulkan archa qarshisidagi sayxonlikda yuzdan oshiqroq ayol va erkaqlar ishlashardi. Ba'zi uylarning tomlari yopilib bo'lgan, ishlar tugay deb qolgandi.

Ularni ilk tanigan Go‘kcha baji bo‘ldi. Oralaridagi masofa ancha bo‘lishiga qaramay, ovozi bemalol eshitildi:

— Hye, - yey, mening begim, Usmonbek kelayotir.

Hamma ishidan to‘xtab ularga qarashdi. Usmonbek otini niqtadi. Tekislikka borib otdan tusharkan;

— Ishdan qolmangizlar, — dedi.

U borib Go‘kcha bajining qo‘lini o‘pdi. Yonlariga O‘ruz darvesh bilan birgalikda yoshi elliklarga chiqmagan bir kishi keldi. Uni O‘ruz darvesh tanishtirdi:

— Bu kishi imom Yaxshi Faqi bo‘ladilar, Usmonbek.

Usmonbek yugurib kelib uning tizzalariga sakragan Bo‘z o‘g‘lonni erkalarkan, O‘ruz darvesh qo‘shib qo‘ydi:

— Yetmish nafar erkak bilan keldi.

Yaxshi Faqi bosh egdi.

— Xush kelibsizlar, — dedi Usmonbek.

O‘ruz darvesh onasiga qaradi, o‘zingiz aytaqoling deganday bo‘ldi. Go‘kcha baji gapni ilib ketdi:

— Qishloqlari shu yerda bo‘lsin dedik, bek. Mozorlarimizga egalik qilaylik. Qabrlarimiz yonida qishloq quraylik dedik. Shahidlarimizni yolg‘iz qoldirmaylik deb o‘yladik, bek. Vaqti yetganlarni ularga yo‘ldosh qilib suyuntiraylik dedik, bek.

U qo‘lida belkurak ushlab turardi. Usmonbek cho‘zilib qo‘lidan belkuragini oldi. Borib, Go‘kcha baji ishlayotgan ohak o‘rtasida to ish to‘xtaguncha ishladi. Oqcha Xo‘ja bo‘lsa bu orada suv tashib turdi. Vodiy xira tortdi. Kunning yorug‘i tepalarga tirmashdi. Havo ancha salqinlashdi. Usmonbek Xarlaqqa qaytish uchun otiga minarkan, ulkan archaga nigoh tashladi.

Archa charaqlab turardi. Uning shoxlarida kamida o‘ttiz qandil nur sochardi. Yonida turgan Go‘kcha baji pichirladi:

— Bu qandillar kechalari yonib tursin deymiz, bek.

Domanich dovonining so‘nggi qayrilishida Usmonbek tizginni tortib, orqaga qaradi. Endi batamom qoraygan Ikizja vodiysida archa ko‘rinmasdi. Ikizja, shahidlarining nurafshon ruhlari bor edi. Bodom daraxti ayoz urolmaydigan, muzlab qovjiramaydigan, so‘lib to‘kilmaydigan gullarini ochgandi.

— Yo Tangrim! — dedi Usmonbek ko‘kka iltijo qilib.

AYDOS QAL'ASI

Vaqt o'tayapti. Usmonbek vaqtni to'xtatolmaydi. U vaqt to'xtamasa, kutib turmasa ham, Usmonbek xohlaganndek o'tishini istaydi. Lekin vaqtning tez o'tishi uning g'ashiga tegmoqda. Usmonbek bugunni emas, ertangi kunni emas, kelajakni, avlodlarini, Qayi qavmining kelajagini o'ylamoqda... Vaqt esa juda tez o'tib borayapti. U endi o'z eli, elati uchun, e'tiqod, maqsad uchun qayg'urayapti.

Usmon avvaliga, Ikizjani, keyin Inabo'lini olamiz degandi, Inabo'li qal'asini qo'lga kiritishnigina o'ylardi. Lekin Harlaqqa tashrifi asta-sekin bu istag'ini tizginladi, g'azabini bosdi.

Endi u vodiy va shu vodiyning ahamiyati nuqtayi nazaridan qal'alarga e'tibor bera boshladi. Vodiyning qal'adan tashqaridagi qishloqlarining turklarga, xususan, Qayi ahliga nisbatan munosabatlari, xatti-harakatlarini o'rganib chiqdi, aql tarozisiga solib ko'rdi va Aydos qal'asini tanladi. Aydosning qo'lga olinishi juda katta qulayliklar tug'dirardi. Qarorining boisi ham shunda edi.

Ayni kunlarda ikkinchi o'g'lining tug'ilishini kutardi. Usmonbek uning ismini Ko'nyoga tashakkur izhori sifatida Alouddin qo'ydi. O'g'li Alouddinning

Ko'nyo Alouddinlari iqboliga erishuvi uchun duo qildi. Xuddi shu boisdan bu ismning va ushbu o'g'ilning haqqini berish umidida Aydosga yurish qildi.

U bu qarorga kelishdan oldin qardosh elatlarning beklari, Erto'g'rulbek g'oziy safdoshlari va o'z yo'ldoshlari bilan maslahatlashdi, mas'uliyatni teng bo'lishib, kerakli yordam bilan ta'minlashlariga kelishib oldi.

Endi u yetarli kuch-quvvatga ega edi. Aydosni yetarli miqdordagi kuch bilan qurshab oldi. Qolgan askarlari bilan Aydosga eltuvchi yo'llarni to'sdi, Qal'ani egallashda kechikkuday bo'lsa, kelishi mumkin bo'lgan yordamga ular xalaqit berishi kerak edi.

Sentyabrning musaffo tonglaridan birida Aydos himoyachilari qal'a tevaragida tiklangan chodirlarni ko'rishdi. Oradan ko'p o'tmay, qal'a darvozasi oldida Usmonbek darakchisi paydo bo'ldi.

— Elchiga o‘lim yo‘q, — dedi u. Qayi begi, Erto‘g‘rulbek g‘oziy o‘g‘li Usmonbek nomidan boshlig‘ingiz bilan gaplashmoqchiman.

U qilichsiz, o‘q-yoysiz, nayzasiz edi. Qo‘li ham yo‘q edi.

Uni kutdirib, xabarchilar borib kelganlaridan so‘ng, atrofini zich o‘rab olishib, qal’a qo‘mondoni huzuriga olib borishdi.

Qo‘mondon qo‘lini qilichi dastasiga qo‘ygancha, g‘azab bilan so‘radi:

— Nima ishlaring bor bu yerda? Nima istaysizlar?

Elchi g‘oyat sovuqqon, tuyg‘usiz edi. U bosiqlik bilan javob berdi:

— Qayi begi, Erto‘g‘rulbek g‘oziy o‘g‘li Usmonbek sendan qal’ani topshirishni so‘rayapti.

— Nima?! — sakrab turdi o‘rnidan qo‘mondon.

Baland bo‘y, kelbatli edi qo‘mondon.

Usta qilichboz ekanini sezish qiyin emasdi.

— O‘zini kim deb o‘ylayapti? - dedi g‘azab bilan.

Elchi esa bamaylixotir:

— Buyurilganidan boshqa narsa aytolmayman, — dedi va qo‘shib qo‘ydi: — Agar ruxsat bo‘lsa menga tayinlaganlarini aytishim mumkin.

— Gapir,— dedi qo‘mondon.

Shunda elchi dona-dona qilib gapirdi:

Usmonbek aytdiki, qal’aning kalitlarini topshirsang, boshda o‘zingning ham, boshqahech kimning ham na joniga, na moliga qasd qilinmaydi, aslo ziyon yetkazilmaydi. Lekin ish savashishga borib yetsa, Aydos ikki kun davomida yag‘mo qilinadi, talon-toroj etiladi. Qo‘lida qurol bilan qarshi chiqqanlar qilichdan o‘tkaziladilar, vassalom.

Qo‘mondon dir-dir qaltirardi, jon holatda, telbalarcha qichqirdi: — Uloqtiringlar buni minoradan! Elchi atrofi o‘ralib, mahkam ushlanganida ham kulimsirab turardi. Mayin bir tovushda:

— O‘zing ham orqamdan tezda yetib borasan, — dedi.

Uni sudrab eshik oldiga olib borganlarida, bir silkinib qo‘llaridan bo‘shadi, orqasiga qaytdi. Qaddini rostlab, sekin kulimsiradi:

— Ismim Abdulloh, elchi bo'lib keldim, shahid ketayapman. Faqat bir narsaga achinaman: kibru havoying va aqlsizliging tufayli millating ko'p talofatlarga uchraydi.

Qal'a qo'mondonining o'ng va chap tomonida besh kishi turardi. Bittasidan tashqari hammalari unga hayron bo'lib qarashardi. Boshini hamqilganicha mahzun turgan beshinchisini Abdulloh tanidi: U Mixail Kosses edi.

Abdullohni Usmonbekning chodiri ro'parasidagi burchak minordan pastga qoya toshlar ustiga irg'itishdi. U pastga uchib tusharkan, keltirgan kalimai shahodati Aydos vodiysi ustida aks-sado berdi.

Abdullohni olib chiqib ketayotganlar hali eshikdan chiqmay turib, Mixail Koses qal'a qo'mondoniga bosh egdi:

—Muhtaram Nikeforos, qo'yib yuboringlar uni, qo'yinglar, ketsin!..

Nikeforos hayratdan qotib qoldi. Battar g'azablandi:

— Nima uchun?

Mixail Kosses hamon ehtirom bilan: — Aytganlari rost, bilaman men bu turklarni, — dedi.

Men ham bilaman, — dedi Niksforos. Ovozi ta'nali edi. Lekin Mixail Kosses sira parvo qilmadi.

— Usmonjonni yaxshi taniyman. Qo'yvoring elchini...

Nikeforos nafrat-la tirjayib o'rnidan turdi va derazaning oldiga bordi:

— Buni ham bilaman, — dedi.

Mixail Kosses yana o'zini bosdi:

— Aydosga chatoq bo'ladi.

Qo'rqma, — dedi Nikeforos, tag'in masxaraomuz ohangda. — Aydosga ham, senga ham hech narsa bo'lmaydi. Yaxshisi, miriqib tomosha qil jangni...

Keyin qo'shib qo'ydi:

— Zotan, bo'lar ish bo'ldi endi.

Shunda Mixail Abdullohning kalimai shahodatini eshitdi. Yanada to'g'rirog'i, Abdullohning tovushini eshitdi. Uning tovushida haqiqat, ishonch va buyuk iroda bor edi. Bu tovush Mixailning qulog'iga abadiy chiqmaydigan bo'lib o'rnashib qoldi. U

Usmon va uning do'stlari bilan uchrashuvlarini, bo'lib o'tgan voqealarni, necha bor uning joniga ora kirganini eslab, ich-ichidan:

— La iloha illolloh, — deb yubordi.

Usmonbek xuddi shu paytda o'z chodiri oldida, G'ozi Rahmon bilan birgalikda, Abdulloh kirib ketgan va chiqishi kerak bo'lgan darvozani kiprik qoqmay kuzatib turardi: oldin eshitdi, keyin ko'rdi. Shu ko'yi qotib qoldi.

Hamon o'sha burjdan ko'z uzolmasdi. Ko'z o'ngidan Abdulloh ketmasdi. Uning ko'z o'ngidan jang-u jadallar bir-bir o'tar, ularda Abdullohni ko'rardi. U burjlandan ko'z uzmas, endi quloqlari tagida Abdullohning: "La iloha illolloh" hamda so'nggi jangdagi hayqirigi jaranglardi:

— "Bek, begim, ehtiyot bo'ling!"

U burjga qarar, ko'z o'ngida Abdulloh turardi. Chodiriga qaytarkan, ming'irladi:

— Ont ichaman, Rahmon. Niksforosni o'sha yerdan o'z qo'lim bilan uloqtiraman.

Qurshov ikki kun davom etdi. Ikkinchi kun Qorajahisor takfuri Aleksius yuborgan kuchlarning yarmidan ko'pi qilichdan o'tkazilib, parokanda qilindi. Ammo qal'aning handaqlari keng edi, darvozalari devor teshar qurollarga bardosh berardi. Usmonbek o'q-yoy yomg'iriga qarshi ishlatiladigan taxta qalkon-to'siqlar ostida, jasur yigitlari yordamida har qancha urinmasin, qal'a ichiga kirolmadi.

Uchinchi kuni ertalab Aydos cherkovining qo'ng'iroqlari bong urib, hammani mudofaaga chorlaganda, aydosliklar yoylarini tarang tortib, palaxmonlarini tosh bilan to'ldirib, qizdirilgan yog'qozonlari bilan burjlarda kutib, jangga shay turarkan, G'ozi Rahmon o'sha yoqimli ovozda azon o'qidi.

Ochiq joyda, bir qoyatosh ustida edi, endigina chiqib kelayotgan quyosh yuzini yoritar, qal'adan shundoqqina ko'rinib turardi. Unga qarata birdaniga qirq-ellikta o'q uchirildi. Otilgan o'qlar va palaxmon toshlarining eng uchqurlari ham uning oyoqlari uchiga zo'rga yetib keloldi.

Usmonbek G'ozi Rahmonning oldiga o'tdi. U o'q uzish uchun yoy tortib, devor ustidagilardan bittasini nishonga oldi. Shunda

ular orasida sochlari qop-qora bir ayolni ko'rib qoldi. Yoshga o'xshardi, lekin chiroylimi, xunukmi, bilib bo'lmasdi. Usmonbek o'qining uchidan bir muddat uni kuzatib turdi. Ayol qimirlamas, to'g'ri unga qarab turardi. Usmonbek diqqat bilan qarab, ayolning unga emas, G'ozi Rahmonga qarayotganini sezdi. Yo'q, yo'q, u qaramas, balki sehrlanganday qotib turardi.

Usmonbek yoyini tarang tortganicha uni kuzatardi. Yoniga Sungur keldi.

— O'sha qiz tosh otishga juda usta ekan, bek. O'ziyam ohuday yengil chopadi. Ikki kundan beri uning tekkiza olmayapmiz.

Usmonbek shu turganicha do'stining gaplarini eshitdi. Keyin birdan qo'lidagi yoyini bo'shatdi. U uchirgan o'q o'ziga qarata yoy tortayotgan bir aydoslikning umroviga qadaldi. Yoyini qo'lidan tushirib yuborgan haligi kamonchi devor ortiga quladi. Qiz bo'lsa hamon joyida qimirlamay turardi. Birozdan keyin jo'nab qoldi.

Qurshov va eshik buzishga urinishlar o'n kunga cho'zildi. Buning ustiga Usmon Domanichdan uning hafsalasini pir qiluvchi bir xabar oldi: Amakisi Dundarbek Erto'g'rulbek g'oziyning safdoshlarini to'plab gaplashibdi; Alqauy va Bayot beklariga xabar yuboribdi. Uning fikriga qaraganda, Aydos qurshovining keragi yo'q. Qancha yigitlar bekorga o'lib ketmoqda. Buning ustiga Domashni mudofaasiz qolayotgan emish. Birortasi hujum qilib qolsa nima bo'ladi... Xullas, Dunarbek jiyanini beklik qilishga noloyiq deb topmoqda.

Usmonbek, xabarchini yo'ldoshlari bilan birgalikda tingladi. Lablarini qimgidi. Uning oldin eshitgan bir so'zi yodiga tushdi: "Amaking sening bekligingni ko'tara olmayapti", deyishgandi o'shanda.

U chodirdan chiqdi. Uning fe'lini bilishardi. Shuning uchun ham orqasidan borishmadi. Usmonbek bir o'zi ancha aylanib yurdi. Chodirga qaytib kelganida G'ozi Rahmon o'sha xush ovozi bilan xufton namozini o'qiyotgan edi. To'lin oygacha yuksalgandi. Qal'a devorida esa, ayni o'sha joyda binafsha rangidagi ko'lanka holida haligi qiz turardi. O'sha ko'lanka birdan harakatga keldi. Qo'lini boshi uzra aylantirdi-da, nimanidir irg'itdi. Hushtak chalib

kelgan bir tosh G‘ozi Rahmonning oldiga, u ustida namoz o‘qiyotgan xarsangning tagiga tushdi. Qal’a devoridagi ko‘lanka g‘oyib bo‘ldi.

Tosh qog‘ozga o‘ralgan edi. Usmonbek uni olib, ipini yechdi. Qog‘ozda rumcha yozuv bor edi.

— Rahmon, — dedi Usmonbek, — Qo‘nur Alini topib kel.

Chodiriga kirdi. Ustunga osig‘liq qandilning yorug‘ida qaradi. Bu bir xat edi. Qo‘nur Alp kirishi bilan xatni uzatib:

— O‘qi, — dedi.

Xat: “Ismim Yevdoksiya, — deb boshlanardi, — Nikeforosning jiyaniman. Ey, azon o‘qigan yigit, men seni tushimda ko‘rdim. Seni ko‘rmasimdan oldin tushimga kirgansan. Bu ishni qilishimning boisi shundan. Aydos qal’asini hujum bilan ololmaysizlar. Olsangiz ham juda katta talafot ko‘rasizlar. Men bunga achinaman. Sen hozir jangchilaringni olib ket. Nikeforos qal’ani bosib olishdan voz kechishdi, deb o‘ylasin. Sen ertaga emas, undan bir kun keyingi kechasi, oy yuksalganda kel. Yoningda o‘zing ishongan sakkiz-o‘n nafar jangchi bo‘lsin. Kun botishdagi burjning tagiga kel, toki men hisorni sizlarga topshiray”.

Usmonbek xatni yana bir bor o‘qittirib eshitganidan so‘ng Oqcha Xo‘ja bilan Saltuq va Sungurni ham chaqirtirdi. Ularga ham o‘qitib, so‘radi:

— Qani, aziz yo‘ldoshlarim, sizlar bunga nima deysizlar?

Hech qaysi biri biror gap aytolmadi.

Usmonbek qizishdi.

— Qulog‘im sizlarda.

Shunda Sungur taraddudlanib gap boshladi: — Bek, ertalab senga nima devdim? O‘sha qiz yomon tosh otarkan. O‘zi ham ohudek chopqir. Ammo azondan bu yog‘iga hech ko‘rinmadi. Ko‘ringanda ham tosh otgani yo‘q, qarab turardi.

Bir oz jimlikdan so‘ng qo‘shimcha qildi:

— Gapim shu: qizga ishongim kelyapti.

Saltuq bo‘lsa:

— Menga bu ish Nikeforosning hiylasiga o‘xshab ko‘rinyapti, — dedi.

U hali gapini tugatib ulgurmasdan:

— Yo‘q, botir Saltuk, — dedi Usmonbek, — men ham bu qizga ishonaman.

Va qarorini bayon qildi:

Darhol ashqol-dashkolni yig‘ishtirib, qurshovdan voz kechamiz. Chekinib ketayotib o‘qlarga qarshi ishlatilgan taxta to‘siqlarni yondiramiz. Yevdoksiya aytgan kechasi G‘ozi Rahmon o‘n nafar yigiti bilan birga g‘arbdagi burjning tagida kutib turishadi.

— Men ham Rahmon birodarim bilan bo‘laman, — dedi Oqcha Xo‘ja.

Sungur bilan Qo‘nur Alp ham shu fikrda edilar.

— Yo‘q, — dedi Usmonbek. — Bo‘lmaydi, Sungur agar sen aytganday bu bir hiyla bo‘lsa, jang qal’a tashqarisida bo‘ladi...

Yevdoksiya aytgan kechasi ayni o‘sha paytda G‘ozi Rahmon bilan Oqcha Xo‘ja yonlariga to‘qqizta usta qilichbozlardan olib, piyoda yurib kun botishdagi burjning tagiga kelishdi.

Usmonbek yuztacha sarboz bilan tepalikning orqasida edi. U qal’aga jo‘nab ketganlar bilan o‘z oralarida har o‘n besh odimda bittadan jangchi qo‘yib xabarchilar zanjiri hosil qilgandi. Qolgan jangchilar esa yana avvalgiday Aydosni o‘rab olishdi.

Oy o‘ng tomondagi tepa uzra bosh ko‘tardi. Rahmon burjning tagiga kelar-kelmas boyqush misoli sayrab qo‘ydi. Xuddi shu payt oyoqlari yoniga kichik bir tosh kelib tushdi. Uning orqasidan yerga uchiga temir bog‘langan bir arqon tashlandi. Burj ustida nozik qomatli bir ko‘lanka turardi.

Arqonga avval G‘ozi Rahmon osildi, uni tortib ko‘rdi. Mahkamligiga ishonch hosil qilgach, ipga tirmashib, o‘rgimchakday chaqqon chiqa boshladi. U devorni oshishi bilan ikkinchi askar chiqa boshladi.

Arqonni Yevdoksiya ushlab turardi. Qiz:

Sen ham ushla, — dedi shivirlab.

G‘ozi Rahmon ikki qo‘libilan birdan arqonga yopisharkan, qizning titrayotganini sezdi. Yevdoksiya yana shivirladi.

— Xush kelibsan, tushimning yigiti.

Fozi Rahmon rumchani sal-pal bilgani uchun “xush kelibsan” ni zo‘rg‘a tushundi. So‘ngra rum tilida chalakam-chatti qilib tashakkur bildirdi.

O‘n daqiqaga qolmay, yigitlarning hammasi tepaga ko‘tarildi. Yevdoksiya G‘ozi Rahmonning qo‘lidan ushladi.

— Yur, — dedi.

Qizning qo‘li baquvvat edi, lekin olovday issiq va titrardi. Asta yurib pastga tushishdi. Hech qanday ovoz chiqarmay darvoza yoniga bordilar.

Darvozaning ikki yonidagi kirish yo‘llaridan birida ikki navbatchi oshiq tashlashar, to‘rttasi ularni tomosha qilardi.

Oqcha Xo‘janing ishorasi bilan o‘zi va besh navkar ularning ustiga tashlandi. Qolganlar ham o‘sha zahoti darvozaning temir to‘sinlarini ko‘tarib, qulflarini buzdilar. Bularning barchasi ko‘z ochib-yumguncha bo‘lib o‘tdi. O‘sha zahoti G‘ozi Rahmon (Yevdoksiyaning qo‘li hamon uning bilagida edi) boyqushga taqlid qilib sayradi. Bu ovoz tepalikning orqasida ham besh marta takrorlandi.

Aydos oyoqqa tura boshladi. Chunki narigi navbatchilar vodiyda aks-sado berayotgan yuzlarcha ot tuyoqlari tovushini eshitishgandi. Burg‘ular chalinib, hammayoqni odamlarning qiy-chuvi tutib ketdi. Aydos askarlari qa’la devorlari ustidan joy egallar ekan, Usmonbekning otliqlari ichkari kirib, narigi darvozalarni ham ochib yuborishgandi. Endi hamma darvozadan yuzlab, yuzelliklab turklar kirib kelishayotgandi.

Maydonda, ayniqsa, cherkov oldida olishuv, shiddatli bo‘layotgandi. Ammo hamma joydan, xususan, burjlarga olib chiquvchi narvonlardan ham qilichlar jarangi, na’ralar, faryodlar eshitilib turardi. Qulab tushgan mashalalardan u yer-bu yerda yong‘in boshlangandi. Usmonbek jangning borishini diqqat bilan kuzatib turardi. Qayerda hujum bo‘shashsa yoki dushman qo‘li balandroq kelsa o‘sha joyga yordamga shoshilardi. Ana shunday taloto‘p ichida Usmonbekning qulog‘iga bir ovoz chalindi. Kimdir kekirdagini yirtib qichqirdi:

Yon tomonga qoch, Usmonjon, yon tomonga... — Ayni chog‘da Ol-Ishiq manjaniqdan otilganday o‘zini o‘ngga oldi. Xuddi o‘sha joyga ketma-ket beshta xarsang parchasi kelib tushdi.

Boyagi tanish ovoz endi yaqindan eshitildi:

— Men Mixailman, Usmonbek!

Qal'a devoridan otilgan toshlar Usmonbek bilan savashayotgan ikki aydoslikning birini, boshqasining esa otini ag'dardi. Otini qoldirib, piyoda qochishga uringan ikkinchi sarbozni Ikizja darveshlaridan biri qilichdan o'tkazdi.

Usmonbek atrofidagi askarlarga dalda berarkan:

— Rahmat, Mixail, — dedi. — Menga Nikeforosning joyini ko'rsat.

Ular muyulishga yetib olishdi. Qarshidagi uyning tomiga o'ralayotgan olov ularni yoritib turardi. Mixail Kosses piyoda edi.

Nikeforos yaxshi qo'riqlanayapti. Soqchilari ko'p, — dedi.

— Ko'rsat!

Xuddi shu payt Sungurga ko'zlari tushdi. Sungur orqalarini devorga pana qilayotgan uchta aydoslik bilan savashardi. Ularni devorga qisib olgandi. Ammo haligilarning uchalasi ham usta qilichboz edi. Hiyla ishlatmoqchi bo'lishdi. Asta-sekin bir-biridan ayrila boshladilar. Bittasi Sungurni chalgitarkan, ikkitasi uning ikki tomoniga o'tib olishmokchi edi.

Usmonbek Ol-Ishiqni niqtarkan, baqirdi:

— Orqaga chekin, Sungur!

— Ko'rib turibman, bek, hiyla ishlatishmoqchi. Uning hushyor ekani, hiyladorligi tezda isbotlandi.

Usmonbek uning chap tomoniga o'tib olgan g'animga qilich soldi. Sungur esa uch qadam orqaroqqa, o'ng tomonga sakrab, raqibini yer tishlatdi. Ro'paradagi esa qilichini tashlab, qo'llarini ko'tardi.

Usmonbek ham otidan yerga tushdi:

— Sungur, Sungur, g'azabingni bos.

Yong'inning shu'lasidan Sungurning tishlari yaltirab ketdi.

— Mening aziz begim Usmonbek g'oziy, adashing haqqi uchun ham jang qilishim kerak.

Qat'iyatli edi u. Bu Sungurning har bir jangda g'azovotlarda ishtirok etolmaydigan nogiron o'g'li Usmon uchun ham savashmog'i kerakligini bildirardi.

— Men bilan yur, — dedi Usmonbek.

Bo'sh turgan jangchilardan to'rttasini olishdi. Usmonbek Mixailni chaqirdi.

— Yur, Mixail. Yo'l ko'rsat!

Jang oxirlab borardi. Aydosning taqdiri hal bo'lgandi. Olishuvlar endi ko'chalardagi kuvlashmachoqlarga aylangandi. Yo'lda ularga besh sarbozi bilan Qiyan Saljuq ham kelib qo'shildi. Nikeforosning qo'rg'oniga borgunchayigirma yettitaga yetdi.

Qo'rg'on ellikdan ziyod jangchi bilan mudofaa qilinardi. Lekin olishuv uzoqqa cho'zilmadi. O'qlarga chap berib o'tishdi-da, yondagi va orqadagi eshiklarni yelka tirab buzishdi. Pastki qavatni bir zumda qo'lga olishdi. Oyoqlari ostida va chorbog'da o'ttizga yaqin aydoslik yotardi. Qolganlari yuqori qavatlarga chekinishgandi.

Usmonbek baqirdi:

— Hoy, gapimga quloq solinglar. Men Qayi begi Usmonbekman. Bu gapimning senga daxli yo'q. Nikeforos ko'ppak! Gapim hammaga taalluqli. Yaxshilab eshitibolinglar. Men Qayi begi Usmonbekman. Qilichini tashlab, taslim bo'lganni kechiraman. Biror tukiga ham ziyon yetkazmayman. Kim bizga qarshi qilich ko'tarsa, loshlarini sudrab kuchuklarga yedirtiraman. Shuni yaxshi bilib qo'yinglar, buerda yigitlarimning qilichlarini savashmoqchi bo'lganlarning qoni bilan bulg'atmoqchi emasman. Omonlik tilaganlarga tegmayman.

So'ngra uyga o't qo'yaman. Aqli borlar omonlik tilasin. Bu gapim senga emas, Nikeforos ko'ppak! Senga Abdulloh birodarimga qilganingni qilaman. Ont ichganman.

Keyin orqasiga o'girildi va baland ovozda:

— Olovni tayyorla, Sungur, — dedi.

Ko'p o'tmay zinalardan tushib keluvchilar bo'ldi. Usmonbek sanadi, ular o'n besh kishi edi.

Yana bormi? — deb so'radi.

— Bor, — dedi bittasi.

— Necha kishi?

— Nikeforos bilan oltitacha bor.

Usmonbek chorbokqa chiqdi. Qo'rg'onning to'rt tomoniga qo'ygan soqchilarga hushyor bo'lishlarini tayinladi. Bu orada xabar yuborilgan Oqcha Xo'ja ellikta sarbozi bilan yetib kelgandi. Usmonbekka jang-u jadal tugaganiniaytdi.

Omonlik tilab, taslim bo'lganlar Oqcha Xo'ja sarbozlariga topshirildi. Usmonbek Oqcha Xo'ja bilan qo'rg'onga qaytdi. Sungur oshxonada olov tayyorlab turardi. Lekin Usmon unga:

— Yo'q, — dedi, — Nikeforos tiriklay kerak.

— Qo'y, o'zim eplayman, — dedi Sungur.

Usmonbek kulimsiradi:

— Nima, alashim uchun niyat qildingmi?

Sungur ham kulimsiradi.

Usmonbek zinapoyaga qarab yurdi. Shunda Mixail:

— Olti nafar ekanular, — dedi.

Usmonbek Sungurga qaradi. Yana kulimsiradi:

Yur, Sungur.

Oqcha Xo'ja qat'iy so'radi:

Men-chi, bek?

Usmonbek orqaga o'girildi, jilmaygan holda:

Hoy, Oqcha Xo'ja, — dedi. Ko'rmayapsanmi, zina torlik qilayapti. Shunday deb, zinadan chiqa boshlashdi. Chindan ham Sungur ikkalasi zinapoyada zo'rg'a bemalol harakat qilib ko'tarilishardi. Oqcha Xo'ja ulardanto'rt zinapoya keyinda borardi.

Usmonbek ayvon ko'ringuncha ko'tarilgach, qilichini chap qo'liga oldi. Uning ko'zi ularga qaratilgan qilichlarga tushdi. Ayni chog'da Sungur ham uningharakatini takrorladi.

Bir zina... Yana bir zina. Uchinchisiga qadam qo'yganlarida Nikeforos odamlari bilan ularning ustiga tashlandi.

Xuddi shu payt Usmonbek bilan Sungur bellariga qistirilgan xaltachalaridan portlovchi o'qlarni olib ularga qarata sochdilar. Tashlanuvchilardan ikkitasi o'sha zahoti jon berdi. Boshqalari shoshib qolishdi. Shu bir zumSungur bilan Usmonbekning ayvonga chiqib olishlariga va Oqcha Xo'ja uchunyo'l ochishlariga kifoya qildi.

Endi ular uchga to'rt edilar. Qarama-qarshi ilk hamladayoq ikkiga uch qolishdi. O'sha ikkovidan Nikeforosni Usmonbek mo'ljallagandi.

— Unga tegma, Sungur, — dedi Usmonbek va uning ro'parasiga o'tdi.

Sungur o'jarlik bilan mohirona qilich solayotgan ikkinchi g'animni ham yer tishlatgach, Oqcha Xo'ja singari bo'sh qolib, Usmonbekning savashishini tomosha qila boshlashdi.

Nikeforos g'azablanar, Usmonbekning ishni tezroq bir yoqli qilishini istardi. Lekin, aksincha, Usmonbek qilich solmas, uni hamla qilishga zo'rlardi. Uning qilgan barcha hamlasi bexuda ketardi. Oxiri butunlay holdan toydi. Qo'llarini ko'tarolmay qoldi. Usmonbek qilichining teskarisi bilan uning qo'liga urdi, qilichsiz qoldirdi. Yoniga bordi.

Nikeforos uning yuziga, ko'zlariga qaradi. Qaltiraganicha tiz cho'kdi, ingradi:

— Rahm qil!

Usmonbek uning yuziga nafrat bilan qaradi-da, zina boshiga borib baqirdi:

— Qilich tashlab taslim bo'lganlarga aytinglar, Nikeforos ko'pplakni burjdan pastga uloqtiradiganlar bormi? Agar bo'lsa, bilsin, moli, joni omonda bo'ladi. Xohlaganidek yashay oladi.

Bu ishga yetti kishi talabgor bo'lib chiqdi.

— Bo'pti, — dedi Usmonbek. — yettovlon mal'un Nikeforosning oyoq-qo'lidan ushlab olib borib Abdulloh birodarimni tashlattirgan joydan jarga uloqtirishsin.

Nikeforosni sobiq askarlari o'sha burjga olib bordilar-da "bir-ikki-uch" deya siltab pastga uloqtirib yubordilar. Uning chinqirig'i eshitildi, xolos.

Tong otayotir. Aydosda jang nihoyasiga yetgandi. U yer-bu yerda tutun burqsib yotar, lekin yong'inlar ko'rinmasdi. Usmonbekning odamlari shahidlar jasadlarini yig'ishtirishdi, yaradorlarni aniqlab, muolajasi bilan shug'ullanishdi. Bu ishning boshida O'ruz darvesh, Yaxshi Faqi turishdi.

G'ozi Rahmon ham uyoqqa, buyoqqa chopib o'z sarbozlarini to'pladi. Keyin Yaxshi faqining ishorasi bilan tahorat qildi, cherkovning zinasiga ko'tarilib, azon o'qidi, so'n go'z bo'ligi yoniga bordi.

Butun bu ishlari jarayonida, uni kimningdir nigohi ta'qkib etayotganini his qilardi. U o'girilib qaradi. Bu Yevdoksiya edi. Kulib turardi. G'ozi Rahmon uning yoniga bordi, qo'llaridan ushladi.

— Rahmat, senga, — dedi.

Yevdoksiya shivirladi:

— Kunlaring hamisha yorug‘ bo‘lsin. Janglaring hamisha shunday yakun topsin. Tangri hamisha senga yor bo‘lsin. Faqat baxtli bo‘l!

Ovozi biram chiroyli ediki... Shirin. Mayin... G‘ozi Rahmon uning so‘zlarining yarmiga tushunmasa ham hayajonlanib Yevdoksiya bo‘lsa, undan ushlab turgan qo‘lini tortib olib ketmoqchidek bo‘ldi. G‘ozi Rahmon uningqo‘lini mahkamroq ushladi.

— Ketma, qol, — dedi.

Yevdoksiya bo‘ynini egdi.

G‘ozi Rahmon atrofiga qaradi va oldinroqda turgan Ejaboyni ko‘rib:

— Xoy, Ejaboy, qon-qardoshim mening, bu senga omonat, Qutlug‘ Malak singlimga omonatdir, ehtiyot qilinglar, dedi.

Keyin hammaga eshittirib gapirdi:

— Bu o‘sha, bizlarga darvozani ochib bergan qiz bo‘ladi.

* * *

Usmonbek jangchilariga Aydosni yag‘mo qilish uchun ikki kun muhlat berdi. Xohlagan har bir sarboz istagan uyga sohiblik qila olardi. Jonga va or-nomusga tegish mumkin emasdi. Bundan bu yog‘iga Aydosning hayoti uchun Qiyan Saljuq mas’ul edi. Tushunmovchiliklarni Yaxshi Faqi hal qilishi kerak edi. Mahalliy xalq unga bo‘ysunish yoki bo‘ysunmaslikda erkin edi: xohlagan vizantiyalik hakamga murojaat qilishi mumkin edi.

Usmonbek olingan o‘ljalarni g‘ozilarga bo‘lib berdi. Niksforosning boy xazinasi va buyumlarini beshga taqsimladi.

— Bittasi Xo‘ja Qulmashbek birodarimga. Bittasi Qora Gunabek birodarimga. Bunisi Ertug‘mishbek birodarimga. Mana bunisi Cho‘ponbek birodarimga. Qolgan beshinchi ulush esa Qayi qavmiga bo‘ladi. Akam Qunduzbek bilan Dursun Faqiga omonat topshiriladi. Ulushlar har bir bo‘linmaning beklariga topshirildi. Qayiga tegishli ulushni Oqcha Xo‘ja olib ketadigan bo‘ldi. Bu ishlar bitgach, Usmonbek Aydosda qoladiganlardan boshqalarga Domanichga qaytib borishga tayyorgarlik ko‘rishni tayinladi.

Yig'ilish ishtirokchilari qo'rg'ondan chiqa boshladilar. Usmonbekning yonida faqat Oqcha Xo'ja qolishi kerak edi. Lekin G'ozi Rahmon ham chiqmadi. Usmonbek so'radi:

— Biror narsa demoqchimisan, Rahmon birodarim?

— Ha, — dedi Rahmon, — mening botir begim Usmonbek. Men shunga ruxsat so'ramoqchimanki, bizlarga Aydosning darvozasini ochib bergan Yevdoksiya ham Domanichga borsa va mening jufti halolim bo'lsa.

Usmonbek o'ylanib qoldi.

—Rahmon, birodarim, bu mening ruxsatim bilan bitadigan ish emas, dedi. — Dursun Faqidan so'rash kerak bo'ladi. Men shunday deb o'ylayman.

Shunda G'ozi Rahmon:

— Bilib qo'y, Usmonbek, — dedi, — Yevdoksiya bir tush ko'ribdi. U tushida juda ham chuqur bir o'raga tushib ketibdi. Rosa urinibdi, qaytib chiqishning hech ilojini qilolmabdi. U butunlay umidini uzib, taqdirga tan berib turganda o'raning tepasidan yuzidan nur yog'ilib turuvchi kishi o'tib qolibdi va qo'lini uzatib uni chiqarib olibdi.

Yevdoksiya chuqurdan chiqib olib bundoq qarasa, jannatmisol go'zal joy emish. Gullar ochilib, dov-daraxtlar yashnab turganmish. Kapalaklar uchib guldan-gulga qo'narmish, daraxtlar shoxida bulbullar sayrarmish. Chamanzor oralab billurday shaffof suvlar oqayotgan emish. Havosi biram tozza emishki...

Yevdoksiyani qutqarib olgan kishi havodan ham, bulbul ovozidan ham shirin bir tovush bilan daraxtlarga qarab. "Kel" deb chaqiribdi. O'sha zahoti daraxtlar orasidan bir odam chiqib kelibdi. Qiz tushini aytib berganidan so'ng Rahmonga "Kelgan odam sen eding. Meni qutqarib olgan esa sizning payg'ambaringiz edi" depti. Yevdoksiya bularni qurshov paytida tushunib qolibdi. U tushidan so'ng, oshiqi beqaror bo'lib, nima qilishini bilmay, dardini hech kimga aytolmay, o'yga tolibdi: "Axir, bu ne xolki, meni bu chuqurdan chiqarib oldi. Ustimga ipak kiyimlar kiydirib bir yigitni chaqirdi va meni uning yoniga qo'yib ketdi. Hayotimda biror narsa ro'y bersa kerag-ov". Lekin nima qilarini bilmabdi, ko'zlari va ko'ngli kundan-kun g'amga botib boraveribdi. Shunda

qamal va jang boshlanibdi. Qiz bo'lsa, "men ham borib jang qilay" deya Aydos devoriga chiqqan ekan. O'sha yerdan turib Usmonbekning chodirini ko'ribdi. Yevdoksiya ikki kun davomida o'sha joydan turib palaxmonni ishga solibdi, tosh otibdi. Ikkinchi kun choshgoh payti ro'paradagi sarbozni ko'rib qotib qolibdi. Chunki bu sarboz tushida ko'rgan o'sha yigit ekan. Endi unga qarashdan boshqa hech narsa qilolmay qolibdi. Uchinchi kuni ertalab yana yugurib qal'adevoriga chiqibdi.

G'ozi Rahmon azon o'qiyotgan ekan, chiqib kelayotgan oftob nurlari uning yuzida jilolanibdi. Ammo bu nur uni emas, Yevdoksiya ko'rgan tushni oydinlashtiribdi. "Ha, gap bu yoqda ekan-da" deb, devordan tushib, uyiga chopibdi va xat yozibdi.

* * *

G'ozi Rahmon Yevdoksiyaning bu gaplarini rumchani yaxshi biladigan Ejaboy tarjima qilib berganidan keyin tushunibdi. Qiz so'zlarini shunday tamomlabdi: "Ey, ismini men bilmaydigan yigit, endi sen nima istasang mening taqdirim o'sha bo'ladi".

Usmonbek bu gaplarni eshitib, Yevdoksiyaning Do'durg'a bo'linmasiga topshirilganini bilib:

— Qiz Qutlug' Malakda qolgani ma'qul. Biz borib biladiganlardan surishtiraylik. O'ylashimcha, Rahmon jo'ra, oxiri baxayr bo'ladi, — dedi.

Usmonbek bo'lgan gaplarni Dursun Faqiga tushuntirdi:

— Nima qilsak ma'qul bo'ladi? — deb so'radi.

— Bek, — dedi Dursun Faqi, — qiz haq yo'liga da'vat qilinibdi va u haq yo'liga kirishni istaydi. Buning ustiga G'ozi Rahmon sening yo'ldoshing. Qarshi chiqish yaxshi bo'lmaydi. Ammo, shuni aytishim kerakki, qiz tilimizni bilmaydi, urf-odatlarimizni bilmaydi. G'ozi Rahmon ham uning tilini bilmaydi. Bu oilada ancha muammolar tug'dirishi mumkin...

U to'xtab qoldi. Peshanasi tirishdi. Usmonbek ham hayron edi.

— Menimcha shu, dedi Dursun Faqi boshqa nima deyishni bilmay.

Lekin Usmonbek ham bo'sh kelmadi:

— Menga qarang, Dursun faqi otaxon, — dedi, — bu qiz oldida katta qarzdormiz. U bizning Aydosni olishimizni osonlashtirdi. Aytaylik, Aydosni unga berib, qarzimizni uzsak. Lekin ko'ngil qarzini qanday o'taymiz? Orada muhabbat bor, axir. Buning ustiga qiz musulmon bo'lishni xohlayapti. Uning tilagini amalga oshirish bizning burchimiz. Xo'sh, ayting-chi, Dursun Faqi, o'z elatidan ajralib qolgan bu qizni haydab yuborsak, qolaversa, o'zimizdan chetlatsak, joiz bo'larmikin?

Dursun Faqi bosh egdi, soqolini o'ynadi, keyin esa, qat'iy ohangda:

— Albatta, joiz emas-da, bek, — dedi. — Men aqlim bovar qilganinigina aytayapman. G'ozi Rahmon qizni olmasin, deyayotganim yo'q. Oladigan yo'lini topsin, deyapman.

Usmonbek o'rnidan turdi, bir qarorga kelgan edi.

— Menga qarang, Dursun Faqi. Men qizni Do'durg'adan olib, yangam Oyna Malak chodiriga eltib qo'yaman. Oyna Malak shahidning onasi, shahidning rafiqasi. Buning ustiga ota yuzini ko'rmaydigan shahid go'dakni kutayotir. Bonu chechak qizga tengdosh. Qiz to So'g'udga borguncha bu chodirda qoladi. So'g'udgaborgach, bir muddat Oyna Malak yangamning uyida yashaydi. Til o'rganadi, urf-odatlarimizni bilib oladi. Qayi qizi uchun er nima, uy nima ekanini o'rganadi. Chunki, ko'ngil o'rganishni osonlashtiradi. Nima deysiz?

— Ma'qul gap, bek, — dedi Dursun Faqi.

Usmonbek baxtiyor edi, darrov G'ozi Rahmonni chaqirdi.

— Labbay, bek, — deyishga zo'rg'a ulgurgan G'ozi Rahmonni u quchoqlab, bag'riga bosdi. Hozir Usmon uning uchun bek emas, haqiqiy jo'rasi, aziz do'sti edi. G'ozi Rahmon buni his qilishdan baxtiyor edi...

Bundan keyin hammasi Usmonbek aytganiday bo'ldi.

* * *

Yevdoksiya ilk oyatlarni va ularning ma'nosini Dursun Faqidan eshitdi. Uning yordami bilan Kalimai Shahodat keltirdi va o'z istagi bilan Saniya ismini oldi. U o'n olti yoshga to'lganda

qaytadan tug‘ilganiga ishonardi. Qutlug‘ Malak u bilan opa-singil tutindi.

— Mening erim G‘ozi Rahmon bilan qon-qardosh, aka-uka tutingan, — dedi Qutlug‘ Malak.

Saniya Do‘durg‘a yaylovidan Oyna Malakning chodiriga kelganida “oxirat, qardosh, erkak, ayol, er, chodir, o‘g‘il, ona, shahid, g‘azobot, qiz, suv, non, kabob, qo‘y, ot, tuya, qatiq, sut” singari qirk-ellik kalima bilan “Fotiha”surasini o‘rganib olgandi.

Ejaboy G‘ozi Rahmonga, Qutlug‘ Malak esa Oyna Malakka alohida-alohida, lekin ayni bir gapni aytishdi:

— Juda oson ilg‘ab, o‘zlashtiryapti, mosholloh!

Usmonbekning o‘ylaridan xabardor Ejaboy Rahmonga ko‘z qisdi:

— To‘ying tez orada bo‘ladiganga o‘xshaydi...

O‘tovdagi xotin-qizlar Saniyani juda yaxshi qabul qilishdi, o‘z singillariday muomalada bo‘lishdi. Bunga javoban Saniya ham ularni o‘ziga yaqin oldi, mehrini qozondi. Turklarning urf-odatlarini o‘zlashtirdi. Ayniqsa, namoz suralarini tez o‘rganishi keksa ayollarning e’tiborini tortdi.

Kunlar o‘tib borardi. Bu orada Oyna Malak o‘g‘il ko‘rdi. Chaqaloqning boshi uzra engashgan Saniya:

— Xush kelding, Boyxo‘ja, — dedi erkalab. Shu tariqa shahid ketgan Savjibek o‘g‘lining va shahid Boyxo‘ja ukasining ismi Boyxo‘ja bo‘lib qoldi.

Shunday bo‘lishini, xususan, Usmonbek ham lozim topdi. Oyna Malak erkining tilagi sifatida o‘g‘lining ismini Erto‘g‘rul qo‘ymoqchi edi. Lekin Usmonbekning xohishi boshqa edi. Saniya: “Xush kelding, Boyxo‘ja deganda unga Ada Bolini eslatdi, Zumrad Anqoni eslatdi. Ulkan Jome masjidi qurilgan Ikizja davrini yodiga soldi. Usmonbek otasi Erto‘g‘rulbek g‘oziyning o‘zida, Usmonda yashayotganini, Usmonning ham o‘g‘li O‘rxonda yashayotganini o‘ylagandi. Shu boisdan chaqaloqqa Boyxo‘ja ismini lozim topdi.

* * *

So‘g‘udga qaytib tushishni orqaga surgan kuzning yaxshi kelishi tufayli Rahmon bilan Saniyaning to‘yi Domaniyada o‘tkazildi. Yuzlarcha, ehtimol minglarcha to‘ylarga guvoh bo‘lgan Domanich bunaqa to‘yni ko‘rmagandi. To‘y boshlangandan tugagunga qadar unga Usmonbek bosh-qosh bo‘ldi. Uning o‘zi to‘y kuni Aydosga maxsus chorlovchilar, Saniyaning dugonalari va qarindoshlari uchun ataylab elchilar yubordi.

Ana shu da’vat bilan Kiyan Saljuq va Yaxshi Faqining ishlari yanada ko‘paydi. Chunki to‘yga Aydosdan vizantiyalik yosh yigit-qizlar juda ko‘p keldi. Kelganlar orasida kam bo‘lsa ham aydoslik, inago‘llik, Qorajahisorlik keksa, yosh ayol va erkak vizantiyaliklar ham bor edi. Ular sovg‘a-salom olib kelishgandi.

Usmonbek ham ularga qimmatli armutonlar hadya qildi.

To‘yning ikkinchi kechasida Usmonbek ziyofat dasturxonida Do‘lurg‘a begi Qora Gunani, Alqauy begi Ertug‘mishni, Bayot begi Xo‘ja Qulmashni va boshqa urug‘lar beklarini qoldirib chiqdi. Ketayotib imo qilib Sungurni chaqirdi. Unga:

— Sungurim,— dedi,— Rahmonni, Qo‘nurni, Saltuq va Oqcha Xo‘jani olib, Sivriqoya pastiga, jarlik bo‘yiga yetib bor.

U tayinlagan joy bir vaqtlar Ada Boli bilan gulxan yoqib suhbatlashgan o‘ngur edi. Ko‘p o‘tmay o‘sha yerda uchrashishdi.

Usmonbek oldindan tayinlagan, yeyimlik, ichimliklardan oldirib olgandi, archa shoxlaridan kestirgandi. Yonida noni ham bor edi. O‘t yoqishli, olov atrofida yonma-yon o‘tirishdi. Usmonbek Hozir Usmonjon edi. U nay chaldi. Boshqalar ham, hammalari yoshliklarini esladilar. Inago‘lga, Inonyuga, Eski shaharga sozu suhbat qurgani, ziyofatu to‘y-tomoshalarga ot yeldirganlarini, ermak uchun qilich urib, mushtlashishgan kunlarini xotirlashdi.

Usmonbekning iltimosi bilan G‘ozi Rahmonning ovozi yangradi. Tong oqaraboshlaganda tarqalishdi.

Ertasi kuni tushga yaqin Saniyani Oyna Malak va Malhun Xotun, Amina va Bonu Chechak yordamida bezatilgan tuyaga mindirishdi. Kelin tuyasining bir yonida Usmonbek, ikkinchi yonida Do‘durg‘a begi Qora Guna; ular bilan yonma-yon Xo‘ja Qul-

mash va Ertug'mishbek borardi. So'g'udga kiraverishda hamma to'planib turardi. Kelinni cholg'u va qo'shiqlar bilan kutib olishdi.

Ko'p o'tmay, ularning orqasidan G'ozi Rahmon kuyov jo'ralari bilan ot eldirib etib kelishdi. Otlaridan tushishdi. G'ozi Rahmon asta yurib, kelin tuyasining oldiga bordi. Usmonbekni, boshqa beklarni, keyin kelinni quchoqlab bag'riga bosdi. So'ngra tuyani yetaklab maydonning o'rtasiga olib bordi-da, to'xtadi. O'q qo'yib, yoyini tarang tortdi. Tevaragiga ko'z yugurtirdi. U joyni tanlagan edi. U o'qini uch yil burun Usmonbek tomonidan yoniga shiypon qurdirib, qardosh beklar bilan bitim tuzgan oqxarsang toshga qarata uchirdi.

Chodirlarini o'sha joyga qurishdi. Hamma ularning baxtli bo'lishlari uchun duo qilishdi. Saniya Qayi qizlarini bittasiga aylangandi-qo'ygandi. Yurish-turishida, xatti-harakatida hech qanday begonalik ko'rinmasdi. Kuz oftobi ostida rangi yanada go'zal tus olgan qizil ko'ylak va nim moviy rang durrasi unga juda ham yarashib turardi.

* * *

Usmonbek baxtiyor edi, chunki G'ozi Rahmon endi o'z baxtini topgandi. Usmonning G'ozi Rahmonga mehri boshqacha edi. O'zi uchun Qunduz akasi va Oyna Malak yangasi qanday bo'lsa, G'ozi Rahmon uchun Ejaboy va Qutlug' Malak xuddi shunday edi. Usmonbekning ko'ngil shodligi aynan shundan edi. Lekin ertasi kuni Usmonbekning baxtiyorligini yanada oshirib yuborgan bir voqea yuz berdi. Saltuk kelgan edi. U Usmonbekka:

— Ko'sa Mixal seni ko'rmoq istaydi, — dedi. — Hozir Sivriqoyada kutayapti. Ko'sa Mixal — Mixail Kossesning o'smirlik davridan qolgan va do'stlari orasida keng tarqalgan ismi edi.

Usmonbek Mixailni G'ozi Rahmonning to'yida ko'rmagani uchun uning kelishiga jiddiy e'tibor berdi. Ovqat tayyorlayotgan MalhunXotunni chaqirdi:

— Hoy, onasi, O'rxonni ol, - dedi va Sivriqoyaga shoshildi.

Mixail o'sha yerda, Burguttepaning orqasiga botayotgan oftobni kuzatardi.

To'rt-besh qadam qolganda Usmonbek:

— Yaxshimisan, Mixail? — dedi

— Meni Abdulloh de, Usmonbek, — dedi Mixail va o'tirgan yeridan bir vaqtlar Usmonjon sakraganday irg'ib turdi va bekning qarshisida uning yo'ldoshlaridan biri singari, Sungur kabi, Oqcha Xo'ja yoki G'ozi Rahmon misol turdi, quchoqlab, bag'riga bosdi, qo'l qovushtirib bosh egdi.

— Meni endi Abdulloh deb chaqir, Usmonbek, — dedi takrorlab yumshoq ovozda, so'ng qo'shib qo'ydi: Nikeforos burjdan tashlattirgan Mixail Kosses edi. Endi Abdulloh menman. Abdulloh bo'lishni istayman...

Usmonbek qo'llarini ochib uzatdi. Bu qo'llar go'yo jarlikning bir tomonidan ikkinchi tomoniga cho'zilib uni o'z yoniga tortib olganday bo'ldi. Usmonbek Abdullohning yelkasidan quchdi, bosiq ovozda shivirladi:

— Endi Abdullohsan, yo'ldoshimsan...

Ikkovi Sivriqoya ostida, ko'kda yulduzlar miltillay boshlaguncha o'tirishdi.

Ko'sa Mixal gapirar, Usmonbek tinglardi.

Ko'sa Mixalning ko'ngliga ziyo — endi u aniq tushuna boshlagandi — Inonyu kechasida, Az-Zohidning hujumidan keyinoq tushgandi. Keyin esa, Usmonbek yoki Qayiqavmi bilan, boshqa turklar bilan aloqalar, bordi-keldilar jon baxsh etgandi bu ziyoga. Bir tomonda So'g'ud vohasi, ikkinchi tomonda Harmonqoya bilan Vizantiya borgan sari yorishib borardi bu ziyodan. Ko'sa Mixal uchun haqiqatni oydinlashtirardi. Endi hamma narsa, har bir odam bu ziyoni kuchaytirardi.

Tag'in bir oqshom, o'n olti sarbozi bilan Qo'nur Alp yetib keldi. Usmonbek Ayo Nikolaning Xarmonqoyaga, Kosseslarning qo'rg'oniga hujum qilishidan xabar topib, bosqinning oldini olish uchun yuborgandi uni. Bosqin qaytarildi, tajovuzchilarning adabi berildi. Kosseslarning jonlari hamda mol-mulklari qutqarib qolindi. Nega? Nima uchun?

Mixal kechasi bilan o'ylab chiqdi. Lekin javob topolmadi bu savollarga,"Non-namak haqqi... Birga o'tkazgan shirin damlar, qurilgan ajoyib suhbatlar haqqimikin?"

Keyin eplab qilich ushlashni ham bilmaydigan Mahmudbekning hayqirig'i:

— Bu qanaqa odat, Zohidbek? Mehmon tutib beriladimi?!

Va "Senga nima yarashsa shuni qil... Men mehmonni bermayman" — degani...

So'ngra jangdan qaytgan Usmonbekning unga va boshqa rum jo'ralariga biror sitam, zarar yetkazmay nay chalishi... O'sha oqshom bu nay ovozida bir-biriga zid ikki dunyo borligini yangidan his qildi. Birida: Kalanozlar, Ayo Nikolalar, Aleksiuslar, Niksforoslar, Xarmonqoyaning va boshqa shaharlarning kashishlari, takfurlari, ikkinchisida: Mahmudbeklar, Qo'nur Alplar, G'ozi Rahmonlar, Sungurlar, Saltuqlar, Oqcha Xo'jalar. O'ruz darveshlar, Dursun Faqilar, rafiqalari, bolalari, onalari, otalari va bir-biriga munosabatlari bor edi.

So'ngra, Yog'li bozorining qutqarilishi.

So'ngra, Qulajahisordagi afv dostoni!

So'ngra, Erto'g'rulbek g'oziyning rafiqasi, Usmonbekning onasi Janqizning vafoti va dafn etilishi.

Mixal mozor tepasida Erto'g'rulbek g'oziyni va o'g'illarini fotihaga qo'l ochib duo qilarkan, o'limdan ham, hayotdan ham boshqa bir narsaga mas'uldek his qildi o'zini. Dursun faqi bilan Qumral Abdal Qur'on o'qirkan, ularning tovushlari ufqlar ortidan kelayotgandek sehrli tuyuldi unga.

O'sha mozor boshida Mixal ham qayiliklar singari osmonga qarabqo'l ochganini va ko'zidan yosh oqqanini yaxshi eslaydi. U ham xuddi qayiliklar singari Jonqizning qabriga tuproq tashlagandi o'shanda. Yana, o'qilayotgan Qur'on tovushlari... Dursun Faqining, Qumral Abdalning, Hafiza Gulishiqning tovushlari boshqa qaytib chiqmaydigan bo'lib quloqlariga, miyasiga quyilgan edi. Va Mixal endi shu qarorga kelgandi.

Usmonbek ham yaxshi eslaydi. Xuddi o'sha kunlarda Mixail Kosses: "Mening ba'zi yashirin niyatlarim bor, Usmonbek. Vaqti kelishi bilan senga aytaman. Hozircha tilagim shuki, o'sha paytgacha men senikiga kelmayman, sen ham menikiga hech kimni yubormay tur", degan edi.

Mixal yashirin niyatini faqat Dursun Faqiga ma'lum qilgandi. U ham Mixalga Qur'on o'rgatadigan birortasini topishini va'da qilgandi. Dursun Faqi Mixalga — uning otlariga ham qaraydigan bir nag'alchi yubordi. Nag'alchi Ada Bolining muridlaridan Yasin darvesh edi. U yaxshi mulla edi. Mixalning arabchani sal-pal bilishi esa ishni ancha osonlashtirdi. Xullas, Aydos qal'asining qamali kunlarida Mixal "Qur'on" o'qib, tushuna boshlagandi. Xotini ham ayrim suralarni yodlashga kirishgandi.

Qamalning uchinchi kuni ertalab, Rahmon o'qigan azonni ichida takrorlab, Dursun Faqi huzuriga borishga qarorqildi. Ayni chog'da Yevdoksiya o'n besh yigirma qalam narida G'ozi Rahmon o'qiyotgan azonni tinglab turgandi. Mixal uni ko'rib hayajonlanib ketdi.

— U mendan ko'ra dovyurak ekan, - dedi Mixal.

Keyin Mixal chindan ham Aydosdan to'g'ri Dursun Faqi huzuriga bordi va uning oldida, odatga muvofiq, Kalimai Shahodatni keltirib, Haq diniga kirdi.

Dursun Faqi ism xususida:

— Seni Ko'sa Mixal sifatida bilishadi. Shundaylikcha qol. Abdulloh — ikkinchi isming bo'lsin. Xohlagan shu ism bilan chaqiradi, — degandi...

Hozir esa:

— Sen meni Abdulloh deb chaqir, bek, — dedi Mixal, — bundan boshim osmonga yetgay. — Keyin qo'shib qo'ydi:

— Ishongan odamlarimga ahvolimni tushuntirdim. Nega bundayligini anglatdim. Buni ma'qul ko'rganlar qoldi. Menga ergasha olmaganlarning javobini berdim. Ishona olmaganlarimni ham o'zimdan uzoqlashtirdim. Uncha ko'pchilik emas. Endi butun mol-mulkim bilan, mingtacha yilqim va qolgan o'ttiz nafar odamim bilan sening xizmatingdaman: qabul qil...

Mixal hammasini gapirdi, tushuntirdi. Lekin Usmonjonning Kalanoz bilan o'zining hayotini saqlab qolgani haqida lom-mim demadi. Bu qarori uchun tashakkurlik burchini hisobga qo'shmadi. Bu narsa Usmonbekni yanada sevintirdi. Chunki imonining sofligi shundoq ko'rinib turardi:

— Hey, Abdullohim, — dedi Usmonbek hayajonlanib, — hyey, menga Abdullohni qayta toptirgan og'aynim; joying boshqa jo'ralarim yonida, Qayiga ko'p xizmating singgan. Endi o'zing ham Qayi qavmidan bo'lding. Xudoga shukur.

* * *

O'sha ko'z juda xayrli keldi. Qariyalarning aytishlariga qaraganda, bunaqasi hech bo'lmagandi. Domanichda kechalar yozdagidek salqin bo'ldi. Kunduzlari esa may oxirlari, hatto iyun o'rtalarini eslatardi. Ayollardan tashqari qo'ylar, otlar, tuyalardan tortib barcha jonivorlar yayrab yurishardi. Xotin-qizlar endi uylariga qaytmoq istashardi, qish uchun qilinadigan bir talay ishlaribor edi ularning.

Malhun Xotun buni aytganda Usmonbek:

— Rost aytayapsan, — dedi.

Barcha o'tovlarga xabar qilindi, besh kundan keyin yaylovdan qaytiladigan bo'ldi.

Bu orada Usmonbek O'rxonni otiga mingashtirib, Benlibuzga mingan Malhun Xotun kichik o'g'li Alouddinni quchog'iga olib yo'lga chiqishdi. U Harlaq va Ikizjadan xabar olmoqchi edi.

— Bir ko'raylik-chi, Go'kcha baji nima qilayapti ekan? Ikizjaning ahvoli qanday ekan?

Harlaqda vaqt ham, odamlar ham ishini yaxshi uddalardi.

Bolalar ulg'aygandi. Yangi chaqaloqlar tug'ilgan, yangi to'ylar o'tkazilgandi. Yangi o'ylar qurilib, qishloq orqadagi tepaga qarab uzayib ketgandi. Yangi ariq qazilib, u tomonga suv o'tkazilgan, ikkinchi tegirmon ishga tushirilgandi.

O'sha ariq suvida ham o'rdaklar suzib yurardi. Go'kcha baji ularga qarab turgan Usmonbekka kulib:

— Hoy Usmonbek, — dedi,— hammasini ham boshqa kurk o'rdaklar ochishgan.

Demak, tuxumlardan chiqar-chiqmas o'zlarini suvga otganlarida orqalaridan chirqirab qolgan tovuqlar yo'q edi. Usmonbek kulimsiradi.

Harlaq o'zgarib borayotgandi. Temirchilar, sarrojlar, duradgorlar to'quvchilar, ot-ulov, qo'y-qo'zilari hammasi bir joyda. Onalar

navbatma-navbat boqayotgan bolajonlar ko'paymoqda. Bog'u rog'lar, ekinzorlar ko'payib bormoqda. Usmonbek Go'kcha baji bilan O'ruz darveshdan:

— Aydosga borishni xohlovchilar topilmasmikin? — deb so'radi.

Go'kcha baji o'g'liga qaradi, shunda Usmonbek qo'shimcha qildi:

— Ko'chsanglar yaxshi bo'lardi.

— Xo'p bo'ladi, bek, — dedi O'ruz darvesh.

Usmonbek tushuntirdi:

— Xohlovchilar Aydosga borsin; birodarim Ertug'mishbek o'g'li Qiyan Saljuq va yana Yaxshi Faqi bilan gaplashsin, uy-joy solsin, bog'-rog' qilsin. Shunda Aydos o'zimizniki bo'ladi.

Kech kira boshlagandi. Usmonbek otlarini so'radi:

uy-joy solsin, bog'-rog' qilsin.

Hali yo'l yurishimiz kerak. Ikizjani ham ko'rib o'tmoqchiman.

O'ruz darvesh yoniga beshta otliqni olib ularga qo'shildi. Tepalikni aylanib tushib borishardi. Pastlar g'ira-shira edi. So'nggi muyulishni aylanib o'tishgach, tevaragida Savji va boshqa Ikizja shahidlari yotgan keksa archa yaltirab ko'rindi. Qandillar yoqilgandi. Ikizja endilikda Inago'lga ochilgan vodiyni va Domanich yo'lini to'sib turgan qal'ali bir qishloq edi. O'ruz darvesh:

— Qal'a mustahkam, bek, — dedi. — Ikizjadagilar va qandilli archa, Domanich hamda So'g'ud yo'lini asrab turadi.

Usmonbek vodiydagi shiddatli olishuvning keyingi yozida Ikizjaga birinchi bor kelganini o'ylar edi. Go'kcha bajining so'zlarini eslardi. Tizginni tortib otlarini to'xtatishgandi. Ular Ikizja qal'asiga va tepalikdagi archa daraxtiga qarab turishardi.

— Qishloqlari shu yerda bo'lsin, dedik, bek. Mozorlarimizga ega chiqaylik, qabrlarimiz yonida qishlok bunyod etaylik, dedik. Vaqti-soati yetganlarni ularning yoniga ko'mib ruhlarini shod qilaylik, dedik, bek, — dedi Usmonbek va O'ruzga o'girilib, qo'shib qo'ydi: — Esimdan chiqmaydi, O'ruz. Onang Go'kcha baji shunday degandi o'shanda.

U O'rxonni quchoqiga olgandi. Bir qo'li bilan o'g'lini ushlab, ikkinchi qo'li bilan archani ko'rsatdi:

—O‘g‘lim, yaxshi ko‘rib qo‘y, toki esingdan chiqmasin: o‘sha joyda, archadan yog‘ilayotgan nurlar ostida amaking Savjibek va yana qancha yigit, qancha bahodir, qancha jangchi yotibdi. Yaxshilab qara, unutma, ko‘rayapsanmi, shahidlarning qabrlariga nur yog‘ilyapti.

Keyin O‘rxonni ushlab turgan qo‘lini ham bo‘shatdi, ikki qo‘lini ochib, duo o‘qidi.

* * *

Belgilangan kun tongtarida chodirlar buzildi. Tuyalarga, xachirlar va aravalarga yuklar ortildi, yo‘lga chiqishdi. Turli yaylovlardan kelib uchrashiladigan chorraha maydonida, Qo‘shterak chashmasi bo‘yida otini to‘xtatib, yerga tushgan Usmonbek uchun kutilmagan ish bo‘ldi. An’anaviy uchrashuv marosimi ikkinchi bor buzildi:

— Hoy, Usmonbek, — dedi Qora Gunabek. —Buyruq ber, mana shu olachodir huv anavi oqqoya yoniga qurilsin. Senga aytadigan gaplarimiz bor.

Usmonbek Sungurga imo qildi. Birgalikda yurishdi: Usmonbek o‘rtada edi, o‘ng tomonida Qora Guna bilan Xo‘ja Qulmash; chap tomonida Erto‘g‘mish bilan Cho‘ponbek borardi. Bir necha qadam orqaroqda esa G‘ozi Rahmon, Oqcha Xo‘ja, Saltuk, Qo‘nur Alp, boshqa safdoshlari odimlardi.

Tepalikdagi oq qoyaning yonidagi maydongacha gaplashmasdan borishdi. Shiypon chodir tiklanib, gilamlar to‘shalgunga qadar ham gaplashilmadi. O‘tirganlaridan keyin Usmonbek:

— Marhamat, gapiring Qora Guna birodarim, qulog‘im sizda, — dedi.

Shunda Qora Gunabek:

— Ey, Qayining mard begi, — deya gap boshladi va Usmonbekning ishonchlarini oqlanganini aytib, o‘zi atrofidagi beklar niyatini bayon qildi.

Bilajik ustiga g‘azovot yurishi edi ularning istaklari.

Chunki Bilajik juda boy shahar. Eng muhimi, Bilajik takfuri anchadan beri bugun elatimiz uchun or-nomus va g‘urur yarasi

bo‘lib kelayotir. Qachondan beri unga xiroj to‘lab kelamiz. Bu bizning izzat-nafsimizga tegayapti. Endi bunday yag‘modan qutulish kerak. Hozir Usmonbekda bunga yetarli kuch bor. Bundan tashqari, agar Usmonbek Bilajik ustiga yuradigan bo‘lsa, barcha urug‘lar unga shay bo‘ladilar.

O‘n qadamcha narida tik turib kutayotgan Usmonbek yigitlari hayajonda. Chunki butun urug‘lar Qayi qavmiga birlashish istagida. Beklarning Usmonning bekligini tan olishlariga ishora edi bu.

Negadir Usmonbek jim turibdi. Lablari qisilgan. Ko‘zlari pastlikdagi maydonga qadalgancha, o‘yga tolgan. Guyo aytilgan gaplarni eshitmaganday. Yoki eshitsa-da,tushunmadimi? Yo‘q, unday emas. Usmonbek o‘ylayapti, yetti o‘lchab bir kesyapti, hisob-kitob qilayapti. Uning bu taklifni qabul qilishiga yo‘ldoshlarining ko‘zlari yetmayapti.

Ha, ular yanglishmagandi. Usmonbek, nihoyat, boshini ko‘tarib Qora Gunaga burdi va uning ko‘zlariga qarab:

— Martabali Dudo‘rganing mard begi, muhtaram Qora Gunabek, — dedi, so‘ngra ko‘zlarini boshqalarga bir-bir yugurtirib davom etdi: — Shuningdek rahmatlik otam Erto‘g‘rulbek g‘oziyg‘azovotlarida ishtirok etgan Cho‘pon, Ertug‘mish va Xo‘jaQulmash ulug‘larim, ishonchingiz mening kuch-qudratim, haq amrida tutgan yo‘limiz ziyosidir. Menga bo‘lgan ishonchingizni e’zozlashim va uni oqlashim kerak. G‘azovot uchun yaratilganmiz, g‘azovot uchun o‘lamiz, murod-maqsadimiz shu. Lekin, men Bilajik ustiga g‘azovot qilishimiz to‘g‘ri emas deb bilaman. Buning bir necha sababi bor. Shu boisdan Bilajik ustiga yurishni ma’qul ko‘rmayman.

So‘ngra, Usmonbek “Ey mening ulug‘ dindoshlarim” deya o‘sha sabablarni izohladi.

Eng avvalo, Bilajik Ko‘nyoning do‘sti. Fariblik yillarida Qayining ham,boshqa qavmlarning ham mollarini Javlar va Inago‘l bosqinchilaridan asrab kelgan. Shu boisdan ham Usmonbek birinchi bo‘lib hujum qilib yaxshilikning qadriga yetmaydigan, nonko‘r sanalishni istamaydi.

Ikkinchidan, bu keng muzofotdagi eng kuchli hokimlik Bilajik hisoblanadi. Bilajikka hujum qilinadigan bo'lsa, boshqa hokimlar tashvishga tushadilar va o'zaro gina-kuduratlarni unutib, barcha kelishmovchiliklarga chek qo'yadilar hamda turklarga qarshi birlashadilar. Engkamida qal'asi va qo'rg'oni yo'q tarqoq, bir-biridan uzoq turk qishloqlarini yo'q qiladilar.

Uchinchidan, Bilajik ichkarida; turklarga yo'l ochib bermaydi, aksincha, ochiladigan va ochilishi zarur bo'lgan yo'llarning berkilishiga sabab bo'ladi.

Usmonbek yana boshqa narsalar haqida ham gapirdi.

Ikizja bilan Aydos ham bu keng o'lkadagi hokimlarni junbushga keltirdi.Bitim harakatlarini tezlashtirdi. Hech qanday belgilar ko'rinmasligiga qaramay, Usmonbekka kelib turgan xabarlar Bilajik hokimining ham anashu harakatlar ichida borligidan dalolat berardi.

Usmonbek mana shu sabablar tufayli avvalo Bilajikka keluvchi yo'llarni to'sish hamda Bilajik hokimini, agar Bilajikni darxol zabt eta olishsa, o'zlari tushadigan ahvolga tushirishni ma'qul ko'rardi. Oldin Inago'l, yerhisor, Qorajahisorni olish kerak. Buning uchun Kunyodan yordam so'rashnio'ylayapti.

— Men mana shularni o'ylayapman, shunday qilsak deyapman, — dedi Usmonbekni hoyat. — Mening aziz yo'ldoshlarim, sizlar bunga nima deysizlar?

— To'g'ri aytayapsan! — deyishdi baravariga.

Hammasi Bilajik haqidagi fikrlarga to'la qo'shildilar. Ular bugun kuchlari bilan Usmonbekka yordam berajaklarini e'tirof etdilar. Berilgan va'dalardan ko'ngli tog'dek ko'tarilgan Usmonbek o'yga toldi. Keyin qaddini rostladi. Ko'kragini kerdi. Ha, uning yelkasiga og'ir yuk ortishdi. "Ko'tara olamanmi? Hozircha ko'tarayapman-ku! Mayli, yana ortinglar", deganday bo'ldi.

Ular qish bo'yi tez-tez uchrashib turishga kelishib olishdi. Bir-birlariga yaxshi kunlar, omonlik, sihat-salomatliklar tilab tarqalishdi.

BIR TAROQ MOJAROSI

Vaqt Usmonbekka e'tibor bermay o'tib bormoqda. Lekin Usmonbek ham vaqtga ahamiyat bermayotir. Vaqtning bunday tez o'tishi uni bezovta qilmayotir, shoshirmayotir, qo'rqitmayotir, g'azablantirmayotir.

Usmonbek bu ulkan dunyoning kimga, nima uchun buyuk ekanini va uning qandan kichrayishini tushunib yetgandi. U endi vaqtdan tashqarida edi. Yanaham to'g'rirog'i. Usmonbek vaqtning ayni o'zi edi. Chunki vaqt o'zlashtirilgan va ommalashgan niyatdir. Zero, u Domanichdan qaytganidan so'ng ba'zan sharqda, ba'zida g'arbda gohida esa shimolda mayda hokimliklarni bo'ysundirgan edi. Uning har bir yurishi zafar bilan yakunlanmoqda, taslim bo'lgan qal'alarda haq, adolat o'rnatilmoqda, qarshilik ko'rsatib jang qilganlarni esa yengganidan keyin qahr qilib, yag'molattirmoqda edi.

Eng qatiy buyrug'i bilan or-nomusga, ayollarga, keksalarga va qilich ko'tarib urushmaganlarga tegindirmas, ularning biror tuki to'kilishiga yo'l qo'ymas eli. Yag'modan tashqari birovning mol-mulkini talash va odamlarni asir oluvchilarga nisbatan shafqatsiz edi.

Aydos. Qulaja, Yog'lidan, hatto Inago'l va Qorajahisor singari hokimliklarga qarashli qishloqlardan odamlar haq va ajrim talab qilib, najot istab va shikoyat qilib Usmonbek huzuriga kela boshlagandilar. Usmonbek ana shunday da'volar bilan shug'ullanib, da'vogarning ham, ustidan arz qilinayotgan odamning ham turkmi, vizantiyalikmi, tatarmi, qayilikmi, musulmonmi yoki nasroniymi, kim bo'lishidan qat'i nazar, imkon boricha adolatli xukm chiqarishga harakat qilardi. Lekin bu ish hali boshlang'ich davrida. U adolatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun shoshilmay, nihoyatda ehtiyotli bilan ish ko'rardi. Bir kuni u Malhun Xotunga:

— Loyiq sovg'alar tayyorla, ertaga bir otangning uyiga borib qo'lini o'paylik, — deb qoldi.

Alouddin ham endi otga minadigan bo'lib qolgandi. Uni ham yonlariga olib yo'lga chiqishdi. Bu ziyorat Tepapinarda bayram kayfiyati tug'dirdi. Yulduz Xotun bilan Ada Boli juda ham xur-

sand edilar. Yulduz nabiralari bilan shu qadar ovora bo'lib qoldiki, qiziga parvo qilmay qo'ydi. O'rxonga qarab:

— Xuddi Turg'ut tog'asiga tortibdi, — derdi.

Alouddinni bo'lsa katta o'g'li Mahmudga o'xshatardi.

Ala Boli ham xuddi shunday fikrda. Chunki, O'rxonning o'tirishi-turishi, yurishi va qiliqlari bilan hozirdan jangchilarga o'xshab ketardi. Alouddin ko'proq o'y surishidan fikr egasi bo'ladi, deb o'ylashardi. Buning ustiga ko'p o'tmay ovqat tayyorlashga kirishilgach, O'rxon Husomiddin Turgutga, Alouddin esa Mahmud tog'asiga yopishib olishdi. Ular birgalashib chorboqqa chiqib ketishdi

Yulduz Xotun bilan qizi oshxonada qolishdi. "Xush kelding"-chilar, "Qutlug' bo'lsin"chilar ham chiqib ketishdi. Yakkama-yakka qolishlari bilan Yulduz Xotun qiziga:

— Usmonbekni olam biladi, — dedi. — Xo'sh, mening suluv qizim, ayt-chi, ering bilan qandaysan?

Malhun Xotun ham darhol dardu alamlarini to'kib-solishga kirishdi.

Usmonjon bek bo'lgach, Malhun Xotunning ishi qiyinlashdi. Chunki Usmonbek yedirish, ichirish, kiydirishlardan, qurshovlardan uyiga hech narsa ajratmasdi. Malhun Xotun uylaridan oyog'i uzilmaydigan mehmonlarga ovqat tayyorlash, choyshab yuvishlardan bo'shab, o'z ishlariga, mol-hollariga, og'ilxonalariga qarolmay qoldi. Har kimning mol-mulki ko'payib, boyligi ortib borayapti, ularniki esa kamaygani-kamaygan.

— Sen-chi, sen bularni unga bildirayapsanmi?

— Voy, tavba, qandoq aytaman, oyi...

Yulduz Xotun kuldi:

— Demak, buni oyimga maqtanib, noz qilayapman, desang-chi? — dedi qo'shib qo'ydi.

— Bir yoqda sizlar, bir yoqda xonaqoh... Men ham ich-ichimdan quvonib maqtanardim-u, rahmatlik onamga shikoyat qilib ham turardim. Mayli, sen bora qol, biroz dam ol.

* * *

Bu orada Usmonbek shayx Ala Boliga bezovta ekanini aytib, maslahat so'ragandi. Shayx "yaxshi o'ylabsan" dedi-da, tushuntira

ketdi: Haq uchun yanglish qaror bilan hak yeyishning mas'uliyati bor. Sening biliming yetmaydi, yanglishishning qilichi hamisha boshing uzra turadi. Sen bu ishlarni Dursun Faqiga topshir, xalqning da'vosini u ko'rsin; shunda sening boshing va ko'ngling ozod bo'ladi.

Ala Boli ovqatlanishayotganda, shirin kulib, Usmonbekka Alouddinni ko'rsatdi:

— Men senga Turg'utimni berdim, kel, sen ham menga Alouddinni ber, almashaylik.

Ala Boli Aloudlinda Yulduz Xotun ko'rgan iqtidorni sezib, uni tarbiyalash niyatiga tushadi.

— Mahmud tog'ang yonida bo'lishni xohlaysanmi? — so'raydi Alouddindan.

Aloudlin onasiga, otasiga qaraydi, ruxsat so'raganday bo'ladi. Usmonbek ham so'z navbatini Malhun Xotunga qoldiradi. Unga "gapir" deganday qaraydi.

— Hali erta. Bu qish o'tsin, — deydi Malhun.

Bu gap maqbul bo'ldi.

Shundan so'ng yoshlarni olib xonaqohni aylantirishdi. Otasining topshirig'i bilan Alouddinni Mahmud yetaklab oldi. O'rxonni esa Usmonbekning o'zi boshladi.

— Hoy O'rxonim, — dedi u, — buvang bizni chaqirib o'tirmasin. Biz o'zimiz bora qolaylik. Xonaqohning eshigi hammaga ochiq.

O'rxon bobosi qo'rg'onidan bir olam taassurotlar bilan qaytdi. Yog'li bozoriga borganda bu taassurotlari yanada boyidi. Bozorga So'g'uddan anchagina ot va arava kelgandi. Har kim oldi-sotdi bilan ovora edi.

O'rxon jiyani Boyxo'jani yetaklab olgandi. Boyxo'ja endi o'zi yura oladigan bo'lib qolgandi. Lekin sal oldinroq u tagini ho'l qilib qo'ygan, onasi Oyna Malak uning ishtoni bilan cholvorini yechib olib, beldan pastini yalang'och qoldirgandi.

Oyna Malak, Malhun Xotun, Saniya, Qunduzbek, G'ozi Rahmon va Burla Xotun sal nariroda bir dastgohning tepasida uymalashib turishardi. Yonidagi Boyxo'janing qo'lidan ushlab olgan O'rxon bozorga kelolmagan jiyani Bonu Chechakka olib borish

niyatida taroq tanlayotgandi. Nihoyat bittasini yoqtirib, olish uchun qo'l cho'zdi. Qiziq, xuddi shu payt o'sha taroqqa boshqa bir qo'l ham cho'zildi.

— Buni men tanladim.... dedi qiz ovozi. U rumcha gapirdi.

— Lekin men oldim, — dedi boshini ko'tarib O'rxon. Qizni shundagina ko'rdi. Yirik-yirik chaqnoq ko'zlar, bug'doyrang yuz, qo'ng'ir sochlar, pushti va yupqa lablar. Jilvali qoshlari taranglashib, kipriklari o'q bo'lib otilishga shay.

Bo'yi O'rxonga tenglashay deb turibdi. Beli ingichka. Achchig'lanib qarayapti.

Qiz O'rxonning rumchani juda buzib gapirganini sezib turibdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'rxondek u ham turkchani buzib:

— Lekin men oldim... qo'pol turk, — dedi zarda bilan endi O'rxonniki tutib ketdi.

— Men qo'pol emasman, turk qo'pol bo'lmaydi.

— Qo'pol bo'lmasa bolani shunaqa olib yuradimi? — dedi qiz qizargancha, qo'li bilan Boyxo'janing belidan pastini ko'rsatib.

O'rxon shoshib qoldi va kulishga urinib:

— Yigitning moli maydonda, — devordi.

U qizning g'alati ahvolga tushib qolganini tushundi. Qiz jahlini bosib, kulimsiradi-da, javobini yopishtirdi:

— Unday bo'lsa, sen yigit emassan...

O'rxon dong qotidi. Qiz burildi-yu, shartta jo'navordi. Yigit uning orqasidan qarab qoldi. Keyin sotuvchidan:

— O'zi kim bu? — deb so'radi.

Mudurnilik taroqchi:

— Ismi Xolofira. Yorhisor takfurining qizi, — dedi.

O'rxon shiddat bilan yangasining yoniga bordi:

— Kiydirib qo'ysangiz-chi buni.

Onasidan tortib hammasi kulib yubordi. O'rxon churq etmasa-da, ko'ngliga og'ir oldi. U un to'rt yoshda edi. Cho'ntagida ikkita taroq bor edi.

* * *

O'rxonning tilidan bol tomadi. Onasining atrofida parvona. O'padi, erkalandi, bolakayga aylanadi. Uch kundan beri ahvol shu.

U bozordan qaytib kelgandan beri Malhun Xotunni ko'ndirishga urinadi.

— Oyijon. Mening chiroyli oyijonim. Hammadan suluv oyiginam. O'sha hamyonni menga bering.

— Bu qizlarniki, senga keragi yo'q, — deydi onasi. Tag'in qo'shib qo'yadi:

— Nima qilasan, aytsang, beraman.

U so'rayotgan narsa binafsharang duxobadan tikilib, gullar bilan naqshlangan, ikki cho'ntakli, bog'ichi to'qqizil va sariq ipakdan to'qilgan bir hamyon.

Yo'q, nima uchun kerakligini O'rxon aytolmaydi. G'alati bo'lib, o'rnidan turib ketadi. Onasi ham endi uning "hamyon" so'zini aytmasligini tushunadi. O'rnidan turadi:

— Yur, — deydi.

Qo'l ushlashib zinadan ko'tarilishadi. Hamyon beklarni siylashgan xonada, devorda ilig'liq. Malhun Xotun:

— Ola qol, — deydi. Faqat ishonching hamyon bo'lmasin, bolaman..

O'rxon onasining qo'lini o'padi. O'zida yo'q xursand. Onasidan olgan hamyonning bir cho'ntagiga Holofira yoqtirgan taroqni, ikkinchi tomoniga esa orqasi bo'yalgan tunuka bilan qoplangan dumaloq ko'zguni solib qo'ydi. Bugina emas. O'rxon hamyonning cho'ntaklariga bir necha quritilgan o'tkir isli jambil va binafsha ham joyladi.

U kelasi bozor kunini intiqib kuta boshladi. Yog'li bozoriga bir kun qolganda uning tayyorgarliklarini ko'rib Malhun Xotunning shubhasi battar ortdi.

— Muncha tayyorgarlik nega, bolam? Bozorlik ishimiz yo'qku! — dedi.

— Men bormasam bo'lmaydi, oyi.

Malhun Xotun tashvishini ham, shubhasini ham bildirmaslikka urinadi. Sal oldin u yoqdan olib, bu yoqqa keltirgan cho'michni endi bu yerdan u yerga olib ketarkan so'radi:

— Bo'lmaydi,— deganing nimasi?

O'rxon eshikka yo'l olarkan:

— Oytug‘di akam so‘ragan edi, — dedi-da, chiqib ketdi.

Ertasi kuni MalhunUsmonbekka shipshidi:

— O‘g‘lingiz hamyonni ham olib ketdi.

Usmonbek uning go‘zal sochlarini erkaladi.

— Qo‘y, mayli. Olib ketaversin.

Aslida Malhun Xotun hamyon voqeasini aytib berganidan so‘ng, Usmonbek bu narsaga qiziqib qolib, Saltuq bilan Sungurga tayinladi: “O‘rxonni kuzatib yuringlar, nimalar qilib yurganini bilishim kerak.

Usmonbekka yetkazishgan xabarlarga ko‘ra, O‘rxon garchi bozorga Oytug‘di bilan borgan bo‘lsa-da, lekin u yerda undan ajralib, bozorni to‘rt marta aylanib chiqibdi. Keyin, bozor tarqab bo‘lgach, taroqchining oldiga borib:

— Holofira kelmadimi? — deb so‘rabdi.

Shunda Usmonbek Saltuq va Sungurdan:

— Holofira kim o‘zi? — deb so‘radi va buyurdi: — Tezda aniqlanglar.

Ular aniqlashdi. Eshitib, Usmonbekning peshanasi tirishdi.

Yog‘lining bozor kunlari shu tariqa o‘taverdi. O‘rxon Holofira bilan yilning ilk qori yog‘ishidan bir hafta oldin uchrasha oldi. Qizning qo‘liga binafsharang hamyonni tutkazarkan, kulimsirab:

— Men ham yigitman, — dedi va qo‘shib qo‘ydi: — Mana, molu mulkim.

Holofira esankirab qoldi. To‘xtadi. O‘rxonga qaradi. Qisilgan lablari asta ochildi. Kulimsiradi. Hamyonni olib asta ochdi. Taroqni ko‘rib, boshini ko‘tardi:

— Nima, sevgilingga yoqmadimi? — deb so‘radi.

— Sevgilim emas, jiyanim Bonu Chechak. Unga boshqasini olib borganman.

Qiz hamyonni aylantirib, xo‘p tomosha qildi. Ancha cho‘zilgan jimlikdan so‘ng:

— Buni menga berayapsanmi? — deb so‘radi.

— Agar olsang,— dedi O‘rxon.

— Juda chiroyli... Judayam yoqdi...

Ko‘zlari yana to‘qnashdi. O‘rxon yanada jiddiylashdi.

Onam, qimmatli Malhun Xotun, ulug‘ shayx Ada Boli qizi menga “ishonching hamyon bo‘lmasin” degandilar. Ishonchim hamyon emas.

Holofira kulgisi qistasa ham, o‘zini bosib turibdi. Bezovta bo‘layapti, xatto asabiylashayapti. Tavba, hech o‘ylamagan, bilmagan narsalari bo‘lyapti. Lekin bular ko‘z ochib yumguncha bo‘lib o‘tdi. Holofira, nihoyat, jilmaydi:

— Yaxshi... Unda ishonching bek otang va qimmatli onang ekan-da...

O‘rxonning yuziga qon yugurdi, yelkalarini kerib, ko‘kragini ko‘tardi. O‘sha zahoti javob qaytardi:

— Onam qimmatli, jondan yaxshi ko‘raman. Otam Usmonbek elimizning ishonchi, e’zozlayman. Ammo mening sevgim mendan boshqa ishonchni bilmaydi.

Holofiraning kulgisi to‘xtadi. Rangi bo‘zardi, keyin qip-qizarib ketdi.

U ohu misol bir sakrab uzoqlashdi. Ketib borayapti hamyon bilan... Hamyonni qo‘lida mahkam ushlaganicha ketayotibdi. O‘n, o‘n besh qadam bosgach, yurib borarkan, orqasiga bir o‘girildi-da, qichqirdi:

— Hey... ko‘p yillar omon bo‘l...

* * *

O‘sha kecha Malhun Xotun Usmonbekka:

— Hamyoni yo‘q, — dedi.

Usmonbek uni erkalab, o‘pib qo‘ydi:

— Yo‘qbo‘lsa, nima qilibdi...

* * *

O‘rxon Yog‘li bozoriga serkatnov bo‘lib qoldi. Qorga, yomg‘irga parvo qilmaydi.Ustiga-ustak, Usmonbek ham kechqurun ovqatlanishayotganda, gap orasida:

— Ertaga bozorga boraver, — deb qoldi.

Chunki ikkinchi uchrashuvlarida Holofiraning O‘rxonga:

— O‘zim to‘qiganman, — deya echki junidan yasalgan bir palaxmon berganidan xabar topgan edi.

Qarasa, O‘rxon endi o‘zi juda yaxshi ko‘radigan va hamisha ustun keladigan yoy tortishuvlarni, ot poygalarini, qilich o‘ynatishlarni esidan chiqarganday, jo‘ralar va tengqurlarini palaxmon otishga undamoqda. Holofira to‘qigan palaxmondan otilgan toshga hech kim yetkaza olmayapti. Bundan Usmonbekning ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi.

Ikkinchi tomondan O‘rxonning bozorga serkatnov bo‘lib qolgani va otasining ham unga yon bosayotgani Malhun Xotunni jiddiy tashvishga sola boshlagandi. Usmonbekning tag‘in “ertaga bozorga boraver” degan kechasi eri bilan yakkama-yakka qolgach, so‘radi:

— Hoy, bolalarimning otasi, menga ayting-chi, Yog‘li bozorida nima borki, mendan yashirayapsiz...

Usmonbek kulimsirab, Malhun Xotunni erkalab, o‘pmoqchi bo‘lgandi, eplay olmadi. Xotini uning qo‘lidan sirgalib chiqib ketdi.

— Bilgim kelyapti, — dedi.

Shunda Usmonbek:

Ko‘zlarimning ziyosi Malhunim, hali yaxshi ma’lum emas-ku, deb bu sirni senga ochmagandim, — dedi va gap nimadaligini aytib berdi. Xotinining g‘alati bo‘lib qolganini ko‘rib, so‘radi:

— Suyunasan, deb uylovdim. Nega indamaysan?

Malhun Xotun boshini egdi:

— Men O‘rxonimizga Saljonning qizi, Go‘kcha bajining nevarasi Oybikani olib bermoqchi edim.

Bu gap Usmonbekning kulgisini qistatdi. Qo‘llari Malhunni qattiq qisdi:

— Oyim rahmatli Jonqiz ham menga qilichboz ustozim, otamning yo‘ldoshi Xasan Alpning qizi Sirdamni olib bermoqchi bo‘lgandi...

Malhun xotun aytishga boshqa so‘z topolmadi. Ammo ichidagi dardning osonlikcha bitmasligi ma’lum edi. U O‘rxonga, qolaversa, Qayi kavmiga Harlaq kelinining yorhisorlik bir kelindan ancha foydali bo‘lishiga qattiq ishonardi.

— Ey mening ko‘ngil sevinchim, — dedi Usmonbek, Saniya kelinimni unutdingmi?

— Saniya Tangri in'omidir, — dedi Malhun. Usmonbek bo'lsa, Tangrining O'rxonni ham G'ozi Rahmonni sevgani singari sevib ardoqlashiga ishonardi.

* * *

Qish o'tib, bodom daraxtlari gulga kirgandi. Bu orada ko'p narsalar bo'lib o'tdi. Tug'ilganlar, o'lganlar bo'ldi. To'ylar o'tkazildi.

Shahid ketgan Savjibek bilan Oyna Malakning qizi, Usmonbekning xohishi bilan Do'durg'aga kelin bo'lib ketdi. Qunduzbekning o'g'li Oytug'diga yana Usmonbekning istagi bilan Bayotdan kelin olib kelindi. Usmonbekning yo'ldoshi Saltuqning tog'asi shayx Mahmud haqning rahmatiga qovushdi. Sungurning soppa-sog' va qo'chqorday bir o'g'li o'ldi. Malhun Xotun uchinchi, Saniya ilk farzandini kutayapti.

O'rxon bilan Holofira Sug'udda ham, Yorhisorda ham tillarga tushishdi. U tomonda ham, bu tomonda ham:

— Bu qanday sevgi bo'ldi? — deguvchilar topilib qoldi.

Ammo Yorxisorda qizlarning ko'pi bo'lmasa ham, yigitlar, erkaklar va onalarning hammasi g'azabda. Oralarida o'tga moy purkayotganlar ham bor. Nihoyat, Yog'li bozorida Holofira bilan qo'l ushlashib yurgan O'rxon uch nafar yorhisorlikning hujumiga uchradi.

Saltuk va Sungurning odamlari sal nariroqda. Shu atrofda boshqa yorhisorliklar ham uymalashib turishibdi. Sungur oraga tushdi.

— Ey, otam yo'ldoshi Sungur amaki, siz aralashmang, bu yoqqa turing, — degan O'rxonga parvo qilmasdan uch hujumchidan ikkitasining yelkasidan ushlab chetga tortdi, qolgan uchinchisini ko'rsatib:

— Undan keyin navbat seniki, sendan keyin buniki, — dedi.

Atrofdagilar tinchlanib, maydonda O'rxon bilan uchinchi hujumchi qoldi. Yorhisorlik to'xtab qoldi. Holofira uning yuziga tufladi.

O'rxonning burun pardalari kengaydi. Ko'zlari — otasiniki kabi — qisiq va uchqunli.

Ovozi — xuddi otasiday bosiq va yo‘g‘on:

— Yuragi toza birortasi yo‘qmi? Yo‘qmi birorta erkagi, qani?! — deydi hayqirib.

U kutib turdi. Keyin Holofiraning qo‘lidan ushladi.

Biroq, xuddi shu payt o‘n ikkita Yorhisor sarbozi kelib qoldi. Oldindagi arboz Sungur bilan salomlashib, otidan tushdi. O‘rxonga ham salom bergach, Holofiraga yuzlandi.

— Marhamat, biz bilan yuring, — dedi.

Holofira O‘rxonga qaradi. Qo‘lini qo‘lidan tortib olmagan, iltijo bilan boqdi. O‘rxon nima qilishini bilmay Sungurga qaradi. Sungur boshini egib:

— U borishi kerak, — dedi.

Holofira otasi — takfur Dukasning askarlari bilan boshini egganicha ketdi.

* * *

Sungur bo‘lib o‘tgan voqeani Usmonbekka tushuntirgach, u o‘rnidan turdi:

— Ulug‘im, ot minishni o‘rgatgan ustozim Qora Tekinning uyida uchrashamiz, — dedi. Buning uchun Dursun Faqiga, Oq Temurga, Hasan Alpga va akasi Qunduzbekka xabar yubordi.

Peshinda Qora Tekinning uyida, ikkinchi qavatining ayvonida to‘planishdi. Usmonbek Sungurdan eshitganlarini gapirib bergach:

— Nima qilsak to‘g‘ri bo‘ladi? — deb so‘radi.

Keyin qo‘shib qo‘ydi:

— Yo‘ldoshim Sungur, O‘rxon Holofirani olib qochsa-chi?!

— Yo‘q, bo‘lmaydi, — deya qarshi chiqdi Qora Tekin.— Takfurning qizini olib qochish Erto‘g‘rulbek g‘oziy qonun-qoidalariga xilof.

— Bilaman, dedi Usmonbek, — shuning uchun ham nima qilsak to‘g‘ribo‘ladi, deb so‘rayapman-da.

U Dursun Faqiga qaradi. Qariya bir oz o‘ylab turdi-da:

— Usmonbek, takfur Dukasga sovchi yuborish kerak. Maqbul tadbir shul, — dedi.

Usmonbek hammaga bir-bir qarab chiqdi. Dursun Faqining gapi barchaga ma'qul tushgani ko'rinib turardi. Hammasi shu fikrga qo'shilishdi.

Shundan so'ng Dursun Faqi va Qunduzbek boshchiligida besh kishilik sovchilar guruhini yuborishga qaror qilishdi. Usmonbek shu besh otliqning yoniga sovg'a qilinadigan yuklar ortilgan va o'zlari ham armug'on etiladigan beshta bezatilgan tuyani qo'shib Yorhisorga jo'natdi. Sovchilar uch kundan keyin Yorhisordan tuyalar bilan birga qaytib kelishdi. Dursun Faqi bor gapni Usmonbekka aytib berdi.

Dukas ularni mehmonxonasida emas, boshqa bir uyda mehmon qildi. Uchrashuv ikkinchi kun, kechga tomon, mehmonxona chorbog'ida, tikka turgan holda o'tdi.

Dukas ochiq chehrali, kulib turadigan odam. Biroq uning kulib turishi ham sovuqligini shundoqqina ko'rsatib turibdi. U lablarida Usmonbekning sovuq kulgi bilan hurmat va ehtiromlarini izhor etib gapira boshlagan Dursun faqini tinglab, keyin sovg'a-salom ortilgan tuyalarni ko'zdan kechira boshladi. Dursun Faqi tanishtirgan sovchi mehmonlarning yuziga qaramadi ham.

Armug'onlarni ko'zdan kechirishi tugamaydiganga o'xshaydi. Ulardan ba'zilarini ushlab ko'rdi va yonidagi qal'a qo'mondoniga bir narsalarni ming'irladi. Yoqtiryaptimi, yoqtirmayaptimi, kulayaptimi, yo'qmi, bilib bo'lmaydi. Bu ahvol Qunduzbek boshliq mehmonlarni asabiylashtira boshladi. Nihoyat, Qunduzbek chiday olmadi, yo'g'on ovozi bilan:

— Hoy Yorhisor begi, bizlar biror narsa olmasdan turishga o'rganmaganmiz. Aytadigan gapingni ayt, ketaylik, — dedi.

Dukas go'yo eshitmagandek. Biror tuki qilt etmadi. Ammo ko'p o'tmay, o'sha sovuq tabassum bilan Qunduzbekka o'girildi. Qo'li bilan tuyalardan birining ustidagi gilam xurjunni ko'rsatdi;

— Mana buni olaman, toki Usmonga biror dushmanligim yo'q, bilib qo'ysin.

Sungur xurjunga qarab yurdi. Dukas esa Dursun Faqiga qarab:

— Javobimga kelsak, — dedi, — qizimning ulkan sep-sidirg'asi uchun eng mos odamni hali o'ylab ko'rganimcha yo'q. Uni topsam to'yga Usmonni ham chaqiraman.

Sungur endi uning yonida, so‘zini tugatishini kutib turibdi. Dukas jim qolgach;

— Ol, — deb qo‘llarini uzatdi.

Dukas talmovsirab qoldi. Chunki Sungur bir qo‘lida xurjun, ikkinchi qo‘lida qini va dastasi naqshli bir qilich ushlab turardi. Yasama kulgisi o‘chgan Dukas: Bu nima? — deb so‘radi.

— Qilich, — dedi Sungur bamaylixotir.

Dukas shartta jo‘navordi. Xurjunni ham olmadi.

Ular So‘g‘udga qaytish uchun tayyorlanishayotganda uy boshqaruvchisi Dursun Faqining yoniga keldi.

— Dukas qizini Bilajik takfuri Aleakesning o‘g‘li Trakantiosga bermokchi, — dedi.

Usmonbek bu gaplarni kiprik qoqmay eshitdi. Ancha vaqt shu taxlit turib qoldi. U O‘rxonni o‘ylardi.

— Dukas qilichni olmadimi? — deb qo‘ydi, xolos.

* * *

Bu xabarni Malhun Xotun ham eshitdi. Usmonbekka Go‘kcha bajining nevarasidan gap ochmoqchi edi. Usmonbek unga:

— Shoshmay tur, uyim tiragi, hali erta, —dedi va Malhunni erkaladi, hidladi, o‘pdi. Lekin xayolidan O‘rxon ketmasdi. Usmonbek O‘rxonni, u boshlaydigan buyuk yurishlarni o‘ylardi.

Surgur Yorhisorda yasama kulgili Dukasga xurjun bilan qini va dastasi naqshinkor qilichni ham uzatarkan, “Usmonbek shuni xohlaydi“, deb o‘ylagandi. Sungur hokimning qizini bermasligidan emas, uning bema’ni harakatlaridan keyin, Usmonbek uchun qilichdan boshqa yo‘l qolmaganiga ishongani tufayli va buni isbotlash kerakligiga ishongani uchun... uning e’tiborsizligiga birgina javob borligini, u ham bo‘lsa Usmonbekning qilichi ekaniga ishonganidan uzatgandi o‘sha qilichni.

Sungur, albatta, haq. To‘g‘ri o‘ylagandi. Lekin Usmonbek qilichni boshqacha tasavvur qilmoqda. Albatta, qilich ishlatiladi. Lekin qilichning qini endi so‘roqlardan iborat. Qilich anashu so‘roqlardan tozalanadi, yalang‘ochlanadi. Bu so‘roqlarning qindan farqi yo‘q; qin kabi muayyandir.

"Qayerda? Qachon? Qanday qilib? Nima uchun? Nimani ado etmoq uchun?" Usmonbek Usmoncha[1]dan qutulgan, xalos bo'lgandi. Usmonbek endi Usmoncha ta'siriga bo'ysunmas, uni Qulajahisor, Aydos singari o'ziga bog'lagan edi. Lekin bu tuyg'u Go'kcha baji tilagiga zid emasdi. Usmoncha ko'ngilchanligidan yuz o'girish emas edi. Usmonbek, albatta, Usmonchaning orqasidan, kurk tovug'idan chiqqan o'rdak poloponlarining Harlaq soyiga tushib ketganini ko'rgan ona tovuqday tipirchilamaydi, shovqin solmaydi. Usmonchaning suvga tushishi va sho'ng'ishi kerakligini hamisha biladi. Faqat shunisi borki, endi suvni Usmonbek tanlaydi, suvga Usmonbekning o'zi yetaklab boradi.

Chunki endi Usmoncha nimayu, Usmonbek nima, baribir edi. Endi hamma narsa kattakon bir urug'ga qarab qadrlanardi. Yorhisor qissasi ham shunday va shunga qarab bo'ladi.

Dukasning javobi O'rxonning otasini juda ham ranjitgan edi. Unga juda alam qildi. Lekin Usmonbek "Qilichni olmadi, shundaymi?" deyishdan bir qadam ham nariga o'tmadi.

Ayni voqea boshqa bir sabab bilan qo'shilib Usmonbekning battar g'ashini keltirdi. Bu sabab amakisi Dundarbek edi. U Usmonbekning xatti-harakatini ma'qul ko'rmas, zararli deb hisoblardi. Hatto Aydosda qozonilgan zafardan keyin ham:

— Ikkita borib, bitta qaytadi; Muhammad ummatini qirdirayapti, — degandi. Uni kimdir juda qarib qoldi desa, kimdir beklikni qo'msayapti, der edi. Erto'g'rulbek g'oziyning yo'ldoshlari boshda, Unday qilma, Dundarbek, bu senga yarashmaydi" deyishdi, keyin esa qo'l siltab parvo qilmay qo'yishdi.

Lekin uning gaplarini jiddiylikka olib, yo'llariga g'ov bo'lishda, buzg'unchi, g'alva chiqaruvchi deb bilib g'azablanayotgan yoshlar ham yo'q emasdi. Bir necha marta janjal chiqqan va Usmonbek buҳdan xabar topgandi. G'azablansada, otasining yo'ldoshari singari u ham jiddiylikka olmagandi. Biroq Yorhisordan qo'li bo'sh va xo'rlanib qaytgan sovchilarga aytganlarini eshitib, Usmonbekning jon-poni chiqib ketdi. Chunki Dundarbek to'rt-besh kishining oldida O'rxonga:

[1] Usmon yoshligida erkalab Usmoncha deyishardi.

Cen tufayli otang bekligining ham, Qayining ham obro'sini to'kdi, — dedi.

Bu gap O'rxon ishlayotgan Hamdi ustaning temirchilik do'konida bo'lib o'tgani uchun tez tarqaldi. Garchi uni Usmonbekka hech kim yetkazmagan bo'lsa-da, O'rxon uyiga bir kayfiyatda keldi va yotoqxonasiga kirib ketdi. Ovqatga ham chiqmadi.

Usmonbek Malhun Xotunga:

— Borib qara-chi, nima gap ekan? — dedi.

O'rxon avval onasiga gapirgisi kelmadi, lekin Malhun:

— Otang buyurdi, — degach, voqeani aytishga majbur bo'ldi.

Malhun Xotun orqali voqeadan xabar topgan Usmonbek Alouddinga qarab:

— Hoy bolam, bor, poyabzalingni olib kel-chi, dedi.

Ovozi bosiq edi. Malhun Xotun ham uning nima demoqchi ekanini bilar, shashtidan qaytarmoqchi edi.

— Hoy, uyimning oftobi, quloq soling, o'rgilay sizdan. Bunday g'azab bilan bormang amakingizga, axir u ulug'ingiz bo'ladi.

Biroq Usmonbek ovozini o'zgartirmadi, aksincha, yanada bosiqlik bilan:

— Mening ulug'im, — dedi. Keyin ko'zlaridan o't chaqnab, davom etdi: — U mening ulug'im bo'ladi, Qayining emas. O'g'uzning kattasi emas, Muhammad ummatining kattasi emas.

Etikchasini olib kelgan Alouddinning oyog'ini kiydirib yo'lga tushdi. Dundarbek uyida ekan. Yonida unga tengqur to'rt-beshta mehmon ham bor: Usmonbekning jahliga parvo qilmay, battar g'ashiga tegdi:

— Bu qanaqa kelish o'zi. Na ruxsat so'rash bor, na salomu, na izzat-ikrom.

Usmonbek uning gaplarini tik turganicha eshitdi. U so'zini tamomlagach, boshini ko'tarib asta gapirdi:

— Menga qarang, amaki, sizga bittagina gapim bor edi, ikkita qildingiz. Buyuring, o'tiningizni yoray, suvingizni tashib beray, otlaringizni parvarish qilay. Ammo Qayi ishlaridan uzoq bo'ling. Aralashmang. Kavlashtirmang.

Eshikka qarab yurdi. Lekin chiqib ketmadi. To'xtab, orqasiga o'girildi:

— Bu so‘nggi iltimosim, amakijon. Aks holda... keyin yomon bo‘ladi...

* * *

Domanich kunlari yaqinlashib qolgandi. Vaqt ko‘chish oldi pallasi bo‘lgani uchun yolg‘iz Qayidagina emas, barcha do‘st vodiylarda sabrsizlik bilan safarga chiqishni kutishardi. Ayrimlar, bularning katta ko‘pchiligi O‘rxonga tengdosh yoshlar edi, Holofirani olib kelish uchun Yorhisor qal’asini zabt etishni istashardi. Ba’zilarning ko‘ngli esa hamon Bilajikda edi. Orada Inago‘l yoki Kita deguvchilar ham bor edi.

Usmonbek bo‘lsa, odamlaridagi bunday birlashuvning qanday va qaysi yo‘nalishda yanada foydaliroq bo‘lishini topishga harakat qilardi. Nihoyat, aprel o‘rtalarida bir qarorga kelib ishga kirishdi.

Avvalo, vizantiyaliklar hali Mixail Kosses deb biladigan, Usmonbek yaqinlari Ko‘sa Mixal deb aytadigan Abdulloh va uning odamlari yordamida Harmonqoyani egalladi. Keyin esa vaqtni o‘tkazmay, Sakarya daryosini Beshtoshda kechib o‘tib, So‘rkun ustiga yurdi.

Beshtoshda bir haftadan oshiq kutib turdi. Chunki bir tomondan Qumral Abdalga, ikkinchi tomondan Cho‘pon, Qora Guna, Xo‘ja Qulmash, Ertug‘mish beklarga xabar qilgandi.

Kumral Abdal ellikdan ziyod qilichboz odam bilan darxol yetib keldi. Usmonbek unga:

— Ey, o‘zi va so‘zi shirin Qumral Abdalim, — dedi. — Sizga so‘z bergandim. Mana so‘zimning ustidan chiqayapman. Shu beshtosh endi sizniki. Toabad urug‘ingizniki. O‘g‘lim O‘rxonga yoningizda aytayapman, u ham o‘g‘liga aytsin va shu tariqa butun Usmon zurriyodi bilsinki, Beshtosh bojsiz, soliqsiz siznikidir. Beshtoshni obod qiling. Karvonsaroy va hammomlar ko‘rdiring, masjid soldiring, bozor bilan yashnating.

Keyin O‘rxonga o‘girildi.

— Ey, o‘g‘lim, so‘zim so‘z, unutmagin..

So‘rkun ham osongina qo‘lga kiritildi. Chunki Somsa chovush bilan ukasi Sulamish bir yildan ziyod o‘sha yerda yashab, xalk orasida xurmat qozonishgandi. Javdar va Inago‘ldagi talon-

chilardan bozorlarni qo'riqlab ishonchni mustahkamlashgandi. Usmonbek kelishi bilan darvozalarning ochib berilishining boisi shundan.

Usmonbek Beshtoshda bo'lgani singari Surkunda ham asir olinishiga ruxsat bermadi, mol-mulkka tegdirmadi. Bu orada o'ziga qo'shilgan boshqa beklari ham uning bu usuliga qarshi chiqishmadi.

Usmonbek shu tariqa ortgan quvvatlari bilan Mudo'rnini ham jangsiz qo'lga kiritgandan so'ng Guynuk atroflarini va Tarakchi yenijasini ko'p qiyinchiliklar ko'rmasdan bosib oldi. Qarshilik ko'rsatgan har joyni yag'molatdi, jangchilarini asir oldi. O'ljalarni Aydosda bo'lgani kabi taqsimlattirdi. Faqat bu safar bir ulush yana orttirdi:

— Bu Ko'nyo Sultoni uchun, — dedi.

Rostdan ham qo'lga kiritilgan joylarga o'z odamlarini qo'yib So'g'udga qaytgach, qilgan ilk ishi ajratilgan armug'onlarni Ko'nyoga jo'natish bo'ldi. U elchi qilib, opasining o'g'li yosh Oq Temurni va uning tengdoshi — Alqauy begi Ertug'mushning o'g'li Qiyan Saljuqni tanladi. Jiyani Oq Temurga birxat berdi. Xatda Usmonbek viloyatning ahvoli va ahamiyatini juda kelishtirib ta'riflagandi. Inago'l, Iznik va Bursa singari bir necha qal'alar qo'lga kiritilgach, Saljuqiylarning barcha yo'nalishlarga yo'l ochuvchi dengizga chiqishlari mumkinligini bayon qilgandi.

Yana xatda qayd qilishiga ko'ra, Usmonbek nomlari sanab o'tilgan qal'alarni sultonga o'zi hadya qilishni istardi. Biroq takfurlar birlashish niyatidalar. Bu vaziyatda istaqlarini amalga oshirish u yoqda tursin, qo'llaridagi yerlaridan mahrum bulishi hech gapmas. Shuning uchun ham Sulton G'azovotga himmat ko'rsatishi, bu tomonlarga yurishi kerak edi.

Usmonbek Oq Temur bilan Qiyan Saljuqni armug'onlar bilan jo'natdi va So'g'uddan yaylovga ko'chish taraddudiga kirishdi.

Ashyolar yig'ilarkan, Malhun Xotunni gam bosdi. Chunki Alouddindan ayrilishlari kerak edi. Uni Tepapinarga, Mahmud tog'asinikiga, xonaqohga yuborishmoqchiydi. Bu ayriliq garchi Usmonbekni ham o'ylantirayotgan bo'lsada, uning dardi ko'proq

Alouddinning nomi bilan bog'liq edi. "Esiz" — derdi Usmonbek. Ug'li shikorga chiqmaydi, Domanichning tepalaridan vodiylarida ot choptirmaydi, qilich chopish, yoy tortish mashg'ulotlari bilan etarlicha shug'ullanmaydi, kurash tusholmaydi, tengdoshlari va akasi O'rxonning baxtiyorligini his etolmaydi.

Harholda u do'sti Sungurga majruh o'g'li uchun aytganlarini unuta olmasdi:

— Qayiga temirchilar, ko'prik soluvchilar, uy quruvchilar ham kerak, ilmli, ziyoli odamlar ham kerak, — degandi o'shanda.

Ko'chish kuni, ya'ni Alouddindan ayrilish, yaqinlashgan sayin yurak-bag'ri ezilayotgan Malhun Xotun so'nggi kecha tilga kirdi:

— Ey, mening yulduz ko'zlim, butun faxr-iftixoringni faqat O'rxongagina ajrataverma; Alouddinimiz ham yuzimizni yorug' qiladi hali...

Ertasi kuni Mahmud kelib, Alouddinni Tepapinarga olib ketdi.

* * *

Domanichda bu yoz juda o'zgarib turdi. Eng muhimi, Oq Temur va Qiyan Saljuq Ko'nyodan sovg'a-salomlar ortilgan tuyalar bilan qaytib kelishdi. Ular ajoyib sovg'a-salomlar bilan birga yaxshi tilaklar ham olib kelishgandi. Ko'nyo sultoni kuzga tomon katta bir qo'shin bilan Usmonbek so'ragan g'azovot uchun yo'lga chiqishini va'da beribdi. Usmonbekni kuvontirgan bu mujdaga qo'shimcha ravishda sulton bitta qilich ham yuboribdi. Qilich hazrati Usmonning qilichi bo'lib, sultonga Misrdan hadya qilib yuborilgan ekan.

— Hazrati Usmonning qilichi — botir begim Usmonga yarashadi, — debdi sulton.

Usmonbek shu qutlug' qilichga loyiq bo'lishni his etib, yoz o'rtalarida Go'l Falonoz ustiga yurish boshladi, qal'ani va takfurlikka qarashli qishloqlarni qo'lga kiritdi. Sulton uchun Inago'l va Bursa yo'lini ancha osonlashtirdi. Endi Usmonbek kechalari Sivrikoyada uzoq vaqt nay chaladi. Nayi bilan kelguvsi zamonlarga, ufqlar va yulduzlarning narigi tomonlarga ovoz berayotganday.

— Usmonbek Qayiga... Qayi O'g'uzga... O'g'uz Haq yo'liga, - deydi u. Hamisha takrorlayveradi. Chunki u osmondagi va yerdagi

qo‘shinlar Allohning o‘rdusi ekanligiga butun idrok kuchi bilan ishonadi.

Usmonbek o‘zini baxtiyor sezmoqda. Uning kuchiga-kuch qo‘shayotgan bu ko‘ngil huzurining manbalaridan biri — qadrdon do‘stlaridir. Oqcha Xo‘ja, G‘ozi Rahmon, Ko‘nur Alp, Saltuq va Sungurdir. Ular safiga endi Ko‘sa Mixal — Abdulloh ham qo‘shildi. Abdulloh Kusa Mixal bilan yoshargan, Erto‘g‘rulbek g‘oziy jang-u jadallariga aralashib orqaga qaytganday bo‘lib tuyulmoqda Usmonbekka.

Usmonbekka yana shunday tuyulmoqdaki, “Alloh urdusi“ so‘nggi ko‘rinmaydigan zamon ichra yolg‘iz hisorlar zabt etishi bilan, ovullar, kentlar, qishloqlar, yaylovlar, daryolar, yerlar olish bilan cheklanmaydi. Boyxo‘jalarni Savjilarni va qanchadan-qancha Ikizja shahidlari bilan, qancha G‘azovotlarnin necha shahidlarini qayta olib keladi, yangilaydi; Abdullohlarni ko‘paytiradi. Va Usmonbekning o‘zi ham necha marta yangilanadi hali.

Usmonbek nayini puflarkan, necha yuz yillar davom etadigan va takrorlanadigan bu yangilanishlarning boshlanganini o‘ylayotir. Chunki, Usmonbek nay chalarkan, O‘rxonni ham o‘ylamoqda edi.

* * *

O‘rxon yigitlikning hijron to‘la damlarini zo‘rg‘a o‘tkazdi. Holofiradan ayriliqdan so‘ng uch oy o‘tgach, sal o‘ziga keldi. U o‘zini ishga urdi. Yaxshi bir temirchi bo‘lmokchiydi. Bu borada o‘zini isbotlashga harakat qildi. Bu orada qilibozlikdan yaxshi saboq oldi. So‘nggi mashqlarning birida, ustozi Sungur yuzi va bo‘ynidagi terlarini artarkan:

— Ey, begimning o‘g‘li, endi sen menga o‘rgat, — dedi.

O‘rxon rostdan ham zo‘r hamla qilar, ustasini shoshirib, tang ahvolga solardi. Qo‘nur Alp sovg‘a qilgan yosh arg‘umog‘i Tarlon bilan ajoyib o‘yinlar ko‘rsatardi. Tengdoshlarining hurmatini qozongandi. Undan to‘rt-besh yosh kattalar ham uning gapiga kirar, aytganini qilardi. Usmonbekni eng ko‘p quvontirgan narsa ham mana shu edi.

O‘rxonning bo‘yi ancha cho‘zilgandi. Garchi yelkalari Usmonbeknikidek keng, qo‘llari unikiday uzun bo‘lmasa ham, juda

baquvvat yigit edi. Bir ayiqni uzoq olishuvdan keyin ag'dargani uchun Domanich keksalari:

— Bu tog'larning eng kattasi, — deyishgandi.

Ayiq O'rxondan eng kamida uch baravar oxir edi. Uning qizg'ish tusdagi yaltirab turgan terisi juda ham chiroyli edi. Ayiq bilan olishayotib O'rxon ancha jarohat olgandi. Bu ishning ustasi Hasan Alp uning jarohatlarini davolayotganda Usmonbek xabar olgani keldi. Chodir oldida turgan Hasan Alpning sayisidan so'radi:

— O'rxon yaxshimi?

O'rxonning ahvoli tuzuk edi. Faqat ayiq panjalarining o'rni ham yaxshi bitmagandi. Otasi ichkari kirdi. Bir-biriga qarashdi. Ikkalasining ko'zlari ham chaqnab turardi.

— O'g'lim, — dedi Usmonbek, — meni juda sevintirding.

— Alloh sevinchingizni doim oshirishini tilayman, begim, — dedi O'rxon.

— Terisini nima qilmoqchisan?

Oyijonimga beraman.

Usmonbek kulimsiradi.

— E, oyingni quvontirish uchun teri shart emas. Mening o'ylashimcha, terini Yorhisorga asraganing ma'qul, — dedi Usmonbek va davom etdi: — Dukas sen yiqitgan ayiqdan kuchli emas.

Hasan Alp ishini nihoyaladi. O'rxon qaddini rostladi. Endi ota-o'g'il qarama-qarshi edilar. Bir-birining ko'zlariga tik qarab turishardi. O'rxonning bo'yiotasinikidan bir necha bo'g'im baland edi. Ota-bola o'rtasidagi yagona farq mana shundan iborat edi. Sochlar, ko'zlar, tanalar rangi, burunlarining bichimi bir-biriga qo'yib qo'yganday o'xshaydi. O'rxonning mo'ylovi ham quyuq.

O'rxon egilib, Usmonbekning qo'lidan o'pdi. Usmonbek ham uni kuchoqlab, yelkalaridan kuchdi. Ikkovi birgalikda Malhun Xotun huzuriga yo'l oldi.

* * *

Yoz oxirlab borayapti. Bu orada Saniya o'g'il ko'rdi. Uning ismini Usmonbekning o'zi qo'ydi:

— Mening yaxshi va yomon kunlarimda ham ajralmas do'stimsan, — dedi

Usmonbek. — Sen Rahmon urug'idansan. O'g'lingning ismi Rahmon bo'lishi kerak. Uni Qora Rahmon desinlar va Qora Rahmon do'stlarga quvonch bo'lsin, yovlarga dahshat solsin.

Qora Rahmonning qulog'iga azonni otasi G'ozi Rahmon o'qidi.

Usmonbekning qizi ham Qora Rahmondan bir yarim oy keyin tug'ildi. Shunda Usmonbek rafiqasi Malhun Xotunga:

— Ey kuch-quvvatim manbai, agar rozi bo'lsang, qizimizga onam ismini qo'ysak, deb Jonqiz qo'ydi. So'g'udga qaytishdan bir haftacha burun u Malhun Xotunga:

— Tepapinarga, ota-onang oldiga borib kel, — dedi.

Usmonbek endi nayni qo'lidan qo'ymasdi. Bir qarorga kelishi kerak. Nay chalib, o'y o'ylaydi. Nihoyat, bir qarorga keldi. Usmonbek bu qarorga kelganida tevarak-atrofdagi vaziyat quyidagicha edi: Qorajahisor takfuri Aleksius endi Ko'nyoni mensimasdi, chunki Ko'nyo Elxoniylar[1] bilan chiqisholmay turibdi. Ko'nyo sultonining Usmonbekka yordamga kelolmasligi aniq bo'lib qoldi.

Germiyon o'g'li ham shu vaziyatdan foydalanib, ko'pdan beri ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q Usmonbekka qarshi oshkora harakat qila boshlagan, yozning oxirlarida So'g'udga talonchilar yuborgandi.

Bilajik takfuri ham sezdirmasa-da, endi So'g'udning xavfsizligiga ahamiyat bermay qo'ydi. Ustiga-ustak, kelayotgan xabarlardan shu narsa ma'lum bo'lmokdaki, Yorhisor va Inago'l takfurlari Bilajik hokimi bilan Qayi va unga do'st qabilalarga qarshi bitim tuzishga harakat qilmoqdalar. Bunday bitim ergami, kechmi tuzilishi aniq.

Shunday bir vaziyatda kutib o'tirmoq mazkur vohadagi turkiy qavmlarning tugatilishini kutish demak edi. Usmonbek do'stlarini Domanichga to'pladi. Niyati Qorajahisor ustiga yurish ekanini aytdi. Uning qarorini qabul qilishdi. Zero, Usmonbek ularga fikrini isbotlay oldi. Qorajahisor qo'lga olinsa, takfurlar itgifoqini parokanda qilish oson bo'ladi.

[1] **Elxoniylar** — Chingizxon avlodlari.

Usmonbek harakat boshlash kunini tayinladi va Harlaq, Qulajahisor, Ikizja va Go'l Falonozga o'sha kunga tayyor bo'lib turishni xabar qildi.

Taqdir burilayotir. Usmonbek buni biladi. Bilgani uchun ham keskin vaziyatda yuribdi. Ammo buning ishonchsizlik va chekinishga aloqasi yo'q. Keskinlik battar uning jahlini chiqarayotir. Usmonbekning butun sa'y-harakatlari bu tanglikning oldini olishga qaratilgan. U kuning kutayotir. Xuddi o'sha kun Usmonbek qo'shinlarini ikkiga bo'ldi. Ularning bir bo'lukiga o'zi lashkarboshi. Ikkinchi bo'lukni Oqcha Xo'jaga topshirdi. Ikki bo'luk oralig'ida bir namoz o'qish vaqtida o'tiladigan masofa qoldirildi.

Usmonbek Aleksiusning o'z xabarchisi deb bilgan Ikarosni ogohlantirdi.

U ham Qorajahisorga borib, takfurga Usmonbekning Germiyono'g'lini bosish uchun vodiyga tushadigan payti va kuchlari miqdorini ma'lum qildi. Aleksius bunga ishponib, butun kuchlarini to'pladi va Ikaros aytgan joyda hujumga o'tish uchun harakatga tushdi. Kuzatuvchilari olgan xabarni aniqlab, hujumga o'tdi.

Garchi Oqcha Xo'ja Usmonbek aytgan vaqtga yetib kelgan, Aleksius qo'shinlariga qarshi muvozanatni ta'minlagan bo'lsa ham, ko'p o'tmay Aleksius xabar yuborgan Germiyono'g'li mingga yaqin suvoriysi bilan jang maydoniga yetib keldi. Natijada qo'shinlar orasidagi tenglik buzildi. Jang ayni qizigan bir pallada Dundarbek jiyani Usmonbekka qarab ot qo'ydi va baqirdi:

— Hoy, Usmoncha, zulm qilayapsan... Ummati Muhammadni qirdirma, chekinaylik!

Usmonbekning jon-poni chiqib ketdi, g'azabi qaynadi. Ko'z ochib-yumguncha amakisining yoniga yetib bordi. Kiyik shoxidan yasalgan yoyini ko'tarib tushirishi bir bo'ldi. Dundarbek otidan qulab tushdi. Usmonbek otining boshiniunga burarkan;

— Bas qiling, amaki, ovozingizni o'chiring, — deb baqirdi.

Lekin u bo'sh kelmay, yana o'dag'aylay ketdi. Shunda Usmonbek yoy tortib, uning ovozini o'chirishga majbur bo'ldi.

Jang kechga tomon nihoyalandi.

Dastlab Germiyono‘g‘li yuz burdi. Usmonbek uning orqasidan ot soldirmadi. Germiyono‘g‘li jangchilarini qochishi bilan vahimaga tushgan Aleksius qo‘shinga jahd bilan hujum qildi. Unin jangchilarini Oqcha Xo‘jali otliqlari bilan qisuvga olib, yanchib tashladi.

Bu orada Usmonbek ikki yuzgacha otlig‘iy hisor darvozalarini to‘sishga yubordi. Qilichdan omon qolganlar va qochishga tayyor turganlar qal’aga kirolmaydigan bo‘ldilar.

Xullas, bir hovuch qochib qutulganlardan tashqari, Aleksius boshliq tirik qolganlar asir olindi. Qorajahisor taslim qilinib, yag‘-molantirildi. Bu ishlar Usmonbek qoidasiga ko‘ra amalga oshirildi. Jonga va or-nomusga teginilmadi. Xohlaganlarning qalladan ko‘-chib ketishiga ruxsat etildi.

Usmonbek din vakillariga, cherkov oldida to‘plangan xalqqa va ko‘chish taraddudida bo‘lganlarga yag‘moning sababini tushuntirdi. Yag‘mo urushning qonuniy natijasidir. Faqat turklargina urushda qatnashmaganlarga tegishmaydi, ular uchun mas’ul, ularni himoya qiladi, tinchligi va osoyishtaligi uchun qayg‘uradi, ishlari va e’tiqodlariga aralashmaydi, alolatni qo‘riqlaydi. Begi Usmonbek aytayapman! So‘zimning ustidan chiqaman, aytganimni qilaman.

“Buni men Qayi Shuni yaxshi bilib qo‘yinglar”, — dedi so‘zini yakunladi Usmonbek.

Bu so‘zlarga mos ish yuritish tez orada butun vohada o‘z ifodasini topdi.

Buning natijasi o‘laroq juda ko‘p qal’a va qishloqlarda Usmonbekka nisbatan hurmat, ehtirom, xatto mehr uyg‘ondi.

Usmonbek takfurni qo‘yib yubordi va Qorajalisorga mas’ul qilib Saljukni tayinladi. Qo‘lga kiritilgan o‘ljalarni olib Domanichga jo‘nadi. O‘ljalar yana beshga bo‘linib, beshinchi ulush tag‘in Oq Temur bilan Ko‘nyoga jo‘natildi. Qorajahisor yag‘mosidan olingan o‘ljadan qo‘lida hech narsa qolmagan Usmonbek bilan O‘rxon edi. O‘rxon ham o‘z ulushini otasi singari Qayi uchun Qunduzbek va Dursun Faqi tasarrufiga yuborgan edi.

Buni bilib qolgan Usmonbek sevinchining cheki yo'q edi.

— Hoy, o'g'lim, — dedi senda beklik alomatlari kurinmokda. Bundan ko'ksim ko'tarilib, boshim ko'kka yetmokda. Endi onangning oldiga bor, qo'lini o'p, duosini ol. Buvang shayx Ada Bolining ham qo'lini upib, duosini, nasixatini ol.

O'rxon jo'ralari — Qo'nur Alpning o'g'li Qora Alp, Ada Bolining o'g'li Husomiddin, bayotlik Ilolmish bilan Tepapinarga jo'nadi.

Bu orada Usmonbek o'ylab yurgan rejalarini tubdan o'zgartirib yuboradigan xabarlar oldi.

* * *

Oq Temur Ko'nyodan yaxshi bir mujda bilan qaytdi: sulton Usmonbekning g'azovotlaridan mamnun ekanini, bunga nisbatan So'g'udni unga in'om etganini bildirgan edi.

Oq Temur gapirib, gapirib ado qilolmasdi:

Sulton Usmonbek elchilarini izzat-ikrom bilan kutib olib, hurmatlarini joyiga qo'yibdi. Qiynalmasliklari uchun vaziri taniqli olim Mehmed Azizga kerakli narsalarning hammasi bajo keltirilishini tayinlabdi. Shu tariqa Oq Temur bilan hamrohlari Ko'nyoda uch kun o'rniga o'n kun qolib ketishibdi. Ular hech qayerda tengi topilmas bog'-rog'larda mehmon qilinibdi. Ko'nyodan jo'nash oldidan sulton ularni yana qabul qildi.

— Mening bir o'g'lim va sultonligimning bir qo'li Usmonbekdir, — dedi u. — Shuni yaxshi bilib va shunga qarab harakat qilaversin.

Usmonbek Oq Temur olib kelgan xabardan xursand, ammo Ko'sa Mixal yuborgan ma'lumotdan tashvishda edi. U vohadagi takfurlarning o'zi haqida qanday fikrda ekanini yaxshi bilardi, lekin Ko'sa Mixalning bildirishiga ko'ra, Bilajik takfuri Aleates ham endi boshqalari bilan birga edi, Usmonbekka qarshiharakatga tushayotgandi.

Allsates, garchi Usmonbekka boshqa hokimlar ko'zi bilan qaramasa-da, qo'rqsa bo'ladigan dushman deb hisoblamasdi. Ammo sovchi voqeasi tufayli Dukas, Holofira bilan O'rxon aloqalaridan ustalik bilan foydalanib, gij-gijlashni boshlab yubordi. Bu bora-

da Dukas yolg'on ishlatib, Aleatesga xabar yubordi va Usmonbekning:

— Qizing Holofira yo o'g'lim O'rxonga yoki qora yerga, deganini, bu bilan kifoyalanmay Aleatesni ham o'g'ilsiz qoldiraman, deb tahdidlar qilganini xabar berdi.

Aleates Holofirani o'g'liga olishni juda ham istardi. Chunki hamma narsadan burun Dukasning qizidan bo'lak bolasi yo'q edi. Holofiraning sepi — qalini oxir-oqibatda Yorhisor bo'lishi turgan gap. Tabiiyki, Aleates o'g'ilsiz qolishni istamasdi.

Ko'sa Mixalning bildirishiga qaraganda, Dukasning miyasiga quygan anna shu ikki ehtimoli tufayli Aleates endi Usmonbekka qarshi qilinadigan har Qanday harakatda ishtirok etishi tayin.

— Ko'zimning nuri Usmonbegim,— dedi Ko'sa Mixal so'zining oxirida, — shuni yaxshi bilib ko'y va shunga qarab harakat qil.

* * *

Usmonbek bir-biriga zid bu ikki xabarning ahamiyatini yagona zaruratga qarab baholadi: har ikkala xabar ham Inago'lni egallashni taqozo etardiy Ko'nyoning ishonchiga loyiq ekanini isbotlash hamda takfurlar birligini Parchalash uchun ham Inago'lni bosib olishi kerak edi.

Usmonbek shunga qaror qilgandi. Amalga oshirish vaqtini belgilagandi. Sira ham sezdirmay sabr bilan kutdi. Yoz tugadi, ko'z o'tdi.

Betoqat bo'layotgan yolg'iz O'rxon edi. Chunki Holofira unga xat yuborgandi.

Bu xatda shunday yozilgandi: "Otam meni Bilajik takfuri Aleatesning o'g'li Trakantiosga bermoqchi. Agar sen xohlasang, onang, otang ham rozi bo'lsa. So'g'udga boraman".

O'rxon bu xatni Usmonbekka berdi.

— Siz nima deysiz? — deb so'radi.

— Menga qara, o'g'lim, dedi Usmonbek. — Holofira kelinim bo'lishini men ham istayman. Lekin bir oz sabr qilish kerak. Ishning sabr bilan bo'lgani ma'qul. Sen buni Holofiraga ham tushuntir. Shirin so'z bilan, ko'ngil rozi bilan tushuntir. Shuni ham

yetkazki, boshqa xabarlashmay turasizlar. Yana shuni ham aytki, sening unashtirilganingni eshitsa, zinhor-bazinhor ishonmasin, zero bu zarurat tadbiridir.

O'rxon otasining aytganlarini bajo keltirganidan keyin bir oy o'tgach, Usmonbek Ko'sa Mixal va Aratun vositasida Bilajik bilan Yorhisorga O'rxon uchun So'g'udga yaqinda Ko'nyodan kelin kelishini bildirdi. Ikki takfurning xavotirini va oradagi keskinlikni bartaraf etdi.

Endi Bilajikda, Yorhisorda va Inago'lda hamma Usmonbek o'g'lining to'yidan boshqa hech narsa bilan mashg'ul emasligiga ishonar edi. Bahorning ilk kunlarida o'tkaziladigan to'y, birlashgan takfurlarning So'g'udni bosib olib, Usmonbekni bartaraf etish uchun eng qulay imkon tug'dirar edi.

Shu vaziyatda qal'alarning darvozalari endi avvalgiday talabchanlik bilan qo'riqlanmasdi. Vaziyatni yaxshilab o'rganib chiqqan Usmonbek bir kecha saharga yaqin yoniga faqat o'z safdoshlarining bo'linmalarini olib Inago'lga bordi.

Ular yetti yuz otliq edilar. Tong oqara boshlagandi. Havo tuman bo'lgani uchun hali qorong'i edi. Usmonbek oralarida Ko'nur Alp va O'rxon ham bo'lgan ellik navkarni piyoda qal'a darvozasiga jo'natdi. O'zi orqada qolganlar bilan birgalikda qal'aga uch o'q otimi masofa janubdagi tepaliklar etag'ini qoplagan o'rmonga kirdi. Ular otlari ustida kutib turadigan bo'lishdi. Ko'nur Alp bo'ri ovozida "uv"lab, ishora bergach, ot qo'ymoqchi edilar.

Ko'nur Alp odamlari bilan qal'ani aylantirib kavlangan xandaqda, bosh darvoza tagida, ko'prik ochiladigan yerda yashirinib turishdi. Atrof borgan sari oqara boshlagandi. Maydalab yomg'ir yog'ardi.

Xo'rozlar qichqirib, ichkaridan odamlar va aravalarning tovushlari kela boshladi. Bir ozdan keyin Bursaga boradigan bozorchilarning chiqishi uchun darvoza ochilishi, ko'prik tushirilishi kerak edi. Qo'nur Alp ko'zlarini darvozadan uzmasdi.

Mana, darvoza ochildi, ko'prik asta-sekin tushirila boshladi. Qo'nur Alp qo'li bilan ishora qildi, navkarlar ko'prikning o'ng va chap tomonidan, handaqdan tirmashib chiqa boshladilar. Ko'prik tushirilishi bilan ularning yarmidan ko'pi uning ustiga chiqib ol-

ishga ulgurgandi. Ular, O'rxon ham shular orasida, darvoza tomon yurganda Qo'nur Alp bo'ridek "uv"ladi. Narida, daraxtlar orasida yashirinib turganlar qal'aga qarab ot qo'yishdi.

Shu qisqa vaqt ichida oldindagilar darvozani egallashdi. O'rxon va besh o'rtog'i ko'prikni ko'tarishga urinayotgan soqchilarni tinchitishdi. Endi qal'a Usmonbek g'oziylari uchun ochiq edi.

Usmonbek otliqlar oldida ko'prikdan o'tarkan, darvozani ochiq turishini ta'minlash uchun qilich sermayotgan navkarlar orasida O'rxonni ham ko'rdi va o'zini tutolmadi, baqirdi:

— Yigitlarimning sarasi, ey, o'g'il, ko'p g'azotlar ko'rgil...

Go'yo u o'g'liga baqirmas, baland ovozda shukrona aytar, duo qilardi Qarshilik tezda sindirildi. Inago'l endi Qayiniki edi.

Usmonbek huzuriga bir odam keldi:

— Men Ayo Nikolaning vaziriman. Senga taslimman, — dedi.

— Meni uning oldiga boshla, u bilan o'zim gaplashaman; — dedi Usmonbek U qo'lidagi dudama qilichini sermab turardi.

Biroq Ayo Nikola Usmonbekni mehmonxonasi oldida qilichsiz kutib oldi:

— Molim, mulkim seniki, jonimga qasd qilma, meni Istanbulga sot. Ko'p oltin olasan, — dedi u.

— Qo'yib yuborma uni, Usmonbek! — dedi Oqcha Xo'ja. — Boyxo'janing, Savji og'amizning qoniga bo'yotgan uning qo'li.

Lekin Usmonbek ko'nmadi:

— Yo'q, gaping noto'g'ri, aziz birodarim. U qonlar va yana qanchadan-qancha shahid qardoshlarimizning xunlari olinayotir. Ayo Nikola sotilsin va olinadigan oltinlar g'oziylarga sarflansin.

Ayo Nikalaning boyligi aql shoshiradigan darajada emasdi. Uning oltinlari o'rtaga tepa qilib uyilganda, chordona qurib o'tirgan odam bo'yicha tepa bo'ldi. Usmonbek bu tepachaga hayratlanib, uzoq qarab turdi. Keyin Ayo Nikolaga qarab so'radi:

— Bularning hammasi senikimi?

— Endi seniki bo'ldi, — dedi Ayo Nikola.

— Hey, Oqcha Xo'ja, ol bu oltinlarni, yaxshilab asra. Hali kerak bo'ladi. Mabodo meshkobchi cho'loq Gura asir tushib qolsa, tovon to'lab qutqarib olarsan. Shunga arziydi. Lekin mana bu hech narsaga arzimaydi, — dedi Usmonbek. Bunga birortasi tovon

to‘lab qutqarib olarmikan? Agar shunday odam topilsa unga achinaman. Haydab yuboringlar, tez yo‘qolsin. Yigit deb o‘ylabman, bir olishmoqchi bo‘luvdim. Qo‘rqoq ekan. Bekligini qilich sug‘urmay, yoy tortmay o‘quzmay topshirdi... Hoy, Sungur!

— Labbay begim, — dedi Sungur.

— Ko‘chama-ko‘cha olib yur buni. Keyin haydab yuboringlar, ketsin. Xotini, qizi bo‘lsa-yu, esidan chiqargan bo‘lsa, yoniga qo‘shinglar.

Sungur Ayo Nikolani olib ketdi, bek aytgandek qildi. Inago‘l ahli ham takfurining ustidan kuldi, so‘kib, haqorat qilishdi. G‘ozilar qo‘yib bersa toshbo‘ron qilishmoqchi, axtalashmoqchi edi.

Qo‘lga kiritilgan o‘ljacharni, oltinlarni hammaning oldida Yaxshi Faqi taqsimladi. Oxirida qini va dastasiga qimmatli toshlar qadalgan qilich qolgan edi. Yaxshi Faqi:

— Bu begimga yarashadi, — deb uni Usmonbekka uzatdi.

Lekin uzatganiga pushaymon bo‘ldi:

Usmonbekning rangi bo‘zarib, lablari pirpirab ketdi. Biroq o‘zini bosib, mayin ovozda:

— Eh, keksa Faqi, eh, dono birodar. Mening qilichim o‘tmaslashib qoldimi? Sultonimning ulushiga qo‘shib qo‘ying uni! — dedi.

Inago‘l zarbasi butun vohani larzaga soldi. Takfurlar shoshib, dovdirab qolishdi, qo‘rqib ketishdi. Shu paytga qadar Usmonni faqat Qora Usmon deya bilganlari uchun uning harakatlaridan ko‘z yumayotganlar ham endi tushuna boshladilar.

Inago‘l voqeasigacha Usmonbek ular uchun Saljuqiylarning vohadagi uch nafar beklaridan biri, bir ko‘chmanchi elat sardori edi. Bor-yo‘g‘i bitta ko‘chmanchi edi, xolos. Ehtimol biror paytdan so‘ng otlari, qo‘ylari, tuyalari, chodirlarini yig‘ishtirib, boshqa yaylovlar, boshqa qishloqlar topish uchun ko‘chib ketadiganlardan bittasi edi.

Ammo, takfurlar endi bitta-bitta, kimdir shoshma-shosharlik bilan, boshqasi hayrat bilan, hammasi esa asta-sekin, qo‘rqa-pisa Kulajahisorni, Aydosni, Yog‘li bozorini, Ikizjani, Mudurnini, Qorajahisorni va nihoyat Inago‘lni o‘ylay boshlashdi. Endi Usmonbekda butunlay boshqa iroda seza boshlashgandi. Ular

Usmonbekning jang olib borish uslubini yaxshi biladigan yetuk lashkarboshi ekanini his etishdi. Ular orasida Usmonbekning lashkarboshiligidan ham yuqori haqiqiy bir yetakchi ekanini tushuna boshlaganlar bor edi. Ana shundaylardan biri Bursa takfuri edi.

Bursa — Vizantiyaning Istanbuldan keyin eng yirik, eng boy, eng yaxshi qo'riqlanayotgan shahari edi. Bursada imperatorning, shahzodalarning va Istanbul zodagonlarining yozlik qarorgohlari bo'lardi. Tog'i, yaylovlari, qaynarbuloqlari va tengsiz tekisliklari bilan mashhur edi bu shahar.

Inago'l zabt etilgani haqidagi xabar yetib kelishi bilan Bursa takfurining vaziri Barsuk hokim huzuriga kirdi.

Turk Bursaga yo'l ochayapti, - dedi u.

Takfur bilan vazirning oralari yaxshi emasdi. Hokim qo'lidan kelsa va g'azabi qaynab turgan xalqning ko'tarilishidan qo'rqmasa, Barsukni allaqachon u dunyoga jo'natgan bo'lardi, hech bo'lmasa vazifasidan chetlatmoqchi edi. Ammo xalq uning o'zidan naqadar nafratlansa, Barsukni shunchalik sevar edi. Qisqasi, takfur vaziriga bo'ysunishga majbur edi. Buning ustiga, Barsuk ham aqlli va rostgo'y edi hamda boshqaruvni bilardi. Xullas, nima qilishni bilmay takfurning boshi qotdi. U Barsukka:

— Xabar qil, Yorhisor, Bilajik, Bidnos va Adronos takfurlari bilan uchrashib maslahatlashaylik, — dedi.

Barsuk aytilgan hokimlarga ertasi kuniyoq xabar yubordi, lekin baribir kechikkan edi. Chunki uning xabarchilari yo'lga chiqayotgandayok Dukas bilan Aleates Yorhisorda uchrashgan edilar. Uchrashuvda ular uchun ham suhbat mavzusi Usmonbek edi.

— Usmonni nima qilish kerak? — so'radi Dukas Aleatesdan.

"Usmonni oradan olib tashlash kerak", degan javob yuqoridagi so'roqning ichida edi. Buni Aleates ham tushunib turibdi; lekin "qanday qilib?"

Aleates Usmonbekning juda kuchli ekanini va jangda uni osonlikcha yengib bo'lmasligini, to'g'rirog'i, yenga olmasliklarini aytdi. Dukas ham istar-istamas uning fikriga qo'shildi.

— Uni g'aflatda qoldiraylik.

— Usmon yo'q qilinsa bas; turklar parokanda bo'lib ketadi,— dedi Aleates.

— Uni g‘aflatda qoldiraylik.

Dukas ham bunga qarshi emas, ammo qanday qilib? Buni qanday amalga oshirish mumkin?

Aleates javob berdi:

— Usmon menga ishonadi. Bilishimcha, sen bilan ham yaxshi munosabatda yashash, o‘g‘lining ishini unuttirishni istaydi.

Shunday deb rejalarini bayon qildi.

Usmonbekning bu istagi uchun Holofiraning to‘yidan boshqa qulayroq fursat topish qiyin. Usmon to‘yga deb Bilajikka taklif etiladi, kelgach esa o‘zi biryoqli qilinadi. Bu fikr ikkalasiga ham ma’qul kelib, rejani amalga oshirishga qaror qildilar.

Aleates ham, Dukas ham Usmonbekka qarshi qilinadigan eng yaxshi tadbir shu ekaniga juda ham ishonardilar. Xullas, Bursa xabarchilariga bergan xatlarida niyatlarini: “Urushga hojat qoldirmay”, deb izohladilar.

Bursa takfuriga ham bu reja ma’qul ko‘rindi. Barsukka:

— To‘yni kutaylik, — dedi.

Takfur Usmonbekning to‘yda yo‘q qilinishiga, u o‘ldirilgach esa, turklar yana oldingi hollariga tushishiga, tahdidning oldi olinishiga ishonardi. Dastlabki belgilar ham rejaning muvaffaqiyatli chiqishidan dalolat berardi.

USMON G‘OZIXON

Oq Temur Ko‘nyodan yolg‘iz qaytmadi. Bu safar sulton farmonini o‘zodoraridan biri bilan yuborgandi. Qora Balaban chovush degan bu odam o‘zi bilan birga farmondan tashqari sulton amrining belgilari sifatida tun bayroq, qilich, kumush abzalli ot hamda harbiy orkestr ham olib kelgan edi. Bayroq oq edi.

Sulton yuborgan farmonda Usmonbek uchun “Usmon Shoh bek” iborasi qo‘llanilgan va Sug‘udni, u egallagan qal’alarga Eski shaharni ham qo‘shib, soliqdan ozod qilgan holda Usmonbekka qoldirilgandi.

Qora Balaban chovush Usmonbekka alohida bir xat ham berdi. Qizil mum bilan muhrlangan bu xatni sulton: “Sendan bosh-

qa birov bilmasin" dan boshlagandi va "Butun alomatlar shuni ko'rsatmoqdaki, Saljuqiylar oxiri bilinmas kunlar arafasida, baxtimiz qora tortmokda", deb yozganidan so'ng havotirini bildirib, maslahatlar bergandi.

Usmonbek hayajonlandi; chunki sulton xulosa qilib, ta'bir joiz bo'lsa, Saljuqiylar amalga oshirishni mo'ljallab, lekin taqdir taqozosi bilan bu o'ljallarini ro'yobga chiqara olmasliklari endi ma'lum bo'lib qolgani va bu arsalar Usmonbek urug'i tomonidan ado etilishini istagan edi. Eng muhimi, sulton ko'nglining Usmonbekka nisbatan xis etgan ishonch tufayli taskin topganini bayon qilgandi. Usmonbek xatni o'qiganidan keyin, vaqtni o'tkazmay qardosh beklarga parlar yubordi, ularni Sug'udga chaqirdi. Ayni paytda u O'ruz darvesh, yaxshi Faqi hamda Qumral Abdalni shu kunga taklif qildi.

Yig'ilish katta masjid oldida, ochiq o'tkazilmoqchi edi. Nog'oralar talabdan bong urdi. Orkestr ham yig'ilishdan bir soat oldin maydonga kelib, gumburlay ketdi.

Usmonbek mehmon beklarni Erto'g'rulbek g'oziyning uyida kutib oldi va asining safdoshlariga muhim xabar aytmoqchi ekanini ma'lum qildi. Ayronlar ichilib, hol-ahvol so'ralganidan keyin hammasi birgalashib masjid oldiga borishdi. U yerda ayolu erkak aralash katta olomon to'plangandi. Orkestrning oldida o'ngroq tomonda Usmonbekning besh safdoshi ot ustida qilich yalang'ochlab turishardi.

Kelganlar masjid darvozasi oldida otlaridan tushmay, Usmonbekni o'rtaga olish tarzida saf tortib turdilar. O'ziga qoldirilgan joyni egallagan Usmonbek qo'lini qo'yniga olib bordi.

Ko'ringanlaridan buyon ularning hammasi uchun olqish yog'dirayotgan, maqtov so'zlari aytayotgan, duolar qilayotgan olomon birdaniga jimjit bo'lib qoldi. Orkestr sadolari ham tindi. Endi faqat daraxtlardagi qushlar chug'uri, favora suvining shildirashi va arg'umoqlarning pishqirib nafas olishlari eshitilardi.

Tug' va bayroq bahor shabadasida hilpirab turardi. Butun ko'zlar Usmonbekka qadalgandi.

— Ey, Rahmon yo'ldoshim, berirok kelgin, — dedi Usmonbek va qo'ynidan farmonni chiqarib, Rahmonga uzatdi. Hozir bu qo'l

xuddi farmonni tog'larning, daralarning, daryolarning narigi tomonlariga ham yetkaza oladigandek ko'rinardi.

Ot surib kelgan G'ozi Rahmon Usmonbekning qo'lidan farmonni olarkan.

— O'qi, Rahmon, — dedi Usmonbek.

G'ozi Rahmon o'qidi.

Xalq jo'shdi.

Qardosh beklar va Erto'g'rulbek g'oziyning safdoshlari navbatma-navbat ot surib kelib Usmonbekni qutlashdi.

Birovi:

— Xonliging muborak bo'lsin! — dedi.

— Alloh sultondan rozibo'lsin! — dedi.

Birovi gazot tiladi, boshqasi baxtli ekanini bildirdi. Hamma bir-bir oldinga chikib, qutlab, tilak bildirib, yana ortta qaytardi. Endi ular Usmonbek qarshisida, uch ot bo'yi masofada ipga tizilganday saf tortdilar. Usmonbek otining ustida qaddini rostladi.

— Hey, — deya hayqirdi va bosiq, ammo vodiylar uzra gurkiraydigan yo'g'on ovozi bilan gapirdi:

— Mening tilagim yo'q. Chunki sizlarning tilaqlaringiz mening tilagim. Boshqasi kerakmas. Menga yaxshilik tilagan, ummati Muhammadga va O'g'uzga xayrli ish qilgan bo'ladi. Tangri menga faqat shuni ravo ko'rsin.

— Omin!..

Hammaning ovozi birlashib, butun bo'lib eshitildi. Bu ovoz hamma joydan eshitilganday bo'ldi Usmonbekka.

— Ha-a, — dedi Usmonbek, — yukim yanada og'irlashdi.

Azonni G'ozi Rahmon o'qidi.

Imomatda Dursun Faqi turdi.

Namozdan so'ng Qora Guna Usmonbekka:

— Hey, ishonchimiz Usmon G'ozixon, bek birodarlarim so'rashyapti: bizlarni qimizga taklif qilmaysanmi?

Kulimsirab turardi. Eslatmoqchi bo'lgani bilinib turardi. Ha, Usmon G'ozixonning yodiga tushdi. O'shanda yaylovdan qaytayotganda oqxarsang yonida: "Kimiz ichkimiz kelyapti", deyishgandi. Demak, endi barcha qardosh beklar qimiz ichish, xonligini nishonlash marosimini o'tkazishni istardi.

Usmon Fozixonning yonoqlariga qon yugurdi. U Qora Guna, Ertug'mish, Xo'ja Qulmash, Cho'pon va Turg'ut Alp beklarni uyiga boshladi.

Malhun Xotun qimizini maqtashardi. Maqtagancha bor ekan. Mirikib ichishdi. Endi Usmon G'ozixon Qo'nur Alp uchun, G'ozi Rahmon yoki Oqcha Xo'ja, Saltuk, Sungur va O'rxon uchun, O'ruz darvesh va butun Qayi uchun qanday bo'lsa, ushbu beklar uchun ham shunday edi.

Usmon G'ozixon boya masjid oldida mingirlab aytganini endi ochiq takrorladi:

— Yukim yanada og'irlashdi.

Oradan bir oz vaqt o'tgach, qo'shib qo'ydi:

— Ammo, avvalo Allohga, keyin esa siz, birodarlarimga ishonaman.

Shu voqeadan bir necha kun keyin, So'g'udning aqli raso va hurmatli kishilari o'zaro maslahatlashib, so'ngra Erto'g'rulbek g'oziy safdoshlariga borib so'rashdi:

— Juma namozini o'qishimiz kerak... Usmon G'ozixon nomiga xutba o'qishimiz lozim, — deyishdi.

Ular ham bu borada shayx Ada Boli bilan maslahatlashishni ma'qul ko'rdilar.

Buning uchun tepapinarga hay'at jo'natildi. Ular bilan gaplashgan Ada Boli Usmon G'ozixonni chaqirdi. Vaziyatni tushuntirib, bu istakning to'g'riligini aytdi va ruxsat kerak, dedi.

— Nima lozim bo'lsa o'sha qilinadi, — dedi Usmon G'ozixon.

Shu o'rinda Dursun Faqi gapga aralashdi:

— Xon janoblari! — dedi u, — Sultondan ruxsat kerak.

Bu gap uni o'ylantirib qo'ydi, lekin ko'p cho'zilmadi:

— Hoy, Dursun Faqi va ulug' otam, shayxim Ada Boli, sizlarga aytayapman; Sulton menga bayroq berdi, yorliq berdi, buning ustiga bu ellarni men qilich qilolmayman, chunki ruxsat bilan olinadigan xonlikning menga keragi yo'q.

U jimib qoldi va hammaga birma-bir qarab chiqdi. Kutdi. Jimlik davom kuchi birlan olganman. Agar hali minnatim bor deb hisoblasangiz, qabul etardi. Hammasining biror yechim izlayotgani ko'rinib turardi.

— Yo'limni yoritguvchi nur. O'rxonning bobosi, ulug' otam, ayting, bilib olayin: to'g'ri qilayapmanmi, yanglishayapmanmi?

Ada Boli boshini oxista ko'tardi.

Ko'zlar to'qnashdi. Ada Boli Usmon G'ozixonning chaqnoq ko'zlariga qarab dono-dono qilib gapirdi.

— Ey o'g'lim, ey G'ozixon, faxrimizsan, quvonchimiz-ishonchimizsan. Mendan so'rading, men javob berayapman: sen o'zingga yarashadigan gapni aytayapsan, aytishing kerak bo'lgan gapni aytayapsan, to'g'risini gapirayapsan. Ammo-lekin qonun-qoidani o'zgartirish juda ko'p tadbirni va o'ylashni talab kiladi. Sen bor, qardosh beklar bilan yana uchrash, ularning ham rizosini ol.

* * *

Ada Boli shularni aytganidan so'ng qaddini ko'tardi. Usmon G'ozixonning bu nasihatni ma'qul ko'rgani bilinib turibdi. Ikki katta odim bilan qaynatasining yoniga bordi, qo'lini olib, o'pti.

Ada Boli uni bag'riga bosdi, qulog'iga shivirladi:

Ey, o'g'lim, senga nasihatim va vasiyatim shu: xutba o'qilgandan keyin birovning va mening qo'limni o'pmagin. O'rxonga yana nasihat va vasiyat qilki, xonlik o'ziga muyassar bo'lsa, hech kimning va sening ham, amakisining qo'lini ham o'pib yurmasin.

* * *

Usmon G'ozixon qardosh qabilalarning beklari Erto'g'rulbek G'oziyning yo'ldoshlarini yig'di. Xalqning juma namozini o'qish hamda bir qozi kerakligini aytganidan so'ng, o'qiladigan xutba uchun o'z qarorini bildirdi.

— Sizlar nima deysizlar? — deb so'radi.

— Gaping to'g'ri, — deyishdi hamma bir ovozdan.

Shundan keyin qozilikka Dursun Faqi tayinlanishini, ilk jumaning Qorajahisorda, masjidga aylantirilgan katta cherkovda o'qilishiga qaror qilindi.

Bugun kun boshqacha.

Odamlar ham boshqacha.

Azon o‘qiyotgan G‘ozi Rahmonning ovozi ham butunlay boshqacha.

Bu o‘zgarishlar — Dursun faqining qop-qora yaltiroq tunida, oppoq sallasida, suyanib turgan qilichida va nihoyat hilpirayotgan bayroqda aks etibturibdi. Dursun Faqi shu kunlarga yetkazgan Allohga hamdu sanolar bilan boshladi va to‘qqiz marta takbir keltirgandan keyin tanlagan mavzuda gapirishga kirishdi.

Amirlar, rahbarlar va ularning aloqalari haqida edi mavzu. Dursun Faqi suhbatida hadislarga to‘xtaldi. Adolatga ergashmagan, zulum qiluvchi xonnidinning ofati deb ta’rifladi, uning molga hirs qo‘yishini falokat hisobladi; saxiy bo‘lmagan va mas’uliyatini his etmagan boshliq qiyomat darakchisi ekanini gapirdi.

Payg‘ambarimiz buyurganlarkim, Allohning bandalarini zulm va jabr ila qiynovchi xon qiyomat kuni eng dahshatli azoblarga duchor qilinadi. Dursun Faqi yana hadislarga asoslanib, amirning adolatdan ayrilgan zamoni shayton amriga kirgan hisoblanishini ta’kidladi.

Usmon G‘ozixon Dursun Faqi so‘zlarini zo‘r e’tibor, jon qulog‘i bilan tinglardi.

Dursun Faqi Haqdan va adolatdan ayrilmagan amirga itoat qilish zarurligini uqtirdi va so‘zlarini yana xadislardan misollar keltirib isbotlarkan:

— Ammo, unutmangkim, jihodning eng ma’quli zulumkor, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan amirga qarshi jim turmay haqiqatni aytishdir, — deb tugatdi.

— U yetti takbir va salovotdan so‘ng duosini Usmon G‘ozixon bilan boshladi. Butunlay boshqacha muhit ichra o‘qilgan namoz tugagach, Usmon Fozixon o‘zi turgan o‘rtadagi saflar orasidan chiqib, Dursun Faqiga yondoshdi, tik turgan holda:

— Omon bo‘ling, Dursun Faqi, — dedi va qo‘shib qo‘ydi: — Alloh sizni safimizdan ayirmasin, aslo kam qilmasin. Aytganingiz kelsin va ijobat bo‘lsin.

Keyin tarqalmasdan uning atrofini o‘rab turgan jamoatga o‘girildi:

— Agar adolatdan toyib, zulm va zalolatga yuz tutsam, Tangrining qahriga uchray. Men bilib-bilmay yo‘limdan adashsam, noto‘g‘ri ish qilsam, qarshi chiqmaganlarni va men bilan qolganlarni ham Alloh qahriga olsin. Bordi-yu, mendan ustun, mohir va bilimdon odam chiqsa, mana shu bayroqni qo‘limdan olmaganlar qilgan gunohlarim azobini tortsin!

U qo‘li bilan bayroqni ko‘rsatguncha bir muddat qotib turdi.

* * *

Usmon G‘ozixon hukmronlik qilayotgan o‘lkadagi ko‘p narsaning o‘zgarganini va o‘zgarishlar majburan bo‘layotganini ham ko‘rib turibdi. U bu majburlashlarning urf-odatlar, an’analar va qonun-qoidalar yetarsizligidagi va kamlik qilaboshlaganidan vujudga kelganini fahmladi.

Endi kundalik hodisalarni va tushunmovchiliklarni bittama-bitta hal qilishning mushkilligi aniq. Chunki, endi avval uchramagan voqealar, tushunmovchiliklar va takliflarga duch kelinmoqda.

Bir kuni Usmon G‘ozixon huzuriga bitta germiyonlik kishi kelib:

— Mana shu bozor solig‘ini menga sot, — dedi.

Usmon G‘ozixon hayron bo‘ldi.

— Soliq deganing nima? — deya so‘radi.

— Bozorga kelgan hamma narsadan men pul olaman, — dedi haligi kishi.

Usmon G‘ozixon battar hayratlandi:

— Nima, bu bozorga keluvchilarning sendan qarzi bormiki, ulardan pul olmoqchisan?

Haligi kishi tushuntirdi:

— Ey, xon, bu — odat. Barcha mamlakatlarda shunday qoida bor. Kim podsho bo‘lsa, bozorchilardan soliq oladi.

— Buni Tangri buyurganmi yoki beklarning o‘zlari shunday tartib o‘rnatishganmi?

— Ey, xon, urf-odat shunday. Buni beklar joriy qilishgan.

Javob Usmon G'ozixonni juda g'azablantirdi, yana O'smoncha bo'ldi-qoldi:

— Bir odamning ishlab topgani qanday qilib boshqaniki bo'la oladi? Men uning moliga nima qo'shdimki, menga pul ber deb aytaman? Hoy, inson, bor, jigimga tegma! Menga bu gapingni boshqa qaytarma, joningga jabr qilasan! — deb haydab yubordi haligi kishini.

Keyin u bu voqeani dunyoning hech aql bovar qilmas narsasini ko'rgandek, bir suhbat chog'ida akasi Qunduzbek bilan Kumral Abdal va Yaxshi Faqiga gapirdi... bir qo'lib, maza qilishsin, degan niyatda.

Buni qaraganki, u kutgandek bo'lmadi. Yaxshi faqi:

— Muhtaram Xon, — dedi, — uzi odat shunday va germiyonlik to'g'ri gapni aytibdi. Bozordan foyda ko'ruvchilar biror narsa to'laydilar.

Usmon G'ozixon o'yladi, so'radi, surishtirdi, keyin:

— Modomiki shunday ekan, biror yuk olib borib sotgan har kim ikki aqcha bersin, — dedi. Faqat qo'shimcha qildi:

— Sotmaganlar hech narsa bermasin.

U buni bir farmon bilan qonunlashtirdi.

— Kimda-kim ushbu qonunimni buzsa, Alloh uning dinini ham, dunyosini ham buzsin. Kimga biror timar[1] bersam, sababsiz uning qo'lidan olishmasin. U o'lgach, o'g'liga qolsin, juda yosh bo'lsa ham o'shanga berilsin. U jang qila oladigan darajaga yetgunga qadar safarbarlik paytida xizmatkorlari safarga borishsin. Bu qonunga amal qiluvchi har kimdan Alloh rozi bo'lsin. Agar naslimga bu qonundan boshqa qonunni tiqishtiradigan bo'lishsa, uni qiluvchidan ham, qildiruvchidan ham Alloh rozi bo'lmasin.

Usmon G'ozixon bundan tashqari, yangi olingan hisorlarda va shu hisorlarning atrofidagi qishloqlarda turmush tarzini tartibga solish, bozor ishlarini yuritish uchun yangi qonun-qoidalar ishlab chiqarish zarurligini o'ylay boshladi. Chunki bu yangi shaharchalardagi odamlar turmushi So'g'uddagiga sira o'xshamasdi. Bu shahar va qishloqlar va ularda yashovchi odamlar So'g'ud-

[1] **Timar** — Usmoniylar davlatida qilgan xizmatlari evaziga kishilarga beriladigan yer, mol-mulk, suyurg'ol.

dagi huzur-halovatni, o‘zaro ishonch tufayli farovon turmushni ta’minlagan, hayot qiyinchiliklarini bartaraf etgan urf-odatlar, an’analardan yiroq edi. Shuboisdan ham ular uchun hamda ularni So‘g‘udga moslashtirish uchun yangi-yangi qoidalar va shu qoidalarni joriy qiladigan mas’ul odamlarni topti.

Bu orada yaylovlarga ko‘chib chiqish payti yaqinlashgan edi. Ayni paytida Aleates va Do‘kas ikkalasining baravariga Holofiraning to‘yiga taklifnomasi kelib qoldi. Marosim Bilajikda o‘tadigan bo‘libdi.

Usmon G‘ozixon ikkala takfurga ham choparlari bilan o‘zini siylab chaqirganliklari uchun tashakkurini bildirib, armug‘onlar jo‘natdi. Shuningdek, u Dukasdan alohida tarzda, Aleatesdan ikkita iltimosiborligini ham ayttirib yubordi.

Birinchidan, to‘y ayni ko‘chish kunlariga to‘g‘ri kelayotir. Usmon G‘ozixon Erto‘g‘rulbek g‘oziy zamonlaridan beri bo‘layotgani singari qimmatli ashyolarini yana o‘ziga omonat qoldirish niyatidadir. Usmon G‘ozixon, bundan tashqari, ashyolarini har yilgidek qurolsiz keksalar va ayollar bilan yuborajagini ham ma’lum qiladi.

Ikkinchidan, to‘yga Qayi ayollari ham borishni va shunday katta Vizantiya to‘yini ko‘rishni istaydilar. Holbuki, Bilajikda bunchalik olomonni sig‘diradigan maydonning o‘zi yo‘q. Shuning uchun ham to‘y keng maydonda, masalan, o‘sha xushmanzara Chaqirpinarda o‘tkazilsa yaxshi bo‘lardi. Hatto Usmon G‘ozixon, sovg‘a-salom ortilgan tuyalar karvonini xuddi o‘sha joyga olib bora olardi. Aleates har ikkala taklifni ham mamnuniyat bilan qabul qildi. Dukasga xabar berdi: “Turkning erkagi ham, ayoli ham qo‘limga tushdi”, dedi.

Aleates va Usmon G‘ozixonning qaroriga ko‘ra, ashyo va buyumlar kun botishga yaqin ho‘kiz-aravalarda Bilajikka jo‘natiladi. Xuddi o‘sha joylarda Usmon G‘ozixon Chaqirpinardagi ziyofat va to‘y-tomosha joyiga sakkiz-o‘n nafar quryo‘ldoshi bilan yetib boradi.

Usmon G‘ozixon vaqtini belgiladi.

Ashyolarni olib borayotgan guruhning boshida Go‘kcha baji ketayapti. Unga yaxshilab chalg‘itishni tayinladi. O‘zi esa yoniga

Qo‘nur Alp, Oqcha Xo‘ja, G‘ozi Rahmon, Turg‘ut Alp va Sungurni olib, Chaqirpinarga ot qo‘ydi.

Takfurlar ularni juda yaxshi kutib olishdi. Ular halitdan shirakayf, mehmonlarga haddan tashqari mehr-muhabbat ko‘rsatish-yapti. Ko‘sa Mixal ham yonlarida.

Usmon G‘ozixon hali ot ustida, atrofga ko‘z yugurtirib chiqdi. Hech kutmagan va o‘zini xavotirga solgan vaziyatga duch kelganini sezdi. Maydonni yarim qurshab turgan qurolli odamlarni ko‘rsatib:

— Ziyofatu to‘y-tomosha joyida bu askarlar nima kiladi? — deya so‘radi.

Otini shartta burib, uzangisi bilan niqtadi. Yo‘ldoshlari ham shunday qilishdi.

Usmon G‘ozixon jonholatda baqirdi:

— Bo‘shashmanglar, do‘stlarim.

Kimdir qichqirdi:

— Hoy, nega qarab turibsizlar, turklar qochayapti, qo‘ymanglar.

Maydon taloto‘p bo‘lib ketdi. Avvalo takfurlar otlariga minishga urinishardi. Nariyoqda esa Usmon G‘ozixon yo‘ldoshlari bilan shoshib nima qilarini bilmayotganga o‘xshardilar; oldin o‘ngga, keyin chapga ot surishdi. Shu tariqa orani keng ochmay, quvlayotganlarini gij-gijlaganday bo‘lardilar. Qochayotganlar bilan quvlayotganlar orasidagi poyga bir yoki ikki o‘q otimi masofasini saqlagan holda Bilajikka qarab, Qaldiriq darasigacha davom etdi.

Daraga kiraverishda vaziyat o‘zgardi, quvlab kelayotganlar uchun hech kutilmagan voqea yuz berdi: Qiya yonbag‘irning ikki tomonidan va daradan birdaniga turk otliqlari hujum qilib qoldilar. Ular baravariga ot qo‘yib, yoylaridan o‘q yog‘dirdilar. Endi Usmon G‘ozixon besh yo‘ldoshi bilan ularning oldiga chiqib qilichlarini qinlaridan sug‘urdilar. Nigohi bilan axtargan Usmon G‘ozixon-Aleates bilan Dukasni ko‘rib qoldi, o‘sha yoqqa ot qo‘ydi.

Ammo Dukas boshqalarga nisbatan sergak edi. Vaziyatni ilg‘ab, ot boshini orqaga burib qocha boshladi. Aleates kech qolgandi, Usmon G‘ozixonning ilk ulgurganlargina qutulib ketishdi, qolganlar halok bo‘ldi.

Usmon G'ozixon jangchilarini qochganlar orqasidan quvishga qo'ymay, otlari boshini to'g'ri Bilajikka burdi. Chunki vaqt juda oz qolgandi. Go'kcha bajiayni shu damda qal'a darvozasiga satib borgandi.

Hammayoq aralash-quralash bo'lib ketdi, olishuv so'nggi arava darvozadan kirishi bilan Go'kcha bajining imlashi bilan Keksa g'oziylar va aravalarda gilam ostiga berkingan yigirmatacha jangchi qilich yalangochlab darvozani egallashdi. Kuchlar teng emasdi, sira teng emasdi. Usmon G'ozixon kechiksa, hammasi ikkinchi tomondan tashqaridan ko'zini uzmasdi. Nihoyat bulutday quyulib kelayotgan Usmon G'ozixon otliqlarini ko'rdi, chaqirdi:

— Tezroq, xon, tezroq kelinglar!

Usmon G'ozixon uning ovozini eshitmadi, ammo o'z ovozini unga va butunvohaga eshittirdi:

— Hey baji, keldik, baji!..

Oralaridagi masofa yuz qadamcha kelar-kelmas edi. Go'kcha baji bag'riga sanchilgan o'q tufayli palaxmon sermayotgan qo'li havoda, yerga quladi. U palaxmon ushlagan qo'lini cho'zib bir joyni ko'rsatdi. Tortilgan tizgin tufayli osmonga tikkaygan Benlibo'zning belidan sakramoqchi bo'lgan Usmon G'ozixonga oxirgi kuchini yig'ib:

— Qo'y meni, xon, Oybikamga qara, qutqar uni,— deya oldi.

Usmon G'ozixon, Go'kcha baji qo'lini uzatgan tomonga qarab, Oybika bilan O'rxonning yo'ldoshi Ilolmishga ko'zi tushdi.

Uchta bilajiklik ularga hujum qilar, Ilolmish qilichi bilan, Oybika esa xoda bilan ular hujumini daf qilayotir. Orqa tomondan ho'kizlar panaqilib turibdi. Usmon G'ozixon Benlibo'zning boshini burdi, otni niqtadi. Lekin keragi bo'lmay qoldi, chunki O'rxonning Oybikaga qilich solayotgan bilajiklikning qo'lini uchirib yuborganini ko'rdi. Usmon G'ozixon u yerga yetib kelganda, sarbast qolgan Oybika qo'lidagi xodasi bilan Ilolmishga-qilich solmoqchi bo'lgan bilajikliklardan birining boshiga tushirib, uni ag'dardi.

Bilajik bir namozlik vaqtida oq bayroqniki bo'ldi.

Go‘kcha baji va yana bittasi ayol bo‘lgan yetti shahid ular kirgan darvozalaridan o‘n besh-yigirma qadam naridagi ulkan bir chinorning tagiga kiyimlari bilan dafn etildi. Go‘kcha bajining ustiga so‘nggi tuproq tortilarkan, uning tepasida yig‘lab turgan o‘g‘li O‘ruz darvesh emas, nevarasi Oybika emas, Usmon G‘ozixon edi.

Usmon G‘ozixon Bilajikda hayallamadi. Mozorlar tepasini tark etishlari bilan Bilajikda qoldirilganlardan tashqari otliqlari bilan Yorhisorga qarab yurdi. Mixal endi uning otliqlari bilan birga edi. Endi ulardan sira ajralmaydi. Yorhisorning darvozalari uning vositachiligida ochildi.

Usmon G‘ozixon Dukasni qizi Holofira uchun kechirdi. Uni yetarli darajada boylik bilan erkin qo‘yib yubordi. Dukas bola-chaqasini olib istagan joyiga borishi mumkin edi. Usmon G‘ozixon Ko‘sa Mixal ko‘magida buni ma’lum qilarkan, Holofira ham butun oila bilan shu yerda edi.

— Unga ayt, — dedi Usmon G‘ozixon Mixalga qizni ko‘rsatib, — men O‘rxonning otasiman. Ketgisi kelsa ketsin, qolmoqchi bo‘lsa, qolaversin. Agar qoladigan bo‘lsa, bir Jonkiz Fotima, bir Holofira qizim bor, deyman.

Mixal bu gaplarni Holofiraga aynan tushuntirdi. U boshini baland tutib tingladi. Shu vaziyatda javob berdi:

— Men gapimni aytganman. O‘rxonbek va xon otasi qabul qilishsa baxtiyor bulaman. O‘rxonbekning uyini uyim, otasini otam deyman.

Usmon G‘ozixon bu gaplarni yaxshi tushundi. Bunga javoban buzilgan rumcha tilda gapirishdan tortinib o‘tirmadi.

— O‘rxonning baxtli bo‘lishini istayman. Uning baxtli bo‘lishi sening ham baxtli ekanligingni bildirishini tushunaman. Shuning uchun sening ham baxtli bo‘lishingni istayman.

Keyin Sungurga o‘girildi:

— Ey, Sungur birodarim. Holofirani Oybika bilan birga So‘g‘udga jo‘nat, — dedi.

Holofira ilk bor kulimsiradi. Uyalinqirab:

— Xon, avval ismim o‘zgartirilishi kerak, dedi-da, Sungurga ergashdi.

Usmon G'ozixon bu gapni yaxshi tushunolmadi. Yolg'iz qolganlarida sekin surishtirdi.

— Ismi Holofira. Siz bo'lsangiz nukul buzib "Halafira" deb talaffuz qilasiz. Shuning uchun ismini almashtirishni istaydi.

Usmon G'ozixon bir muddat o'yga toldi. Keyin kulimsiradi:

— Juda soz-da. Mayli, Nilufar bo'la qolsin... Nilufar guliga judayam o'xshab ketarkan...

* * *

Nilufar bir muddat So'g'udda, G'ozi Rahmonning uyida, Saniya bilan qoldi va xuddi Saniya kelin singari turkchani ham, turk urf-odatlarini hamda islom amallarini ham osongina o'rganib oldi. Yangaligini ham Saniya qildi.

O'rxonning istagi bilan nikohlari Oybika va ilolmish nikohlari bilan birga o'qildi. To'ylari ham birga o'tkazildi.

To'yda, dastlab Malhun Xotun ikkala kelinga qarab, Oybikani kiyikko'zlari, uzun bo'yi va quyuq sochlari bilan Nilufardan go'zal deb hisoblardi. Lekin ko'p o'tmay Nilufar istarasi issiqligi, xushfe'lligi va izzat-ikromi bilan uni o'ziga rom kilajagini his etdi.

Usmon G'ozixon to'ydan keyin qardosh beklar va o'z yo'ldoshlarini yig'di. Allohning g'oziligi bilan o'lkalar oldik, uzoqlarga yetdik. Endi olganimizni asrashimiz, asraganimizni rivojlantirib, kengaytirishimiz kerak. Lekin bu yerdan turib har tomonga qo'l cho'zish qiyin. Boshqa har elni, ulkani uni eplaydigan mohir odamga topshirish ma'qulga o'xshaydi. Men shunday deb o'ylayman, sizlar nima deysizlar? — deb so'radi.

— Gapingiz to'g'ri, — deyishdi.

Usmon G'ozixon bunga javoban, Eskishahar hokimligini akasi Kunduzga,Yorhisorni Qo'nur Alpga berdi. Inago'l Turgut Alpga topshirildi. Bilajikda esa qaynotasi shayx Ada Boli homiyligida Alouddinbek onasi va singlisi birgalikda yashaydigan bo'ldi.

Xonning u qarorini eshitgan Qora Guna:

— Xon,— dedi, — nima, sen hamisha So'g'udda qolaman deb o'ylaysanmi?

— Yo'q, dedi xon. Ey mening mard birodarim, zerikib ketdim men bu joylardan.

Shunday der ekan, u kulimsiradi. Uning bu jilmayishida nimalar yashirin ekanini tushunib bo'lmadi. Lekin g'am-g'ussa-yu alam ham borligi sezilib turardi. Usmon G'ozixon ana shu suhbatdan so'ng Kunduz va O'rxon beklar bilan Ko'nur Alp va Turgut Alpni yoniga chaqirdi. Ulardan nima kutayotganini bayon qildi.

— Eng avvalo, — dedi u, — adolat bo'lishini istayman. Adolatning, Haq va huquqning Iso, Muso, Muhammad ummatlari; turk, armani, rum, tatarni ajratmasligini, teng do'st va akrabo deb, barchaga baravar bo'lishini istayman. Qiyinchiliklar, nochorliklar avvalo sizga, keyin millatingizga; boyliklar va huzur-halovat avvalo millatingizga, keyin o'zingizga bo'lsin. Jangda, olishuv paytlarida hamisha oldinda bo'lishlaringiz lozim. Shaharlarni buloqlar, masjidlar, karvonsaroylar, bozorlar bilan yashnatib, obodonlashtirib, hunarmandlar, dehqonlar hamda olimlar bilan shoirlarni, diniy arboblarni e'zozlashni, himoya qilishni unutmanglar.

Bundan tashqari, Usmon G'ozixon hujum qiluvchilarga shafqatsiz; sig'inib, bosh egib va omonlik tilab kelganlarga shavqatli bo'lish kerakligini ta'kidladi. Xatolar kechirilishini, qasd qiluvchi g'addor va yovuzlar darhol jazolanishini uqdirdi.

— Mening ishonchimsiz, — dedi u nihoyat, — faxrim, g'ururim bo'ling. Allohga ishoning, qilgan ishlaringiz maqtalsin, o'zingiz maqtanmang. Ertadan boshlab, sizlarni yana yo'llar kutadi.

O'sha oqshom hammasi uchun xayrlashuv kechasi edi. Boshqalar qatori O'rxon ham yonida Nilufar, onasi Malhun Xotun, amakisi Qunduzbek va yangasi oyna malakni ko'rib, ular bilan rozilashdi. Ertasi kuni esa Ilolmish, Qora Ali, Qo'rqut Alp va Xayrulloh yo'lloshlari bilan yo'lga chiqdi. Yonlarida Oybika va Nilufar bilan narigilarning rafiqalari ham bor edi.

Usmon G'ozixon keyinroq So'g'udga shu ish uchun kelgan qayni Mahmud bilan Malhun Xotunni, qizi Jonqiz Fotma va o'g'li Alouddinni Bilajikka, qaynotasi shayx Ada Bolining yoniga jo'natdi.

Ayriliq, Malhun Xotunga, juda og'ir botdi, lekin u qayg'usini bildirmaslikka, aytmaslikka urinardi. Buni bilib, sezib turgan Usmon G'ozixon battar qiynalardi. Uni So'guddan ayrilish, So'g'ul ahlining bu taxlit tarqalib ketishi qayg'uga solardi. Na O'rxon, na

Qo‘nur Alp, na Malhun Xotun bu g‘am-alamni tushunmasa kerak deb o‘ylardi Usmon G‘ozixon. Ammo bu tarqalishning zarurligini o‘zidan boshqa, balki Ada Bolidan tashqari hech kim tushunolmasaham kerak, degan o‘y kechardi uning xayolidan.

Ayvonda, uylaridagi ushbu so‘nggi kechalarida Malhun Xotunning endi qirov qoplagan chiroyli sochlari Usmon G‘ozixonning yelkalariga yoyildi, ular birgalashib to‘linoyning ko‘tarilishini va tepalik ortiga botishini tomosha qilishdi. Usmon G‘ozixon yorining muloyim badanini, boshqa hech qanday gulda his qilmagan sochlarining xush bo‘yini to‘yib-to‘yib hidladi, erkaladi. Ular bir-birini erkalash bilan ovora, gaplashishmasdi. Usmon G‘ozixon faqat birmartagina:

— Menga Tangri bergan armug‘onim, mening Zumrad Anqom! — dedi shivirlab. Keyin past ovozda qo‘shib qo‘ydi: Hali O‘rxonimiz bor. Alloh bizlarga nabiralar bersin; Tangri ularni O‘g‘uzga ato qilsin...

Bu tovushda endi g‘am yo‘q edi. Malhun Xotun sezib turibdi. U o‘zini o‘nglab oldi, erini mahkam quchoqladi... Oy bota boshladi.

— Tangrim, o‘zingga shukur, — dedi Usmon G‘ozixon.

* * *

Usmon G‘ozixon Malhun Xotunni kuzatganidan besh kun keyin, yonida Oqcha Xo‘ja, Saltuk, Sungur va G‘ozi Rahmon Bilajikka o‘tmay yerhisorga bordi. U yerda uch kun mehmon bo‘ldi. Ajralishadigan oqshom o‘rtoqlariga:

— Endi niyatimni aytmoqchiman, — dedi. — Yuqorida, kun botishda Zisimo degan bir qishloq bor. Bursa bilan Iznik oralig‘ida joylashgan. Ikkalasining yo‘lini tutashtirib turadi. O‘sha joyni yurt qilsak, nima deysizlar?

— Juda mos joy, xon, — dedi Oqcha Xo‘ja.

Usmon G‘ozixon ertasi kuniyoq yoniga uch yuz otliqni, barcha qurilish ustalarini, yo‘ldoshlaridan faqat Sungurni olib yo‘lga chiqdi. Qolgan jangchilari va yo‘ldoshlarini Yorhisorda qoldirdi.

Zisimo qishlog'i bir necha oy ichida bir masjid, bitta karvonsaroy, ikki hammom, buloqlar va uylar bilan ancha kengaydi. Usmon G'ozixon:

— Nomi endi yenishehir[1] bo'lsin! — dedi.

Qurilgan uylar g'oziylarga berildi. So'g'uddan, Domanichdan uzoqlashilgan, Bursa va Iznikka yaqinlashilgan edi.

* * *

Ayni shu damlarda Usmon G'ozixonga uni tashvishga soluvchi bir xabar olib kelishdi: elxoniylar sultonni olib ketishib, o'rniga o'z odamlarini qo'yishibdi. Endilikda Ko'nyoning do'stlariga qanday munosabatda bo'lishi noma'lum edi. Usmon G'ozixon bir muddat harakat qilmay diqqat bilan kuzatdi. Ko'nyodan va uning atroflaridan ko'chmanchilar kela boshladi. Bu bir necha oy davom etdi. Qayi yerlariga qurolli va qurolsiz, keksa va yosh, dehqon va hunarmand, olim va joxil, yaxshi va yomon, axloqli va axloqsiz minglab odamlar kelib joylashdi.

Bu ko'chishning dastlabki paytlaridagi bir necha voqea Usmon G'ozixonni ogohlantirgandi: kelganlarni o'z holiga tashlab qo'ymas, qat'iy buyruq bilan oilalarni bo'lib tashlamaslik sharti ila bir-birlaridan uzoqroq yerlarga joylashtirdi. Navkarlarni ham bo'lib, uchtadan, beshtadan qilib, turli beklarga topshirdi. Eng muhimi, navkar, baqqol, hunarmand, ayol-erkak barcha ko'chmanchilarning Qayi urf-odatlariga o'tishlarini talab qildi. Boshqacha yo'ltutganlar haydab yuboriladi, deb shart qo'ydi.

Dastlabki ikki yil ichida ahvol ancha og'ir kechdi. Bozorlarda ishlar chalkashib ketdi, bezovtaliklar, notinchliklar, ko'ngilsizliklar, janjallar yuz berdi. Ammo bu nosozliklar uzoq davom etmadi. Talabchanlik bilan amalga oshirilgan tadbirlar tartib-intizom va jipslikni mustahkamladi.

Dastlab ko'zga ko'rinmagan, lekin qisqa vaqt ichida natijalari ma'lum bo'lgan Ko'nyo ko'chmanchilari va O'g'uz xalqi orasida o'zaro manfaatli hamkorliklar qaror topdi. Dehqonchilikdan temirchilikka, duradgorlikdan zargarlikkacha bo'lgan yo'l bosib o'tildi.

[1] **Enishehir** — Yangi shahar.

Usmon G‘ozixonning o‘zi ham jang qilish uslublari borasida ancha narsa o‘rgandi. Lekin uni eng qiziktirgan narsa Saljuqiylarning boshqarish usuli edi. Shu boisdan ham ko‘chib kelganlar orasidagi o‘qishni, yozish-chizishni biladigan va jang qilishga moxir navkarlarni o‘z atrofiga to‘pladi.

Shu tariqa Usmon G‘ozixon o‘lkalarida po‘lat toblash, arava o‘qini sozlash, tom yopish, teri oshlash, urug‘ yetishtirish, ota-bobolardan qolgan ishlash usullari yangi vositalar bilan boyitildi. Bog‘-rog‘lar tiklandi, mevali daraxtlar ekildi. Har bir sohaga yangiliklar kiritildi. Kasalliklarni davolash usullari o‘zgardi.

OY HAM BOTADI

Vaqt o‘tayapti. Usmon Fozixon esa harakatsizlikka mahkum. Shunga qaramay, u sabrsiz emas. Shoshma-shosharlik qilmayapti. Bezovta bo‘lmayapti. Jizzakiligi ko‘rinmayapti. Sarkash daryo soxilidagi tik koyaga uxshaydi. Vaqt sarkash daryo misoli, Usmon G‘ozixon bo‘lsa go‘yo bir qoya va hamisha shunday qoladiganday, U Ko‘nyodan kelgan olimlar va ko‘pni ko‘rgan odamlar bilan tez-tez suhbatlashib turar, miyasida g‘ujg‘on o‘ynayotgan fikrlar haqida savol so‘rar, javoblarini diqqat bilan tinglar, keyin shunga qarab tadbirlar belgilardi.

Ana shunday so‘rab-surishtirishlar va suhbatlardan tashqari, Usmon G‘ozixon uzlatga chekingandek tutadi o‘zini, uzoq uy surib, jim yuradi, bir o‘zi ot choptirib goh suv sohilida, gohida tepa ustida paydo bo‘ladi, goho bir o‘zi o‘tirib nay chaladi.

U yozning dastlabki kunlaridan birida eng aziz o‘rtoqlarini, Oqcha Xo‘ja Qo‘nur Alp, G‘ozi Rahmon, Saltuk va Sungurni yig‘di. Ularni kulib qarshiladi. Ular bilan kechirgan shirin damlaridan so‘z ochdi va oxirida so‘rab qoldi:

— Ey mening bahodir jo‘ralarim, rosa qarib qoldikmi, deyman?

Keyin u o‘tgan kunlarni eslatib turuvchi bir jamiyat qurish istagida ekanini aytdi.

— Sizlar tayyor bo'lib turinglar, tong otmasdan yo'lga tushamiz,— dedi xon.

Xuddi o'sha kuni kechga tomon o'g'li Alouddin Bilajikdan kelib qoldi.

— Xon hazratlari, bobom shayx Ada Boli sizni ko'rmoq istaydi.

Shayx Ala Boli og'ir betob. Ko'zini yumsa o'limiga ishonib yotibdi. Usmon G'ozixonni so'nggi bor ko'rib qolay, deydi.

Xon safdoshlariga:

— Niyatim-niyat, unutmagizlar. Agar taqdir bo'lsa, qaytishda amalga oshiramiz, — dedi-da, Bilajikka ot qo'ydi.

Ada Boli tepalik yonbag'ridagi uyida, vodiyga qaragan ayvonida yarim xushsiz yotibdi. Boshi uzra Yulduz Xotun, Malhun Xotun, Mahmul, Xusomiddin Turg'ut, Qumral Abdal, ikki kelini bilan uch nabirasi o'tirishibdi.

Kumral Abdal egilib, qulog'iga pichirladi:

— Shayxim, xon o'g'lingiz keldi.

Ada Bolining lablaridan bir soya misol, holsizgina jilmayish sezildi. Ko'rpaning ustida turgan qo'lini uzatmoqchi bo'ldi, lekin qimirlata olmadi. Usmon G'ozixon tushundi. Uchta katta qadam tashlab yoniga bordi, tiz cho'kdi, boshini o'girib unga qarashga kuch topdi, kulimsirab:

— Aytgandim, xon... qo'l o'pma, — dedi. So'ng qizi Malhun Xotunni qo'lini ushlab lablariga olib bormoqchi bo'ldi. Qiziq, Ada Boli qo'lini tortdi, ko'rsatishga urinib shivirladi:

— Yozdim.

— Sizga xat yozganlar, menda, — dedi Malhun Xotun.

Ala Boli xuddi shuni eshitish uchun o'limga oyoq tirab turgandek Usmon G'ozixonning qo'lini qisishga urinarkan, jon taslim qildi.

Pichirlab Qur'on o'qiyotgan Kumral Abdalning ovozi yuksaldi. Usmon G'ozixon O'rxonni bobosining ko'z qovoqlarini erkalaganday, asta yopti. Unga bir muddat qarab turdi. Oyoqda turgancha boshini egib, duo o'qib, qo'llarini yuziga tortdi.

* * *

Usmon G‘ozixon Malhun Xotunni so‘lgun, holsiz, bemajol ko‘rdi. Yolg‘iz qolishlari bilan uni bag‘riga bosdi, sochlarini siladi, o‘pdi, erkaladi. Uni nima deb yupatishga so‘z topolmasdi.

— Ey mening baxtim-quvonchim; ey O‘g‘uzning umidi; yaxshi uxlamayapsanmi, yaxshi ovqatlanmayapsanmi? — demoqchi bo‘ladi. Lekin o‘zining ahvoli ham yaxshi emasligini his etadi. Endi bir-birlarini quchoqlab, bag‘irlariga bosishgach, ahvol o‘zgardi, Malhun Xotun qolgan kuch-quvvatini unga singdirmoqchi bo‘layotganga o‘xshaydi.

* * *

Shayx Ada Bolining janozasi juda sodda o‘tdi. Jamoa orasida oh-voh qilganlar, hayajonli tug‘yon o‘rganlar bo‘lmadi. Hech kim gap-so‘z qilmadi. Shayx Ala Boli go‘yo ular orasida. Hamma bir-birida shayxni ko‘rayotganday, uni yonlarida his qilayotganday edi.

Usmon Fozixon shuni yaxshi sezmoqdaki, shayx Ada Boli dunyoni bir butun qilganlardan, vaqtning oltin zanjiriga halqa bo‘lganlardan edi. U shayxning o‘ziga qoldirgan xatini o‘qir ekan, uni yodlagan va takrorlayotganday bo‘ladi. Xuddi xatni ancha yil burun yod olganu tuyg‘ulariga, o‘ylariga singdirgan, shu xatga qarab ish qilganday, O‘rxon bilan shu xatga binoan gaplashganday edi. Go‘yo bu xat oddiy bir maktub emasu, u unuta olmaydigan usha Sivriqoya kechasidan buyog‘iga Usmonchaga tomchi-tomchi singigan Ada Boliday, uning harakat dasturi, ko‘zining nuri bo‘lganday edi.

So‘ngra Usmon G‘ozixon xatda Ko‘nyo sultonlarini ko‘rganday, Erto‘g‘rulbek g‘oziyni, Jonqizni ko‘rganday, Go‘kcha bajini, O‘ruz darveshni, Qumral Abdalni. Shayx Faqini, Qora Guna bekni va boshqa qardosh beklarni va xutba o‘qigan Dursun Faqini va uni tinglagan jamoani, safdoshlarini va barcha navkarlarini, erkagu ayol barcha urug‘ini ko‘rganday bo‘ldi.

Uning ko‘z o‘ngiga shayxning Sivrikoyadagi kulimsirashi va aytgan gaplari keldi:

— Dunyoni bizga katta ko‘rsatayotgan bizlarning qichkinaligimiz, bolam. Jahlimiz, sabrsizligimiz, manmanligimizdir. Xuldi

shular tufayli kichiklashamiz, keyin esa dunyoni juda katta kuramiz...Qara, osmonga qara...Yulduzlarni ko'rayapsanmi? Millionlab yulduzlar... Sen juda katta deyayotganing dunyo, mana shu ko'rib turganing yulduzlarning eng kichkinasining yonida tirnog'ing uchichalik ham kelmas ekan...

To'g'ri, dunyo juda katta, juda ham ulkan. Lekin bu faqat bir umr uchun. Faqat bitta inson uchun bu buyuklik. Bir urug' uchun emas. Bir maqsad, bir e'tiqod, bir mafkura uchun emas, bu buyuklik. Dunyoning bunday maqsadlarga, e'tiqodlarga, mafkuralarga ochiq bo'lgan davrlari bo'ladi. Dunyo xuddi shunday davrda hozir. Dunyo shunday bir urug', shunday bir maqsad, shundaybir e'tiqod, shunday bir mafkurani kutayapti.

— Nima bo'ldi, nimani o'ylab qolding? — so'radi undan Sungur.

— O'rxonbekka aytadigan gaplarim bor, Sungur og'ayni, shularni o'ylayapman.

Usmon G'ozixon shayx Ala Bolining xatini O'rxonbekka yuborishga qaror qildi.

Elxoniylar shimol va shimoliy g'arb bilan qiziqishmadi. Ko'nyodan orqaga qaytishdi. Usmon G'ozixon ham yengil tortdi. Endi u tinch va xotirjam. Hali qiladigan ishlari ko'p. Shu boisdan tinibtinchimayli. Bu orada yana bir tashvish paydo bo'ldi, bu uning sevikli tulpori Benlibuz edi. Benlibuz ancha qaridi. Endi avvalgiday chaqqon va tez chopolmaydi. Usmon Fozixon keyingi paytlarda yenishehirning xirmon joyida uch yashar bir toy bilan mashq qilayapti. Xuddi otasining o'zi. Lekin mashqlar davomida Usmon Fozixonning undan jahli chiqdi:

Tavba, biror ishga yaramaysan, otang qaerda-yu, sen qaerda! — deb baqirib berdi. Holbuki, toyning sagrisini kerib, oyok olishlarini kuzatib turganlar:"Mosholloh", "Ofarin" deyishdan o'zlarini tiyisha olmasdi. Arg'umoqning nomini "Ikkinchi" quyishdi. Benlibo'z birinchi bo'lsa, bu ikkinchi bo'lsin, deyishdi-da. Oradan ko'p o'tmay Benlibo'z o'ldi. Uning o'limiga Usmon Fozixon rosa qayg'urdi. Uning qayg'usi, Fam-Fussasi boshqacha edi. Zero, Ikizja, Ko'prulixisor, Aydos, Bilajik, Inonyu, Itbo'rnini qo'lga kiritishda Usmonga, Usmonbekka, Usmon g'oziyga, Usmon G'ozixonga

madadkor bo'lgan Benlibuz edi. Bu ot uning jangovar yo'ldoshi edi, axir!

* * *

Ada Boli vafotidan uch hafta o'tgach, Usmon G'ozixon safdoshlarini yig'di.

— Ma'lumki, mening qayg'ularim bor, deb, unutmanglar deganimni eslang. Tayyor bo'linglar. Ertaga tong otishdan oldin yo'lga chiqamiz.

Hammaga xabar qilinib, jam bo'lishdi. Ikkovi o'ng tomonidan, uchovi chap tomonida G'ozixon besh yo'ldoshi bilan otlarni yo'rttirib. — Mening tilagim boqiy. Tayyor bo'linglar.

Avval janubga qarab yurishdi. Safdoshlari Inago'lga boryapmiz, deb o'ylashdi. Ammo oradan ko'p o'tmay Usmon G'ozixon ot tizginini g'arbga burdi.

Osmonda ingichkalashib, hilolga aylana boshlagan oy nur sochardi. O'rmonlar dengizini eslatuvchi qir-adirlarni aylanib, vodiylardan o'tib, daryolardan kechib, past-baland tepaliklardan oshishdi. Oy endi xira tortgandi. Ko'k yuzi lajuvard tusga kirib, tong oqarib kelardi.

Oldilarida shimolga qarab cho'zilgan va borgan sari yuksalib borayotgan ulkan tog' ko'zga tashlanardi. Ko'p o'tmay tog' yonbag'riga burilishdi. Sharq yorishib kelardi. Bulutlar oqarib, purtahol tusini olmoqda. Xuv, pastda, o'ng tomondagi yashil vohani tuman qoplabdi. Har yer, har yerda uchqunlar ko'zga tashlanadi. Ana, tilladay tovlanib oftob chiqmoqda.

Xullas, yana bir o'q otimi qadar yurilgach, Usmon G'ozixon otning tizginini tortdi. Sheriklari ham to'xtashdi.

Usmon G'ozixon qo'lini shimolga uzatdi:

— Bursa, — dedi.

Ko'zlari chaqnab aytdi bu so'zni. Bursa tomon cho'zilgan qo'li xuddi eng uzun qilich singari, go'yo Bursa ustida turganday. Qo'li ham hali ochiq, go'yo Bursani hovuchiga olmoqchiday.

Usmon G'ozixonning ko'kragi, xuddi oti emas, uzi chopganday ko'tarilib tushardi. Hayajonlangani ko'zlaridan ham, jilmayishidan ham sezilib turardi.

— Ko‘k kumush, — dedi Usmon G‘ozixon. — Qara, Rahmon, qara, Sungur, qara, Oqcha Xo‘ja, Saltuk, Qo‘nur, qaranglar, hu anavi Kubba - Minora ham kumush.

Jim qoldi. So‘ng yuragi xapqirib, buyurganday qo‘shib qo‘ydi: “Men o‘lgach, o‘sha kumush minoraning tagiga ko‘minglar”.

Keyin xayajoni bosildi, otidan asta tushdi. Hamrohlari ham otlaridan tushishdi.

Bursaga oqib boruvchi irmoq shu yerdan boshlanardi. Ular yarim doira qurib o‘tirishdi. Hisorni qurshab olgandek edi o‘tirishlari. Baland qal’a devorlari ichidagi shahar, ular o‘tirgan joydan Usmon G‘ozixonning ulkan hovuchiga sig‘adigan bir javohirlar sandig‘iga o‘xshardi.

Quyosh yuksalmoqda, osmon moviylashib, vodiy yashil tusga kirmoqda. Olisdan ko‘rinib turgan Qubba esa endi hovuchga olingan kumushday porlab turardi. Usmon G‘ozixon Minoradan ko‘z uzmay yana takrorladi:

— O‘lganimdan keyim meni usha Kumush Minoraning tagiga ko‘minglar. Uning labidan uchgan bu kalima mayin, lekin qat’iy iltimos va vasiyatday jarangladi.

* * *

Usmon G‘ozixon Avval Iznikni olish kerak, deb o‘yladi va chalg‘imasdan Iznik ustiga yurish qildi. Chunki Iznik qal’asi juda mustahkam va yaxshi mudofaa qilinayotir. G‘ozixon uni hujum qilib qo‘lga kirita olmasligini yaxshi tushunardi.

— Anavi yerga tezda qal’a qurilsin, — dedi. U oti ustida turganicha qo‘lini Iznik janubidagi tepalikka uzatdi.

Usmon G‘ozixon ko‘rsatgan joy Kora Tegin edi. U aytgan qal’a o‘sha joyda qurildi. Iznikning yo‘li yopildi, endi unga kirib ham, chiqib ham bo‘lmasdi.

Usmon G‘ozixon qal’ani Toz Aliga topshirdi.

Jangda yuz yog‘iydan yuz o‘girmas — bu Toz Alining laqabi edi. Usmon G‘ozixonning buyrug‘i bilan jangga kirishni u o‘ziga baxt deb bilardi. Xullas, ikki yuz nafar sarboz bilan Iznikdan tashqariga, tashqaridan Iznikka biror qush uchgani yo‘l qo‘ymas, ko‘lda qayiq suzdirmas edi. Bu orada, Usmon G‘ozixon buyrug‘iga

binoan qal'a tashqarisidagi qishloqlarga teginmas, aholiga yaxshi munosabatda bo'lar, mushkullariga ko'maklashar, oralarida do'stona aloqa o'rnatardi.

Ish shu darajaga borib yetdiki, Iznik atrofidagi qishloqlarda yashovchi aholi qal'a himoyachilarining shahardan chiqib, hujumga o'tgan paytlarida Toz Alining yonida turib jang qila boshladilar. Iznik navkarlariga va shahar xalqiga murojaat qilib:

— Kelinglar, bechoralar... Kelib bizlarga qo'shilinglar va rohatda yashanglar, bizlar endi rohat-faroratdamiz, — deya tashviqot qila boshladilar.

Usmon G'ozixon Qora Tegindagi bu qal'a yordamida vodiyni qo'l ostida ushlab turish va imkon boricha harakat qilishi uchun O'rxonbekni yerhisorda qoldirdi. Iznikdan kelgan elchilar Toz Aliga:

— Begingiz bilan gaplashish niyatidamiz, — deganlaridan so'ng, u bu vaziyatni O'rxonbekka bildirdi.

O'rxonbek Kora Teginga yetib keldi. Elchilar unga:

— Bizlar bilan bitim tuzing, toki xalqimizga ziyon-zahmat yetmasin, —deyishdi va niyatlarini bayon etishdi: - Ketadiganlarimiz ketishsin, qolishni istaganlar qolaversin. Hisorni sizlarga topshiramiz.

Shunda O'rxonbek Foziy Toz Ali va uning sarbozlarining qo'rboshilariga tayinladi:

— Xonimiz Usmon Foziy otam menga: mardlik g'azotning eng yaxshisidir, degan edi. Garchi hisor taslim bo'lishga tayyor ersa-da, eng xayrlisi omon qoldirib taslim qilishdir. Mayli, bular aytganiday bo'lsin, ketgan chiqib ketsin, qolishni xohlaganlar qolaversin. Bizlar tomondan hech kimga ziyon yetkazilmasin.

Toz Ali ham, unining bo'luk boshliqlari ham baravariga:

— To'g'ri aytayapsiz-deyishdi.

So'ngra yelchilar bilan kelishib olindi.

Uchrashuvda kelishilganidek, ertasi kuni ertalab takfur, yonila rafiqasi ikkita yosh o'g'li, shuningdek, Iznikdan ko'chib ketishni xoxlagan erkagu ayol— ikki yuz chamasi kishi Istanbul darvozasidan chiqdi. O'rxonbek g'oziy qo'shib bergan sarbozlar ularni olib ketadigan kemagacha kuzatib qo'yishdi.

Ular jo'nab ketishgach, O'rxonbek g'oziy uz sarbozlari bilan Iznikka Yonishehir darvozasidan kirdi. Uni din peshvolari va shaharda qolganlarning ulug'lari kutib olishdi, yo'llarda ko'plab xalq saflangan, ularning aksariyati xotin-qizlar edi. Ular O'rxonbek g'oziyni olqishlar edilar. O'rxon shaharning bosh ruhoniysiga yuzlandi.

— Bularning podshohi o'lib, men podshoh bo'lib qoldimmi?— deb so'radi.

Bosh ruhoniy mayus jilmayib:.

— Mardlik va bahodirlik hamma uchun podshoxdir, — dedi.

O'rxonbekg'oziy:

— Balli, — haq gap, — dedi.

Keyin uni ulkan va juda ko'rkam bir bog'ga boshlab borishdi. Xalq ham o'sha yerga to'plandi. Ular orasidan oldinga yugurib chiqqan yosh qizcha qo'li bilan O'rxonbek g'oziyning sarbozlarini ko'rsatib qichqirdi:

— Ushbu Ikyulos bog'i hech qaysi yozda bunchalik gullamagandi.

Bog' uzra yangragan olqishlar hammaning bu chiroyli qizcha fikriga qo'shilganidan dalolat berardi.

Nihoyat, o'sha kuni ko'pchilik musulmon bo'ldi. O'rxonbek sarbozlaridan ko'plari izniklik go'zal qiz va bevalarni nikohlab oldilar. O'rxonbek G'oziy ushbu uylanganlarga Iznikning eng shinam uylaridan hadya qilib berdi. Katta cherkovning jome masjidga, bir monastirning masjidga aylantirilishini, yenishehir darvozasi oldida bitta imorat tiklashni buyurdi. Bobosi shayx Ala Bolining muridlaridan Xo'ja Hasanni avlodlariga qolishi sharti bilan shayx qilib tayinladi.

— Ey, bobomning yodgori, buyugim, — dedi unga. — Menga Iznik Vizantiyaning ilm manbaidir, deysiz. Sizdan tilagim shulkim, Izniklayana bir bino — madrasa quring va uni Uguzning ilm markaziga aylantiring Iznikning taslim bo'lgani haqidagi xabar tez orada butun Vizantiyaga yoyildi, imperatorlikni larzaga soldi. Imperator Bursa takfuriga jahl bilan tez harakat qilib, turklarga qarshi yurish boshlashni buyurdi.

Vazir Barsuk buning shart ekanini takfurga ko'pdan beri tushuntirishga urinar, lekin hech gap uqtirolmasdi. Takfur bo'lsa o'z

idroksizligini boshqa ayblari bilan birga qo'shib, ularni vazirga to'nkadi-da, uni o'zidan uzoqlashtirdi, shu tariqa Istanbulga nisbatan o'z ahvolini o'nglab olganday bo'ldi. Bu orada esa Adranos, Keta, Bidnos va Kestel takfurlarini yig'ilishga chaqirdi.

Usmon G'ozixon Bursaga xabarchilar yuborib, yangi darakchilar ham topib qo'ygandi. Yig'ilish o'tar-o'tmas takfurlar bir bitimga kelishib harakatga kirishganini bilib oldi. Darhol barcha safdoshlari va qardosh beklarni yig'di. Takfurlar yo'lga tushishlari bilan Usmon Fozixon ham bayroq ko'tardi.

Ikki qo'shin Qo'yun hisori[1] oldida yuzma-yuz keldi.

Jang shu paytgacha ko'rilmagan bir shiddat bilan boshlandi va bir necha kun davom etdi. Bu shafqatsiz olishuvda Usmon G'ozixonning jiyani, Qunduzbekning o'g'li Oytug'di Adranos takfuri bilan qilichbozlik qilayotib shahid ketdi. Bu qayg'u jiyani Boyxo'ja va akasi Savji haqidagi alamiga qo'shilib, Usmon G'ozixonning dardini battar alangalatdi. Eski yarasi yangilanganday bo'ldi. Qancha urinmasin, jangda o'sha takfur bilan yuzlashish yo'lini topolmadi.

Takfurlar qo'shini to'zitib yuborildi. Shahid ketganlar o'chi olindi. Usmon Fozixon endi:

— Bursa! — derdi, — Bursaga!

Faqat hali hal qilinishi kerak bo'lgan hisob-kitoblar bor edi.

Hali jang davom etarkan, Usmon G'ozixon qochibqolgan Bursa takfuri ketidan quvishning foydasi yo'q, deb topgan va ro'parasidan chiqibqolgan Kestel takfurini qilichdan o'tqazib, uning sarbozlarini tum-taraqayotganidan so'ng, O'rxon bilan olishayotgan Adranos kushinning o'ng qanotiga tashlandi. Buni ko'rgan Adranos takfuri qo'shini boshida qochishga tushdi. Usmon G'ozixonning tovushi jang-u jadal na'ralarini, otlarining kishnashi, qilichlarning sharaqlashi bosib ketdi:

— Qo'ymanglar, u menga tiriklay kerak...

Lekin tuta olishmadi. Adranos takfuri Ulubot ko'prigidan o'tgan, Ulubot qal'asiga yashiringan edi. Ulubot takfuri ham daryoning narigi sohilida edi.

[1] **Qo'yun hisori** — Quyi qal'asi.

Usmon G'ozixon daryo sohiliga kelib otining tizginini tortdi. Vaziyatni chamalab ko'rdi. Ko'prikdan o'tmoqchi bo'lsa, narigi sohildagilar o'q yog'dirishlari turgan gap. Chaqirdi:

— Ey, takfur! Senga aytayapman. Qochib, qal'angga yashiringanni menga topshir. Agar bermasang, ko'l boshidan aylanib kelib, butun elingni qonqaqshataman.

Takfur bir muddat o'ylab turadi-da:

— Kelishaylik,— dedi.

G'ozixon "tilaging nima?" deb so'ragach, shartini aytdi:

— Sen va sening naslingdan birortasi ushbu ko'prikdan o'tmasagina qochoqni tutib berishim mumkin.

G'ozixon "roziman" degach, Adranos takfuri qo'l-oyog'i bog'liq holda qochoqni keltirib topshirildi. Uni Keta qal'asi qarshisiga olib borib, burda-burda qilib tashlashdi. Sungur bor ovozi bilan baqirib:

— So'zi ustidan chiqmay, dushmanlik yo'lini tutganlarning holi mana shu! — dedi.

Xalk qal'aning darvozalarini ochib berdi.

Usmon G'ozixon "Bursa" derdi, Bursani o'ylardi. Bursani qo'lga kiritish juda qiyin ekanini o'ylardi. Yo'q, bu shaharni jang bilan olib bulmaydi. U buni yaxshi tushunardi.

Lekin Bursa olinishi kerak. Bursa mutlako olinishi shart... va G'ozixon so'nggi uyqusiga o'sha yerda yotishi kerak!

Bir kuni bosh ustalarni chaqirib amr etdi:

— Hisorning ikki tomoniga Qora Tegindagidan ham mustahkam qal'a tiklaysizlar. Ichkaridan tashqariga, tashqaridan ichkariga qush ham uchibo'tolmaydigan bo'lishi kerak.

Darhol ishga kirishildi. Qor, qish demay ishlashdi, bahor oldidan qurib bitkazishdi.

Usmon G'ozixon qal'alardan birini jiyani Oq Temurga, ikkinchisini Balaban degan bayotlik yigitga topshirdi. Bularning ikkalasi ham keyingi jang-u jadallarda o'zlarini ko'rsatgan sofdil, jasur odamlar. Ular o'z vazifalarini bajarishga kirishdilar.

* * *

Vaqt o'tayotir. Usmon G'ozixon va uning safdoshlari keksayib bormoqda. Qo'shinda yosh g'oziylar lashkarboshi bo'lib

yetishmoqda. Ularning sabri chidamaydi: zafarga tashna bari. Har bir g'alabadan keyin yana zafar kuchish ishtiyoqi kuchayadi. Ko'pi O'rxonbek bilan tengdosh. Oralarida ulardan yoshlari ham bor.

Ana shulardan beshtasi bir kun Usmon G'ozixonning huzuriga kelishdi. Qo'nur Alpning o'g'li Qora Alp gap ochdi:

— Muhtaram xon, — dedi. — Alhamdulilloh, kofirlar mag'lub, musulmonlar g'olibdir. Chunki sizningdek serg'ayrat xonimiz bor. Bundan buyog'iga chekinish joiz emas.

Bu gapdan keyin Usmon G'ozixon jiddiy o'yga toldi: Vaqti kelayapti. Endi bayroqni topshirish kerak. U Sivriqoya kechasini esladi. Ada Bolini xotirladi. G'oziyxon bayroqni topshirish navbati kelganini his etmoqda.

U Malhun Xotunni, Zumrad Anqoni o'ylay boshladi. Malhun Xotunning so'ngi uchrashuvdagi so'lg'inligini, holsizligini xotirladi. O'z ahvolini o'ylab qoldi.

Navbat: bayroq topshirilishiga!

Endi G'ozixonning navbati, bayroqni topshirish kerak. Chunki G'ozixon bu o'ylarida, ushbu xotirlashlarida Usmonchalan Usmon G'ozixonni yetishtirgan idrokini yangilagandi.

Shunday qilib, Usmon G'ozixon dastlab yoniga Ko'sa Mixal, Saltuq, Oqcha Xo'jani olib G'azovotga borgan bo'lsa, endi yoshlarga o'z qonun-qoidalarini singdirgan biror safdoshini ko'shib, O'rxonni, Qora Aulini. Ilolmishnig'azotga jo'nata boshlagandi. Keyin-keyin bu ishlarni O'rxonbekning yolg'iz o'ziga qo'yib bera boshladi.

— Shu muddat ichida Nilufar Xotun O'rxonbekka bir o'g'il, G'oziyxonga nevara tug'ib berdi. Usmon hayotining eng buyuk, eng muqaddas murodiga yetish uchun uning ismini Murod qo'ydi.... So'ngra nevarasining o'g'li— evarasini ko'rgan Yulduz Xotun vafot etdi.

Usmon G'ozixon tepasida o'tirib duo o'qiydigan mozorlar ham ko'payib qoldi. Ko'p o'tmay u Qo'nur Alp va Saltuq bilan Dursun Faqini tuproqqa berdi. Hademay Usmon Benlibo'z singari seva boshlagan arg'umog'i Ikkinchi ham o'lib qoldi. Uning uchun Benlibo'z qaytadan o'lganday bo'ldi, endi u tanlagan tulpor Gunishigi

edi. Ehtimol bu tulpor otlar ichida eng sarasidir. Lekin, G'ozixon uni mingisi kelmaydi, ko'rgisi yo'qqa o'xshaydi.

Usmon G'ozixon faqat bittagina narsani istaydi. Negadir ana shu istagiga sira qarshi borolmaydi. Nihoyat u o'sha ko'rishni istamagan, mingisi kelmagan Gunishigini so'rattirdi va yoniga yolg'iz Sungurni olib, yo'lga tushdi. Yo'l-yo'lakay G'ozixon sira gapirmadi. Uning boshida ming bir xayol charx urardi. Usmon G'ozixon uchun bugungi kun ham, kelajak ham go'yo bittagina masala, yagona istakdan iborat edi. Bu masala esa uning Bursada, Kumush Minora ostida so'nggi uyquga ketish, maxsharga o'sha yerda uyg'onish edi. Do'sti Sungurning ushbu yo'lchilikda sezgani, tushungani shu bo'ldi.

Ular avvaliga Inonyuda qo'ndilar. Keyin kallayi saharda, bomdod namozini o'qir-o'qimas yo'lga tushib, Itburniga borishdi. U yerda Ada Bolining xonaqohiga kirishdi. Xonaqoh ko'p yillar burun qanday ko'rgan bo'lishsa, o'shandayligicha saqlanib qolgan, hozir ancha jonlangan edi. Ularni xonaqohning shayxi — Ada Bolining o'g'li, Alouddinning murshidi. G'ozixonning qayni Mahmud kutib oldi.

G'ozixon Sungurni Mahmudning ixtiyoriga qoldirib, o'zi zina bilan mehmonxonaga ko'tarildi. U Malhun Xotunni ilk marotaba ko'rgan deraza yoniga bordi. Zumrad Ankosini dastlab ko'rgan o'sha chorboqqa qaradi. Ko'z oldiga o'sha damlar keldi, ana Malhun Xotun, ana uning sevimli Zumrad Ankosi. O'shandau qanday ahvolga tushgan bo'lsa, hozir ham shunday bir holatni boshidan kechirmoqda.

Usmon G'ozixon o'sha mehmonxonada, devorida Qur'on xaltachasi osig'liq, otasi Erto'g'rulbek g'oziy tikka turib tong ottirgan xonada, tokchasida Vizantiya va Saljuqiylar tangalari topilgan xonada yotib qoldi. Bu xonada u faqat Malhun Xotunni ilk bor ko'rganini emas, o'g'li O'rxonbek zarb ettiradigan tangalar haqida ham o'ylardi.

* * *

Keyin ertasiga, yana ertalab, tong shafag'ida yo'lga tushishdi. So'g'udga borishdi. Butun So'g'ud ahli oyoqqa turdi, ularga pesh-

voz chiqdi. Shunda G'ozixon So'g'udning o'ziga nisbatan alohida mehrini tuydi. U ushbu qadrdon shaharda boshqacha g'urur, boshqacha ishonch his etdi.

G'ozixon So'g'udda onasi Jonqizning, ot minishni o'rgatgan Qora Teginning, yoy ustasi — shirin so'z Oq Temurning qabrlarini ziyorat qildi, gullariga suv qo'ydi. So'ngra O'rxonning temirchi ustasi keksayib qolgan Hamdining huzuriga bordi, hol-ahvol so'radi. Kechani esa Malhun Xotun bilan chimildiqqa kirgan uyda o'tkazdi. Shundan keyin yo'llarida davom etib, Tepapinar, Domanich, Sivrikoya, Harlaq, Ikizjani aylanganlaridan so'ng, Bilajikda bo'ldilar va u yerdan Malhun Xotunni olib yenishehirga qaytishdi.

Betinim yelish-yugurishlar o'z ta'sirini o'tkazgandi. G'ozixon o'zini ancha oldirib qo'ygandi. Malhun Xotun ham oldingi holida emas, keksaygan, so'lib qolgandi. Shunga qaramay, G'ozixonga parvona bo'lardi: u olis yo'l yurib, og'rib yotib qolgandi.

Malhun Xotun Bursani qamal qilib turgan O'rxonbekka xabar yubordi:

— Xon otangning ahvoli og'ir, tezda yetib kel...

* * *

Yenishehirga O'rxonbekdan oldin Nilufar Xotun o'g'li Murod bilan, Alouddin rafiqasi Gulnoz va qizi Amina bilan, Jonqiz Fotima eri Qora Do'g'an va o'g'li Erto'g'rul bilan kelishgandi. O'rxonbek Gozixon yotgan xonaga kirganida otasi quchoqida nabirasi Murodni erkalar, ikki tomonida Erto'g'rul bilan Jonkiz Fotima turishardi.

G'ozixon ro'parasida O'rxonbekni ko'rgach, butunlay o'zgardi. Sal oldingi quvnoqlikdan asar ham qolmadi. Tamoman jiddiylashdi, hatto xavotirlanganday bo'ldi.

Bursada nima gap? — so'radi shoshib.

O'rxonbekning qamalni tashlab kelganidan tashvishda edi, chunki uning kelishini kutmagandi.

O'rxonbek darrov tuptundi, hech narsa deya olmay, o'girilib, orqasida turgan onasiga qaradi. Shunda G'ozixon ham gap nimadaligini tushunib, kulimsiradi:

— Kela qol, — dedi.

O‘rxonbek tiz cho‘kib, otasining qo‘lini o‘pli. Usmon G‘ozixon unga nabiralarini ko‘rsatdi:

— Qaysi birini ko‘proq yaxshi ko‘rishni bilolmay turibman, bolam. Bu mening Murodim. Bu onam — Jonqizni, bu esa otam — Erto‘g‘rulni yodimga solayapti.

Endi hamma shu yerda. Burla Xotun, Bonu Chechak, ularning yonlarida Boyxo‘java Oyna Malak ham tushga yaqin yetib kelishgandi. G‘ozixon ularning hammasiga bir-bir qarab chiqdi, yangalarining kelinlik paytlarini, ularning baxtiyor onlarini, qayg‘uli damlarini esladi; jiyanlarini, o‘z farzandlari va nabiralarining tug‘ilishlarini, o‘zining quvnoq va g‘am-g‘ussali kunlarini xotirladi.

Nihoyat Usmon G‘ozixon bularning bir nechtasidan tashqari, shunday baxtiyorlik va o‘z baxtining asl nashu namosini to‘la totib ko‘rolmaganini, ichiga singdira olmaganini o‘yladi, ichi achiganday bo‘ldi, so‘ngra hammasiga, ayniqsa, Malhun Xotunga nisbatan o‘zini aybdor his etganday bo‘ldi; o‘zini ularning hayotidan tashqarida yashaganday sezdi. Go‘yo Malhun Xotunning ham, boshqalarning ham sevgisini o‘g‘irlaganday tuydi o‘zini.

U mehrini, sevgisini, ulardan, ayniqsa, Malhun Xotundan o‘g‘irlagan, Qayiga bergan edi. Qayiga va O‘g‘uzga qarzdor bo‘lib qolmay deb, bulardan, Malhun Xotundan qarzdor bo‘lib qolganedi.

Usmon G‘ozixon bir sira yakkama-yakka qolgan paytda qizi Fotimaga:

— Ey, mening go‘zal qizim, meni qo‘y, onang sho‘rlikka qara. Uning ahvoli chatoq, — degandi.

Ko‘rib turibman, — degandi Fotima ham.

Usmon G‘ozixonning tashvishi yanada ortdi.

* * *

Vaqt shom bilan xufton orasi. Kechki nonushta qilinib, ko‘hna So‘g‘ud va Domanichda o‘tgan kunlardan gaplashib, qariyb unutilayozgan bir qator ajoyib voqealarni eslashdi. O‘tgan voqealar, onasi va otasining uyda va chodirda yashagan damlari Usmon G‘ozixon ko‘z o‘ngidan bir-bir o‘tdi. Jo‘ralari Qo‘nur Alp, G‘ozi Rahmon, Oqcha Xo‘ja, Saltuq va Sungurning bolalik chog‘larini, birgalikdagi o‘yinqaroqliklarini esladi.

Bolalarning ko‘zlari yumila boshladi. Malhun Xotunni ham uyqu elita boshladi. U esa uxlamaslikka urinib, o‘zini qiynayapti. G‘ozixon:

— Olib borib yotqizinglar bolalarni, — dedi.

Hammasi chiqib ketayotganda O‘rxonbekni to‘xtatdi:

— Ey, o‘g‘lim, birpas to‘xta.

Ikkovi yolg‘iz qolishdi. G‘ozixon:

— Yaxshilab eshit, o‘g‘lim, — deya boshladi so‘zini. — Senga aytadiganlarimni aytganman. Tilaklarimni gapirganman. Bobong — ulug‘ Ala Bolining xatiniham berganman. Bu yog‘ini shariat va urf-odatlar bo‘yicha olib boraverasan. Lekin, modomiki, onang vasiyat payti keldi deb hisoblar ekan, sazasi o‘lmasin, xotiri jam bo‘lsin. Senga vasiyatim shunday: Xatto onang bo‘lsa ham, kimda-kim senga Tangri buyurmagan narsani gapirsa, sen uni qabul qilma. Aslini bilolmasang, Tangri ilmini bilguvchilardan so‘ra. Senga itoat qiluvchilarga yaxshi munosabatda bo‘l. Haq va haqiqat tomoni bo‘l. Fozilu fuzalolarga, hunarmandlarga hamisha e’tiborli bo‘l. Sarbozlarning doimo oldida yur. Tag‘in, senga xizmat qilayotgan nasroniylarga mudom ehsonlar berib tur, toki sening ehsonlaring ularga tuzoq bo‘lib tursin.

Jim qoldi. Keyin qo‘lini O‘rxonbekning yelkasiga qo‘yib, boshini ungatomon engashtirdi. Endi ular bir-birining ko‘zlariga tik qarardilar. Usmon G‘ozixon bosiq ovozda:

— O‘g‘lim! — dedi.— Men o‘lganimdan keyin Bursaga, o‘sha Kumush Minoraning ostiga ko‘mgil. Bursani qo‘lga kirit!

U chuqur nafas oldi-da, qo‘shib qo‘ydi:

— Bora qol, o‘g‘lim! Tong otishi bilan yo‘lga chiq. Bursada azon o‘qimayturib qaytib kelma!

* * *

Bursa qattiq qarshilik ko‘rsatayotir. G‘oziylar Bursa atrofida yozlar, qishlar, bahorlarni o‘tkazishmoqda.

Usmon G‘ozixon o‘rnidan turdi, ammo Gunishig‘iga minolmayapti. Minsaham, besh-o‘n o‘q otimidan oshiq yurolmayapti. Bursaga borolmayapti. Buning evaziga Bursa bilan yenishehir o‘rtasida xabarchilar ko‘prigi qurishga muvaffaq bo‘ldi. Endi,

bir necha oydan beri Bursadan, O'rxonbekdan xabar olib turibdi. U ko'pincha Sungur bilan yolg'iz qoladi, chunki Oqcha Xo'ja va G'ozi Rahmonhali g'azovot bilan yurishibdi. Sungur Bursa ostonalarida jang qilolmaganidandilgir. Alam qilganidan badfe'l va qurs bir odamga aylanib qoldi. Duchkelgan odamga baqirib-chaqirib, qo'pol gapirmoqda, diliga ozor bermoqda. G'oziyxon keksa do'stiga achinib qarab qo'yarkan:

— Hoy, Sungur, — dedi. — Axir, biz shuncha ish qildik. Ko'ngil rohatlanishi va orom olishi lozim. Buncha kuyinishning ne keragi bor?

* * *

Bir kuni ertalab, mazasi qochgan Malhun Xotun oshxonada bazlama pishirayotgan tandir tepasida turgan joyida ingramasdan, biror tovush chiqarmasdan o'tirib qoldi-yu, jon taslim qildi. Odamlar to'plandi, dafn marosimini bajarishdi. G'ozi Rahmon azon aytdi. Yaxshi Faqi Quron o'qittirdi. Malhun Xotunni tobutga solib, qabrga qo'yishdi. Mozorga tuproq tortishdi. G'ozi Rahmon va Yaxshi Faqi Qur'on o'qirkan, G'ozixon tuproq tortardi.

Lekin ayni shu damda, u sevgili va mehribon yori qabriga tuproq tortarkan, hozir mana shu yerda emasdek, go'yo oshxonada, tandir tepasida yiqilib qolgan va hamisha o'sha yerda yolg'iz qoladigan uning o'zi — Usmon G'ozixondek edi.

G'APIB BIR YO'LOVCHI

O'lim edi bu kelayotgan. Azroilning oyoq tovushlari edi eshitganlari. Usmon G'ozixon buni yaxshi bilib turibdi. Malhun Xotunni ko'mganlaridan beri bir oycha vaqt o'tdi. Azroil boshi uzra turibdi. Lekin u hali o'limga tayyor emas.

Bir dard tirnar edi uning ichini. Kechayu kunduz labi pichirlaydi. Allohdan yana bir oz muddat berishni so'raydi... bir mujda uchun... o'sha joyla, o'sha Kumush minoraning ostida yotishini bilish uchun... o'z urug'iga umid qilgan mafkuraning ro'yobga chiqishiga ishonish uchun!

Usmon G‘ozixon faqat shundagina, faqat Bursa olinsagina ko‘ngil rohatligiga erisha oladi. Faqat shundagina tabassum bilan: “Xush kelding, shodlik olib kelding, deya o‘ladi Azroilga; chunki faqat shundagina tayor bo‘la oladi Munkar-Nakirga; chunki faqat shundagina u Allohning o‘ziga bergan umrni, kuchni, baxtni oqlay olganiga, yaxshi va to‘g‘ri ishlatganiga ishongusidir. Bodomlar gulga kirgan va Usmon G‘ozixon chidab bo‘lmas og‘riq tutgan navbatdagi xurujlarning birida boshini o‘ngdan chapga burarkan, derazaga, derazaning nariyog‘idagi pushtirangga burkangan daraxtlarga ko‘zi tushdi.

Shunda u shirin so‘zli, quvnoq tabassumli Oq Temurni eslab, ming‘irladi:

— Biz ayozga chidadik!

Chidashdi, lekin yetishtirgan mevalari qaerda?

Og‘riqlar azob bermoqda. Qimirlashga holi yo‘q, lekin mevalari qaerda?

Bu savolga javob topolmay, holsizligiga qaramay, g‘azab bilan silkinib qo‘ydi:

— Meni Bursaga ko‘minglar.

Bursaga, Bursa ostonalaridagi O‘rxonbek g‘oziylariga eshittirish uchun qichqirmoqchi bo‘ldi, lekin zo‘rga ingray oldi, xolos. Buni o‘zi ham angladi va alamidan o‘zi yotgan kigiz ustida qaddini rostladi va qo‘llarini cho‘zdi. Munchaham uzun bu qo‘llar... yetti qadam narida, eshik tashqarisida, bir kalimayi shahodatlik masofada turgan Azroilning chalg‘isiga yetadi, mahkam ushlab, xudi Kalanozning qilichi singari ikkiga bo‘lib tashlaydiganga o‘xshardi.

Bir yonida Sungur, ikkinchi tomonida G‘ozi Rahmon, shoshilib... va qo‘rqib ketib qo‘llarini ushlashdi: o‘limni kutishayotgani aniq.

G‘ozixon buni ko‘rib turibdi va “Ol-i Imron” surasidan o‘qigan bo‘ldi:

— Har bir jon faqat Allohning izni bilan va aniq belgilab qo‘yilgan muddatda o‘ladi...

U kelayotgan o‘limdan qo‘rqmaydi, qayg‘urmaydi ham, faqat bir oz ma’yuslik bor, iltijo bor: “Ozgina muddat ber, mujdaga yetadigan muddat, xolos.”

U yotgan xona jimjit... butun atrof suv quygandek jim...

Ana mo'jiza — tuyoq tovushlari. Dunyoning eng uchqur ot tuyoqlarining tovushi... kelayotir uning quloqlariga.

Sungur yugurib tashqariga chiqdi va o'sha zahoti orqasiga qaytdi:

— Suyunchi, xon! Bursa bizniki! Muborak bo'lsin!

Behol bo'yni unga burildi. Nursiz ko'zlarida tabassum aks etdi.

Hazillashganday:

— Kech qolding, Sungur, — deb qo'ydi.

Chunki ot tuyog'ining tovushlaridan olgan edi bu mujdani, bu suyunchini. Tuyoqlar tovushini yaxshi tushunardi Usmon G'ozixon. Ko'pdan-ko'p yurishlarda, kechami, kunduzmi, tuyoqlar tovushini eshitaverib, suyunchimi yo yomon xabar, bilar edi u.

O'sha uzun qo'llar, baquvvat qo'llar endi go'dak qo'llariga o'xshab qolgandi. Kurakday-kurakday yirik qo'llar go'dak qo'llariga aylangan edi. Shu jajji qo'llarini ko'kka ko'tardi...

Usmoncha... Usmonbek... Usmonbek g'oziy... Usmon G'ozixon duo o'qir, shukronalar aytar, kulimsirab eshikka qarardi. Eshikdan kirib kelayotgan endi Azroil — emas, yana birozdan so'ng qovushadigan ko'ngil sultoni, Zumrad Anqosi — Malhun Xotun bo'lib ko'rinardi ko'ziga.

Va Usmoncha, Usmonbek, Usmonbek g'oziy... Erto'g'rulbek g'oziy o'g'li Usmon G'ozixon endi tayyor, xushchaqchaq, baxtiyor. Og'riqlari, sanchiqlari to'xtadi, qaqshashlari butunlay yo'qoldi. Qoshlari kerilgan, lablari qimtilgan. Hozir his qilib turgani faqat bir narsa — horg'inlik. Qattiq charchaganga o'xshaydi. O'xshaydi emas, ayni shunday.

Usmon G'ozixonning yirik ko'zlari yumilayapti. Biroq quyuq qoshlari, uzun kipriklari, qattiq mo'ylovi, qirg'iy burni va qoramag'iz yuzi kulimsirayapti.

— Uxlayapti, — deyishdi.

Holbuki, Usmon G'ozixon ko'zlarini yumganicha huzur bilan o'tgan kunlarini eslayapti. Bir-bir xotirlayapti, eshitganlarini, ko'rganlarini, sho'xliklarini, haqiqatning yuzaga chiqishini... Uning xotiralari Ulutog'dan G'ozixon endi davrining ikki uchini —

tasbeh singari birlashtirgan. Endi uo‘z davriga Burguttepadan Qayi ko‘chishiga qaraganday nazar solayapti.

Hamma va har narsa bir-bir utayapti uning ko‘z o‘ngidan. Ana Usmoncha...yo‘ldoshlari bilan... Ana Ada Boli, jilmaymoqda... Mixail Kosses, Mahmudbek va Az-Zohid bosqini... Ana Itburnidagi xonaqoh, mehmonxona, Malhun Xotun ko‘ringan deraza. Harlaq keldi ko‘z o‘ngiga. O‘ruz darvesh, ko‘ppagi Bo‘zo‘g‘lon bilan. Ana Ikizja, Yog‘li bozori, Aydos, Qo‘yun hisori, Inago‘l, Chaqirpinari, Bilajik, Yorhisor va boshqalar, qilichlar sharaqlashi, na’ralar, ot kishnashlari, shahid ketganlar... Boyxo‘ja, Savjibek... janoza marosimlari, yaylovga ko‘chishlar, to‘y-tomoshalar... Bonu Chechak... Saniya... Nilufar... hamma-hammasi o‘tayapti ko‘zi o‘ngidan.

Ha, hamma-hammasi, Tepapinardagi sehrli tushi bilan birga, Ada Boli, Malhun Xotun, Zumrad Anqo, O‘rxonbek bilan birga... Va Usmon G‘ozixon yuzida usha sehrli tushining ziyosi tufayli kulimsirayapti. Uzun va quyuq kipriklari bir titradi-yu, to‘xtab qoldi; qimirlayotgan lablari qotib qoldi.

Erto‘g‘rulbek g‘oziy o‘gli, Jonqizdan tug‘ilgan Usmon G‘ozixon so‘nggi bor nafas oldi. Ruhini Bursaga, Kumush Minoraga uchirdi.

Yaxshi Faqi:

— Boqiy faqat Allohdir, — dedi.

Qur’on o‘qiyotgan G‘ozi Rahmonning ovozi yuksalib borardi.

USMON G‘OZIXONDAN QOLGANLAR

Usmon Fozixonni Yaxshi Faqi bilan jandarlik Qora Xalil yuvib kafanlashdi va tobutga qo‘yishdi. Uni So‘g‘udga olib borishdi, chunki O‘rxonbek:

— Bursaga vaqt erta, — degan edi.

Shayx Ahi Shamsiddin, Ahi Hasan Qorao‘g‘lon singari Ko‘nyo donishmandlari ham ishtirok etgan marosimda ko‘plab odam qatnashdi, lekin yig‘lagan, ingragan, faryod urib, fig‘on ko‘targanlar bo‘lmadi.

Ko‘sa Mixal mozorga tuproq tashlayotgan O‘rxonbekka qarar-kan, Erto‘g‘rulbek g‘oziyning qabri tepasidagi Usmonbek g‘oziyni ko‘rganday bo‘ldi, ko‘zlarida yosh halqalandi.

Ertasi kuni fozilu fuzalolar O‘rxonbek g‘oziy va Alouddinbek boshchiligida butun oilani yig‘ishdi.

— O‘lim haq, meros halol, — deyishdi.

Shundan keyin Usmon G‘ozixon qoldirgan mol-davlat hajmi hisob-kitob qilindi:

Usmon Fozixonning Denizli gazlamasidan sallalik bo‘zi, Ola-shehir to‘qimasidan bayroqlari, qini va dastasi odmi bir qilichi, bir sadoq, birnayza, bir juft uzun qo‘njli etik, bitta tuzdon, bitta qoshiqdon, Sultono‘nida va yenishehirda sakkizta chopqir oti, mehmonlar uchun boqilayotgan ikki suruv qo‘yi bor edi! Qolgan shular... Tillasi, kumushi, aqchasi yo‘q edi uning!

Ko‘sa Mixal bularni ko‘rgach, uning qo‘lga kiritgan qan-chadan-qancha o‘ljalarini, xususan, takfurning oltin uyumini esla-di. Yaxshi Faqi ham, o‘sha juma, jome masjidida:

— U dunyodan g‘arib bir yo‘lovchi singari o‘tdi, — dedi.

Usmon G‘ozixon hamma narsani O‘g‘uz uchun qilgandi, O‘g‘uzga bergandi. Ayni paytda Usmon G‘ozixon O‘g‘uz uchun alohida o‘g‘li O‘rxon va nabirasi Murodni qoldirgandi.

TAMOM

MUNDARIJA

Tariq Bug‘ra va turk romanchiligi *(Adhambek Alimbekov)* 3

Usmon G‘ozixon. *Roman* 9

T 24 Tariq Bug‘ra [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Adhambek Alimbekov. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 264 b.
ISBN 978-9943-8724-9-3

UO‘K 821.512.161-3
KBK 84(5Turk)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

TARIQ BUG‘RA

52-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimon
Fayzi Shohismoil

Muharrir *Sunnat Xo‘jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sharofat Xurramova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 16,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 16,5.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 16-1/22 Buyurtma raqami № 22-335

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TARIQ
BUG'RA